O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KARIMOVA E’ZOZXON GAPIRJANOVNA

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

(Monografiya)

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2026

UO‘K 378.018.4
KBK 74.5
N 15

Mas’ul muharrir:
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Tarantey V.P. – pedagogika fanlari doktori, professor;
Mamarajabov M.E. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ismanova A.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Mazkur monografiyada multimadaniyatli ta’lim muhiti va bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘zaro aloqadorligi, pedagogik tolerantlik tuzilmasi va tavsifi, tolerantlik muammosi kontent tahlili va pedagogik jihatlari; raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, modeli hamda uni amalga oshirishning shart-sharoitlari; bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini elektiv kurs vositasida rivojlantirish texnologiyasi, onlayn ta’lim va innovatsion texnologiyalar asosida bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi, raqamli platforma orqali bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti yoritib berilgan.

Monografiya raqamli va tolerantlik pedagogikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar, professor-o‘qituvchilar, magistrantlar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, monografiyadan ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan barcha mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9910-678-80-6

© Karimova E’zozxon Gapirjanovna, 2026
© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026

SO‘ZBOSHI

Jahonda bo‘lajak pedagoglarda moslashuvchan (Soft) va maxsus (Hard) ko‘nikmalarni rivojlantirishning gumanitar texnologiyalarini ishlab chiqish, tolerantlikka asoslangan ta’lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish asosida bo‘lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlash modellari va metodikasini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, ko‘pmadaniyatli va raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning kommunikativ, kognitiv, faoliyatli va aksiologik komponentlarini oliy pedagogik ta’lim mazmuniga vertikal va gorizontal yo‘nalishlar bo‘yicha integratsiyalash, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tolerantlikni takomillashtirishning metodik tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda raqamli va multimadaniy muhitda bo‘lajak pedagoglarda tolerantlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirish, kasbiy-pedagogik muhitda tolerantlik sifatlarini tashxis etish, permanent stajirovka vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini shakllantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, ekzistensial, devirsifikatsion, kognitiv, bixiveorizm, dialogik, fasilitativ, ijtimoiy-madaniy yondashuvlar asosida hamda jamiyatga va ijtimoiy sohani o‘rganishga intilish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xosliklarini aniqlashtirish, samarali birgalikdagi faoliyatni tashkil etish orqali pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish kabi masalalar, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda ta'limni modernizatsiyalash jarayonida oliy ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi malakali, raqobatbardosh, barkamol, mas'uliyatli, o'z kasbini mukammal biladigan, tegishli faoliyat sohalariga yo'naltirilgan, samarali faoliyat yurita oladigan, jahon standartlari darajasida doimiy professional o'sishga tayyor, ijtimoiy va professional mobillikni namoyon etgan mutaxassislarni tayyorlashda namoyon bo'ladi. "Yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish"[1] ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu esa, bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual asoslarini yoritib berish, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik modeli va metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar[2] jahon miqyosidagi yirik ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jum-

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон.

[2] Mazkur bandni yozishda quyidagi manbalardan foydalanildi: Awang, M. M., Kutty, F. M., and Ahmad, A. R. Perceived Social Support and Wellbeing: First-year Student Experience in University // International Education Studies. – 2014, vol 7, pp. 261–270.; Aguado-Odina, T., Mata-benito, P., and Gil-Jaurena, I. (2017) Mobilizing intercultural education for equity and social justice. Time to react against the intolerable: A proposal from Spain. Intercultural Education. Vol 28, page 408- 423.; Kim, J., and So, K. (2018). Understanding the "Other": Rethinking Multiculturalism in South Korea through Gadamer's Philosophical Hermeneutics. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 102-117.; Lawyer, G. (2018). The Dangers of Separating Social Justice from Multicultural Education: Applications in Higher Education. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 86-101.

ladan: Tennesi universiteti, Stenford universiteti, Chikago universiteti; Amerika sotsiologik assotsiatsiyasi (AQSH); Malaya universiteti (Malayziya); Milliy masofaviy ta'lim universiteti (Ispaniya); Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya); Chungnam milliy universiteti (Janubiy Koreya); Moskva davlat universiteti (Rossiya), O'zbekiston milliy pedagogika universitetida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha jahonda qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, quyidagi ilmiy natijalar olingan: oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarda multimadaniy kompetensiyalarning shakllanganligini baholash va o'lchash uchun yangi metodologiyalar ishlab chiqilgan (Tennisi universiteti); bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarning rivojlanganligini tashxis etishga doir maxsus anketalar va baholash vositalari ishlab chiqilgan (Stenford universiteti); permanent stajirovkalarni tashkil etish orqali bo'lajak pedagoglarda tolerant pozitsiyani rivojlantirishning didaktik tizimi takomillashtirilgan (Chicago universiteti); interfaol o'qitish metodologiyalari va muammoli yondashuvlar orqali talabalarda inklyuziv-tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish modellari ishlab chiqilgan (Amerika sotsiologik assotsiatsiyasi); onlayn ta'lim platformalari va raqamli vositalardan foydalanish orqali tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirilgan (Malaya universiteti); ko'p madaniyatli muhitda talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlari aniqlashtirilgan (Milliy masofaviy ta'lim universiteti); global ta'lim bilan bog'liqlikda talabalarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish arxitektonikasi ishlab chiqilgan (Kembrij universiteti); ta'lim sotsiologiyasiga ustuvorlik berish orqali talabalarning tolerantlik tafakkutirini rivojlantirishning psixologik determinantlari aniqlashtirilgan (Chungnam Milliy Universitet)i; bo'lajak pedagoglarning tolerantlik sohasiga doir tadqiqotlar o'tkazishga maqsadli tayyorlash, ta'lim va amaliyot birligi asosida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan platforma yaratilgan (Moskva davlat universiteti); bo'lajak pedagoglarning

tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning loyihaviy ta'limga asoslangan va event texnologiyalari tizimi ishlab chiqilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti).

Jahonda raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: aralash ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini pedagogik loyihalash konstruktini takomillashtirish; muammoga asoslangan va loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish; kollaborativ ta'lim vositasida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning edukologik tizimini takomillashtirish; tolerantlikka asoslangan ta'lim muhitida raqamli texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlarini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz", "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz"[3], O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"[4] kabi asarlari tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tolerant shaxsni tarbiyalash masalasiga qadimgi davrlardanoq alohida e'tibor qaratib kelingan. Erkinlik, inson shaxsiga hurmat, uning individualligi kabi qadriyatlar tizimi bilan bog'liqlikda mazkur fazilat noyob hodisa sifatida eng qadimgi davrlardayoq yuzaga kelgan. Jumladan, "Avesto"dagi axloqiy tarbiyaning asosini terisining rangi, tili va yashash manzilidan qat'i nazar poktiynat, halol, qalban sof insonlarni tarbiyalash masalasi tashkil etadi. "Pok va beayb tug'ilmoq, yoziqsiz dunyoga qadam qo'ymoq odamlar taqdiri

[3] Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 592 б.

[4] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 36 б.; Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.

va tirikligida nechog‘li ulug‘ toledir. Odamning odobliligi, jahonning osoyishtaligi uchun jiddu jahd qilmoq, uni asramoq va yorug‘likka tomon eltmoq kerak”[5], degan fikrning o‘zidayoq, shaxsiy tolerantlik yorqin ifoda etilgan.

Shuningdek, “Qur’oni karim” va “Hadisi sharif”da ham insonning bag‘rikengligi, mehr-muravvat ko‘rsata olishi kabi sifatlar ulug‘lanadi. Masalan, hadislarda boshqa dinlarga mansub bo‘lgan kishilarga tazyiq o‘tkazish, qoralash katta gunoh ekani aytilib, odamlarni bunday illatlardan yiroq yurishga da’vat etiladi: “Kimki musulmon mamlakatida yashovchi boshqa dinga mansub kishini haqorat qilsa, qiyomat kuni o‘tdan yasalgan qamchi bilan savalanadi”, “Kimki sulh bitimi bilan yashayotgan g‘ayridinni o‘ldirsa, u jannatning bo‘yini ham hidlamaydi”, “Qora tanli xalqlarni ham do‘st tutaveringlar, zero, ulardan uchtasi jannat ahlining ulug‘laridan bo‘lurlar: Luqmoni Hakim, Najoshiy, Muazzin Bilol Habashiy”[6].

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabilarning asarlarida ham tolerantlik fazilatining muhim jihatlari yoritib berilgan. Masalan, Ibn Sino insoniyatning kelib chiqishi bir ekanligini ta’kidlab, irqiy motivlarga asoslangan har qanday zo‘ravonlikni qoralaydi. Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida xalqlarni do‘st, inoq, ittifoq bo‘lib yashashi, madaniy-ma’rifiy hamkorligi va hamjihatliligiga xalaqit beradigan urushlarni afsuslanib tilga oladi. U xalqlar o‘rtasida to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatishda milliy va diniy chegaralanishni bartaraf qilish lozim, degan g‘oyani ilgari surdi. Tasavvuf ta’limotining yetuk namoyandalaridan biri Abdulxoliq G‘ijduvoniy bag‘rikenglik – xilmaxillik va rang-baranglikni qabul etish, ularga umumiy go‘zallikning bir jabhasi sifatida qarab, e’zozlab, ular bilan uyg‘un bo‘lib yashashdir, deb hisoblaydi.

Respublikamizda tolerantlik pedagogikasi bo‘yicha R.M.Medetova (2020, milliy an’analar asosida o‘quvchilarda tolerantlikni shakllanti-

[5] Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. / А.Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.26.

[6] Ал Бухорий Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил. Ҳадис: Ал-жомеъ ас-Саҳиҳ (Ишонарли тўплам). 4 жилдлик. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1991, 1992, 1994, 1996.

rish), G.R.Akramova (2007, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari), G.E.Kushakova (2020, yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish texnologiyasi)[7]lar maxsus tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda N.Muslimov, O.Musurmonova, B.Xodjayev, M.Vahobov, M.Mirsoliyeva[8] kabi olimlar katta hissa qo'shishgan.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) mamlakatlari olimlari[9]dan V.N.Pavlenko tolerantlikni "boshqa odamlarning turmush tarzi, xatti-harakatlari, urf-odatlari, his-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan yumshoqlik" deb ta'riflagan. N.A.Medushskiy va M.A.Gordeyevalarning fikricha, "tolerantlik shaxsning biror shaxsni, bir guruh shaxslarni yoki umuman vaziyatni o'rtamiyona idrok etish xususiyati bo'lib, shaxs uchun ochiqchasiga tahdid bo'lmagan sharoitda obyektga nisbatan har qanday nafratni ongli ravishda

[7] Медетова Р.М. Формирование толерантности у школьников на основе использования национальных традиций: дисс. ... д-ра пед. наук (DSc). – Т., 2020. – 265 с.; Акрамова Г.Р. Бошланғич синф ўқувчиларида толерантлик тушунчаларини шакллантиришнинг дидактик асослари: пед. фан. ном. ...дисс. Автореф. – Тошкент, 2007. – 21 б.; Кушакова Г.Э. Ёшларда толерантлик тафаккурини шакллантириш технологияси (олий таълим муассасалари мисолида): фалсафа доктори (PhD) дисс. ... Автореф. – Самарқанд, 2020. – 50 б.

[8] Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фанл.докт. ... дисс. – Тошкент: 2007. – 357 б.; Мусурмонова О. "Таълим менежерининг касбий компетентлиги ва креативлиги" модулининг ўқув-услубий мажмуаси. – Т.: БИММ, 2015. – 288 б.; Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 314 б.; Вахобов М.М. Умумий ўрта таълим тизимида ўқитиш сифати мониторинги моделини такомиллаштириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 278 б.; Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлилигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2019. – 225 б.

[9] Павленко В.Н. Развитие толерантности: теоретический и эмпирический аспекты // Этнопсихологические и социокультурные процессы в современном обществе: материалы междун. научн. конф. – Балашов: «Николаев», 2013. – с. 404.; Медушевский Н.А., Гордеева М.А. Социальная толерантность в экстрасоциальном контексте // Вестник РГГУ. – №1. – 2014. – С.129-140.; Апресян Р.Г. Что такое «толерантность»: уточнение понятия // URL: http:// www.memo.ru/about/bull/b23/24.htm.; Сорокин П. А. Моя философия – интегрализм // Социологические исследования. – 1992. – № 10. – С.134-139.; Толерантность и согласие / Под ред. В.А.Тишкова. – М.,1997. – 301 с.; Валитова Р.Р. Толерантность как этическая проблема: дис. кандидат философских наук. – Москва, 1997. – 159 с.; Вульфов В.З. Воспитание толерантности: сущность и средства // Внешкольник. – 2002. – №6. – С. 12-16.; Мириманова М. С. Толерантность как проблема воспитания // Развитие личности. – 2002. – №2. – С.104-115.

bostirishdan iborat”dir. R.G.Apresyan tolerantlik mazmuni “bardosh qilish” tushunchasidan ancha kengayib borayotganligini ta’kidlab o‘tgan. P.A.Sorokinning fikriga ko‘ra, tolerantlik bugungi kunda, bir tomondan, anglangan, ikkinchi tomondan, faol munosabat sifatida shakllantirilgan xususiyatga mos keladi. Bu jarayonni “mehrli so‘zga uchmaslik, qo‘pol so‘zdan ranjimaslik” tarzida anglash to‘g‘riroq bo‘ladi. Biroq V.A.Tishkovning uqtirishicha, aqliy salohiyat yoki bilimning o‘zigina tolerantlik mezoni bo‘la olmaydi. R.R.Valitova tolerantlik tarbiyasi yoshlar ichida uchrab turadigan har qanday agressiv holatlarning oldini olishga qaratilishi zarur, deb hisoblaydi. B.Z.Vulfov tolerantlikka o‘rgatuvchi inson, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchi ana shunday muhim hayotiy qadriyatlarni o‘ziga sindirgan bo‘lishi lozimligi borasida so‘z yuritadi. M.S.Mirimanova esa, tolerantlikni insoniylikni ulug‘lash, “o‘zgani o‘zi sifatida anglash” qobiliyati deb e’tirof etadi.

Xorijlik olimlar[10]dan yaponiyalik Ayami Nakaya (2018, Overcoming Ethnic Conflict through Multicultural Education: The Case of West Kalimantan), isroillik Ilana Paul-Benyamin, Roni Riengold (2014, Multiculturalism in teacher education institutes – The relationship between formulated official policies and grassroots initiatives), gruziyalik Peggu Shannon Baker, AQSHlik Chelda Smizlarning ilmiy izlanishlarida tolerantlik multimadaniyatning tarkibiy qismi sifatida tavsiflanib, u o‘zgacha madaniyatga ega turli odamlar orqali universallik kasb etishi asoslab berilgan. Indoneziyalik olimlar Didin Sari-

[10] Nakaya, A. (2018). Overcoming Ethnic Conflict through Multicultural Education: The Case of West Kalimantan, Indonesia. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 118-137.; Paul-Binyamin, I., and Reingold, R. (2014). Multiculturalism in teacher education institutes–The relationship between formulated official policies and grassroots initiatives. Teaching and Teacher Education. Vol 42, page 47-57.; Shannon-Baker, P. A (2018). Multicultural Education Praxis: Integrating Past and Present, Living Theories, and Practice. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue, page 48-66.; Smith, C. (2014). Culturally relevant pedagogy in multicultural teacher education: A paradoxical objective (Unpublished doctoral dissertation). Minneapolis: University of Minnesota.; Saripudin, D., and Komalasari, D. (2015). Living values education in school’s habituation program and its effect on student’s character development. The New Educational Review. Vol.39, issue 1, page 51-62.; Berggren, N., and Nilsson, T. (2016). Tolerance in the United States: Does economic freedom transform racial, religious, political and sexual attitudes? European Journal of Political Economy. Vol 45, page 53-70.; Awang, M. M., Kutty, F. M., and Ahmad, A. R. (2014) Perceived social support and wellbeing: First-year student experience in university. International Education Studies. Vol 7, page 261-270.

pudin va Kokom Komolasarining (2015, Living values education in school's habituation program and its effect on student's character development) fikricha, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda hayotiy qadriyatlarni shakllantirishga tayyorlash kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning muhim ko'rsatkichi sifatida milliy identiklik masalasiga ratsional yondashuvni taqozo etadi. Shuningdek, madaniy va an'anaviy moslashuv omillarining o'zi ham tolerant xulq-avtor ko'rsatkichlari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Niklas Berggren va Tereza Nilsson (2016, Tolerance in the United States: Does economic freedom transform racial, religious … attitudes) hamda malayziyalik olimlar Mohd Mahzan Avang, Faridah Midin Kutti, Abdul Razaq Ahmad (2014, Perceived Social Support and Well Being: First-Year Student Experience in University)larning ta'kidlashicha, tolerantlik etnik idektiklik, o'ziga xoslik hamda madaniyatlararo kompetentlik ijtimoiy integratsiyasi va hammaslak bo'lishning zaruriy sharti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli soha vakillari tomonidan tolerantlik muammosiga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual-metodik asoslari maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini kompleks tadqiq etishni taqozo etadi.

I BOB. BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1-§. Multimadaniyatli ta’lim muhiti va bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘zaro aloqadorligi

Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish, ularda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtira olish, shuningdek, yangi g‘oya va texnologiyalarni mustaqil tahlil qilish hamda ularni tatbiq eta olish qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish orqali rivojlantirish muammosi bugungi kunda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarda, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1], degan fikrlari tadqiqotimizning tub mohiyatini tashkil etadi.

Bo‘lajak pedagoglarning ilmiy, innovatsion salohiyatga ega bo‘lishi, shiddat bilan rivojlanayotgan sotsial o‘zgarishlarga, sharoitlarga nisbatan moslashuvchan va sezgir bo‘lishini zamonning o‘zi talab

[1] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 146 б.

qilmoqda. Shuning uchun ham pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-tolerantlik kompetentligini zamonaviy talablarga mos tarzda rivojlantirish ta'limni tubdan isloh qilish hamda mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko'tarishning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarorida ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar qatorida:

- "har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatishi;
- o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarini keng joriy qilish;
- o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, ta'lim jarayoniga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish"[12] orqali bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ilg'or xorijiy tajribalardan keng foydalanishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida esa "mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish; davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta'lim

[12] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.

muassasalari tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazilishini ta'minlash"[13] kabi muhim vazifalar belgilab berilishi bu jarayonda bevosita ishtirok etadigan bo'lg'usi mutaxassislarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini dolzarbligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni ham O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Farmonda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unga ko'ra, bo'lajak pedagoglarni ijtimoiy-kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi bilan bog'liq qator muhim yo'nalishlar belgilab berildi. Jumladan:

- "davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanish;
- yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha

[13] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018-y., 07/18/3775/1313-son; 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son.

millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

- talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo'lida birlashtirish maqsadida ta'lim-tarbiyaning ta'sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e'tiborga olish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash"[14] va h.k.lar belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-son Qarori[15] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[16]da "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish" muhim vazifa sifatida belgilab berilgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-

[14] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.

[15] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги "Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4307-сон Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.05.2019 й., 07/19/4307/3079-сон.

[16] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги "Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 1059-сон Қарори 1-иловаси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон.

ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotganligi alohida ta'kidlab o'tilib, "targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish"[17] muhim yo'nalish sifatida belgilab berildi. Bu esa, bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual asoslarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[18]gi PF-73-son Farmonida yagona konseptual yondashuv asosida oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash siyosatini yuritish; pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash; pedagogik ta'limning uzviyligi va uzluksizligini, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari joriy etilishini ta'minlash; pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish; pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlari boshqaruv tizimini takomillashtirib borish maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining pedagog kadrlar tayyorlash sohasidagi ustuvor vazifalari sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni samarali hal etish pedagog kadrlar tayyorlash jarayonlarida zamonaviy ta'limiy trendlarga ustuvor ahamiyat qaratish, raqamli ta'lim muhitiga moslashuvchanlik va maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishni shart qilib qo'yadi.

Zamonaviy sharoitda Respublikamizda ta'limni isloh qilishdan ko'zlangan eng asosiy maqsad xalqarolashuv sharoitida bo'lajak o'qi-

[17] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги ПҚ-5040-сон "Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // "Халқ сўзи" газетаси, 2021 йил 27 март, N° 62 (7842).

[18] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 28 апрелдаги "Педагог кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-73-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.04.2025 й., 06/25/73/0389-сон.

tuvchilarda milliy va umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish, multimadaniy ta'lim muhiti va tolerantlikni rivojlantirish konvergensiyasiga erishishdan iboratdir. Dunyoda sodir bo'layotgan beqaror vaziyatlar o'sib kelayotgan avlodni tolerant munosabatlarga tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarda esa tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini shart qilib qo'ymoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad ham madaniy turfa xillikka ega jamiyatning ajralmas sharti sifatida tolerantlik muammosiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Xalqarolashuv, globallashuv, madaniyatlararo muloqotning jadal o'sib borishi o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy va madaniy muammolarni yuzaga keltirib qolmasdan, etnosentrik murosasizlikning turli ko'rinishlarini o'zida namoyon qilishi mumkin. Bu esa tolerantlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi tabiiy. Chunki intolerant shaxslar boshqa madaniy qadriyatlarni qabul qila olmaydi, ularga adovat ko'zi bilan qaraydi, turli etnik guruh vakillariga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladi. Birinchi Renessans davri yorqin namoyandasi Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida "Axmoqlik, davosi yo'q bir kasallikdir, shundayki, ularning e'tiqodicha, – deydi alloma, – dunyoda o'z yerlaridan boshqa yer yo'q, jinslaridan boshqa xalq yo'q, o'z boshliqlaridan boshqa podshohlar yo'q, o'zlaridagidan boshqa ilm yo'q va dinlaridan boshqa din yo'qdir. O'zlarini yuqori tutib, bema'ni harakat qiladilar va kibrlanib, bilimsiz qoladilar..."[19], deb ta'kidlab o'tgan bo'lsa, Garvard universitetining Jon Kennedi davlat boshqaruvi maktabida faoliyat yuritgan olim David Yanagizava Drott (2014, Propaganda and conflict: Evidence from the Rwandan genocide)[20] etnosentrizm mojarolarni kuchaytirib, omma ichidagi keskin harakatlar, hatto etnik tajovuzni yuzaga keltirishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan.

Murosasizlikning salbiy oqibatlarining oldini olish uchun bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarda zamonaviy ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar tizimi va tolerantlikni shakllantirishga doir kompetensi-

[19] Ҳошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: O'qituvchi, 2010. – Б.135.

[20] Yanagizawa-Drott, D. (2014). Propaganda and conflict: Evidence from the Rwandangenocide. Quarterly Journal of Economics. Vol 129, issue 4, page 1947–1994.

yalarni rivojlantirish zaruriyatini shart qilib qo‘yadi. Bu esa, pedagogik ta’limning mazmuni va strukturasini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonida muhim o‘rin tutadigan tolerantlik kompetensiyasi kasbiy kompetentlikning asosini tashkil etadigan tabiiy ehtiyojga aylanishi lozim.

Ispaniyaning Milliy masofaviy ta’lim universiteti professor-o‘qituvchilari Teresa Aguado, Patrisia Mata-Benito, Ines Gil-Jaurena (Mobilizing Intercultural Education for Equity and Social Justice. Time to React Against the Intolerable: A Proposal from Spain)[21], koreyalik mutaxassislar J.Kim, K.So (Understanding the “Other”: Rethinking Multiculturalism in South Korea through Gadamer‘s Philosophical Hermeneutics. International Journal of Multicultural Education)[22], AQSHning Tennesi universiteti professori Gloshanda Loer (The Dangers of Separating Social Justice from Multicultural Education: Applications in Higher Educatio)[23]larning fikricha, dunyo favqulodda bir vaziyatga duch kelmoqdaki, mazkur holat insoniyat oldiga adolatli va inklyuziv jamiyatni barpo etish uchun hissa qo‘shadigan o‘qitish shakllarini kooperativlik asosida ishlab chiqish vazifasini qo‘yadi. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy ta’lim o‘quvchilarni ko‘p madaniyatli, ko‘p millatli muhitda yashashga tayyorlash, ularda turli madaniyat va millat vakillari bilan muloqot qilish hamda hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolariga duch kelmoqda. Global fikrlashning rivojlanishi va jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvi ta’limda ham milliy, ham xorijiy madaniy an’analarni hisobga olishni taqozo etadi. Ana shunda multimadaniyatli ta’lim muhiti XXI asr chaqiriqlariga munosib javob bo‘la oladi. Shu bois, ushbu tadqiqotdan maqsad multimadaniyatli ta’lim muhiti va bo‘la-

[21] Aguado-Odina, T., Mata-benito, P., and Gil-Jaurena, I. (2017) Mobilizing intercultural education for equity and social justice. Time to react against the intolerable: A proposal from Spain. Intercultural Education. Vol 28, page 408- 423.

[22] Kim, J., and So, K. (2018). Understanding the “Other”: Rethinking Multiculturalism in South Korea through Gadamer’s Philosophical Hermeneutics. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 102-117.

[23] Lawyer, G. (2018). The Dangers of Separating Social Justice from Multicultural Education: Applications in Higher Education. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 86-101.

jak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur makon ekanligini ko'rsatishdir.

"Multimadaniyatli ta'lim muhiti" va "tolerantlik" atamalari tahlil obyekti sifatida ko'p tomonlama o'rganilgan. F.P.Xaritonova (2013, Polycultural educational space of the region and educational environment)[24] va J.A.Banks (2013, The construction and historical development of multicultural education)[25] kabi olimlarning ta'kidlashicha, multimadaniyatli ta'lim muhiti madaniyatlararo muloqotni faollashtirish, turli madaniyat vakillarining maqbul hamkorligi hamda bo'lajak o'qituvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. S.N.Gorshenininaning fikricha, "multimadaniyatli ta'lim muhiti"[26] fenomeni madaniy tarkibiy qismlarning rivojlanishini ta'minlaydigan hamda ularni interiorizatsiya qilish orqali o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhitda shaxsning o'z-o'zini anglashi va o'z-o'zini namoyon etishiga yordam beradigan ko'p qirrali munosabatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab va yaxlit tizimdir. O.V.Gukalenko[27]ning qayd etishicha, multimadaniyatli ta'lim muhiti yosh avlodda umuminsoniy va milliy madaniyatning turfa xilligi, ularning o'zaro ta'siri haqida obyektiv nuqtai nazarni rivojlantirishga yordam beradigan, shuningdek, o'zga madaniyat vakillariga nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, tadqiqotchi turli mintaqalardagi multimadaniyatli ta'lim muhiti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi va etnik xilma xillikni aks ettirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Tolerantlik muammosining o'rganilishiga e'tibor qaratsak, u turli nuqtai nazarlar asosida izohlanganiga guvoh bo'lish mumkin. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limoti bilan bog'liqlikda mazkur

[24] Харитонова Ф. П. Проект содержания процесса формирования этнопедагогической компетентности педагога в поликультурном образовательном пространстве // Вестник ЧГПУ. – 2013. – № 3. – С. 191–201.

[25] Banks, J. A. (2013) The construction and historical development of multicultural education, 1962–2012. Theory into Practice. Vol 52, page 73-82.

[26] Горшенина С.Н. Этнокультурные ценности как основа смыслообразования личности // Гуманитарные науки и образование. 2013. № 2 (14). – С.13-17.

[27] Гукаленко О.В. Поликультурное образование и профилактика ксенофобии в образовательной среде: Монография. – М.: ФГБНУ «ИИДСВ РАО», 2019. – 257 с.

fenomen juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etganligini ko‘rish mumkin. Masalan, tasavvuf ta’limotining yetuk namoyandalaridan biri Abdulxoliq G‘ijduvoniy tolerantlikni xilma xillik va rang-baranglikni qabul etish, ularga umumiy go‘zallikning bir jabhasi sifatida qarab, e’zozlab, ular bilan uyg‘un bo‘lib yashash, deb hisoblaydi. Abdulxoliq G‘ijduvoniy ta’limotining asl mohiyatini ham diniy tolerantlik tashkil qiladi. Abdulxoliq G‘ijduvoniy asos solgan xojagon tariqati yo‘li ham, uning “Maqsad as-solikin”, “Maslak al-orifin”, “Risolai sohibiya”, “Vasiyatnoma” asarlaridagi g‘oyalari ham insoniyatni tolenrantlikka da’vat qiladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Abdulxoliq G‘ijduvoniy tolerantlikni juda keng ma’noda talqin qilgan va uni umuminsoniy qadriyat sifatida e’tirof etgan.

Respublikamizda tolerantlik pedagogikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan R.M.Medetova (2020, milliy an’analar asosida o‘quvchilarda tolerantlikni shakllantirish)[28], G.R.Akramova (2007, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari)[29], G.E.Kushakova (2020, yoshlarida tolerantlik tafakkurini shakllantirish texnologiyasi)[30]larning ta’kidlashicha, ta’lim oluvchilarda tolerantlikni shakllantirishdan maqsad jamiyat a’zolari orasida shaxslararo munosabat madaniyatini tarkib toptirish hamda samarali hamkorlikdagi faoliyatni rivojlantirishdan iboratdir.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) mamlakatlari olimlaridan V.N.Pavlenko[31] tolerantlikni “boshqa odamlarning turmush tarzi, xatti-harakatlari, urf-odatlari, his-tuyg‘ulari, qarashlari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan yumshoqlik” deb ta’riflagan. N.A.Medushs-

[28] Медетова Р.М. Формирование толерантности у школьников на основе использования национальных традиций: дисс. ... д-ра пед. наук (DSc). – Т., 2020. – 265 с.

[29] Акрамова Г.Р. Бошланғич синф ўқувчиларида толерантлик тушунчаларини шакллантиришнинг дидактик асослари: пед.фан. ном. ...дисс. Автореф. – Тошкент, 2007. – 21 б.

[30] Кушакова Г.Э. Ёшларда толерантлик тафаккурини шакллантириш технологияси (олий таълим муассасалари мисолида): фалсафа доктори (PhD) дисс. ... Автореф. – Самарқанд, 2020. – 50 б.

[31] Павленко В.Н. Развитие толерантности: теоретический и эмпирический аспекты // Этнопсихологические и социокультурные процессы в современном обществе: материалы междун. научн. конф. – Балашов: «Николаев», 2013. – с. 404.

kiy va M.A.Gordeyeva[32]larning fikricha, "tolerantlik shaxsning biror shaxsni, bir guruh shaxslarni yoki umuman vaziyatni o'rtamiyona idrok etish xususiyati bo'lib, shaxs uchun ochiqchasiga tahdid bo'lmagan sharoitda obyektga nisbatan har qanday nafratni ongli ravishda bostirishdan iborat"dir.

R.G.Apresyan[33] tolerantlik mazmuni "bardosh qilish" tushunchasidan ancha kengayib borayotganligini ta'kidlab o'tgan. P.A.Sorokin[34]ning fikriga ko'ra, tolerantlik bugungi kunda, bir tomondan, anglangan, ikkinchi tomondan, faol munosabat sifatida shakllantirilgan xususiyatga mos keladi. Bu jarayonni "mehrli so'zga uchmaslik, qo'pol so'zdan ranjimaslik" tarzida anglash to'g'riroq bo'ladi. Biroq V.A.Tishkov[35]ning uqtirishicha, aqliy salohiyat yoki bilimning o'zigina tolerantlik mezoni bo'la olmaydi. R.R.Valitova[36] tolerantlik tarbiyasi yoshlar ichida uchrab turadigan har qanday agressiv holatlarning oldini olishga qaratilishi zarur, deb hisoblaydi. B.Z.Vulfov[37] esa, tolerantlikka o'rgatuvchi inson, ya'ni bo'lajak o'qituvchining ana shunday muhim hayotiy qadriyatlarni o'ziga sindirgan bo'lishi lozimligi borasida so'z yuritadi. M.S.Mirimanova[38] esa, tolerantlikni insoniylikni ulug'lash, "o'zgani o'zi sifatida anglash" qobiliyati deb e'tirof etadi.

Xorijlik olimlardan yaponiyalik Ayami Nakaya (2018, Overcoming Ethnic Conflict through Multicultural Education: The Case of West Kalimantan)[39], isroillik Ilana Paul-Benyamin, Roni Riengold (2014, Multiculturalism in teacher education institutes – The relationship

[32] Медушевский Н.А., Гордеева М.А. Социальная толерантность в экстрасоциальном контексте // Вестник РГГУ. – №1. – 2014. – С.129-140.

[33] Апресян Р.Г. Что такое «толерантность»: уточнение понятия // URL: http:// www.memo.ru/about/bull/b23/24.htm.

[34] Сорокин П. А. Моя философия – интегрализм // Социологические исследования. – 1992. – № 10. – С.134-139.

[35] Толерантность и согласие / Под ред. В.А.Тишкова. – М.,1997. – 301 с.

[36] Валитова Р.Р. Толерантность как этическая проблема: дис. кандидат философских наук. – Москва, 1997. – 159 с.

[37] Вульфов В.З. Воспитание толерантности: сущность и средства // Внешкольник. – 2002. – №6. – С. 12-16.

[38] Мириманова М. С. Толерантность как проблема воспитания // Развитие личности. – 2002. – №2. – С.104-115.

[39] Nakaya, A. (2018). Overcoming Ethnic Conflict through Multicultural Education: The Case of West Kalimantan, Indonesia. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 118-137.

between formulated official policies and grassroots initiatives)[40], gruziyalik Peggu Shannon Baker[41], AQSHlik Chelda Smiz[42]larning ilmiy izlanishlarida tolerantlik multimadaniyatning tarkibiy qismi sifatida tavsiflanib, u o‘zgacha madaniyatga ega turli odamlar orqali universallik kasb etishi asoslab berilgan.

Tolerantlik bo‘yicha transditsiplinar ilmiy tadqiqotlar XX asrning 90-yillarda amalga oshirila boshlangan. Siyosiy fanlar doktori N.A. Medushevskiyning “Tolerantlik va huquqiy madaniyat asoslari” (2014, Basics of tolerance and legal culture)[43] monografiyasida ta’kidlab o‘tilganidek, mazkur fenomenni olam manzarasini ifoda etishning o‘ziga xos shakli sifatida tolerantlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar ham to‘liq tasdiqlaydi. Olimning fikricha, tolerant munosabatni ifoda etadigan qadriyatlar tinchlik-osoyishtalik va tamaddunlarning saqlanib qolishining zarur sharti hisoblanadi.

Sankt-Piterburglik psixolog olimlar Pochebut Lyudmila Georgiyevna va Beznosov Dmitriy Sergeyevich[44]larning ta’kidlashicha, tolerantlik “o‘zaro hurmat – bir-birini tushunish – mavjudlikni qabul qilish” triadasiga asoslanib, madaniy qadriyatlarga muvofiq tarzda o‘z-o‘zini tiya bilish qobiliyati va bu harakatga nisbatan xohish-istakning mavjudligi, shuningdek, uyg‘un rivojlanish va fikrlarning xilma xilligiga intilishni o‘zida aks ettiradi.

Tsoraev Zaur Umarovich va Byazrova Djulyetta Baronovna[45]larning fikricha, tolerantlik obyektni sust qabul qilishni anglatmaydi, balki u

[40] Paul-Binyamin, I., and Reingold, R. (2014). Multiculturalism in teacher education institutes–The relationship between formulated official policies and grassroots initiatives. Teaching and Teacher Education. Vol 42, page 47-57.

[41] Shannon-Baker, P. A (2018). Multicultural Education Praxis: Integrating Past and Present, Living Theories, and Practice. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue, page 48-66.

[42] Smith, C. (2014). Culturally relevant pedagogy in multicultural teacher education: A paradoxical objective (Unpublished doctoral dissertation). Minneapolis: University of Minnesota.

[43] Медушевский, Н. А. Основы толерантности и правовой культуры / Н. А. Медушевский. – 3-е изд. – Москва: ЛЕНАНД, 2018. – 408 с.

[44] Почебут Л.Г., Безносов Д.С. Ассертивность и толерантность в межкультурном взаимодействии // Социальная психология и общество. – 2017. – Т. 8. – № 3. – С.8 -19.

[45] Цораев З.У., Бязрова Дж.Б. Толерантность как системообразующая ценность бытия современного поликультурного общества // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. – 2014. – № 2. – С.176-181.

tushunarsiz, noaniq, begona bir narsadagi umumiy jihatlarni faol izlash va ana shu mavhumlikni tushunish istagidir. Tolerantlik boshqalarning fikri, qarashlari yoki e'tiqodlariga g'ayritabiiy ravishda bo'ysunish sifatida talqin qilinmasligi kerak, aksincha, bu o'zga madaniyat, milliy va diniy e'tiqodga mansub odamlar bilan ijobiy munosabatga nisbatan faol axloqiy yondashuvdir. Mualliflar asosli ta'kidlab o'tganidek, zamonaviy multimadaniyatli jamiyatda tolerantlik tizim hosil qiluvchi hayotiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Irina Aleksandrovna Chistilinaning "Tolerantlik: konseptuallashtirish muammolari"[46] maqolasida ta'kidlanishicha, tolerantlik kommunikatsiyaga bog'liq bo'lib, u insonlarga nisbatan o'z noroziligini vaqtincha "unutishi", to'g'rirog'i, o'z e'tiborini unga yot bo'lgan farqli jihatdan uni tashuvchi shaxsga "qaratishi" kerak, shunda u umumiy xususiyatlarga ega inson shaxsini o'z tasavvuriga sig'dira oladi.

Indoneziyalik olimlar Didin Saripudin va Kokom Komolasarining (2015, Living values education in school's habituation program and its effect on student's character development)[47] fikricha, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda hayotiy qadriyatlarni shakllantirishga tayyorlash kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning muhim ko'rsatkichi sifatida milliy identiklik masalasiga ratsional yondashuvni taqozo etadi. Shuningdek, madaniy va an'anaviy moslashuv omillarining o'zi ham tolerant xulqatvor ko'rsatkichlari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Niklas Berggren va Tereza Nilsson (2016, Tolerance in the United States: Does economic freedom transform racial, religious … attitudes?)[48] hamda malayziyalik olimlar Mohd Mahzan Avang, Faridah Midin Kutti, Abdul Razaq Ahmad (2014, Perceived Social Support

[46] Чистилина И.А. Толерантность: проблемы концептуализации. // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. – № 3 (29): в 2-х ч. – Ч. I. – С. 192-195.

[47] Saripudin, D., and Komalasari, D. (2015). Living values education in school's habituation program and its effect on student's character development. The New Educational Review. Vol.39, issue 1, page 51-62.

[48] Berggren, N., and Nilsson, T. (2016). Tolerance in the United States: Does economic freedom transform racial, religious, political and sexual attitudes? European Journal of Political Economy. Vol 45, page 53-70.

and Well Being: First-Year Student Experience in University)[49]larning ta'kidlashicha, tolerantlik etnik idektiklik, o'ziga xoslik hamda madaniyatlararo kompetentlik ijtimoiy integratsiyasi va hammaslaklikning zaruriy sharti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokamalar jarayonidagi umumiy asoslarga tayangan holda aytish mumkinki, multimadaniyatli ta'lim muhiti quyidagi tamoyillarni o'zida ifoda etadi:

- maqbullik – o'z o'rnini belgilish, ochiq axborot psixologik xavfsizligi, o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyojni qondirish – shaxsiy daraja;
- mikroguruh a'zosi sifatida shaxsning rolli-maqomli, e'tirofli, hurmatga ega bo'lish, shaxslararo tolerantlik kabi ehtiyojlarini qondirish – mikromuhitli daraja;
- jamiyat a'zosi sifatida shaxsning ijtimoiy, hayot faoliyati xavfsizligi, moddiy farovonlik kabi ehtiyojlarini qondirish – makromuhitli daraja.

Mazkur darajalar tolerantlik muhitini yaratish imkoniyati bilan bevosita bog'liq. Ulardan kamida bittasiga amal qilmaslik murosasiz xatti-harakatlarga olib keladi. Hurfikrlilik hukm suradigan muhitda tolerantlik kompetensiyalariga ega bo'lajak o'qituvchi shaxsini tarkib toptirish masalasi ta'lim tizimi hamda jamiyat ijtimoiy-madaniy va ma'naviy hayoti birligining dolzarb muammolarini hal qilishning in'ikosi sifatida "multimadaniyatli ta'lim muhiti" tushunchasiga muhim ustuvorlik qaratishni taqozo etadi.

Yanada aniqroq qilib aytganda, multimadaniyatli ta'lim muhiti milliy va umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiya va eksteriorizatsiyasini ta'minlaydigan, ayni makon va zamonda yashayotgan insonlarning hayotiy faoliyati hamda maqsadlarini o'zgartirishga qaratilgan formal va noformal mexanizmlar, shaxs va ta'lim tashkilotlari o'rtasida muayyan madaniy-ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish uchun xizmat qiladigan ko'p millatli makondir.

[49] Awang, M. M., Kutty, F. M., and Ahmad, A. R. (2014) Perceived social support and wellbeing: First-year student experience in university. International Education Studies. Vol 7, page 261-270.

Tolerantlik kompetensiyalari ikki jihatda namoyon bo‘ladi: botiniy (tashqi) va zohiriy (ichki).

Tolerantlikning botiniy (tashqi) ko‘rinishi bo‘lajak o‘qituvchilarning real sharoitda boshqalar bilan o‘zini taqqoslashi natijasi bo‘lib, o‘z nuqtai nazariga egaligi, boshqalarning ko‘zi bilan narsa-hodisalarni ko‘ra olishga qobiliyatli ekanligiga ishonishidir.

Tolerantlikning zohiriy (ichki) jihati bo‘lajak o‘qituvchilarning barcha dalil va sabab-oqibatlar ma’lum bo‘lmagan sharoitda ham muammo yuzasidan fikr yurita olish va qarorlar qabul qila olishga qobiliyatli ekanligini o‘zida aks ettiradi.

Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvida tolerantlik kompetensiyalari katta ahamiyatga ega. Shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuv bilan bog‘liqlikda bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarining namoyon bo‘lishi to‘rt o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va o‘zaro shartlangan komponentlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Kommunikativ (muloqotga doir) – muloqotning turli ko‘rinishlarini egallashning xilma-xil shakl va usullaridan tashkil topadi.
2. Kognitiv (bilishga doir) – atrof-muhit, voqelik bilan bog‘liqlikda aniq bilimlar doirasini o‘zlashtirish, ijtimoiy tasavvurlar tizimining shakllanishi.
3. Faoliyatli – bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi rivojlanadigan xulq-atvor harakatlari, modellarining keng va xilma-xil sohasi.
4. Qadriyatli – bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatga yo‘nalganlik tizimining namoyon bo‘lishi.

O‘zaro birgalikdagi harakat rivojlanishning universal shakli sifatida o‘zaro harakatlanuvchi obyektlar, hodisalarning yangi holatga o‘tishini ta’minlaydi. Mazkur fikr “tolerantlik” va “o‘zaro birgalikdagi harakat” tushunchalarining aloqadorligini aniqlab olishni talab etadi.

O‘zaro birgalikdagi harakatning umumlashgan turlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: dialog; hamkorlik; g‘amxo‘rlik; tushkunlik; loqaydlik; qarama-qarshilik; konflikt (nizo).

Tolerantlik dastlabki uch turdagi o‘zaro birgalikdagi harakatni talab etadi. Dialogik muloqotda individuallik namoyon bo‘ladi, nuqtayi nazarlarda tenglikning bo‘lishi ta’minlanadi. Dialogik o‘zaro harakatning tuzilishida yuqori darajadagi empatiya, sherigini his qila olish, uni bor holicha qabul qilish, fikrlashning elastikligi, o‘z-o‘zini maqbul baholay olish ko‘nikmalari bilan tavsiflanuvchi emotsional va kognitiv tarkibiy qismlar ishtirok etadi.

O‘zaro birgalikdagi harakatning ikkinchi turi – hamkorlik bo‘lib, butun faoliyat maqsadini hamkorlikda aniqlash, uni birgalikda rejalashtirish, har bir ishtirokchining kuch va imkoniyatlaridan kelib chiqib bajariladigan vazifalarni taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Tolerant xulq-atvorning mazkur darajasi quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: muloqotchanlik; oliyjanoblik; xavotirlanishning mavjud bo‘lmasligi; harakatlarning safarbarligi; g‘amxo‘rlik; sabrlilik; o‘zaro ishonch; ijtimoiy faollik.

G‘amxo‘rlik ham o‘zaro birgalikdagi harakat turi sifatida o‘zida tolerantlik tushunchasi bilan bog‘liqlikni aks ettiradi. G‘amxo‘rlik subyekt va obyektning tabiiy me’yor sifatida muruvvat ko‘rsatishi, qayg‘ura olishida namoyon bo‘ladi. Mazkur darajadagi tolerantlikning tavsifiy belgilari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin: emotsional barqarorlik; yuqori darajadagi empatiya; ekstravertlik; ijtimoiy faollik; yordamga shaylik.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda ekzistensial, devirsifikatsion, kognitiv, bixiveorizm, dialogik, fasilitativ, ijtimoiy-madaniy yondashuvlarning mazmuni va imkoniyatlarini samarali tatbiq etish lozim.

Ekzistensial yondashuv tolerantlikni avtomatlashgan, stereotip harakat sifatida emas, anglangan, aniq vaziyatda tolerantlik subyektidan mazmunli yo‘nalganlikni topa olish va mas’uliyat hissi bilan yondashuvni talab etuvchi jarayon sifatida ta’riflaydi. Mazkur holatda tolerantlik sinkretik tavsifga ega aksiologik modelni o‘zida aks ettiradi. Ya’ni maqsad bilan bog‘liq qadriyatlar unga erishish mazmuni, vositalari bilan aloqador qadriyatlarni aniqlab olishni talab etadi.

Deversifikatsion yondashuv nuqtayi nazaridan tolerantlik faqat bir defenis yoki tavsifgagina ega emas. Tolerantlik – bu murakkab, ko'pgina jihatlarga, tarkibiy qismlarga, ko'plab namoyon bo'lish va rivojlanish yo'nalishlariga ega, insonning individual va ijtimoiy hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi hodisa.

Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan tolerantlik o'zida ko'p-o'lchamli, xilma-xil bilim va tafakkur natijalarini aks ettiradi. Olam manzarasi murakkab ko'rinishga ega bo'lib, ko'plab turli-tuman nuqtayi nazarlardan yagona haqiqatga kelish oson emas.

Bixevioristik yondashuv tolerantlikni insonning "boshqalar" bilan konstruktiv o'zaro birgalikdagi harakatiga yo'nalgan xulq-atvori; boshqa insonlarni o'zi bilan teng ko'rish, shaxs sifatida e'tirof etishini tavsiflovchi sifatida sharhlaydi.

Dialogli yondashuv tolerantlikning muhim turi – boshqa kishilar bilan o'zaro munosabat, shaxslararo o'zaro harakat va muloqotni yo'lga qo'yishning muhim usuli – shaxslararo tolerantlikni taqozo etadi. Aynan tolerantlikning mazkur turida tolerantlik muammosining barcha (ham uni o'rganish, ham o'rgatish va rivojlantirish nuqtayi nazaridan) jihatlari yorqin namoyon bo'ladi.

Fasilitativ yondashuvda tolerantlikni rivojlantirishning adekvat psixologik-pedagogik taktikasini izlash, tolerantlikning tabiiy, refleksiv va individual shakllanishi uchun har bir subyektda shaxsiy, mustaqil va erkin nuqtai nazarni ishlab chiqish uchun ko'proq ijobiy shart-sharoitni yaratishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv tolerantlikni hayotiy faoliyat strategiyasida namoyon bo'luvchi shaxs fazilati sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Aynan mazkur yondashuv shaxsda etnik tolerantlikni shakllantirishda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi[50].

Mazkur yondashuvlarga asoslangan holda bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir qator modellar ishlab chiqilgan. Mazkur modellar orasida inte-

[50] Кабылбекова З. К изучению современных педагогических условий для развития толерантных качеств личности учащегося. // Ж. Фалсафа ва ҳуқуқ. – Т., 2010. - №1. – С. 107-108.

gratsion, institutsional, modulli va fanlararo modellar, ayniqsa, keng tarqalgan.

Integratsion model tarafdorlarining fikricha, ta'lim muassasasida o'qitiladigan fanlar tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishda yetarlicha imkoniyatlarga ega. Shuning uchun turli fan(modul)lar bo'yicha o'tiladigan mashg'ulotlar mazmuniga tolerantlikni singdirish lozim.

Tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning institutsional modeli o'zida tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishning bir nechta ssenariylarini qamrab oladi. Mazkur modellar orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- "oliy ta'lim tashkilotining tarbiyaviy tizimi" – tolerantlik tushunchasi hamkorlik hamda tizimli, shaxsiy va faoliyatli yondashuvlarni amalga oshirish sharti sifatida yuzaga chiqadi. Ta'lim muassasasining maqsadi sifatida esa, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish belgilab beriladi;
- "ijtimoiy loyihalash" – mazkur holatda tolerantlikka boshqa kishilar, o'zi va jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat tajribasi asosi sifatida qaraladi, maqsad sifatida esa, faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglash hamda shaxsiy faollik, kattalar va yoshlarning hamkorlikdagi faoliyatini hisobga olish asosida aniq ijtimoiy muammolarni hal eta olish ko'nikmasiga ega bo'lish talab etiladi;
- "fuqarolik forumi" – mazkur yondashuvda tolerantlik befarqlik, loqaydlikni bartaraf etish usuli sifatida namoyon bo'ladi, maqsad esa, jamiyatda sodir bo'layotgan turli voqea-hodisalarga kishilarning o'z munosabatlarini bildira olishlariga erishishdir.

Tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning modulli modelida muammo mustaqil masala sifatida ko'rib chiqiladi hamda o'quv rejasiga maxsus kurs va fakultativ mashg'ulotlarni kiritish orqali hal etiladi.

Tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning fanlararo modeli o'zida mazmuni va yo'nalganligidan qat'i nazar mazkur masalaga

doir pedagogik metod va usullarni birlashtirishni talab etadi. Har bir ta'lim muassasasi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, laboratoriyalar tashkil etishi va tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqishi yo'lga qo'yiladi[51].

Umuman olganda, tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish murakkab ilmiy-nazariy muammo sifatida ham ayni paytda ma'naviy qadriyat, etnik-madaniy amaliyot, etnologiya sohasidan xabardorlik, psixologik-pedagogik g'oya va mustaqil shaxsiy sifatlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladigan integrativ va ko'p funksiyali hodisadir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1) multimadaniyatli ta'lim muhiti shaxslararo munosabatlar yorqin namoyon bo'ladigan, o'zaro birgalikdagi harakatlar uyg'unlashadigan makon vazifasini bajaradi. Bunday ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini izchil funksional bosqichlar orqali rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lib xizmat qiladi;
2) multimadaniyatli ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion jarayonlarga yangicha yondashuvni aks ettiruvchi pedagogik hodisa sifatida baholanishi mumkin;
3) bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni motivatsion – tolerantlikka ijobiy emotsional munosabatni shakllantirish; kognitiv – real muammolar bilan tanishtirish va ularga yechim topishga undash; natijaviy-diagnostik – maqsadli tarzda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va istiqbolli harakatlarni muvofiqlashtirish kabi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi.

[51] Миротворская И.В. Формирование толерантности у учащихся старших классов общеобразовательных школ в процессе правового образования: Дисс. … канд. пед. наук. – Чебоксары, 2004. – С.82–84.

1.2-§. Pedagogik tolerantlikning mohiyati, tuzilmasi va tavsifi

O‘qituvchining kasbiy ma’naviyati, axloqiy qiyofasi, yaxlit aytganda, tolerantlik kompetentligini shakllantirish o‘zining tarixiy ildizlariga egadir. Masalan, qadimgi Mesopotamiya, Bobil, Ossuriya, Hindiston, Xitoyda pedagoglar yuqori ijtimoiy mavqega ega va shunga muvofiq oylik ish haqi yuqori darajada bo‘lgan. Ota-onalar pedagoglarga alohida hurmat ko‘rsatishgan va ularning obro‘si yuqori bo‘lishi uchun tashabbus ko‘rsatishgan. Qadimga Misrda pedagoglik kasbi inson kelajagining asosi deb qaralgan: “Qara, o‘qituvchilik lavozimidan yuqori mavqe yo‘q, u har doim inson bor joyda boshliqdir”.

Mesopotamiyada kotiblar maktabiga doir matnlarda o‘qituvchilar haqidagi ma’lumotlar topilgan. Jumladan, sopol lavhalarda “O‘qituvchi insonni shakllantiradigan Xudo, Siz haqiqatdan ham Xudosiz. Siz kuchukcha sifatida mening ko‘zlarimni ochdingiz, menda insoniylikni yaratdingiz”[52], degan yozuvlar bitilgan. Mesopotamiyada o‘qituvchi “ummi” deb atalgan bo‘lib, u “maktab otasi” deya ota-onalar tomonidan hurmat bilan tilga olingan.

Qadimgi Hindistonda o‘qituvchilik kasbi bilan braxmanlar shug‘ullangan. Yuqori ta’limni guru (ma’naviy ustoz, obro‘li, mo‘tabar zotlar) o‘z gurukula(uyi)da olib borgan. Ustozlar yuqori darajada qadrlangan, ularning kasbi ilohiy yumush hisoblangan. O‘qituvchining burchi esa, shogirdlarini bilimga qiziqtirish va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishdan iborat bo‘lgan.

Qadimgi Xitoyda o‘qituvchiga faxrli inson sifatida qarashgan. Ustoz-murabbiy otaga tenglashtirilgan bo‘lib, u o‘quvchini mustaqillikka o‘rgatishi va turli murakkablikka ega vazifalarga yechim topa olish layoqatiga ega bo‘lishi uchun qayg‘urishi lozim, deb hisoblangan.

O‘rta Osiyoda ham eng qadimgi davrlardanoq ustozga alohida ehtirom ko‘rsatishgan. Uni otadek ulug‘lash lozimligi yosh avlodga

[52] Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т.: Университет, 2003. – 503 б.

tarbiya jarayonida singdirib borilgan. Masalan, qadimgi Sug‘diyonada 4 yoshdan boshlab bolalarni savdo-sotiqqa o‘rgatishgan va yaxshi ustoz qo‘liga topshirib tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishgan.

“Avesto”da tarbiyachilarning burch va majburiyatlariga ham qonuniy tus berilgan. Ularning kompetentlik darajasini baholash uchun “chechan”, “uddaburon”, “tanbal”, “befarq”, “mas’uliyatsiz” kabi tavsiflardan foydalanilib, “yaxshi” va “yomon” ustozlarga ajratilgan. Unda yaxshi ustoz yoshlarni haqiqat sari yetaklashi, ularga yo‘lboshchilik qilishi, hayotni sevishga o‘rgatishi lozimligi belgilab berilgan.

Shuningdek, “Avesto”da tarbiya hayotning eng muhim tayanch ustuni deb hisoblangan. O‘qituvchi o‘quvchilarni shunday tarbiyalashi kerakki, ular, avvalo, yaxshi o‘qish va so‘ngra esa yozishni o‘rganish bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilishi lozimligi qayd etib o‘tilgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – “Avesto”da tarbiyachi masalasiga ko‘p marotaba murojaat qilinib, “yomon tarbiyachi”lar qoralangan: “Yomon tarbiyachi o‘z ta’limi bilan ilohiy so‘zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi. Haqiqatda, u odamlarni rostlikning bebaho sarmoyasidan va Ezgu Niyatdan bahrasiz aylaydi”[53].

Yuqorida manbadan keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, “Avesto”ga ko‘ra, yomon muallim odamlarni haq yo‘ldan adashtirib, jaholatga boshlaydi, yurt ravnaqi, kishilarning halol mehnatini ko‘ra olmaydi, yer ochib, yerni shudgor qilib, halol mehnat bilan ekin ekkanlarga, bog‘dorchilik, ziroatchilik bilan shug‘ullanib, chorvani ko‘paytirib, bunyodkorlik qilganlarga yomon ko‘z bilan qarab, odamlarni bebaho an’analardan mahrum qiladilar.

Birinchi va Ikkinchi Renessans davri mutafakkirlari ham ustozning bag‘rikengligi, halimligi, obro‘si, burchi va majburiyatlari haqida alohida fikrlarni bayon etib o‘tishgan.

Farobiy o‘zining ijtimoiy g‘oyalariga ko‘ra, nihoyat darajada taraqqiyparvar va insonparvardir. U insonni ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi

[53] Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик / Н.Жўраев; таржимон А.Маҳкам. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.45.

va odamlar orasidagi insonparvar munosabatlar ularning qiziqishlari, xohish-istaklari va o‘zaro birlashuvi asosida yuzaga chiqadi, deb hisoblaydi. Farobiyning fikricha, insonning taqdiri avvaldan belgilangan emas, har bir shaxs o‘z ixtiyoriga binoan faoliyat ko‘rsatib, o‘z baxtini o‘zi yaratadi, taqdirini o‘zi hal etadi. Yaratilishda insonlar bir xil, lekin tarbiya, muhit ta’siri ostida ular o‘zgaradilar. Olim bu o‘rinda tarbiyaga katta ahamiyat beradi.

Abu Nasr Farobiy “insonparvar mutafakkir sifatida kelajak jamiyatning urushlar, qashshoqliksiz bo‘lishini, umumiy baxt, adolat g‘alabasi, huquq tengligi, do‘stlik, o‘zaro yordam, bir-birini hurmatlash, yuksak madaniyat bo‘lgan yer kurrasidagi yaxlit jamiyat sifatida tasavvur etadi”[54]. “Fozil odamlar shahri” asarida olim hukmdor timsolida aql, iroda, ilm-fanga qiziqish, adolatparvarlik, mulohazakorlik, uddaburonlik, bag‘rikenglik kabi sifatlarni jamlovchi komil insonga xos jihatlarni mujassamlashtiradi.

Abu Nasr Farobiy pedagogik tolerantlikka ega ustozga quyidagi talablar tegishli ekanligini qayd etib o‘tgan: “Ustoz shogirdlariga katta zulm ham haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm shogirdga nisbatan nafrat uyg‘otadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo‘lsa shogird uni mensimay qo‘yadi va u berilgan bilimdan sovib ham qoladi”. U o‘qituvchiga bolalarning fe’l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanishni tavsiya etadi. Ya’ni tarbiyalanuvchilar o‘qish-o‘rganishga moyillik bildirsalar, ularga ta’lim-tarbiya jarayonida yumshoq, o‘zboshimcha va itoatsiz bo‘lsalar “qattiq” usul qo‘llanilishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi[55].

Ibn Sino kishilarning o‘zaro munosabatlarida tolerantlik va o‘zaro bir-birini tushunish mavjud bo‘lgan jamiyat zarurligi haqida qat’iylik bilan gapiradi. Insonparvar olim bunday jamiyatni o‘zi juda qiziqarli asoslab bergan edi: odamlar bir-biri bilan muloqot qilmasdan, ham-

[54] Социальная экология. Метод. рекомендации по проведению семинарских и практических занятий. – Т.: ТГПУ, 2005. – 24 с.

[55] Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 222 б.

korliksiz, o‘zaro yordamsiz, bir-biriga xizmat qilmasdan, bir-biriga nisbatan yaxshilik qilmasdan mavjud ham bo‘lolmaydi, yashay ham olmaydi. Shuning uchun olim o‘zining “Kitob al-ishorat va tanbihot” asarida mana bunday yozadi: “Inson o‘zining shaxsiy ehtiyojlarini yakka-yolg‘iz, ihotalangan holda qondira olmaydi, u faqat boshqa odamlar bilan muloqotdagina ana shu maqsadlariga erisha olishi mumkin. Odamlar o‘zaro muloqotlar va bir-biriga yordam berish orqaligina tashvishlardan xalos bo‘ladilar. Agar odamzod hamma tashvishlardan qutulish uchun yakka o‘zi harakat qilganida edi, u bunchalik og‘ir yukni ko‘tara olmagan bo‘lar edi. Ma’lum bo‘ladiki, odamlar o‘rtasida adolat va qonun bilan o‘rnatiladigan me’yorlar zarur ekan....”.

Ibn Sino asarlarida ham pedagogik tolerantlikka xos qator o‘ziga xosliklar yoritib berilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, u o‘qituvchining bolalar bilan muloqotda bosiq, jiddiy bo‘lishi, diqqatni to‘g‘ri taqsimlay olishi va kuzatuvchanlik qobiliyati, mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan o‘qitish shakl va metodlarining variativ bo‘lishi, ta’lim oluvchilarning individual bilish imkoniyatlarini hisobga olish, ta’limning hayotiy tajriba (vitagen)ga asoslanishi, shaxs motivatsion va emotsional sohasining ta’sirini bevosita hisobga olish kabi qator bugungi kun ta’limi bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratgan.

Abu Rayhon Beruniy asarlarida pedagogik tolerantlik bilan bog‘liqlikda pedagog bola qalbi va yuragini ulug‘lashi, har qanday yomon illatlardan, turli tasodifiy holatlardan, xirsdan, hasaddan, tamadan xoli bo‘lishi, zamonaviy til bilan aytganda pedagog obro‘si va nufuzini, ya’ni imijni saqlab qolishi lozimligi masalalariga takror va takror e’tibor qaratilgan.

Beruniyning tolerantlikka yo‘naltirilgan pedagogik qarashlarida o‘zaro insoniy munosabatlar, axloqiylik, jamoaviylik, bilimning inson taqdiriga ta’siri haqidagi fikrlar o‘z aksini topgan. Beruniyning bunday qarashlari ilm-fan, ta’lim va ma’rifatparvarlik masalalari bilangina chegaralanib qolmaydi. Yoshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan ezgulik, ziyraklik, ko‘ngilchanlik, haqiqatparvarlik, adolatli bo‘lishga intilishni ham u eng muhim sifatlar qatorida sanab o‘tadi.

Beruniy Qur’oni karimdagi “Ayting: biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bulurmi?!” (“Zumar” surasi, 9-oyat); “Albatta, bu narsalarda aqlli kishilar uchun belgilar bor” (“Ra’d” surasi, 4-oyat); “Biz oyatlarni aqlli kishilar uchun bayon qilib qo‘ydik. Aqlni ishlatmaydilarmi” (“Baqara” surasi, 76-oyat), degan islom ta’limotiga tayangan holda aql insonga berilgan buyuk ne’mat, degan ilg‘or g‘oyani ilgari suradi. Mutafakkirning uqtirishicha, inson – tabiatning eng oliy kamolotidir, chunki “inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi… yer yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun Alloh insonga katta sharaf ko‘rsatgan – unga aql-zakovat kuchini armug‘on etgan”. Shu sababli, deb qayd qiladi Beruniy insonning ma’naviy qiyofasi uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos bo‘lmog‘i uchun u yuksak axloqli, ilm-u ma’rifatli bo‘lishi lozim[56].

Beruniyning tolerantlik ta’limotida aqliy va axloqiy tarbiya uzviy bog‘langan. Olim yoshlarning ilmli bo‘lishi, axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqligiga to‘xtalib, ulardan rostgo‘y, rahmdil, mehribon, saxovatli, kishilarga iltifotli, xayrixoh bo‘lishni, najotsiz odamga yordam qo‘lini cho‘zishni targ‘ib qilib, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, sabotsizlik, xasislik, boylikka xirs qo‘yish kabi illatlarga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi va murabbiy sifatida yoshlarga quyidagi pand-nasihatlarini beradi: “Inson eng oliyjanob fazilatlar sohibidir, – deb yozadi Beruniy “Mineralogiya” asarida, yaqin do‘sti bor kishi chinakam baxtiyor kishidir. U do‘st munosib hayot tarziga ega, yoqimli xususiyatlar sohibi bo‘lishi lozimdir. Ana shunday chin do‘st har bir kishida bitta bo‘ladi. Bundan ortiq bo‘lmaydi. Odam hamisha boshqalarga yaxshilik qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasa-da, yaxshi tilaklar izhor etsin”[57], deydi u.

Pedagoglik tolerantlik masalalarini tahlil qilishda Alisher Navoiy asarlariga ham murojaat qilish joizdir.

Navoiy ijodining asosini komillik haqidagi chuqur o‘y-xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Shoir nazarida muhabbat – bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig‘ etuv-

[56] Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. – Т.: Адолат, 2001. – Б.59.
[57] Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. – Т.: Адолат, 2001. – Б.120.

chi ulug‘vor axloqiy kuch. U o‘zida oliyjanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlikni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma’naviy kuchlarning faol namoyon bo‘lishi yo‘llarini aks ettiradi. Inson ruhining go‘zallikka intilishi va bu go‘zallik uchun axloqiy jasorat ko‘rsatishga tayyorlik Navoiyda shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug‘vorlik ko‘rinishida tasvirlanadi.

Alisher Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilm-u hikmatiga oshno qilingan (“Qilding ani orifi ul ma’rifat”), faqat odamga ma’rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy Qur’on oyatlariga ishora etib, inson ulug‘ligini bunday ta’rif etadi:

“Karramno” – keldi manoqib anga
“Ahsani taqvim” – munosib anga[58].

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi kirdikoriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirishi, foydali ishlari bilan qadrli. Boshqalarga ziyon yetkazadigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga to‘g‘ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatning har bir a’zosidan – shohmi, gadomi – inson nomiga munosib bo‘lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezoni – bu xalq g‘am-tashvishi bilan yashashdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy,
Oniki, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Navoiy himmati baland, hojatbaror, adolatpanoh insonlarni sharaflaydi. Ma’lumki, inson allaqanday mavhum tushuncha emas. Inson o‘z kasb-u kori, jamiyatda egallagan mavqeyi bilan konkret shaxsdir[59].

[58] Муҳиддинов М.К. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси (“Хамса”ларнинг биринчи достонлари асосида): Филология фанлари доктори. ... дисс. Автореф. – Т., 1995. – Б.12.

[59] Муҳиддинов М.К. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси (“Хамса”ларнинг биринчи достонлари асосида): Филология фанлари доктори. ... дисс. Автореф. – Т., 1995. – Б.37.

Saxovat va muruvvatlilikni o‘zi uchun sharaf deb hisoblagan Navoiy hazratlari “Ixlosiya” madrasasini qurdirib, pedagoglarga alohida hurmat va ehtirom ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriyatga shaxsan o‘zi topshiriqlar bergan. Jumladan, “Ikki olim-u mutaqqi (taqvodor olimlar) mudarris bo‘lg‘ay. Har birining yillik vazifasi (ish haqi) ikki yuz oltun naqdi, yigirma to‘rt xarvor (bir eshak ko‘tararlik yuk) oshliq, yarim arpa, yarimi bug‘doy bo‘lg‘ay. Olti a’lo (a’lochi) har biriga oylik naqdi yigirma to‘rt oltun, yilda bug‘doy besh yuk, vasat (o‘rta o‘qig‘onlar) sekiz (talaba) oylig‘ har biriga naqdi o‘n oltun, bug‘doy – yillik to‘rt yuk, adno (past o‘qig‘onlar) sekiz – talaba oylik har biriga o‘n ikki oltun, oshlig‘ yiliga uch yuk” berilar edi.

Hazrat Alisher Navoiy pedagogni quyoshga o‘xshatadi va bu quyosh o‘z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya’ni hali ilmdan bexabar bo‘lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma’rifat beradi, deydi.

Pedagogik tolerantlikni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarga jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlarida ham alohida e’tibor qaratilgan. Jamiyatni jaholatdan ilm-ma’rifat qutqarishi haqidagi g‘oyani dastur ul-amal qilib olgan jadid ma’rifatparvarlari o‘z davrida yangi o‘qitish usullarini samarali qo‘llay olishga layoqatli novator-tolerant pedagoglar zarurligiga alohida e’tibor berishganligini e’tirof etish lozim. Jumladan, “pedagogika” (pedagogiya) tushunchasiga birinchi bo‘lib ta’rif bergan o‘zbek pedagog olimi, jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloniy “Har bir muallimning saodati, davlatlarning tayanchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir”, degan.

Turkiston jadidlari “otasi” Mahmudxo‘ja Behbudiy Ismoil Gaspiralining jadidchilik faoliyati va uning asarlarini o‘rganish orqali nafaqat jadid maktablarini tashkil etish, balki pedagoglarning vazifalari, ularning didaktik tayyorgarligi va tarbiyachilik faoliyati masalalariga ham alohida e’tibor qaratgan. Behbudiyning o‘zi ham pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanib, o‘quvchilariga jo‘g‘rofiya va tarixni o‘rgatishga alohida sa’y-harakat ko‘rsatgan. Mutafakkir turli mamlakatlardan olib kelingan yangi kitob va darsliklarni o‘quvchilar va muallimlarga hadya

qilgan. Shuningdek, Behbudiy maorif komissari sifatida o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslarni ochish va yuqori madaniy-tolerantlik kompetentligiga ega pedagog shaxsini rivojlantirishga doir o'zining istiqbolli qarashlarini maqolalarida ifoda etgan.

Agar ma'lum jamiyat ijtimoiy-g'oyaviy hamda iqtisodiy inqirozdan chiqish yo'lini topmoqchi bo'lsa, u texnogen sivilizatsiyaning yangi shakldagi ko'rinishi emas, balki yangi rivojlanish bosqichining yakuni tarzida aks etishi lozim. Jamiyatning bunday rivoji ijtimoiy hayotning muhim omillarini hisobga oluvchi, shaxsga yo'naltirilgan insonparvarlik paradigmasining asosiy g'oyasi vazifasini o'taydi.

V.V.Krayevskiy[60], E.A.Kryukova[61], V.V.Serikov[62] kabilar tomonidan ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni qaror toptirish yo'llari va ularning mohiyati borasidagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular o'z ishlarida kasbiy pedagogik ta'limning asosiy vazifasi, o'qituvchining mavjud ilmiy bilimlar bilan qurollantirishdangina iborat emas, balki uning shaxs sifatida o'z mavqeyini belgilab olishi, o'zligini anglashi, ijtimoiy muhitga nisbatan munosabatini shakllantirishda yordam berishi lozim bo'lgan vosita sifatida qaraydilar. Ta'lim oluvchilarga bilim berishda o'z fikrini yoqlash, mavhumlik va avtoritar mavqeni egallashga urinish hissidan xalos bo'lishni ta'minlash lozim bo'ladi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi: milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish; ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy va umuminsoniy g'oyalariga asoslanish; shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish; o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

[60] Краевский В.В. Общие основы педагогики. – М.: Академия, 2003. – 256 с.

[61] Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация. Монография. – Волгоград. Перемена, 2000. – 97 с.

[62] Сериков В.В. Личностный подход в образовании: Концепция и технологии. Монография. – Волгоград: Школа, 1994. – 152 с.

pedagogik ta’limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya’ni talabalar tomonidan o‘zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta’minlovchi invariant bilimlarning o‘zlashtirilishiga erishish; mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi ehtiyojlarga to‘laqonli javob bera oladigan ta’limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash; ta’limning uzluksizligi, ta’limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta’minlovchi kasbiy ta’lim dasturlari tizimini yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta’limning u yoki bu bosqichida o‘qitilishi yoki o‘qishni boshqa tipdagi o‘quv muassasasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi; ta’limning ekvivalentligi, ya’ni uning davlat ta’lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me’yorlarga muvofiqlik darajasi.

Ilmiy dalillarning nazariy tahlili, ularni umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi deontologik jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Bular quyidagilardan iboratdir: bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy shakllantirishga qo‘yilayotgan talablarning ta’lim muassasalari hamda jamiyat ehtiyojlari bilan o‘zaro muvofiqligi; kasbiy shakllanishning ta’lim hamda ijtimoiy-madaniy muhitga bog‘liqligi; mazkur jarayonni amalga oshirishni refleksiv boshqarish amaliyoti.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy shakllantirishning yuqori darajada bo‘lishiga erishish quyidagi holatlarda mavjudligini taqozo etadi: o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy shakllanish darajasi bu yo‘lda tashkil etilgan jarayonning umumiy mohiyatini yorituvchi pedagogik tizim samaradorligiga chambarchas bog‘liq; o‘qituvchining kasbiy jihatdan shakllantirishni ta’minlovchi jarayonlarining tashkiliy boshqaruvi maqsadga muvofiq tarzda takomillashib boradi.

Refleksiv boshqaruv aniq maqsadda tashkil etilayotgan jarayon xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olish, shuningdek, har bir ta’sirni uning mazmunida namoyon bo‘luvchi qonuniyatlar bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

Oliy ta'limda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy axloq muhim rol o'ynaydi. Keng ma'noda kasbiy axloq bir tomondan shaxsning kasbiy shakllanishi va rivojlanishi, ikkinchi bo'lg'usi pedagogik faoliyatda zarur ahamiyat kasb etadigan ma'naviy-axloqiy tajriba, qadriyatlar, kasbiy xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish jarayonini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun "kasbiy axloqiy kompetentlik" tushunchasini chuqur tahlil etish uchun uning ikki komponentini tadqiq etish lozim: "kasbiy shakllanish" va "ijtimoiylashuv".

N.A.Muslimovning fikricha, kasbiy shakllanish – shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri bo'lib, shaxsning faqatgina mehnat va kasbiy faoliyatni tanlash bilan bog'liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi (umumiy rivojlanish barcha ehtiyojlar majmuasini, uning borliqqa, atrofdagilarga, o'ziga nisbatan munosabatlari tizimini ifoda etadi)[63].

O'.Q.Tolipov bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishida ular tomonidan quyidagi kasbiy-pedagogik malakalarning o'zlashtirilishi muhim ahamiyatga egaligini qayd etib o'tadi: 1) talabalar shaxsini shakllantirish; 2) talabalarning o'quv-kasbiy faoliyatini shakllantirish; 3) shaxsni kasbiy yo'nalishini shakllantirish; 4) ta'limning shakl va metodlarini tanlash; 5) pedagog-rejissyorlik; 6) turli nostandart pedagogik holatlarni tahlil qilish; 7) ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish; 8) muhandislik-texnik (umummuhandislik, konstruktiv-texnikaviy, tashkiliy-texnologik va maxsus)[64].

N.M.Egamberdiyeva talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan "kasbiy yetuklik" tushunchasini qo'llashni taklif etadi va uning mohiyatini quyidagi tarzda talqin etadi: kasbiy yetuklik (professionallashuv) ta'limni shunday yo'naltirilganligiki, unga ko'ra talabalar tomonidan kasbiy faoliyatning qadriyatli mazmunining aniqlanishi

[63] Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2007. – Б.20.

[64] Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Т.: 2004. – Б.29–33.

hamda qabul qilinishi, talabaning o‘zini mazkur faoliyatning subyekti sifatida anglashi, o‘zining kasbiy rivojlanishi, shu bilan birga ish martabasidan kelib chiqib maqsadlarini rejalashtirishi va unga erishish usullariga egalik qilishi zarur bo‘ladi[65].

A.S.Valeyev, A.V.Grishinlarning fikricha, kasbiy ta’lim rivojida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning ko‘p bosqichli (bakalavr, magistr) tizimiga o‘tilishi bilan bog‘liqlikda kasbiy ta’limning texnokratik paradigmasidan ijtimoiy va shaxsiy yo‘naltirilgan modeliga o‘tish yo‘nalishlari aniqlashtirildi[66].

A.V.Reprinsev o‘qituvchini kasbiy tarbiyalashning asosiy g‘oyalari sifatida uning kasbiy-pedagogik madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchining nafaqat madaniyat subyekti, balki obyekti, u nafaqat yangi avlod madaniyatini shakllantiradi, balki uning o‘zi ham mazkur jarayon mahsuli ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi[67].

Hozirgi vaqtda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’limda kompetentli yondashuvni amalga oshirish, unga asoslangan davlat ta’lim standartlarining yangi avlodini yaratish, “kompetentlilik” va “kompetensiya” tushunchalarini keng ommalashuvi ularni har tomonlama chuqur tahlil etishni talab qiladi. Mazkur maqolada biz kompetentlilikni tavsiflashga xizmat qiladigan asosiy ilmiy yondashuvlar tahliliga e’tibor qaratamiz.

Kompetentlilik kompetensiyalar majmuyidir (J.Raven). Kompetentlilik psixologik nazariyasining asoschisi, ingliz psixologi J.Raven “kompetentlilik kompetensiyalar majmuyidir” degan tushunchadan kelib chiqib, ularning ko‘p sonli ekanligini ta’kidlagan. J.Raven kompetentlilik komponentlarini insonlarning tabiatidan qat’i

[65] Эгамбердиева Н. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – Б.115.

[66] Валеев А.С., Гришин А.В. Профессиональное развитие личности будущего учителя технологии в процессе профессиональной подготовки в вузе // Ж. Вестник ЧГПУ. Педагогика и психология. – 2009. – N°6. – С.33.

[67] Репринцев А.В. Профессиональное развитие личности будущего учителя в воспитательной системе современного вуза: тревоги и надежды // Ж. Вестник Мордовского университета, 2009. – N°2. – С.225.

nazar, shaxsiy va kasbiy jihatdan muhim maqsadlarga erishishga imkon beradigan xususiyatlari hamda qobiliyatlari[68] sifatida talqin qilgan.

Kompetentlilik shaxsning integrativ sifatidir (K.M.Levitan). Kasbiy kompetentlilik mutaxassisning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorligi va qobiliyatida namoyon bo'ladigan shaxsning integrativ xislati sifatida ko'rib chiqiladi[69].

Kompetentlilik insonning kasb talablariga muvofiqligi sifatida (A.K.Markova). Kasbiy kompetentlilik deganda "insonning o'z kasbining talablariga muvofiqligi darajasining individual xususiyati tushuniladi va bu unga mustaqil va mas'uliyatli harakat qilishga imkon beradi; kasbiy faoliyatda, kasbiy muloqotda, kasbiy rivojlanishda insonning yetukligi"[70].

Shunday qilib, kompetentlilikni tushunishga ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish va umumlashtirish shunday xulosa qilishga imkon beradiki, unga ko'ra kompetentlilik – bu inson shaxsining integrativ xislati, o'ziga xos xususiyati, umuman, asosiy ijtimoiy va kasbiy talablarni qabul qilishga asoslangan holda shaxsning kasbiy faoliyatga (kasbiy kompetentlilik) va umuman hayotiy faoliyatga hamda subyektli sifatlarni aktuallashtirishga (mustaqillik, mas'uliyatlilik va demak – motivatsion-qadriyatli tanlovni amalga oshirish) qobiliyati va tayyorligi kabi ma'lum bir xususiyatdir.

Kompetensiyalar – bu insonga hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, shaxsiy va o'z-o'zini kasbiy jihatdan amalga oshirish qobiliyatini beradigan xususiyatlar birikmasidir. Shunga ko'ra, kompetensiyalar bo'yicha "bilim" qanchalik mos va to'liq bo'lsa, odamlar turli soha-

[68] Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – М., 2002. – 280 с.

[69] Левитан К. М. Компетентностный подход в контексте модернизации высшего профессионального образования // Актуальные проблемы профессионального развития педагогов в системе современного образования: теория и практика. Материалы Всероссийской научно-практической конференции. 1 марта 2005 года. Ч. 1. Тюмень: ТОГИРРО, 2005. – С. 31–33.

[70] Маркова А. К. Психология профессионализма. М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 308 с.

lardagi muammo va vazifalarni, ya’ni umuman sermahsul hayotiy faoliyatni hal qilishga shunchalik tayyor bo‘ladilar.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, zamonaviy ilm-fan darajasida “kompetensiya” tushunchasi nafaqat insonning faoliyatga tayyorligining operatsion komponentini qamrab oladi (va shuning uchun bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga kirmaydi), balki uning ijtimoiy kontekstdagi ishlari va xatti-harakatlari, xulq-atvorining qadriyatli-motivatsion asoslarini ochib beradigan qadriyatli komponentni ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, TUNING Yevropa ilmiy loyihasi kompetensiyalarning quyidagi universal strukturasini taklif etadi:

1) bilim komponenti (akademik sohadagi nazariy bilimlar, bilish va tushunish qobiliyati);

2) amaliy komponent (bilimlarni muayyan vaziyatlarga amaliy va operativ qo‘llash);

3) qadriyatli komponent (qadriyatlar ijtimoiy kontekstda boshqalar bilan idrok etish usuli va hayotining ajralmas qismi sifatida, inson xulq-atvorining qadriyatli-motivatsion asoslari)[71].

O‘qituvchining shaxsiy kompetensiyasi masalasi pedagogik ta’lim tizimini isloh qilish sharoitida alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy maqsadi pedagoglarni kasbiy tayyorlash sifatini kasbiy standartlar va oliy pedagogik ta’limning davlat standartlarida aks ettirilgan zamonaviy talablarga muvofiqlashtirishdir.

Shaxsiy kompetensiyalar (TUNING bo‘yicha tizimli) asosiy kompetensiyalar (umumiy, universal, umummadaniy) qatoriga kiradi.

Asosiy kompetensiyalar – bu biror-bir fanga oid yoki kasbiy sohaga bevosita aloqasi bo‘lmagan, ammo umuman insonning sermahsul hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan va uning kasbiy kompetensiyalarini (ya’ni kasbiy faoliyat mazmuniga bevosita aloqasi bo‘lgan kompetensiyalar) rivojlantirish uchun kerakli asosni yaratadigan kompetensiyalar hisoblanadi.

[71] Байденко В. И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: методическое пособие. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. – 72 с.

Kompetentlik deganda, A.A.Dubasenyuk real hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal etish imkonini beradigan shaxsning maxsus qobiliyatlari tizimini tushunadi. Yuqori darajada kompetentlik tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, o'z xatti-harakatlari oqibatini baholay olish qobiliyati sifatida ko'rib chiqiladi[72]. Umuman olganda, ta'limda kompetentlik tushunchasi yosh avlodning zamonaviy jamiyat hayotiga muvafaqqiyatli moslashuvini ifoda etadigan shaxs tavsifi sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Shaxsning kasbiy shakllanishini belgilovchi jarayonlar tabiatini aniqlash kasbiy pedagogikaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu jarayonlar mohiyatini qay darajada bilish insoniyat faoliyatining muhim qirralaridan biri, biologik va ijtimoiy yashovchanlik hamda uning ravnaqini belgilovchi omil hisoblangan – yosh avlod tarbiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilish darajasini belgilab beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi – bu ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, texnologik hamda maxsus bilimlarning ochiq, o'zini o'zi rivojlantiruvchi tizimi bo'lib, u davr talabi hamda tadqiqotlar natijalari asosida mazmunan o'zgarib, uzluksiz ravishda mazmunan boyib boradi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy shakllanish quyidagi usullarda aks ettirilishi mumkin: jarayon sxemasi asosida (davrlar, bosqichlar, darajalarning vaqt bo'yicha ketma-ketligi ko'rinishida); faoliyat tuzilmasi tarzida (vosita va usullar majmuasi ko'rinishida, bu o'rinda o'zaro ta'sirlashuv vaqt bo'yicha emas, qo'yilgan maqsadga ko'ra talqin qilinadi).

Istalgan kasbiy faoliyat zaruriy kasbiy sifatlarni shakllantirish tizimi asosida amalga oshadi. Bundan kelib chiqadiki, istalgan faoliyat belgilangan sifatlar to'plamini talab etadi. Kasbiy zaruriy sifat – bu uni belgilangan me'yor darajasida amalga oshirish uchun yetarli va zarur faoliyat subyektining individual xususiyatidir. Kasb vazifasida faqatgi-

[72] Дубасенюк А.А. Особенности профессионального становления учителя в контексте компетентностного подхода // Ж. Вектор науки ТГУ. Серия Педагогика, психология, 2010. – № 2. – С.40.

na shaxsiy psixik emas, balki psixikadan tashqari – somatik, biologik, morfologik, tipologik, neyrodinamik xususiyatlar ham yuzaga chiqishi mumkin. Bundan tashqari kasbiy yetuklikning tuzilishini ifoda etuvchi individual sifatlar guruhi tarzida quyidagilarni belgilab berish mumkin: absolyut kasbiy zaruriy sifatlar – o‘rtacha darajadagi faoliyatni bajarish uchun zarur xususiyat; o‘zida faoliyatning yuqori va sifat ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatini aniqlab beruvchi muhim kasbiy zaruriy sifatlar; u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga motivatsion tayyorlik; qarma-qarshi ko‘rsatkichga ega kasbiy sifatlar – ularning rivojlanishining minimal darajasini taklif etuvchi yoki biror va shunga o‘xshash faoliyatda qarama-qarshi ko‘rsatkich sifatida yuzaga chiquvchi xususiyatlar.

N.M.Egamberdiyevaning fikricha esa, o‘qituvchining pedagogik tolerantligi quyidagi ahamiyatli sifatlarining mavjud bo‘lishini taqozo etadi: shaxsga yo‘nalganlik: e’tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik his-tuyg‘usining mavjudligi; kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyjanoblik, xolislik; pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg‘usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o‘z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish; qiziqishlar va ma’naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma’naviy ehtiyojlarning ko‘p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo‘lishi, tashqi ko‘rinish va nutq madaniyati[73].

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining pedagogik tolerantlik bilan aloqador faoliyati individual munosabatning ijtimoiy borliqqa naqadar chuqur kirib borganligi bilan tavsiflanadi va u ijtimoiy ahamiyatga ega ma’naviy xulq-atvorning murakkab tizimini o‘zida ifoda etadi.

Kompetentlilikni tushunishga ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish va umumlashtirish shunday xulosa qilishga imkon beradiki, unga ko‘ra

[73] Эгамбердиева Н. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.

kompetentlilik – bu inson shaxsining integrativ xislati, o'ziga xos xususiyati, umuman asosiy ijtimoiy va kasbiy talablarni qabul qilishga asoslangan holda shaxsning kasbiy (kasbiy kompetentlilik) va umuman hayotiy faoliyatga hamda subyektiv sifatlarni aktuallashtirishga (mustaqillik, mas'uliyatlilik va demak – motivatsion-qadriyatli tanlovni amalga oshirish) qobiliyati va tayyorligi kabi ma'lum bir xususiyatdir.

Kompetensiyalar – bu insonga hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, shaxsiy hamda o'z-o'zini kasbiy jihatdan amalga oshirish qobiliyatini taqdim etadigan xususiyatlar yig'indisidir. Shunga ko'ra, kompetensiyalar bo'yicha "bilim" qanchalik mos va to'liq bo'lsa, insonlar turli sohalardagi muammo va vazifalarni hal qilish, ya'ni umuman samarali hayotiy faoliyatga erishishga shunchalik tayyor bo'ladilar.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, zamonaviy ilm-fanda "kompetensiya" tushunchasi nafaqat insonning faoliyatga tayyorligining jarayonli komponentini qamrab oladi (va shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga kirmaydi), balki uning ijtimoiy xatti-harakatlari, xulq-atvorining qadriyatli-motivatsion asoslarini ochib beradigan aksiologik komponentni ham o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar[74]ni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ilmiy izlanishlarda "pedagogik tolerantlik" tushunchasiga turlicha munosabat bildirilgan, ba'zan mazkur fenomenning o'zini murakkabligi uni talqin qilish jarayonini murakkablashtiradi. Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, "pedagogik tolerantlik" va "pedagogning tolerantligi" tushunchalarini bir xil talqin qilish ko'zga tashlanadi. Bizningcha, mazkur tushunchalarni bir xil talqin qilish mumkin emas. Chunki "pedagogning tolerantligi" tushunchasi o'zida o'qituv-

[74] Fish (2014). Tolerance, Acceptance, Understanding …, and how they differ in everyday life and in research. Psychology Today. https:// www.psychologytoday.com/us/blog/looking-in-the-cultural-mirror.; Rapp, C., and Freitag, M. (2015). Teaching tolerance? Associational diversity and tolerance formation. Political Studies, 63(5), 1031–1051. https:// doi.org/10.1111/1467-9248.12142.; Treviño, E., Béjares, C., Wyman, I., and Villalobos, C. (2018). Influence of teacher, student and school characteristics on students' attitudes toward diversity. In A. Sandoval-Hernandez, M. M. Isac, and D. Miranda (eds.). Teaching Tolerance in a Globalised World (pp. 33–66). Springer.; Фадеева Т.Ю. Формирование толерантности у будущих педагогов-психологов в образовательном процессе вуза // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия «Педагогика и психология». – 2011. – N° 2 (5). – С.194-198.

chi shaxsning maxsus xususiyatini aks ettirib, umumiy mohiyat va ayrim noaniqliklarni ifoda etadi. Pedagogning tolerantligi millatlararo, diniy, siyosiy tolerantlik sifatida ham tushunilishi mumkin, bu esa, uning mohiyatini ochib berishni qiyinlashtiradi. Shu sababli biz “pedagogning tolerantligi” tushunchasini aniqlashtirish hamda “pedagogik tolerantlik” ta’lim sohasi mutaxassislarining kasbiy faoliyati istalgan ta’lim jarayoni subyektlarining ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlari bo‘yicha farqlarni qabul qilishga tayyorligi va qobiliyati ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan tolerantlikning maxsus turi haqida fikr yuritish muhimligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

Adabiyotlar tahlili asosida pedagogik tolerantlik shaxsiy integrativ sifatlar yig‘indisi sifatida talqin qilinishi va shuning uchun mazkur sifatni rivojlantirish jarayonida inson psixikasining muayyan qonuniyatlarini hisobga olish lozim. Shu sababli pedagogik tolerantlikka muayyan munosabatlarning qaror topganligi yoki unga qobiliyatlilik va tayyorlik sifatida qaralishi mumkin emas.

Muammoga doir bir qancha manbalarni o‘rganish natijalari pedagogik tolerantlik toqatlilikdan farqli ravishda yaxlit tarzda va alohida e’tibor qaratiladigan altruizm, frustratsion vaziyatlarga sabr bilan munosabatda bo‘lish, hayotdan zavq olish, o‘z-o‘zini maqbul baholash, ruhiy barqarorlik, boshqalarning individualligini tan olish va qabul qilish, ichki lokus nazorati, refleksivlik, noaniqlikka chidamlilik, hamkechinmalilik, kreativlik kabilar asosida shakllanadigan ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra farqlarini tan olish, tushunish va qabul qilishni talab etadigan shaxsning integrativ kasbiy ahamiyatli sifatlarni o‘zida aks ettiradi.

Shu o‘rinda har bir fenomenning o‘ziga xos tuzilmasi mavjud bo‘lganidek, pedagogik tolerantlik strukturasida ham ijtimoiy va psixologik komponentlar determinant o‘rin tutadi. Pedagogik tolerantlikning psixologik komponenti o‘z ichiga nafaqat ta’lim muhitidagi nomaqbul tashqi ta’sirlarga qarshi turish, o‘zini tiyib turish hamda o‘zi haqidagi ijobiy tasavvurlar, o‘z-o‘zidan, hayotidan va kasbiy faoliyatidan qoniqish, mutaxassisning kasbiy o‘sish va o‘z-o‘zini takomil-

lashtirishga ehtiyojini ham qamrab oladi. Psixologik komponent shaxs ichki olamiga yo‘nalganlik bilan ajralib turadi. Ijtimoiy komponent ta’lim sohasi xodimlarining ta’lim oluvchilar va o‘qitish jarayonining boshqa ishtirokchilariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, alohida shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy maqomi bilan ajralib turadigan kasbiy faoliyatning o‘ziga xosliklari bilan bevosita bog‘liqdir.

Kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, ta’lim sohasi xodimlari boshqalarning farqlarga bo‘lgan huquqini tushunishi va tan olishi lozim. Ana shundagina ta’lim jarayonining istalgan ishtirokchilari unga salbiy baho bermaydi, xuddi shunday unda ijobiy bo‘lmagan his-tuyg‘ular paydo bo‘lmaydi va sabrli bo‘lishga zaruriyat sezmaydi. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, masalan o‘qituvchi o‘quvchiga nisbatan salbiy emas, unga toqat bilan munosabatda bo‘lsa, u holda bu tolerantlikning namoyon bo‘lishi deb qaralmasligi kerak. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining idrok etishi, uning xulq-atvor reaksiyasi bilan bog‘liq mutaxassis shaxsining ichki munosabatlari tizimiga muvofiq salbiy ustanovkalarning shakllanishi tabiiy. Shu nuqtayi nazardan toqatlilik pedagogik tolerantlik tushunchasini to‘g‘ridan to‘g‘ri komponenti sifatida belgilanmasligi kerak.

Pedagogik tolerantlikning ijtimoiy va psixologik komponentlari umumiy psixologiyaning qoidalariga muvofiq ta’lim sohasi xodimining muayyan tarzdagi xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. “Ong va faoliyat birligi” tamoyiliga muvofiq inson xulq-atvorining istalgan shakli intellektual, emotsional va irodaviy to‘plam bilan belgilanadi. Shuning uchun pedagogik tolerantlikning tashqi namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritganda an’anaviy tarzda shaxs rivojining “motivatsion-qadriyatli sohasi”, “kognitiv sohasi”, “emotsional sohasi”, “xulq-atvor sohasi” atamalari qo‘llaniladi. Ko‘pgina tadqiqotlarda pedagogik tolerantlikning qadriyayatli-motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy, faoliyatli komponentlari ajratib ko‘rsatiladi. Bizningcha, ularning shaxs rivojlanish sohasi bilan aloqadorligini hisobga olsak, umumiy tarzda pedagogik tolerantlik komponentlarini yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, ijtimoiy va psixologik komponentlar-

ning o‘zaro aloqadorligi hamda shartlanganligi sifatida qabul qilish maqsadga mufoviq bo‘ladi.

Ta’lim sohasi xodimlarining pedagogik tolerantligining mohiyati va tuzilmasiga muvofiq ravishda mazkur kasbiy kompetentlikning perseptiv, autokompetentli va kommunikativ-faoliyatli mezonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Persevtiv mezonlar ta’lim sohasi xodimlarining orzu-umid va altruizm, hamkechinmalilik, ichki lokus nazorati kabi qadriyatlarga nisbatan tuyg‘ularni tushunishi va baholay olishini tavsiflaydi. Autokompetent mezonlarning asosida kasbiy o‘z-o‘zini tushunish hamda pedagog-xodimlarning o‘z-o‘zini maqbul baholash, hayotdan qoniqish hissi, noaniqlikka toqatlilik, frustratsion vaziyatlarga sabr bilan munosabatda bo‘lish, refleksivlik, ruhiy barqarorlik, kreativlik kabi o‘z-o‘ziga ijobiy munosabati yotadi. Kommunikativ-faoliyatli mezon ta’lim sohasi xodimlarining kishilarga ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra farqlarini tan olish, tushunish va qabul qilish kabi munosabatlari aks etadi.

Ta’lim sohasi xodimlarining pedagogik tolerantligini rivojlantirishning konseptual asoslarini aniqlashtirish kasbiy ta’lim jarayonida quyidagi zamonaviy yondashuvlariga tayanishni taqozo etadi: tizimli, faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan, madaniyatshunoslikka doir, dialogik. Chunki istalgan jarayon singari pedagogik tolerantlikni rivojlantirish uchun zamonaviy metodologik yondashuvlarga xos tamoyillar asosida pedagogik-psixologik o‘zaro birgalikdagi faoliyat metod va usullarini o‘z ichiga oladigan tashkiliy shart-sharoitlar talab qilinadi. Pedagogik tolerantlikning rivojlanishi uchun pedagogik va psixologik shart-sharoitlar bir xil ahamiyat kasb etadi. Jumladan, quyida taklif etilayotgan pedagogik shart-sharoitlar maqbul ta’limiy muhitni yaratishga imkon beradigan chora-tadbirlar majmuyini o‘zida ifoda etadi: transditsiplinar yondashuv asosida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish mazmuni bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning sa’y-harakatlarini kuchaytirish; shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv, dialogik o‘zaro birgalikdagi faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘qitishning interfaol metod va texnologiyalarini samarali qo‘llash; bo‘lajak o‘qituvchilar-

ning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonlarini fasilitatsiyalash. Psixologik shart-sharoitlar shaxsiy salohiyatni oshirishga yo'naltirilgan o'qitishning intersubyektli jarayonni rivojlantirishga imkon beradi. Psixologik shart-sharoitlarni ikki guruhga ajratish mumkin: psixologik qo'llab-quvvatlash, tashkiliy va muvaffaqiyatga erishish treninglari, guruh uchrashuvlari kabilar bilan aloqador tashqi hamda talabalarning umuminsoniy va pedagogik madaniyatini rivojlantirish, shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini realizatsiyalash singari ichki.

Bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning hayotiy nuqtai nazarlari va qadriyatlarini shakllanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkab holatlar, kasbiy shakllanish jarayonida, shu jumladan, oliy ta'limda tahsil olishning barcha yillari(uzluksiz amaliyot ham – 4+2 sxemasi bo'yicha va malakaviy pedagogik amaliyot)ni qamrab oladigan talabalarda qayg'urish hissini uyg'otadigan inqirozlarni muvaffaqiyatli bartaraf etish imkoniyati hisobga olishini lozim.

Empirik tadqiqotlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda darajaviy yondashuv muayyan shaxs sifatlarini tarkib topishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi: o'z-o'zini maqbul baholash va frustratsion vaziyatlarga sabr bilan munosabatda bo'lish bilan bog'liq invariantli hamda variativ: birinchi kursda – altruizm va konformizm; ikkinchi kursda – ruhiy barqarorlik; uchinchi kursda – altruizm; to'rtinchi kursda – boshqalarning individualligini tan olish va qabul qilish. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarni rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi. Jumladan, birinchi kursda shaxslararo tolerantlik darajasini oshirishga qaratilgan o'z-o'zini maqbul baholashga doir akmeologik treninglar; ikkinchi kursda o'z-o'zini boshqarish va koping-strategiyalarni o'zlashtirish; uchinchi kursda o'z-o'zini maqbul baholash, stresslarni bartaraf etishning samarali metodlarini o'zlashtirish, ijtimoiy persepsiyani rivojlantirish va kommunikativ kompetentlikni oshirish; to'rtinchi kursda talabalarda pozitiv kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini baholashni rivoj-

lantirish, stereotip xulq-atvorni o‘zgartirish, ijtimoiy-psixologik barqarorlikni rivojlantirish, shaxslararo va kasbiy o‘zaro birgalikdagi faoliyatda yuzaga keladigan nizolarga yechim topish ko‘nikmalarini takomillashtirishga doir pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish maqsadga muvofiq.

1.3-§. Tolerantlik muammosi kontent tahlili va pedagogik jihatlari

XXI asr dunyo miqyosida inson huquqlarini ta’minlash barcha davlatlar siyosatining asosiy indikatoriga aylanishi, globallashuv oqibatida odamlar yashash tarzining unifikatsiyalashuvi, shuningdek, siyosiy, milliy, madaniy va diniy plyuralizm, xalqaro integratsiya kuchayishi bilan belgilanmoqda[75]. Globalizatsiya ijtimoiy o‘zgarishlarning makroomili bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarning jadal rivojlanishi, jamiyat a’zolarining turli manfaatlarini ifodalovchi kuchlarning faollashuvini taqozo etmoqda[76].

Dunyo miqyosida tolerantlik va uning tarkibidagi millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyalari XXI asrning umumbashariy qarashlaridan biri sifatida talqin qilinmoqda. YUNESKO tashkilotining 1995-yil 16-noyabrda Parij shahrida bo‘lib o‘tgan 28-sessiyasida ishtirok etgan 185 ta davlat ishtirokchilari va mas’ullari “Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi”[77]ni imzoladilar. Deklaratsiyada barcha davlatlar rahbarlariga murojaat mavjud bo‘lib, hukumatlar, ta’lim vazirlari va mutasaddilar mamlakatlar ta’lim tizimi zimmasiga tolerantlik g‘oyalarini tatbiq etish, ta’lim mazmunini uning barcha bosqichlarida millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyalari bilan boyitish va

[75] Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажагимизнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 64 б.

[76] Ўзбекистонда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш борасида раҳбар кадрлар олдида турган вазифалар: мавжуд ҳолат, муаммолар ва ечимлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари // Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси. Тошкент, 2019. – 234 б.

[77] Бағрикенглик тамойиллари Декларацияси. ЮНЕСКО ваколатхонаси нашри. Нашр учун масъуллар: А.Саидов. К.Жўраев. – Т.:ЮНЕСКО, 1999. – 15 б.

takomillashtirish vazifasini qo‘ydilar. Shuningdek, BMT tomonidan 2003-yil dunyo miqyosida “Xalqaro tolerantlik yili” deb e’lon qilindi. 16-noyabr esa “Xalqaro tolerantlik kuni” sifatida e’lon qilindi hamda jahon miqyosida nishonlana boshlandi[78].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil sentyabr oyida Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida, ya’ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yalpi majlisida xalqaro hujjat – “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasini qabul qilish lozimligi g‘oyasi bilan chiqdi[79]. Mamlakatimiz rahbarining ilg‘or va dolzarb tashabbusi dunyo davlatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va rezolyutsiya qabul qilindi[80]. Buning natijasida BMTga a’zo barcha davlatlarning ta’lim muassasalarida dinning insonparvarlik mohiyati bo‘yicha maxsus darslar va targ‘ibot ishlari olib boriladi, ularda din hech qachon zo‘ravonliklar bilan bir qatorga qo‘yilmasligi ta’minlanadi, shuningdek, dunyo miqyosida ekstremizm, terrorizm tushunchalari din, diniy e’tiqod, xususan, islom dini so‘zi bilan bog‘lanmaydi. Chunki islom dini terrorizmning har qanday ko‘rinishlari va amaliyotini keskin qoralaydi, islom dini bu tinchlik va osoyishtalik, mo‘tadillik dinidir.

Globallashuv jarayoni turli mamlakatlar va madaniyatlar uchun o‘zgacha fikrlar, qadriyatlar, madaniyatlarga toqat qilish, muloqot va o‘zaro bir-birini tushunish g‘oyalari, o‘zaro qabul qilinadigan murosalarni topish kabi umumiy mavjudlik va erkin rivojlanish uchun zarur bo‘lgan tamoyillarni olg‘a surmoqda. Bu esa, milliy o‘zlikni anglash, etnik identifikatsiya masalalariga sezgirlikning ortishi bilan bog‘liq jarayonni keltirib chiqaradi hamda tolerantlik muammosining dolzarbligini belgilaydi. Tolerantlikning ijtimoiy hayotda past darajada namoyon bo‘lishi intolerantlikning shovinizm, rasizm, etnik toqatsizlik,

[78] Арипова Г.Ш. Оилада ўсмир ёшдаги болаларда толерантлик тафаккурини шакллантириш. пед.ф.н. ... дисс.автор. –Тошкент, 2011. – 26 б.

[79] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи // “Халқ сўзи”, 2017 йил 20 сентябрдаги 189 (6883)-сон.

[80] Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 213 б.

ksenofobiya kabi ko‘rinishlarining jadallashuviga olib keladi. Amaliyot nuqtayi nazaridan tolerantlikni o‘rganishning dolzarbligi intolerant xulq-atvor shakllariga qarshi ijtimoiy-pedagogik strategiyani ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

V.A.Lektorskiy ta’kidlaganidek, “juda soddadek tuyuladigan tolerantlik g‘oyasi aslida unchalik ham oddiy emas”. Chunki u “insonni anglash, uning ayniyligi, bilish va o‘zaro tushunish imkoniyatlari hamda chegaralariga oid qator muhim falsafiy savollar bilan chambarchas bog‘liq”[81]. Mazkur hodisani tushunishning murakkabligi shundaki, u umuminsoniy, shu bilan bir vaqtning o‘zida nisbiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Tolerantlik hodisasiga konseptual yondashuv ikki jihat bilan bog‘liqdir: 1) tolerantlik ma’no-mazmun jihatdan sabr-toqatlilik bilan aloqadorligi; 2) tolerantlik bilan axloqiy befarqlik va relyativizm o‘rtasidagi juda nozik farq, tolerantlikning chegaralarini aniqlab olish. Mazkur jihatlarni hisobga olish bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda transdissiplinar yondashuvga amal qilish va aniq maqsadga yo‘nalganlikni belgilab olish imkonini beradi. Masalan, M.Korbet[82] tolerantlikning AQSH siyosiy sistemasida tutgan maqeyiga nazar tashlaydi, siyosiy sistema va tolerantlik munosabatlarini ko‘rib chiqadi. M.Mineli[83] esa, o‘zaro erkinlik va tolerantlik tushunchalari va ular muvozanati masalalarini ko‘rib chiqadi. F.Gulen[84] va A.Elis[85] tolerantlikni zamonaviy dunyoqarash sifatida baholab, uni jamiyatlardagi turli munosabatlarni boshqaradigan va tartibga soladigan ta’sir kuchi sifatida talqin qiladi. D.A.Karson[86] tolerantlikning zamonaviy sharoitdagi ijtimoiy ahamiyatini ochib ber-

[81] Лекторский В. А. О толерантности, плюрализме и критицизме // Вопросы философии. – 1997. – № 11. – С.46-54.

[82] Korbet M. Political Tolerance in America: Freedom and Equality in Public Attitudes. – 2014. – vol.58. – No.4. – pp.129-156.

[83] Maneli M. 2024. Freedom and Tolerance. – N.Y.: Octagon Books. – 571 p.

[84] Gulen F.M. 2004. Toward a Global Civilization of Love & Tolerance. Somerset, N.J.: Light, Inc. – 269 p.

[85] Ellis A. 2004. Road to Tolerance: the Philosophy of Rational Emotive Behavior Therapy. Amherst, N.Y.: Prometheus Books. 271 p.

[86] Carson D. A. 2012. The Intolerance of Tolerance. Cambridge: William B. Eerdmans Publishing Company. – 196 p.

gan. S.L.Jozef[87], K.Sedmak[88], F.Lomanoko[89] kabilar esa, tolerantlikka qarama-qarshi bo'lgan axloqiy va dunyoqarashga doir sifatlarni tahlil qilish orqali aynan "tolerantlik" atamasininig konsept sifatidagi o'ziga xosligini aniqlashtirishga harakat qilishgan.

A.Fial, D.Herbert, V.M.Douns kabi olimlarining bir qancha asarlarida ham tolerantlik muammosining konseptual jihatlari tahlil qilingan. Masalan, 2017-yilda nashr qilingan Sekulyar kosmopolitizm, mehmondo'stlik, va diniy plyuralizm (Secular Cosmopolitanism, Hospitality and Religious Pluralism) kitobida tolerantlik muammosi zamonaviy dunyoning turli dunyoqarashlari, voqelikni baholashdagi qutbiy qarama-qarshiliklar hamda diniy e'tiqod bilan bog'liq turli mafkuralar nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan[90]. Shu bilan birga mazkur olimlar asarlarida tolerantlik muammolari xalqaro migratsiya, multikulturalizm, globallashuv kabi ijtimoiy voqeliklar bilan bog'liqlikda tahlil qilingan.

M.Katarchi va M.Fioruchchi[91]ning tadqiqotlari tolerantlikni, aynan, pedagogik maqsad sifatida o'rganilgan. 2015-yilda nashr qilingan "Yevropa kontekstida madaniyatlararo ta'lim: nazariyalar, amaliyotlar, o'zgarishlar" (Intercultural Education in the European Context: Theories, Experiences, Challenges. Farnham, Surrey; Burlington, VT: Ashgate) kitobida tolerantlikka psixologik-pedagogik voqelik sifatida baho berilgan hamda uning zamonaviy dunyo voqeligi uchun tarbiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida o'rganilishi zarurligi alohida qayd etib o'tilgan. Zamonaviy Yevropa davlatlari madaniy turfa xillikni hurmat qilmasdan, taraqqiyot yo'liga chiqa olmasligi,

[87] Joseph C.L. 2017. Radical Humanism and Generous Tolerance. Lanham, MD: Hamilton Books. 112 p.

[88] Sedmak C. 2015. Toleranz: vom Wert der Vielfalt. Darmstadt: WBG, Wissenschaftliche Buchgesellschaft. – 268 p.

[89] Lomonaco F. 2013. Tolerance: Stages in Modernity from Holland to Italy. N.Y.: Peter Lang. 250 p.

[90] Fiala A. 2017. Secular Cosmopolitanism, Hospitality, and Religious Pluralism. N.Y.: Routledge. 210 p., (2013) Creating Community Cohesion: Religion, Media and Multiculturalism. (2012) Hampshire; NY: Palgrave Macmillan. Political Extremism in Democracies: Combating Intolerance. N. Y.: Palgrave Macmillian.

[91] Catarci, M. (2015). Interculturalism in Education across Europe. In M. Catarci, & M. Fiorucci (Eds.), Intercultural Education in the European Context: Theories, Experiences, Challenges (pp. 1-34). Farnham, Surrey & Burlington, VT: Ashgate.

buning uchun esa ta’lim oluvchilarda, shu jumladan, bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar oilb borish zarurligi ta’kidlab o‘tilgan. Aynan tolerantlikka asoslangan kommunikativ va ijtimoiy sifatlarni ham bo‘lajak o‘qituvchilarda ham o‘quvchilarda tarkib toptirish zarurligi uqtirib o‘tilgan.

R.F.Gote[92]ning 2014-yilda fransuz tilida nashr qilingan Fransiya maktablarida bolalar tolerantligini ta’minlashga doir tadqiqotida (Ce que l‘ecole devrait enseigner. Pour une revolution de la politique scolaire en France. Edictions Dunod) tolerantlik masalalarining ta’lim tizimi uchun dolzarbligi haqidagi qator konseptual g‘oyalar ilgari surilgan.

Tolerantlik umumiy ijtimoiy-siyosiy voqelik va holat bo‘lishi bilan birgalikda uning mohiyatida milliy tafakkur va dunyoqarash, diniy omilning o‘rni ham mavjud. Mazkur holatda har bir olim qarashiga nisbatan aynan milliy ong va milliy manfaatlardan kelib chiqqan holdagi xolis baho berish maqsadga muvofiq.

Ayrim olimlar tolerantlikni butunlay sabr-toqat bilan tenglashtirishga urinishadi. Boshqa tadqiqotchilar esa, tolerantlikni cheksiz sabr-toqat sifatida qabul qilib bo‘lmasligini ta’kidlaydilar, chunki u har qanday “boshqachalik”ni shartsiz qabul qilishni anglatmaydi; bu faqat sabr-toqat emas, balki “insonning shaxsiy toqatlilik va toqatsizlik o‘lchovi”dir; ya’ni u hamma narsaga nisbatan majburiy sabr-toqatni talab etmaydi, chunki bu holda inson yoki guruh tomonidan umumqabul qilingan axloq me’yorlarini buzishga, kimningdir huquq va erkinliklarini cheklashga olib kelishi mumkin.

Ba’zi tadqiqotchilar esa bu ikki tushunchaning o‘xshashligini umuman inkor etadilar. Masalan, G.U.Soldatova[93]ning fikricha, “sabr-toqat” so‘zining semantik ma’nosi “tinchlik madaniyati” kontekstidagi tolerantlikni tushunish uchun uncha mos bo‘lmagan jihatlar bilan ortiqcha tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy jamiyatda

[92] Roger-François Gauthier. 2014. Ce que l’école devrait enseigner: Pour une révolution de la politique scolaire en France.

[93] Солдатова Г. У. Практическая психология толерантности [Электронный ресурс]. URL: http://www.tolz.ru (дата обращения: 18.03.2023).

sabr-toqat tolerantlikning faqat bir jihatini aks ettiruvchi sifat tarzida qaraladi, shuning uchun ularni bir xil ma'noga ega tushunchalar deb bo'lmaydi.

Xuddi shunga o'xshash fikr L.N.Konovalova[94] asarlarida ham kuzatiladi. Uning fikricha, o'zgacha fikr yoki madaniyatga tolerant munosabat nafaqat axloqiy burch, balki "siyosiy va huquqiy talab" hamdir. Shu sababli, u mazmun jihatidan tolerantlik endi sabr-toqatning sinonimi emas, balki har qanday ksenofobiyaga qarshi qaratilgan maqsadli yo'nalish bo'lib, dunyoda nizolarning oldini olishga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Amerikalik siyosatshunos N.Eshford[95] tolerantlik fenomenini quyidagicha tushuntiradi: "Tolerantlik – bu agar biror inson sizning xatti-harakatlaringizni ma'qullamasa, o'sha insonning fikriga xalaqit bermaslik, ya'ni o'z xatti-harakatingiz bilan aralashtirmaslikdir. Demak, tolerantlik ikki muhim xususiyatga ega: ma'qullanmaydigan xulq-atvor va bir shaxsning o'z nuqtai nazarini boshqalarga majburan singdirishdan voz kechishi".

E.Y.Klepsova "sabr-toqat" va "tolerantlik" tushunchalarini farqlashga harakat qiladi. Xususan, u quyidagicha yozadi: "Sabr-toqatni biz shaxsning xususiyati sifatida ta'riflaymiz, u insonning butun olamga, narsalarga, boshqa odamlarga, ularning qarashlariga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalaydi; u fikrlar, qadriyatlar, qarashlar, odamlarning xulq-atvori va shunga o'xshash mos kelmagan holatlarda namoyon bo'ladi va obyektga nisbatan sezgirlikning oshishi bilan tavsiflanadi... Tolerantlik esa, shaxsning shunday xususiyati bo'lib, u fikrlar, qarashlar, baholash, e'tiqodlar, odamlarning xulq-atvori va shunga o'xshash holatlarda mos kelmaslik yuzaga kelganda namoyon bo'ladi va obyektga nisbatan sezgirlikning pasayishi bilan tavsiflanadi"[96].

---

[94] Коновалова Л. Н. Бизнес, толерантность и культура мира — путь к диалогу в обществе и становлению репутации отечественного предпринимательства [Электронный ресурс]. URL: http://peace.unesco.ru/tolerance/pub/konovalova.htm

[95] Ashford N. Toleration // Ashford N. Principles for a Free Society. Second edition. Bromma: Blomberg and Janson, 2001.

[96] Клепцова Е. Ю. Психологические условия формирования терпимого отношения педагогов к детям: дисс. ... канд. психол. наук. Курск, 2001. – С.6.

Sabr-toqat va tolerantlik turli funksiyalarni bajaradi va xilma-xil mexanizmlar orqali amalga oshadi. Tolerantlikning asosiy mexanizmi sabr-toqat (bardoshlilik, o‘zini tuta bilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish) hisoblanadi, bu esa noxush omillarga nisbatan sezgirlik chegarasini pasaytiradi. Tolerantlikning ikkinchi mexanizmi hisoblangan “qabul qilish” so‘nggi o‘rinni egallaydi va ba’zi hollarda umuman namoyon bo‘lmasligi ham mumkin. Sabr-toqatning yetakchi mexanizmi esa, aksincha, biror narsani boricha qabul qilish (tushunish, empatiya, assertivlik) hisoblanadi; bu holda sabr-toqat so‘nggi o‘ringa o‘tsada, o‘z salohiyatini yo‘qotmaydi va shaxs tomonidan faol ravishda qo‘llaniladi.

“O‘zimniki – boshqaniki” paradigmasi doirasida “tolerantlik – bu shunchaki sust qabul qilish emas, balki noaniq, tushunarsiz, begona narsa bilan yaqinlik nuqtalarini faol izlash, shu noaniqlikni anglash istagidir. Begona narsani sust qabul qilish – bu konformizm elementi, ya’ni individuallikni yo‘qotish ehtimoli bo‘lgan jarayon”[97].

Shunday qilib, tolerantlik va sabr-toqat o‘rtasidagi farqni ko‘rsatuvchi bir qator nuqtai nazar mavjud. Umuman olganda, sabr-toqat ma’lum darajada o‘z-o‘zini azoblash holatini anglatadi: “chidayapman, chunki boshqa ilojim yo‘q”. Tolerantlik esa faol pozitsiyadir. U o‘zgani u qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishni nazarda tutadi – ya’ni o‘z nuqtai nazaridan voz kechmasdan, biroq uni sherigiga majburan singdirmasdan tushunishga intilgan fikriy harakatdir. Bunday holda tolerantlik o‘zgacha nuqtai nazarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va shu bilan birga, ma’no-mazmunli, tanqidiy muloqot orqali o‘zaro pozitsiyalar o‘zgarishiga tayyorlik sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq barcha “o‘zgacha”likka (bulling, ma’naviyatsizlik va boshqalar) nisbatan ham tolerant bo‘lish maqbul emas. Bu borada V.I.Samoxvalova[98]ning fikrlarini qo‘llab-quvvatlash mumkin:

[97] Солдатова Г.У., Асмолов А.Г., Шайгерова Л.А. О смыслах понятия «толерантность» // Век толерантности. – 2001. – № 1. – С.8-19.

[98] Самохвалова В. И. О содержании понятия «толерантность» в современном культурном контексте [Электронный ресурс]. URL: http://www.intelros.ru/readroom/fg/fg_1/5392-o-soderzhanii-ponyatiya-tolerantnost-v-sovremennom-kulturnom-kontekste.html

"Ma'lum bir me'yorlarga xilof xatti-harakatlarga, hatto patologiyalarga nisbatan tolerantlik haqida gapiriladi; ammo bu holda gap tolerantlik haqida emas, balki psixologik jihatdan sog'lom shaxs (shu jumladan, jamiyat) uchun xos bo'lgan tabiiy "immunitet"ning zaiflashishi yoki yo'qolishi haqida ketmoqda. Turli xil buzilishlarga nisbatan tolerantlik ko'pincha befarqlik va kuchsizlikka aylanadi, masalan, pastkashlikka, behayolikka, shafqatsizlikka, xiyonatga nisbatan holatlar shular jumlasidandir".

O'z-o'zidan qator savollar tug'iladi: tolerant munosabat bilan befarqlik yoki yaxshilik va yomonlikni farqlamaslik o'rtasida qanday chegara mavjud? Tolerantlik ikki xil standartlarga asoslangan holda shaxs ongida axloqsizlik ko'rinishlariga nisbatan befarqlikni shakllantiradigan, psixologik ehtiyojlargagina asoslanib, shaxslararo va madaniyatlararo munosabatlarni rivojlantirishning universal vositasi sifatida asossiz da'voga aylanib qolmaydimi? va boshqalar.

V.V.Cheshev[99]ning fikricha, umuminsoniy hamjihatlik axloqi tolerantlik bilan uyg'un emas. Uning fikricha, tolerantlik, avvalo, muayyan sivilizatsiyalarning mafkuraviy kategoriyasidir; shu bilan birga, yangi jahon tartibi orbitasiga tortilayotgan xalqlar tolerant ongga ega bo'lishlari kerak va ular, avvalo, turli tamaddunlarga nisbatan tolerant bo'lishlari lozim. Ammo ayrim sivilizatsiyalarning o'zi tanqidiy munosabatda bo'lgan madaniyat vakillari bilan muloqot olib borishga moyil emas, chunki ular bunday tanqidiy munosabatni rivojlanishdan ortda qolganlik natijasi, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, axloqiy nuqtayi nazardan, umuminsoniy hamjihatlik etikasidan farqli ravishda, tolerantlik yaxshilik va yomonlik o'rtasiga aniq chegara qo'yishni nazarda tutmaydi.

Tolerantlik fenomenidagi ikki xil standartlikning mavjudligini ko'plab tadqiqotchilar ham ta'kidlab o'tishgan. P.Nikolson[100]ning fikricha, tolerantlikning "salbiy ma'no"si "o'zimiz rozi bo'lmagan g'o-

[99] Чешев В. В. Проблема общечеловеческой солидарности в русской культуре [Электронный ресурс]. URL: http://www.situation.ru.

[100] Николсон П. Толерантность как моральный идеал [Электронный ресурс]. URL: http://rudocs.exdat.com/docs/index-563614.html

yalarni erkin ifoda etishga ruxsat berishimiz kerakligi"; ijobiy ma'nosi esa, "ushbu g'oyalarning erkin ifoda etilishiga axloqiy qadriyat sifatida munosabatda bo'lishimiz lozim"ligini bildiradi. M.B.Xomyakov[101] tolerantlikni "tamomila qabul qilib bo'lmaydigan og'ishlarga qarshi kuch ishlatishdan tiyilish uchun "ajoyib" fazilat", deb ataydi. V.A.Tishkov[102] esa, shunday ilmiy farazni ilgari suradi: "Tolerantlik tushunchasining zamonaviy talqini tolerantlikning o'ziga xos tamoyillarining buzilishiga olib kelmasa; agar u shaxs va jamiyatga ochiq zarar yetkazish imkoniyati yoki resursiga ega bo'lmasa, u holda toqatsizlikka ham toqat bilan munosabatda bo'lishni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday tushunishda tolerantlik, aslida, jamiyatga umumiy zarar yetkazmaydigan turli fikrlar va amaliyotlar mavjudligiga nisbatan befarqlik sifatida namoyon bo'ladi. Olimning fikrlaridan anglash mumkinki, shaxsiy yoki "halim" toqatsizlik shakllarini bostirish, aslida, tolerantlik konsepsiyasi va siyosatining o'zini ham degradatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, tolerantlik avvalo, ko'pqutbli dunyoda nizosiz bahamjihatlilik vositasi bo'lishi uchun uni madaniy mazmunni bir xil, sifatsiz va qadriyatsiz holga keltirish, inson mavjudligining darajasini pasaytirish instrumenti emas, balki zamonaviy fikrlar xilma-xilligini tartibga solish usuli sifatida qarash kerak. Shuning uchun mazkur hodisaga mas'uliyat nuqtayi nazaridan, ya'ni Baxtin falsafasiga ko'ra, "borliqda alibining yo'qligi" tamoyilidan yondashish zarur. Bu o'rinda axloqning oltin qoidasini esga olish lozim: men boshqa insonga o'zim kabi, o'zimga esa, boshqaning nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishim kerak. Bu holda axloqiy xulq-atvor qandaydir qat'iy qoidalar tizimiga amal qilish emas, balki boshqalarning muammolari va dardiga hamdard bo'lish

[101] Хомяков М. Б. Парадигмы религиозной толерантности: время для новых теорий? // Деятельность органов государственной власти и религиозных организаций по формированию толерантного сознания в межконфессиональных отношениях: материалы окруж. науч.-практ. конф. (г. Екатеринбург, 31 марта — 1 апреля 2004 г.). – Екатеринбург, 2004. – С. 22-26.

[102] Тишков В. А. О природе толерантности и нетерпимости [Электронный ресурс]. URL: http://www.valerytishkov.ru/

qobiliyati va mahoratidir. Bu – boshqa inson mavjudligini tasdiqlash usuli, uning borlig'ini mening borlig'imga qo'shish, shu bilan birga mening borlig'imni uning borlig'iga qo'shish usulidir. Shuning uchun ham tolerantlikni germenevtik yondashuv bilan bog'liq holda inson hayotining bir shakli (modusi) sifatida talqin qilish lozim. Tushunish "borliqda alibi yo'qligi" va "o'zga"ga nisbatan empatiklikni ifoda etadi. Tolerant munosabat esa "o'zga"ga yo'naltirilganlik, affiliatsiyani ifodalaydi. Bunday tushunish va qabul qilish axloqiy konformizmdan, e'tiborsizlik va kibrli, mensimaydigan munosabatdan qochishga yordam beradi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, tolerantlik muammo sifatida ilmiy bilishning turli sohalari, shu jumladan, falsafa, sotsiologiya, psixologiya kabilarning tadqiqot predmetini o'zida aks ettiradi. Pedagogikada tolerantlik odamning turli ko'rinishdagi qiyinchiliklarga psixologik moslashuvchanlik qobiliyati sifatida talqin qilinadi yoki jamiyatda pedagoglar va o'quvchi-yoshlarning xulq-atvorining axloqiy asoslari, ularning turli millat va madaniy guruhlar bilan o'zaro birgalikdagi harakatini aks ettiradigan insonning kishilarga qadriyatli munosabati ko'rinishida namoyon bo'ladi. Pedagogik amaliyotda ta'lim jarayoni ishtirokchilarida tolerantlikni shakllantirish jarayoni uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishga alohida urg'u qaratiladi.

"Tolerantlik" tushunchasi mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qator tadqiqotlarda u bir tomondan "toqatlilik", boshqa tomondan "zulm qilmaslik", yana bir jihatdan "bag'rikenglik" so'zlari bilan ifodalangan. Bizningcha, tolerantlikni to'g'ridan to'g'ri toqatlilik, zulm qilmaslik yoki bag'rikenglik bilan bog'lash maqbul emas, aksincha, uni ijtimoiy va individual ongda o'zaro hurmatga asoslangan dialogga kirishish, hamkorlikni o'rnatishni talab etadigan faol axloqiy nuqtayi nazar sifatida talqin qilish o'rinli bo'ladi.

Tolerantlik tushunchasi kontent tahlili mazkur atamaning turlicha talqin qilinishini ko'rsatadi. Ko'pgina lug'atlarda ushbu atama insonga yoqsa-yoqmasa yoki u bunga rozi bo'lmasa-da uning turli fikrlar, harakatlar yoki madaniy o'ziga xosliklarni qabul qilishi sifatida

qaraladi. Biroq kundalik nutq va amaliy psixologiyada hamma vaqt ham tolerantlikda qabul qilmaslik yoki yoqtirmaslik elementlari ifodalanmaydi, aksincha, boshqa madaniyat egalari, din yoki siyosiy qarashlarni qabul qilish tarzidagi neytral ma'no tushuniladi. Masalan, "Psixologiya bugun" (Psychology Today) jurnalida nashr etilgan Jefferson Fish (2014)ning "Tolerantlik, Qabul qilish, Tushunish ...va kundalik hayot va tadqiqotlarda ular qanday farqlanadi" (Tolerance, Acceptance, Understanding ...And how they differ in everyday life and in research) maqolasida tolerantlik "bizning shaxsiyatimizdan farqli ravishda fikrlar, odatlar, irq, din, millat kabilarga adolatli, obyektiv va toqat bilan munosabatda bo'lish"[103] sifatida aniqlashtirilgan.

M.Xerm, M.Eger, A.Boxman va F.Konolli (2020, A new approach to the study of tolerance: Conceptualizing and measuring acceptance, respect, and appreciation of difference)[104] tolerantlikni o'rganishga doir yangi yondashuvlarni tahlil etish jarayonida mazkur tushunchaning akademik ta'rifini aniqlashtirishda yoqtirish yoki yoqtirmaslikning mavjudligiga asoslanish lozim, degan xulosaga kelgan. Y.Vogt (1997, Tolerance and education: Learning to live with diversity and difference)[105], M.Verkuyten, L.Slooter (2007, Tolerance of Muslim beliefs and practices: Age related differences and context effects)[106], K.Rapp, M.Freytag (2015, Teaching tolerance? Associational diversity and tolerance formation)[107]lar mazkur atamani izohlashda inson o'zi istamagan narsaga chidamliligi g'oyasi markaziy o'rin egallashini ta'kidlab o'tishgan. Masalan, Y.Vogt tole-

[103] Fish, J. M. (2014). Tolerance, Acceptance, Understanding …, and how they differ in everyday life and in research. Psychology Today. https://www.psychologytoday.com/us/blog/looking-in-the-cultural mirror/201402/ tolerance-acceptance-understanding.

[104] Hjerm, M., Eger, M. A., Bohman, A., and Connolly, F. F. (2020). A new approach to the study of tolerance: Conceptualizing and measuring acceptance, respect, and appreciation of difference. Social Indicators Research, 147, 897–919.

[105] Vogt, W. P. (1997). Tolerance and education: Learning to live with diversity and difference. Published: Thousand Oaks: Sage Publications, 1997.

[106] Verkuyten, M., and Slooter, L. (2007). Tolerance of Muslim beliefs and practices: Age related differences and context effects. International Journal of Behavioral Development, 31(5), 467–477. https:// journals.sagepub.com/ doi/10.1177/0165025407081480.

[107] Rapp, C., and Freitag, M. (2015). Teaching tolerance? Associational diversity and tolerance formation. Political Studies, 63(5), 1031–1051. https:// doi.org/10.1111/1467-9248.12142.

rantlikni "inson sevmaydigan, qarshi bo'lgan, tahdid deb biladigan yoki boshqacha ko'rinishda salbiy munosabatda bo'lgan kishilar oldida atayin o'z-o'zini tiya bilish" sifatida aniqlashtirgan. M.Xerm va uning hammaslakdoshlari boshqa madaniyat, dinlar va siyosiy nuqtai nazarlarni qabul qiladigan, e'tiroz bildirish o'rinsiz deb hisoblaydigan kishilarni tolerant deb bo'lmasligini qayd etishgan. Bu esa mazkur atamani maxsus vaziyatlar va mentalitetga nisbatan foydalanishni cheklaydi. Olimlar tolerantlikni obyektga neytral va pozitiv munosabatni o'z ichiga oladigan keng ma'noda tushunish lozimligini ham qayd etib o'tishgan.

Tolerantlik (lot.tolerantia – chidam, sabr-toqat), bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish. Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir. Biror-bir insonda yoki biror-bir begona madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak. Ya'ni tolerantlik bu o'zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda buysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi[108].

Ijtimoiy ishga doir lug'at-ma'lumotnomada esa: "Tolerantlik – ijtimoiy ishning boshqaruv tamoyili, individlar, guruhlar va ijtimoiy hamjamiyatlar o'rtasidagi madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarni tan olish, odamlarning tashqi qiyofasi, xatti-harakati, qadriyatlar yo'nalishi va ulardagi farqlarga nisbatan bag'rikenglikdir"[109], deyilgan.

"Tolerantlik" tushunchasi uzoq asrlar davomida shakllandi va hozirgi vaqtda ham turli belgilar bilan to'ldirib borilmoqda. Tolerantlik

[108] Фалсафа: энциклопедик луғат. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2010. – Б.260-261.

[109] Словарь-справочник по социальной работе. / Под.ред. проф. Е.И.Холостовой. – М.: Юристъ, 1997. – С.366.

tushunchasi turli madaniyat va xalqning tarixiy tajribasi bilan bog‘liqlikda xilma-xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida nashr etilgan lug‘atlarda “tolerantlik”ning “bag‘rikenglik” tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatilish holati ko‘zga tashlanadi: “Bag‘rikenglik – o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g‘amxo‘r, saxiy, kengfe’lli bo‘lgan, ana shunday ma’naviy fazilatlarga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha. Bag‘rikenglik o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlariga hurmat-ehtiromda bo‘lish, muomala-munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo‘l qo‘ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-ko‘yda bunga rioya etishni anglatadi. Mazkur tushuncha turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch-osoyishta yashashini ifoda etadi”[110].

Xuddi shunday boshqa xalqlarda ham mazkur tushunchaning o‘ziga xos ta’riflari mavjud. A.Ro‘ziyev tomonidan dunyo tillarida tolerantlikni ta’riflovchi atamalarning lug‘aviy ma’nolari quyidagi tarzda tavsiflangan:

- tolerance (ingl.) – muruvvatli, sabr-toqatli bo‘lishga tayyorlik; to tolerance – sabr-toqatli bo‘lish, hech bir taqiqlashlarsiz o‘z fikrlarini namoyon qilish huquqini berish;
- tolerance (fr.) – boshqalar bizlarga qaraganda yaxshiroq va mukammalroq fikrlashlari mumkinligiga bo‘lgan qat’iy ishonch;
- tolerancia (isp.) – o‘z fikrlari va g‘oyalaridan ham mukammalroqlari borligini tan olish;
- kuan rong (xit.) – boshqalarni boricha qabul qilish va boshqalarga bag‘rikeng munosabatda bo‘lish;
- tasamul (arab.) – ko‘ngilchanlik, rahm-shafqatlilik, kechirimlilik, boshqalarni boricha qabul qilish va kechirish;
- толерантность (rus) – sabrli bo‘lish (o‘zini tuta bilish, toqatli bo‘lish, har qanday sharoitda murosa qila olish), boshqalarning

[110] Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – Б.68.

borligini qabul qilish va tan olish, boshqalarga yoki biror narsaga munosib yoinki munosib emasligini anglash, tan olish[111].

Tasavvuf ta'limotining yetuk namoyandalaridan biri Abdulxoliq G'ijduvoniy bag'rikenglik – xilma-xillik va rang-baranglikni qabul etish, ularga umumiy go'zallikning bir jabhasi sifatida qarab, e'zozlab, ular bilan uyg'un bo'lib yashashdir, deb hisoblaydi. Falsafa fanlari doktori, professor G.Navro'zova Abdulxoliq G'ijduvoniy asarlari asosida bag'rikenglikni qanday namoyon bo'lishini hisobga olgan holda quyidagicha guruhlaydi:

1. Insoniy bag'rikenglik – insonning butun borliqqa muhabbati va uyg'un harakati.
2. Oilaviy bag'rikenglik – oila eshigining va oila ahli qalbining ochiqligi, mehmonnavozlik, mehribon va g'amxo'r bo'lish.
3. Mahalliy bag'rikenglik – qavm-qarindosh, qo'ni-qo'shni, turli din va millat vakillarining hamjihatlik va hamkorlikda o'zaro yordam qo'lini cho'zib yashashi.
4. El-yurt bag'rikengligi – mamlakat ahli bir-birining urf-odat, e'tiqod, g'oyalarni tan olib, hamkor va hamjihat bo'lib yashashi.
5. Xalqlar va millatlararo bagrikenglik – millati, irqi, jinsi darajasi, yashash joyidan qat'i nazar birlik va do'stlikda umr kechirishdir[112].

Yuqoridagi manbalar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, tolerantlik muhim ijtimoiy ko'rsatkichlarga ega: tenghuquqlilik (millati, tili, dini, jinsi, irqiy kelib chiqishidan qat'i nazar barcha odamlar bir xil huquqqa egadirlar); jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etish uchun imkoniyatlarning tengligi; umumbashariy muammolarni hal etishda barcha xalqlar, davlatlar, odamlarning o'zaro hamkorligi; jamiyatning turli qatlam vakillariga o'zaro hurmat va oliyjanoblik; barcha xalqlarning o'z tili, madaniyati, urf-odatlariga amal qilish imkoniyati; jamiyatning boshqa a'zolari huquq va erkinliklariga xalaqit bermaydigan sharoitdagi e'tiqod erkinligi.

[111] Рўзиев А. Референт гуруҳ ва илк ўспиринлардаги толерантлик масаласига ижтимоий-психологик ёндашув. // Ж. Халқ таълими. – 2010, №6. – Б. 97-98.

[112] Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 39-40.

Mazkur ko‘rsatkichlarga asoslangan holda, tolerant va intolerant shaxsga xos sifatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Tolerant tavsifga ega shaxs sifatlariga quyidagilar kiradi: hamdardlik; o‘z-o‘zini anglash; himoyalanganlik; mas’uliyatlilik; ochiqko‘ngillilik; tuyg‘ularni his eta olish; empatiyaga qobiliyatlilik; insonparvarlik. Intolerant tavsifga ega shaxsga xos illatni quyidagicha tasniflash mumkin: o‘ziga bino qo‘yganlik; boshqalar bilan kelisha olmaslik; xavotirga beriluvchanlik; alamzadalik; xudbinlik; tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik; dunyoni turfa xilligini ko‘ra olmaslik; kishilarni o‘z qarashlari bilan baholash. Tolerant va intolerant munosabatlarning komponentli-qiyosiy tahlili 1.3.1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

1.3.1-jadval

Tolerant va intolerant munosabatlarning komponentli-qiyosiy tahlili

Komponentlar	Tolerant munosabat	Intolerant munosabat
Motivatsion- qadriyatli	Tolerantlik qadriyatlarini qabul qilish motivlari: yordam, hamkorlik, muhabbat, yon bosish, muruvvat	Tolerantlik qadriyatlarini qabul qilmaslik motivlari: befarqlik, qabul qilmaslik, boshqalarning qarashlari va xulq-atvorini o‘zgartirish istagi
Kognitiv	Tushunish, qabul qilish mexanizmining rivojlanganligi	Tushunish, qabul qilish mexanizmining rivojlanmaganligi
Emotsional-irodaviy	Sabr-toqat mexanizmining rivojlanganligi: asabiylikni yengish, jahlni tiyish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, empatiya, muhabbat, hurmat, qiziqish, emotsional turg‘unlik	Sabr-toqat mexanizmining rivojlanmaganligi: o‘zini tuta bilmaslik, asabiylik, sovuqlik, befarqlik, emotsional noturg‘unlik, agressivlik, pisand qilmaslik
Konativ	Assertiv xulq: muruvvat, hamkorlik. Muloqot usullari: yon berish, tushuntirish, kelishish, hamkorlik, yordam, ogohlantirish	Agressiv xulq: impulsivlik, o‘zini chetga olish Muloqot usullari: diktatorlik, manipulyatsiya qilish, buyruq berish, qo‘rqitish

Tolerantlik tushunchasi xilma-xil ma'noli va turli qirralarga egaligi sababli ko'plab fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tolerantlik tushunchasi turli talqinlarda uchraydi. Ilmiy adabiyotlarda tolerantlikka, avvalo, hurmat va tenglikni e'tirof etish, hamdardlik va hamfikrlilik sifatida qaraladi. Tolerantlik boshqalarni ular qanday bo'lsalar, shunday qabul qilish va ular bilan kelishuv asosida o'zaro munosabatda bo'lishga tayyorlikni anglatadi. Biroq tolerantlik befarqlikka, konformizmga yoki shaxsiy manfaatlarning kamayishiga aylanib qolmasligi lozim.

Tolerantlik tushunchasining tarixiy konteksti XVIII asrga borib taqaladi. Zamonaviy tolerantlik tushunchasi yoki, aniqroq aytganda, uni fuqarolar tinchligi va adolatsizlikdan himoyalovchi omil sifatida e'tirof etish g'oyasi ko'p jihatdan XVI–XVIII asr faylasuflarining faoliyati bilan bog'liq. Ular "toqatsizlikka toqatli bo'lish" g'oyasi va shafqatsiz diniy to'qnashuvlarga qarshi chiqqanlar. Faylasuflar faoliyatining eng muhim natijasi tolerantlikni umumiy qadriyat va dinlar, xalqlar hamda boshqa ijtimoiy guruhlar o'rtasida tinchlik va totuvlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida tan olish bo'ldi[113].

Ilmiy adabiyotlarda tolerantlik, avvalo, hurmat va tenglikni e'tirof etish, hukmronlik va zo'ravonlikdan voz kechish, inson madaniyatining ko'p qirraliligi va xilma-xilligini tan olish, uni yagona yoki ustuvor nuqtai nazarga aylantirishdan bosh tortish sifatida qaraladi. Tolerantlik insonning atrof-muhit bilan o'zaro hamkorlikka tayyorligi, boshqalarni ular qanday bo'lsalar shunday qabul qilish, lekin o'z dunyoqarashini buzmaslikni nazarda tutadi. U avvalo, barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro faol va teng munosabatiga asoslanadi[114]. Tolerantlik – barkamol shaxsning hayotiy pozitsiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'z qadriyatlari va manfaatlariga ega, zarur bo'lsa ularni himoya qila oladi, biroq shu bilan birga boshqalarning pozitsiyalari va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'ladi[115].

[113] Лихачев Д.С. Письма о добром. – СПб.: «LOGOS», 2007. – С.6.

[114] Братченко С.Л. Межличностный диалог и его основные атрибуты // Психология с человеческим лицом. М., 1997. – С. 201-222.

[115] Зимняя И.А. Педагогическая психология: учеб. пособие. Ростов н/Д: Феникс, 1997. – С.166-170.

Ijtimoiy nuqtayi nazardan tolerantlik insonning boshqalarga o‘z hayot tarzi va xulq-atvorini tanlash huquqini berishga tayyorligi, shu bilan birga zo‘ravonlik, bezorilik va jamiyatning obro‘si yoki farovonligiga tahdid soluvchi xatti-harakatlarni cheklashga intilishidir. Adabiyotlarda ko‘pincha tolerantlik va befarqlik tushunchalari o‘rtasidagi tafovutlar ta’riflanadi, ammo kundalik hayotda shu ma’noga yaqinroq bo‘lgan ko‘plab so‘zlar qo‘llaniladi: toqatlilik, moslashuvchanlik, kechirimlilik, o‘zaro bir-birini tushunish, sabr-toqatlilik. Bu so‘zlar ijobiy ma’noga ega o‘zaro bir-birini boyitib boradigan atamalar bo‘lib, ularning umumiy jihati shundaki, hech biri faol harakatni ifodalamaydi. Mazkur atamalar, asosan, voqea va xatti-harakatlarga nisbatan sust munosabatni ifoda etadi. Shu bilan birga, tolerantlikni betaraflik va nofaollik bilan bog‘lash uning falsafiy mohiyatiga zid kelishi mumkin[116].

Evolyutsion-tabiiy jihatdan tolerantlik “munosabat me’yori” tushunchasiga asoslanadi. Ya’ni, bu ma’lum tur yoki jonzotga xos bo‘lgan va uning genotipini buzmaydigan mas’uliyatli munosabatda namoyon bo‘ladi[117].

Siyosiy nuqtayi nazardan tolerantlik hokimiyatning jamiyatda va hatto o‘z hammaslaklarida ham o‘zgacha fikrlashga yo‘l qo‘yishga tayyorligi, siyosiy bahslarda mag‘lubiyatni munosib qabul qilish va siyosiy plyuralizmni davlatdagi xilma-xillikning ifodasi sifatida tan olish qobiliyati sifatida izohlanadi[118].

Axloqiy nuqtai nazardan tolerantlik insonparvarlik pedagogikasi va psixologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning fazilatlari va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida tushuniladi. Ushbu qadriyatlar, jumladan, insonlarning bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlari va individual xilma-xilligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Agar madaniy

[116] Словарь иностранных слов [около 6000 слов] / под ред. И. К. Сазоновой. – М.: АСТ-Пресс Книга, 2001. – 631 с.

[117] Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А., Шарова О.Д. – Жить в мире с собой и другими; Тренинг толерантности для подростков. 2-е изд., стер. – М.: Генезис, 2001 – С.16-17.

[118] Андреева Г.М. Социальная психология сегодня: поиски и размышления. – М ... – М.: Аспект Пресс, 1999. – 429 с.

turfa xillik qadriyat va boylik sifatida namoyon bo'lsa, tolerantlik raqobatdagi madaniyatlar o'rtasida sivilizatsiyalashgan murosaning me'yori, boshqa mantiq va qarashlarni qabul qilishga tayyorlik sifatida namoyon bo'ladi. U xilma-xillikni saqlab qolish, farqlilik va o'ziga xoslikni himoya qilish uchun muhim shart hisoblanadi[119].

Psixologik-pedagogik nuqtayi nazaridan tolerantlik tushunchasining ta'riflari xilma-xildir. A.Asmolov[120]ning fikricha, bu fazilat uch o'zaro tutashadigan konseptni ifodalaydi: barqarorlik, toqatlilik va qabul qilingan darajada chegaradan chetga chiqish. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda "tolerantlik" atamasi boshqalardan ma'lum jihatdan farq qiluvchi yoki umumqabul qilingan fikrlarga rioya qilmaydigan odamlar bilan muloqot o'rnatish va uni saqlab turishga intilish va qobiliyat sifatida izohlanadi.

Tolerantlik – insoniyatning evolyutsion rivojlanish omillaridan biri bo'lgan fenomendir. U o'zini saqlash instinkti asosida paydo bo'lib, asta-sekin qadriyat va me'yor maqomini olgan[121]. Tolerantlik – bu murakkab va hamma vaqt ham erishish qiyin bo'lgan muvaffaqiyat, chunki jamiyatning asosini guruhiy ong tashkil etadi. Odamlar o'zlarining e'tiqodlarini bo'lishadigan yoki bir tilda so'zlashadigan, yoki bir xil madaniyatga ega bo'lganlar bilan birlashadilar. Bu birlashish turli belgilar bo'yicha amalga oshishi mumkin: millat, etnik guruh, ijtimoiy qatlam, kasbiy, shaxsiy, xalqaro yoki sivilizatsion darajada.

Ijtimoiy-madaniy tolerantlik – turli madaniy sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotda zo'ravonliksiz munosabatni nazarda tutadi. Xalqaro munosabatlarda tolerantlik davlatlar o'rtasida hamkorlik va tinch-totuv yashashning asosiy sharti bo'lib, davlatlarning kattaligi, iqtisodiy rivojlanishi, aholisining etnik yoki diniy mansubligidan qat'i nazar amal qiladi[122].

---

[119] Вачков И.В. Такие разные учителя или новая типология педагогов // Школьный психолог, 2000. № 3. – С. 8-9.

[120] Асмолов А.Г. Толерантность в общественном сознании России. М.: ИЭАРАЮ, 1998. – 156 с.

[121] Декларация принципов толерантности // Век толерантности: Научно-публицистический вестник. – 2001. – Вып. 1. – С. 131-137.

[122] Ситарам К., Когделл Р. Основы межкультурной коммуникации // Человек. – 1992. – № 5. – С.106.

Etnik tolerantlik – bu boshqa xalqlarning turmush tarziga, urf-odatlariga, an'analariga, xulq-atvorlariga, fikr va g'oyalariga nisbatan sabr-toqat bilan munosabatda bo'lishdir. Bu sifat inson o'zining ijtimoiy-madaniy muhitida shakllangan etnik stereotiplari ish bermaganda, yangi me'yorlar hali shakllanish bosqichida shaxslararo yoki ichki tanlov vaziyatlarida namoyon bo'ladi. Etnik tolerantlik boshqa etnos vakillari bilan murakkab yoki nizoli holatlarda ham o'zini namoyon qiladi[123].

Ijtimoiy tolerantlik – jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari va hokimiyat tuzilmalari o'rtasidagi sheriklik asosidagi hamkorlik shakli bo'lib, bunday hamkorlikning zarurligi va turli tomonlarning nuqtayi nazarlariga hurmat bilan qarashni ifoda etadi. U jamiyatdagi munosabatlarni muvozanatlashtirish va uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, insonlarni o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun birlashish huquqini tan oladi[124].

Personallashgan tolerantlik boshqa har bir insonga hurmat bilan munosabatda bo'lish, boshqacha fikrlar mavjudligini anglash orqali namoyon bo'ladi. Har bir inson millat, din yoki boshqa belgilarga bog'liq negizlar asosida emas, balki o'zining shaxsiy sifatlari va amallariga qarab baholanadi[125].

Tolerantlik – turli madaniyatlar, qarashlar va yo'nalishlarga ega odamlar bilan muloqot qilish tuzilmasining muhim qismi hisoblanadi. Tolerantlikka mos keladigan o'zaro munosabatning uch turi mavjud: muloqot, hamkorlik va vasiylik. S.L.Bratchenko[126]ning fikriga ko'ra, muloqotli munosabatda hissiy va kognitiv (aqliy) komponentlar ustun bo'ladi. Bu hissiyot, sherikni his qilish, uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish, boshqalarni standartsiz idrok etish, fikrlashdagi

[123] Толерантность (введение в проблему) // С.К.Бондырева, Д. В.Колесов. – 2-е изд., стер. – М.: МПСИ; Воронеж: МОДЕК, 2011. – 240 с.

[124] Толерантность (введение в проблему) // С.К.Бондырева, Д. В.Колесов. – 2-е изд., стер. – М.: МПСИ; Воронеж: МОДЕК, 2011. – 240 с.

[125] Олпорт Г. Становление личности: избранные труды / Г. Олпорт; [пер. с англ. Л.В. Трубицыной, Д.А. Леонтьева]; под общ. ред. Д.А. Леонтьева. – М.: Смысл, 2002. – 159 с.

[126] Братченко С.Л. Экзистенциальная психология глубинного общения / С.Л. Братченко. – М.: Смысл, 2001. – 213 с.

moslashuvchanlik, o‘z shaxsiyatini to‘g‘ri qabul qilish va baholash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Aynan muloqotli munosabat jamiyatdagi teng pozitsiyalarni nazarda tutadi. Tolerantlik munosabatning ikkinchi turi – hamkorlik, ya’ni birgalikda rejalashtirish, imkoniyatlar asosida kuch va vositalarni taqsimlashni nazarda tutadi. Har bir ishtirokchining imkoniyatlariga asoslangan holda kuch va vositalarni taqsimlash quyidagi belgilar orqali tavsiflanadi: mehribonlik (tajovuzning, jumladan o‘z-o‘ziga ham tajovuzning yo‘qligi), muloqotchanlik, ishonch, harakatlardagi mobillik va ijtimoiy faollik[127]. Vasiylik ham tolerantlikka tegishli munosabat turi bo‘lib, g‘amxo‘rlikni anglatadi. Bu g‘amxo‘rlik himoya qilinayotgan shaxsning qadr-qimmatini kamsitmaydi, balki tabiiy munosabat sifatida qabul qilinadi. Bu tur faqat ikki tomon bir-birini qabul qilganda va bir-biriga nisbatan toqatli bo‘lganda amalga oshadi[128]. Mazkur darajadagi tolerant munosabatlar quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: hissiy barqarorlik, ijtimoiy faollik, ekstravertlik va yuqori darajadagi hamdardlik (empatiya).

E.N.Tretyakova[129] o‘zining “Tolerantlik shaxsning ma’naviy-axloqiy fazilati sifatida” nomli tadqiqotida bugungi murakkab zamonda shaxsning axloqiy sifatlariga bo‘lgan talab yanada dolzarblik kasb etayotganligini ta’kidlaydi. Shaxs, olimaning fikriga ko‘ra, uning etnik kelib chiqishi, millati, ijtimoiy va madaniy daxldorligidan qat’i nazar o‘z ma’naviy-axloqiy sifatlari bilan zamonni ijobiy tarafga o‘zgartirishi mumkin. Murakkab global olamning yangi paradigmalari yaratilayotgan davrda aynan axloqiy sifatlar uning bosh ko‘rsatkichiga aylanib bormoqda. Global dunyo esa, rang-baranglikdan iboratdir. Dunyo rang-barangligi esa shaxs axloqiy sifatlari ichida aynan totuvlik va bag‘rikenglikni taqozo etadi. Chunki globallik sharoitida har qanday munosabatlar subyekt-subyekt sathida va mavqeyida tashkil qilinadi.

[127] Зайцева М.И. Проект «Подросток и толерантность» / М. И. Зайцева // Справочник классного руководителя. – ЗАО «МЦФЭР», 2007. – № 1. – С.79-85.

[128] Митина Л.М. Профессиональное здоровье учителя: стратегия и технология // Школа здоровья. – 1996. – №4. – С.55-57.


[129] Третьякова Е.Н. Толерантность как духовно-нравственное качество личности: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Санкт-Петербург, 2011. – 18 с.

Subyekt-subyekt aloqalari esa, aynan o‘zaro hurmat va ehtirom, diniy bag‘rikenglik, tolerantlik, lingvistik va madaniy rang-baranglik asosidagi shaxslararo munosabatlar, dialog, ruhiy-psixologik kommunikatsiya sifatida amalga oshiriladi.

Milliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili tolerantlik hodisasini ilmiy-pedagogik o‘rganishda turli-tuman metodologik yondashuvlar mavjudligi haqidagi xulosaga kelish imkonini berdi. Ularni umumlashtirgan holda besh guruhga ajratish mumkin:

1) internatsionalizatsion va identifikatsion yondashuvga ko‘ra, tolerantlik millatlararo munosabatlar, milliy o‘ziga xosliklarni hisobga olish orqali katta ijtimoiy ta’sir kuchiga ega (R.Murtazayeva, Z.Qodirova, R.Ubaydullayeva, Sh.Madayeva, E.Karimova va boshqalar);
2) shaxsiy-insonparvarlik yondashuv nuqtai nazaridan, tolerantlik – insonning ongli tanlovi, uning hayotiy pozitsiyasi va tashqi dunyo bilan faol munosabatining ifodasi hisoblanadi (K.Rodjers, A.Maslou, E.Fromm, N.Egamberdiyeva, R.Medetova va boshqalar);
3) fasilitativ yondashuv bo‘yicha, tolerantlik faqatgina tashqi omillar natijasi bo‘lishi mumkin emas, u kongruentlikni taqozo etadi (R.Dimuxametov, B.Xodjayev va boshqalar);
4) dialogik yondashuvda tolerantlik shaxslararo munosabatlarning maxsus shakli bo‘lib, u tenglik, toqat va rahm-shafqat asosida amalga oshadi (S.Bratchenko, R.Safarova va boshqalar);
5) paydagogik yondashuvga ko‘ra, tolerantlik intolerant sifatlarni tashxis etish va korreksiyalash orqali shaxsning integrativ sifati tarzida komil insonni tarbiyalash manbayi bo‘lib xizmat qiladi (L.Bayborodova, P.Komogorov, R.Medetova, G.Aripova, G.Yusupova va boshqalar).

Tolerantlik muammosiga doir ilmiy-pedagogik manbalar tahlili bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda aniq konstruktga asoslanish lozimligini ko‘rsatadi (1.3.1-rasmga qarang).



1.3.1-rasm. Bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish konstrukti

1.3.1-rasmda ifoda etilganidek, bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish konstrukti o‘zida nazariy (falsafiy, sotsiologik, psixologik) va amaliy (pedagogik, metodik, texnologik) ish yo‘nalishlari, shaxsiy-insonparvarlik, kompetensiyaviy, faoliyatli, muhitli, fasilitatsion, multimodal yondashuvlarni hamda struktur nuqtai nazardan kognitiv, xulq-atvorga doir, hissiy-irodaviy, refleksiv kabi komponentlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq.

II BOB. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

2.1-§. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"[130]gi Qarori, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"[131]gi Farmonida barcha sohalarda IT (Axborot texnologiyalari)ni kasbiy faoliyat jarayonida samarali qo'llash, raqamli texnologiyalar va ularning imkoniyatlaridan keng foydalanishni ta'minlash maqsadida pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash

[130] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/5032290 (murojaat qilingan sana: 22.03.2022).

131 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/6797437 (murojaat qilingan sana: 22.03.2023).

va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[132]gi Farmonida ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, yoshlar, ma’naviyat va jamoat tashkilotlari, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash sohalarini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirish kabi masalalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya ko‘plab sohalarda tub o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga olib kelmoqda. Texnologiyalar jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda har qanday sohada raqobatbardoshlikni ta’minlash zamonaviy raqamli yechimlar, innovatsion platformalar hamda ilg‘or axborot texnologiyalarini samarali joriy etish bilan bevosita bog‘liqliklardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, turli sohalar o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish hamda mavjud infratuzilmani samarali tarzda takomillashtirish zaruriyati ortib bormoqda. Albatta, bu jarayonlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, oliy pedagogik ta’lim tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, tadqiqotda raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning bugungi holatini yaxlit tahlil qilish hamda uni zamonaviy yondashuvlar asosida yanada takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini asoslab berishga alohida ahamiyat qaratadi. Bugungi raqamlashtirish sharoitida har bir sohada ishlash uchun zaruriy mezonlardan biri – insonning raqamli ko‘nikmalar va tolerantlik kompetensiyalarga ega bo‘lishidir. Bu esa zamonaviy mehnat bozorining asosiy talabi sifatida pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi.

Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv modullarining vizual, audial va interfaol multimedia materiallari bilan metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi bilimlarni ko‘pkanalli qabul qilish imkonini yaratadi va bu orqali o‘qitishning maqbulligi va jozibadorligini oshirish mumkin.

[132] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/6797437 (murojaat qilingan sana: 22.03.2023).

Pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida raqamli transformatsiyaning imkoniyatlaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslasha oladigan, tolerantlik kompetensiyalarini o'zlashtirgan pedagog kadrlarni tayyorlamasdan raqobatbardoshlik va samarali natijalarga erishish ancha mushkul bo'ladi. Shu bois, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamli texnologiyalarga tayangan ta'lim vositalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda moslashtirilgan o'quv dasturlari bilan ta'minlash dolzarb ehtiyojga aylanmoqda.

Kelajak pedagoglarini tayyorlashda raqamli-tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish esa, hozirgi davr uchun ustuvor strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Kasbiy faoliyat turlari va ta'lim metodologiyalari jadal yangilanayotgan raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko'rib chiqish hamda doimiy takomillashtirib borish zarurati yanada ortib bormoqda. Ushbu ko'nikmalarning nazariy poydevori raqamli muhitdagi tezkor o'zgarishlarga javoban shakllanib, bitiruvchilarning zamonaviy mehnat bozori va raqamli iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirishini ta'minlashga qaratilgan.

Raqamli transformatsiya nafaqat ta'lim texnologiyalarini, balki o'qitishga doir yondashuvlar va ish uslublarini ham qayta belgilashni talab qilmoqda. Shu bois, zamonaviy dunyo talablariga moslashgan raqamli malakalarni egallagan tolerant pedagoglarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish o'quv metodikalarini yangicha mazmunda qayta tashkil etishni, interfaol va innovatsion ta'lim usullarini keng tatbiq etishni hamda oliy ta'lim muassasalarini ilmiy-ijodiy izlanishlar va pedagogik tajribalar markaziga aylantirishni talab etadi[133].

[133] Юсупова Г.И. Таълим жараёнида АКТдан фойдаланиш асосида талабаларнинг рақамли компетенцияларини ривожлантириш: пед.фан.фал.док. (PhD) дисс. Автореф. – Тошкент, 2020. – 165 б.

Raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashayotgan sharoitda kadrlar tayyorlash tizimining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri zamonaviy mehnat bozori va tarmoq talablariga mos keladigan raqamli-tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir. Bunday kompetensiyalar ko‘p qirrali bo‘lib, texnologik, madaniy, boshqaruv va etik yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, raqamli madaniyat bu raqamli texnologiyalarning jamiyat, inson tafakkuri va kundalik hayotga ta’sirini anglashga asoslangan tushunchadir. Zamonaviy pedagoglar texnologiyalar orqali shakllanayotgan yangi ijtimoiy muhitni chuqur tushunishlari va bu bilimlarni mas’uliyatli, foydali va axloqiy jihatdan maqbul yechimlar ishlab chiqishda qo‘llay olishlari zarur.

Ikkinchidan, shaxsiy o‘zgaruvchanlik va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari sohasi dinamik va doimiy o‘zgaruvchan muhitda faoliyat olib boradi. Shu bois, bo‘lajak pedagog uzluksiz ravishda o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishga, zamonaviy texnologiyalar, yangi dasturlash muhitlari hamda raqamli vositalarni egallashga doimiy tayyor bo‘lishi zarur.

Uchinchidan, zamonaviy sharoitda boshqaruv va loyihaviy faoliyat kompetensiyalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ko‘p hollarda axborot texnologiyalari sohasidagi ishlar yirik jamoalarda olib boriladi va bu jamoalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun resurslar, vaqt va byudjetni to‘g‘ri rejalashtirish hamda mahsulot sifatini nazorat qilish zarur bo‘ladi. Raqamli loyihalarning muvaffaqiyati aynan mana shu boshqaruv qobiliyatlariga chambarchas bog‘liq.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi hayotning barcha sohalariga, ayniqsa, ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim jarayoniga raqamli platformalar va vositalarning faol integratsiyalashuvi natijasida bugungi talaba raqamli muhitda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Pedagogik ta’limda raqamli transformatsiyani ilmiy jihatdan asoslash jarayonida zamonaviy nazariyalar muhim metodologik

tayanch bo‘lib xizmat qiladi hamda ular raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga maqsadga muvofiq moslashtirish imkonini beradi, multimodal ifodani tushunish va kreativ tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Amerikalik olim Richard Mayerning “Multimedia o‘qitish nazariyasi” (Multimedia Learning Theory)[134] multimedia (matn, rasm, audio, video) orqali o‘qitish bilimlarni chuqurroq va samaraliroq o‘zlashtirishga olib kelishini asoslashga xizmat qiladi. Unga ko‘ra, inson miyasi axborotni ikki asosiy kanal – vizual va audial yo‘nalishda qayta ishlaydi. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarniing raqamli-tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli slaydlar, animatsiyalar, videolar va multimodal elementlarini qo‘llash orqali mashg‘ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchi Seymour Papert[135] ta’limda yaratuvchanlik va amaliy faoliyat orqali o‘rganishga asoslangan konstruktsionistik yondashuv g‘oyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, ta’lim oluvchilar bilimlarni tayyor (reseptiv) shaklda emas, balki o‘z tajribasi asosida o‘zlashtirib borishi kerak. Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda mazkur yondashuv raqamli-ijtimoiy va madaniyatshunoslikka doir loyiha, pedagogik dizayn, pedagogik mahsulot yaratishi orqali bilimlarni mustaqil egallashiga asoslanadi. Bu esa, raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadiga mos keladi.

Tadqiqotchi olimlar P.Mishra va M.Koxler[136] TPACK modelini ilgari surishgan. Bu model raqamli ta’limda uch asosiy tarkibiy qism – texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlar uyg‘unligini talab qiladi. Demak, talaba faqat o‘z mutaxassislik fanlarining mazmunini chuqur egallabgina qolmay, balki zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari va ularni ta’lim jarayonida qanday samarali qo‘llash usullarini ham

[134] Mayer R. E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 154 p.

[135] Papert S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 2019. – 230 p.

[136] Koehler M. J., Mishra, P. What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. – 2009. – Vol. 9(1). – P. 60–70.

puxta bilishi zarur. Jumladan, mediasavodxonlik va axborot madaniyati hamda raqamli tarix fanlarini o'qitishda texnik jihatlar bilan birga raqamli muhitdagi tolerantlik asoslari talabalarga tizimli tarzda yetkazilishi lozim. Bu modeldan tolerantlik pedagogikasi tanlov (elektiv) moduli(kursi)ni o'qitishda ham samarali foydalanish mumkin.

Multimodal yondashuv axborotni faqat yozma shaklda emas, balki tasvir, ovoz, harakat, rang va fazoviy joylashuv kabi turli kommunikativ kanallar orqali idrok etish hamda ifodalashga tayangan holda o'zlashtirishni nazarda tutadi. K.Juitt va G.Kress[137] multimodal pedagogikani raqamli texnologiyalar vositasida boyitilgan o'quv muhiti sifatida tavsiflaydi. Masalan, biror vizual asarni nafaqat tolerantlik nuqtai nazaridan tahlil qilish, balki unga mos ravishda animatsiya, ovoz, harakat orqali yangi ma'no berish bu yondashuvga misoldir.

Raqamli davrda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash muammosining tolerantlik pedagogikasiga xos jihatlarini tadqiq etish metodik izlanishlarning asosiy va ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'limni innovatsion yechimlar, sun'iy intellekt, Big Data va raqamli madaniyat kabi tushunchalar bilan bevosita bog'laydi. Shu boisdan ham, ta'limda raqamli transformatsiyaning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolar va imkoniyatlarni aniqlab borish, hamda shunga mos ravishda raqobatbardosh va zamon bilan hamnafas kelajak pedagoglarini tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

"Raqamli ta'lim" va "raqamli ta'lim muhiti" tushunchasini izohlash yoki uning mazmunini ochib berishga doir qator nuqtai nazarlar ilgari surilgan. Germaniyalik olim Kristop Tissen[138] raqamli ta'limni o'qitishning texnologik vositalar bilan integratsiyasi sifatida talqin qiladi. U o'z tadqiqotlarida raqamli vositalar yordamida talabalarning faolligini oshirish, individual yondashuv va multimodal resurslar imkoniyatini asoslab bergan.

[137] Jewitt C., Kress G. Multimodal literacy. In: Lankshear C., Knobel M., editors. Digital Literacies: Concepts, Policies and Practices. Peter Lang; New York, NY: 2008. p. 241–257.

[138] Thyssen C. Digitale Didaktik: Grundlagen, Praxisbeispiele und Perspektiven. – Weinheim: Beltz Verlag, 2020. – 240 p.

Gamburg universiteti tadqiqotchisi Kerstin Mayrberger[139] raqamli didaktikani "raqamli vositalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yondashuv", deb ta'riflaydi. Tadqiqotchi Bernd Zinn[140] esa, raqamli didaktikani o'qitishning interfaol, adaptiv va mobil texnologiyalar asosidagi yangicha modeli deb talqin qilgan. Tadqiqotchi A.Qodirov[141] raqamli ta'limning metodik asoslarini ishlab chiqqan. U raqamli didaktikani raqamli vositalar yordamida tashkil etiladigan zamonaviy o'quv jarayoni sifatida tavsiflagan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli ta'lim – bu raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil qilish, o'qitish, baholash nazariyasi va amaliyoti integratsiyasi bo'lib, ushbu yondashuv zamonaviy o'quv muhiti talablariga, talabalarning real ehtiyojlariga hamda raqamli vositalarning funksional imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim jarayonini qayta tashkil etish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashga qaratilgan aniq ilmiy-metodik tamoyillarni hisobga olishni taqozo etadi. Quyida mazkur tamoyillarga to'xtalib o'tamiz:

1) **individuallashtirish tamoyili:** har bir talabaning ehtiyojlari, bilim darajasi, qiziqishlariga mos raqamli resurslardan foydalanish. Raqamli texnologiyalar yordamida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish bo'yicha individual ta'lim trayektoriyalarini yaratish;
2) **interfaollik tamoyili:** talaba bilan ta'lim muhitining faol o'zaro ta'siri (masalan, testlar, viktorinalar, simulyatsiyalar, fedbek tizimlari). O'qituvchi-talaba, talaba-talaba o'rtasida real vaqtli muloqotni ta'minlash;
3) **vizualizatsiya va multimodallik tamoyili:** ma'lumotlarni matn, grafik, video, audio, animatsiyalar orqali multimodal

[139] Mayrberger K. Digitalisierung in der Hochschullehre // Handbuch Hochschullehre Digital. – Springer VS, 2018. – P.164.

[140] Zinn B. Didaktik im digitalen Wandel // Beiträge zur Lehrerbildung. – 2016. – p.204.

[141] Qodirov A. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2021. – 174 b.

shaklda taqdim etish. Talabalarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatini rag'batlash;

4) **moslashuvchanlik tamoyili:** raqamli muhitni talaba faoliyatini hisobga olib moslashtirish (masalan, sun'iy intellekt yordamida diagnostik tolerantlik testini o'zgartirish). Har qanday joyda va vaqtda (mobil, masofaviy va asinxron ta'lim) tolerantlikka doir bilimlarini oshirib borish imkoniyatini beradi;
5) **o'zaro hamkorlik va ijtimoiylashuv tamoyili:** bo'lajak o'qitivchilarning tolerantlik kompetensiyalarini jamoaviy ijodiy loyihalar, forumlar, bloglar, chatlar orqali ijtimoiy integratsiya jarayonida rivojlantirish; "Peer-to-peer (P2P)" – tengma-teng birgalikda onlayn platformalar orqali tolerantlikkka doir bilimlar va amaliy faoliyat tajribalarini o'zaro almashuniga erishish;
6) **o'z-o'zini nazorat qilish va baholash tamoyili:** onlayn testlar, psixologik-pedagogik metodikalar va ma'lumotlar tahlili (data analysis) orqali bo'lajak o'qitivchilarning tolerantlik kompetensiyalarini mustaqil tashxis etishi; tolerance.uz platformasi orqali formativ baholashni jadallashtirish;
7) **talabaning faolligi va subyektivligi tamoyili:** raqamli muhitda talaba sust emas, balki faol ishtirok etishi; tanlov erkinligi, ijodkorlik va tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash;
8) **texnologik qulaylik va ergonomika tamoyili:** raqamli platformalarning ta'lim oluvchi uchun oson, intuitiv va qulayligi.

Xalqaro tajribalarda raqamli didaktik yondashuvlar muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot doirasida manbalar tahlili asosida quyidagi asosiy merodik yondashuvlar alohida ajartib o'rganildi:

1. Kognitiv nazariya (J.Bruner, R.Mayer) – vizual axborot (video, grafikalar) bilan o'qitish, ko'pkanalli qabul qilishni faollashtiradi. R.Mayerning "Multimediali o'qitish nazariyasi("Multimedia Learning Theory")"[142]ga ko'ra, raqamli vositalar bilimlarni samaraliroq o'zlashtirishga yordam beradi.

[142] Mayer, R. E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P.43.

2. Konstruktsionizm (S.Papert[143]) – talaba kreativ subyekt (masalan, o‘zining tolerantlik bo‘yicha mikrota’limga asoslangan ishlanmasi yoki web-kvesti) sifatida ishtirok etadi. Raqamli loyihaga asoslangan ta’lim esa, bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni maqbulligini ta’minlaydi.
3. TPACK modeli (Mettyu Kyoxler va Punyey Mishra[144]) bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalari texnologik (T), pedagogik (P) va fan (content – mazmun)(C)ga doir bilimlar integratsiyasi asosida rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Bu raqamli ta’lim yo‘nalishlari bilan yuqoridagi metodik tamoyillarni o‘zaro integratsiyasi jarayoni raqamli resurslarga ehtiyoj sezadi. Chunki raqamli resurslar tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy predmeti hisoblanadi.

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o‘tishi oliy ta’lim oldida jiddiy chaqiriqlar, ayniqsa, talabalarda faol va mustaqil o‘rganish kompetensiyalarini rivojlantirishni shart qilib qo‘ymoqda. Raqamli ta’lim resurslari o‘qitish samaradorligini oshirish va talabalarni raqamli mehnat bozorining talablariga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimiz ta’lim tizimi raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda, bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish va AT infratuzilmasini modernizatsiya qilishni o‘z ichiga oladi.

Raqamli ta’lim resurslari (RTR) odatda axborot texnologiyalarining turi, uslubiy maqsadi, didaktik mazmuni kabi an’anaviy mezonlar asosida tavsiflanadi. Biroq bu kabi tasniflash yondashuvlari hozirgi kunda yetarlicha samarali emas, chunki zamonaviy raqamli resurslar ko‘p funksiyali bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir necha o‘quv vazifalarini kompleks tarzda hal qilish imkonini beradi.

Shu sababli RTRni faqat bitta turga ajratish yoki qat’iy kategoriyalarga kiritish zamonaviy ta’lim muhitining ko‘p qirrali xususiyatla-

[143] Papert S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 2019. – P.207.

[144] Koehler M.J., Mishra P. What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. – 2009. – Vol. 9(1). – P. 60–70.

rini to'liq aks ettira olmaydi. Bugungi raqamli ta'limda resurslar nafaqat bilim berish vositasi, balki o'quvchilarni tahlil qilish, baholash, hamkorlikda ishlash va ijodiy faoliyatga jalb etish imkonini beruvchi interfaol pedagogik muhit sifatida namoyon bo'lmoqda[145].

Raqamli ta'lim resurslari (Digital Educational Resources) – bu elektron formatda mavjud bo'lgan va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan materiallar. Ular talabalar, pedagoglar va tadqiqotchilar uchun bilim olish, o'qitish va o'rganishni qulayroq, samaraliroq va qiziqarli qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

Raqamli ta'lim resurslarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Elektron darsliklar va kitoblar – PDF, EPUB yoki interfaol formatlardagi o'quv qo'llanmalari.
2. Onlayn kurslar va platformalar – Coursera, Udemy, Khan Academy, edX, Open edX, Moodle, Google Classroom.
3. Video darslar va vebinar – YouTube, Zoom, Microsoft Teams, TED-Ed.
4. Interaktiv ilovalar va dasturlar – Duolingo (til o'rganish), Photomath (matematika), Quizlet (flash-kartalar).
5. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) – Labster (virtual laboratoriyalar), Google Expeditions (sayohatlar).
6. O'yinlashtirilgan ta'lim platformalari – Kahoot, Quizizz, ClassDojo.
7. Ochiq ta'lim resurslari (OER) – MIT OpenCourseWare, OpenStax (bepul darsliklar).
8. Bulutli xizmatlar va hamkorlik vositalari – Google Drive, Notion, Trello, Miro.
9. Sun'iy intellekt (SI) asosidagi yordamchilar – ChatGPT, DeepSeek, Socratic (Google SI), Grammarly.

Raqamli ta'lim resursi (RTR) – bu raqamli formatda yaratilgan, o'quv mazmunini, mavzular tuzilmasini va metama'lumotlarni o'z ichiga oluvchi didaktik vosita bo'lib, u o'quvchilarga ta'limiy axborot-

[145] Блинова В.И. Артпедагогика как инновационная область педагогической науки: дисс. … док.пед.наук. – Москва, 2016. – 310 с.

ni interfaol, vizual va tahliliy shakllarda yetkazish imkonini beradi. RTRlarning samaradorligi ularning tuzilmasi, mazmuni, metodik yondashuvlari hamda ishlab chiqish va qo‘llash vositalarining maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Bu jarayonda raqamli ta’lim vositalarining o‘quv muhitiga qay darajada samarali integratsiyalasha olishi, ularning texnik imkoniyatlari hamda foydalanuvchining ehtiyoj va tajribasiga mos ravishda ishlashga yo‘naltirilganlik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jihatlar raqamli ta’lim resursini an’anaviy o‘quv vositalaridan ajratib turuvchi asosiy pedagogik mezonlardir:

1) bilimlarni o‘zlashtirish – raqamli ta’lim resurslari o‘quv materialini aniq, tushunarli va interfaol shaklda taqdim etishi orqali talabalarning tolerantlikka doir bilimlarni mazmunan chuqurroq anglashi, tolerantlik tushunchalarini mustahkam tarkib toptirish hamda o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga keng imkoniyat yaratadi;
2) ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish – turli amaliy topshiriqlar, simulyatsiyalar va testlar orqali bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liqlikda mantiqiy, analitik, kreativ va yorqin (radiant) fikrlash ko‘nikmalari rivojlantirib boriladi;
3) o‘qitishni individuallashtirish – har bir talabaning bilish imkoniyati, o‘zlashtirish sur‘ati va o‘rganish stiliga moslashuvchan resurslar (masalan, adaptiv platformalar) yaratish.
4) motivlashtirish – o‘yinli (geymifikatsiya), multimedia (video, animatsiyalar) va interfaol elementlar orqali o‘rganish jarayonining jozibadorligini oshirish;
5) o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilish – testlar, avtomatik javob tahlillari va progress monitoringi orqali bo‘lajak o‘qituvchilarga tolerantlik kompetensiyalarini tekshirish imkoniyatini berish;
6) masofaviy hamkorlikni rag‘batlantirish – onlayn muhitda professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida samarali muloqot,

madaniyatshunoslik va ijtimoiy loyihalar va guruhiy ishlarni amalga oshirish;

7) ma'lumotlar bazasini yangilab turish – muntazam ravishda yangi pedagogik yondashuvlar va ilmiy yutuqlarni resurslarga integratsiya qilish.

Bugungi kunda raqamli ta'lim muhitida turli xil interfaol platformalar, o'quv portallari va onlayn ta'lim saytlarining mavjudligi bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini diversifikatsiyalash va shaxsiylashtirish imkonini kengaytirmoqda.

VAcademia (2.1.1-rasmga qarang) – bu 3D virtual ta'lim muhitini (Virtual Learning Environment, VLE) taklif etadigan innovatsion raqamli ta'lim platformasi bo'lib, u interfaol, immersiv (to'liq to'yinish hissini uyg'otuvchi) va ijtimoiy jihatdan bog'langan o'quv tajribasini yaratishga qaratilgan.



2.1.1-rasm. VAcademia platformasi interfeysi

Platforma virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiya qilgan holda bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini sifat jihatidan yangi darajaga ko'taradi. Konstruktivizm ta'lim nazariyasiga moslashuvchandir. Talabalar o'zlarining tolerantlikka doir bilim, malaka va amaliy faoliyat tajribalarini faol ravishda baholash imkoniyatiga ega. Ijtimoiy ta'sir (Social Presence Theory) ni kuchaytiradi – professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi psixologik yaqinlik hissi ortadi.


Learningsapps (2.1.2-rasmga qarang) – u professor-o'qituvchilar va talabalar uchun interfaol o'quv modullari yaratish va ulardan foydalanish imkonini beruvchi bepul veb-platforma. U interfaol mashqlar, testlar, o'yinlar va boshqa ta'lim resurslarini ishlab chiqish uchun mo'ljallangan. Platforma konstruktivizm (Constructivism) va o'yinlashtirilgan ta'lim (Gamification) tamoyillariga



2.1.2-rasm. Learningsapps platformasi interfeysi

asoslangan. Bu platforma testlar (ko'p tanlovli, to'g'ri/noto'g'ri), so'zlar bilan moslashtirish (matn yoki rasmlar), xronologik tartiblash (vaqt jadvali, ketma-ketlik), krossvordlar va topishmoqlar, audio/videoli vazifalar, virtual doskalar (Whiteboard) yaratish kabi afzalliklarga ega.


Kahoot! – interfaol test va o'yinlashtirilgan ta'lim platformasi. Professor-o'qituvchilar, talabalar va turli ta'lim tashkilotlari uchun multimediali testlar, quizlar va o'yinlar yaratish platformasi. Talabalar smartfon yoki kompyuter orqali real vaqtda javob berishlari mumkin. Ko'p tanlovli, to'g'ri/noto'ri, ochiq savollar tuzish mumkin, O'yin rejimida talabalar bilimini tekshirish yoki natijalarni tahlil qilish imkoniyati mavjud. Mashg'ulotlarda talabalar bilimini baholash, nazorat ishlarini o'tkazish, o'quv motivatsiyasini oshirish kabi afzalliklarga ega (2.1.3-rasmga qarang).



2.1.3-rasm. Kahoot! platformasi interfeysi


Teachy (2.1.4-rasmga qarang) – shaxsiylashtirilgan ta'lim kontenti platformasi. SI yordamida individual qo'llanmalar va ta'lim resurslari yaratish vositasidir. Professor-o'qituvchilar mavzuga mos testlar, konspektlar va videolar generatsiya qilishlari mumkin. Bu platforma sun'iy intellekt orqali avtomatik mashg'ulot rejalari tu-

zish, talabalarning bilim darajasiga mos mashqlar tayyorlash, PDF, prezentatsiya va interfaol modullarni eksport qilish kabi funksiyalarga ega. Individual o'rganish va uy vazifalarini bajarishda foydalanishga qulay platforma hisoblanadi.



2.1.4-rasm. Kahoot! platformasi interfeysi


Nearpod (2.1.5-rasmga qarang) – interfaol va virtual mashg'ulotlar platformasi. Real vaqtda interfaol mashg'ulotlar olib borish uchun platforma. Professor-o'qituvchilar tolerantlik pedagogikasiga doir slaydlar, testlar, virtual ekskursiyalar va loyihalar yaratishlari



2.1.5-rasm. Nearpod platformasi interfeysi


mumkin. Onlayn darslar va o'z-o'zini o'rganish rejimlari, 3D modellar, VR kontent, virtual sayohatlar, talabalarning faolligini monitoring qilish funksiyalari mavjud. Ushbu platforma immersiv ta'limni tashkil etishda qulay vosita hisoblanadi.

CoSpacesEDU (2.1.6-rasmga qarang) – kodlash va 3D dizayn platformasi. Talabalar uchun 3D virtual dunyolar, animatsiyalar va o'yinlar yaratish vositasi hisoblanadi. Dasturlash (Blockly, Python) va AR/VR integratsiyasi bilan ishlaydi. Virtual laboratoriyalar, tarixiy sahnalar yaratish, robototexnika va dasturlashni o'rgatish, VR qurilmalar bilan bog'lanish funksiyalariga ega. Ushbu platforma STEM ta'limi va kreativ loyihalar uchun qulay hisoblanadi.




2.1.6-rasm. CoSpacesEDU platformasi interfeysi

Glogster (2.1.7-rasmga qarang) – multimedia posterlar platformasi. Interaktiv elektron posterlar (Glogs) yaratish uchun qulay vositadir. Matn, video, audio va rasmlarni birlashtirish imkoniyati beradi. Drag-and-drop dizayn interfeysiga ega, taqdimotlar, loyihalar va kreativ ishlarni tayyorlash, tahliliy hisobotlar va baholashlarni amalga oshirishga qulay platforma.



2.1.7-rasm. Glogster platformasi interfeysi

Trello (2.1.8-rasmga qarang) – Loyihalarni Boshqarish Platformasi. Kollaborativ loyiha boshqaruvi (Kanban usuli) uchun mo‘ljallangan vositadir. O‘qituvchilar va talabalar vazifalarni tartibga solishlari mumkin. Kartochkalar, ro‘yxatlar va workflowlarni boshqarish, izohlar va muddatlarni ulash, Google Drive, Slack kabi ilovalar bilan integratsiya imkoniyatiga ega ushbu platformadan, ayniqsa, guruh loyihalari, uy vazifalari, tadqiqot ishlarida keng qo‘llaniladi.



2.1.8-rasm. Trello platformasi interfeysi

Bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir raqamli ta'lim resurslarini yaratishda universal, elektron taqdimotlar tayyorlash, grafika va infografika yaratish, video yaratish, tahrirlash va qayta ishlash, sinov va so'rovnoma o'tkazish, geymifikatsiya yaratish xizmatlari, onlayn doskalar, interfaol xaritalar kabi dasturiy ta'minotlardan foydalanish mumkin.

Universal dasturiy paketlar – bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir o'quv, amaliy va analitik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, keng funksional imkoniyatlarga ega ko'p maqsadli dasturiy vositalardir.

Matn muharrirlari – bu foydalanuvchilarga oddiy yoki formatlangan matn kiritish, tahrirlash va saqlash imkonini beruvchi dasturiy vositalardir. Ular nafaqat kundalik yozishmalar yoki hujjatlar tayyorlashda, balki kod yozishda ham qo'llaniladi. Misollar: Notepad, Microsoft Word, Google Docs. Matn muharrirlari axborotni tuzish, uzatish va saqlashda asosiy vosita bo'lib, axborot savodxonligini shakllantiradi.

Elektron jadval muharrirlari sonli va matnli ma'lumotlarni jadvallar shaklida saqlash, tahlil qilish, hisob-kitoblar bajarish va grafiklar tuzish imkonini beradi. Ular axborotni tizimlashtirish va modellashtirishda keng qo'llaniladi. Elektron jadvallar, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishda statistik hamda funksional tahlil imkonini yaratadi.

Grafik muharrirlar tasvirlarni yaratish, tahrirlash va ularni vizual jihatdan qayta ishlash uchun xizmat qiladi. Ular raster yoki vektor grafikasiga asoslangan bo'lishi mumkin. Misollar: Adobe Photoshop, CorelDRAW, GIMP. Grafik muharrirlar dizayn, san'at, marketing va media sohalarida yaratuvchanlikni rivojlantirish uchun muhim vositadir.

Multimediya muharrirlari (matn, grafik, audio, video bilan ishlovchi vositalar) foydalanuvchilarga bir necha turdagi axborot – matn, ovoz, video va grafikani birlashtirib, tahrirlash imkonini beradi. Ular prezentatsiya tayyorlashdan tortib, videomontaj, kontent ishlab chiqishgacha bo'lgan jarayonlarda ishlatiladi. Misollar: Adobe Premiere Pro, PowerPoint, Camtasia. Multimediya muharrirlari integrativ bilimlarni shakllantiradi va ko'pkanalli axborot qabul qilishni osonlashtiradi.

Elektron taqdimotlar tayyorlash dasturlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Prezi – bu bulutga asoslangan taqdimot platformasi bo‘lib, an’anaviy slaydli prezentatsiyalarga nisbatan dinamik harakatlar, ko‘rinishlar va zumlash (zooming) texnologiyasi orqali vizual voqeaviylikni oshiradi.

ClearSlide – bu taqdimot va savdo (sales enablement) platformasi bo‘lib, foydalanuvchilarga taqdimotlar yaratish, jonli ravishda namoyish qilish imkonini beradi.

VoiceThread – bu multimediya asosidagi muhokama platformasi bo‘lib, foydalanuvchilar rasm, video, hujjatlar ustiga audio, matnli yoki video izoh qoldirish orqali interfaol suhbat olib borishlari mumkin.

TopHat – bu raqamli o‘quv platformasi bo‘lib, interfaol savollar, viktorinalar, so‘rovnomalar, muhokamalar orqali tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini real vaqt rejimida faollashtiradi.


Grafika va infografika yaratish vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Canva – bu grafik dizayn platformasi bo‘lib, foydalanuvchilarga tayyor shablonlar asosida plakatlar, prezentatsiyalar, infografikalar va boshqa vizual kontentlar yaratish imkonini beradi.

PosterMyWall – bu onlayn grafik dizayn platformasi bo‘lib, foydalanuvchilar marketing, ta’lim va madaniy tadbirlar uchun vizual e’lonlar, posterlar va bannerlar tayyorlashi mumkin.

DesignCap – bu onlayn grafik dizayn vositasi bo‘lib, foydalanuvchilarga plakatlar, grafikalar, infografikalar, prezentatsiyalar, ta’lim materiallari va boshqa vizual kontentlarni tez va qulay tarzda yaratish imkonini beradi.

Visme – bu interfaol taqdimotlar, infografikalar, diagrammalar va animatsiyali kontentlar yaratish imkonini beruvchi vizual platformadir. Visme ta’limda interfaollik va moslashtirilgan vizual materiallar orqali o‘rgatuvchi–o‘rganuvchi o‘rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytiradi. U “learning by doing” (bajarishga o‘rgatish) tamoyilini qo‘llab, faol ishtirok va mustaqil o‘zlashtirishga xizmat qiladi (2.1.9-rasmga qarang).



2.1.9-rasm. Visme dasturi interfeysi

Video yaratish, tahrirlash va qayta ishlash vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Camtasia – bu ekran yozuvini olish, videodarslar tayyorlash, video tahrirlash va ta'limiy kontent yaratish uchun mo'ljallangan kuchli dasturiy vosita.

Flip – Microsoft platformasiga tegishli video muhokama vositasi bo'lib, talabalarga o'z fikrlarini qisqa videolar orqali ifodalash imkonini beradi.


ThingLink – bu rasm, video yoki 3D obyektlar ustiga interfaol havolalar, matnlar, ovoz va boshqa elementlarni joylashtirish imkonini beruvchi platforma.

H5P – bu veb-brauzer asosida ishlovchi ochiq kodli vosita bo'lib, foydalanuvchilarga interfaol darslar, viktorinalar, video viktorinalar, testlar, flashkardlar va boshqa o'quv modullarini yaratishga imkon beradi.

Animoto – bu rasm, video, matn va musiqani birlashtirib, ta'sirli videolar yaratish imkonini beruvchi onlayn video platformadir. Animoto talabalarning kreativ fikrlashini, hikoya qilish (storytelling) ko'nikmalarini rivojlantirishda samaralidir.

Sinov va so'rovnoma o'tkazish dasturlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Google Forms – bu onlayn so‘rovnomalar, testlar, ro‘yxatlar va yozma baholash testlari tuzish imkonini beruvchi bepul Google xizmatidir. Google Forms formatlash va avtomatik natija tahlili orqali formativ baholash, talabalar ishtirokini tahlil qilish, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash imkonini beradi (2.1.10-rasmga qarang).



2.1.10-rasm. Google forma dasturi interfeysi

Online Test Pad – testlar, viktorinalar, so‘rovnomalar, fleshkartlar yaratish va natijalarni avtomatik tahlil qilishga mo‘ljallangan veb-platformadir.

Simpoll – bu oddiy va tezkor tarzda onlayn so‘rovlar va ovoz berish tizimlarini yaratish imkonini beruvchi platformadir. Foydalanuvchilar real vaqt rejimida javoblarni ko‘rishlari mumkin.

Mentimeter – real vaqt rejimida interfaol prezentatsiyalar, so‘rovnomalar, viktorinalar va fikrlar devori (word cloud) yaratish imkonini beruvchi onlayn vosita.


Geymifikatsiya yaratish xizmatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Quizizz – o‘yin shaklidagi testlar yaratish, baholash va avtomatik tahlil qilish imkonini beruvchi interfaol o‘quv platformasidir. Tolerantlik pedagogikasi bo‘yicha interfaol savollar orqali bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Classcraft – bu ta’lim jarayonini fantastika elementlari bilan uyg‘unlashtirib, talabalarni rol o‘yinlari orqali rag‘batlantiruvchi geymifikatsiyalashgan platforma.

Blooket – savol-javob asosidagi interfaol o'yinlar orqali o'rganishni ta'minlaydigan, geymifikatsiyaga asoslangan platforma. Turli o'yin formatlari (survivor, tower defense, etc.) mavjud.

Flippity – bu Google Sheets asosida ishlaydigan bepul onlayn platforma bo'lib, foydalanuvchilarga interfaol o'yinlar, viktorinalar, kartochkalar, testlar, baholash vositalari va ta'limiy ilovalar yaratish imkonini beradi (2.1.11-rasmga qarang).



2.1.11-rasm. Flippity dasturi interfeysi

Onlayn doskalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Padlet – bu onlayn "raqamli devor" bo'lib, foydalanuvchilar matn, rasm, video, havola, hujjat va audio kabi turli formatdagi ma'lumotlarni bir joyga jamlab, ulashishi mumkin.

Popplet – bu g'oyalarni vizual tarzda xaritalash, konseptual bog'lanishlarni ifodalash va talabalar fikrini chizma-tasviriy model ko'rinishida tartibga solish uchun yaratilgan onlayn platformadir.

Rizzoma – bu kollaborativ hujjatlar va fikrlar almashinuvi platformasi bo'lib, real vaqt rejimida guruhli fikr yuritish, loyiha yuritish, izoh berish va qo'shma tahrir qilish imkonini beradi.

Interfaol xaritalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Preceden – bu onlayn taymlayn (vaqt chizig'i) yaratish vositasi bo'lib, foydalanuvchilarga voqealar, tarixiy sanalar yoki bosqichlarni vizual ketma-ketlikda taqdim etish imkonini beradi.

Timetoast – bu oddiy va intuitiv interfeysga ega bo'lgan interfaol taymlayn yaratish platformasi bo'lib, foydalanuvchilar matn, rasm va sana asosida tarixiy ketma-ketlikni taqdim eta oladi.

Tadqiqot doirasida raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik xaritasi taqdim etildi (2.1.1-jadvalga qarang).

2.1.1-jadval

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik kartasi

Didaktik parametrlar	Qo'llaniladigan raqamli platformalar va ta'lim vositalari	Kutiladigan natija
Tolerantlik pedagogikasining nazariy asoslari	VAcademia, Learningsapps, interfaol e-darsliklar; QR-kodli mashg'ulot materiallari	Mustaqil va faol o'rganish, analitik va tanqidiy fikrlash rivojlanadi
Tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish amaliyoti	Kahoot, Teachy, Padlet, Miro, Jamboard, Google Docs	Pedagogik tolerantlikka doir amaliy faoliyat tajribasi rivojlanadi
Improvizatsiya va tolerantlikka asoslangan pedagogik artistizm	Virtual real (VR) simulyatsiyalar	Tolerant munosabatni talab etadigan pedagogik vaziyatlarda qarorlar qabul qilish kompetensiyasi va pedagogik imij rivojlanadi
Pedagogik refleksiya	Elektron portfoliolar, raqamli testlar	Tolerant xulq-atvor jarayonida o'z-o'zini baholash va tahlil qilish kompetensiyasi rivojlanadi
Pedagogik analitika	Video-talimiy analitika, raqamli metama'lumotlar tahlili	O'quv-tarbiya jarayonida tolerant muhitning ta'sirini baholash, o'zgarishlar kiritish va voqelikni prognozlash kompetensiyasi rivojlanadi

Tadqiqot doirasida raqamli platformalar tolerantlik kompetensiyasining tarkibiy qismlariga ta'siri asosida quyidagi guruhlarga ajratildi:

1. Kollaborativ platformalar: Padlet, Miro, Jamboard, Google Docs (hamkorlikda tahrirlash). Vazifasi guruhiy faoliyat, ke-

lishuv, murosaviy va samarali muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur jarayonda fikrlar xilma-xilligini inobatga olish zarurati tolerantlikni tabiiy tarzda rivojlantiradi.

2. Multimodal ifodali platformalari: Canva, Adobe Express, YouTube (video topshiriqlar), Podcast yaratish vositalari. Vazifasi empatiya va hurfikrlilik kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Talaba fikrini matn, tasvir, ovoz va video orqali ifodalash jarayonida voqelikni turli nuqtai nazardan tahlili qilishni o'rganadi. Bu esa, empatiya mexanizmini kuchaytiradi.
3. Muloqot va muhokama platformalari: Google Classroom forumlari, Telegram/Discord guruhlari, Zoom muhokamalari. Vazifasi madaniyatlararo hurmat va muloqot madaniyati kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Onlayn muhokamalarda talabalar turli fikrlarni tinglash, madaniyat bilan bahsga kirishish malakasini egallashadi.
4. Refleksiv faoliyat platformalari: blogger / Google Sites, Padlet refleksiv devori, Shaxsiy e-portfolio. Vazifasi ochiq fikrlilik va o'z nuqtai nazarlarini qayta baholash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Talaba o'z tajribasini yozma tahlil qiladi, bu esa tolerantlikning anglangan shaklini rivojlantiradi.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli ta'lim muhiti vositalar majmuyi bo'lib qolmasdan, balki tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ularni pedagogik vazifasiga ko'ra tasniflash tolerantlik kompetensiyalarini maqsadli rivojlantirish imkonini beradi va raqamli ta'limning ijtimoiy-madaniy salohiyatini ochib beradi.

Tadqiqot natijalari tolerantlik kompetensiyalarining rivojlanishi ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayonida yuz berishini ko'rsatdi. An'anaviy ma'ruza shakli talabani tinglovchi pozitsiyasida qoldiradi va tolerantlikka xos bo'lgan empatiya, ochiq fikrlilik hamda samarali muloqot kabi kompetensiyalarni faollashtirmaydi. Aksincha, raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan hamkorlikka asoslangan, multimodal va refleksiv faoliyat talabani faol ishtirokchiga aylantiradi.

Hamkorlikka asoslangan faoliyat jarayonida talabalar bir vazifani birgalikda hamkorlikda bajarish, qarorlarni kelishuv asosida qabul qilish va fikrlar xilma-xilligini hisobga olishga majbur bo‘ladilar. Bu jarayon tolerantlikning tashqi namoyon bo‘lish shakllarini – tinglash, murosa qilish, o‘zgacha fikrni inkor etmaslik kabi kompetensiyalarni tabiiy ravishda rivojlantiradi. Demak, tolerantlik bu yerda nazariy tushuncha emas, balki faoliyat ehtiyojiga aylanadi.

Multimodal ifoda esa, tolerantlikning ichki – psixologik komponentlariga ta’sir ko‘rsatadi. Talaba fikrini matn, tasvir, ovoz va video orqali ifodalash jarayonida voqelikni turli nuqtai nazardan ko‘rishga o‘rganadi. Bunday ko‘pkanalli idrok etish jarayoni bir yoqlama fikrlashni kamaytiradi va empatiya mexanizmini faollashtiradi. Natijada, talaba boshqalarning pozitsiyasini tushunishga intiladi.

Refleksiv yozuv tolerantlikning anglangan shaklini yuzaga chiqaradi. Talaba o‘z tajribasini yozma ravishda tahlil qilganda, u nafaqat nima qilganini, balki nima uchun shunday munosabat bildirganini anglay boshlaydi. Bu jarayon shaxsiy qarashlarni qayta ko‘rib chiqish va o‘z fikriga tanqidiy yondashish imkonini beradi. O‘z fikrini qayta baholay olish esa, ochiq fikrlilikning muhim belgisi hisoblanadi.

Madaniyatlararo simulyatsiya mashg‘ulotlari tolerantlikning ijtimoiy-madaniy komponentini rivojlantirdi. Turli rollarni bajarish orqali talabalar boshqa madaniy va ijtimoiy pozitsiyalarni “his qilish” tajribasini boshdan kechiradilar. Bu esa, hurmat va qabul qilish munosabatini rivojlantirdi.

Tadqiqot jarayonida shu narsa kuzatildiki, aynan raqamli vositalar ushbu faoliyat turlarini yagona muhitda uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Raqamli platformalar erkin fikr almashish, yozib qoldirish, qayta ko‘rib chiqish va birgalikda ishlash imkoniyatini yaratib, tolerantlik rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoit hosil qildi.

Shunday qilib, tolerantlik kompetensiyalari faqat bilim berish orqali emas, balki tajriba, hamkorlik, ifoda va refleksiya jarayonida rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Raqamli ta’lim muhiti esa, ushbu

jarayonlarni tizimli va samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik makon sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiq etilgan raqamli ta’lim muhiti va unga muvofiq keladigan o‘qitish modellari zamonaviy oliy ta’limdagi ma’lum bir dolzarb vazifalarni, ya’ni bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetentsiyalarni samarali o‘zlashtirishi; ularga kasbiy qaror qabul qilish imkonini beruvchi tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirishi; voqelikni qadriyatli anglash faolligi va daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirishi; shaxsning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan ijobiy munosabatini qaror toptirishga yordam beradi.

2.2-§. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Pedagogika fanida modellashtirish metodi juda keng qo‘llanililadi. Tadqiqotning metodologik asosi bo‘lib xizmat qilgan pedagogik modellashtirish masalalari A.Choriev[146], B.X.Xodjaev[147], Yu.A.Konarjevskiy[148], V.V.Kraevskiy[149] va boshqalarning pedagogika fani metodologiyasiga doir o‘quv adabiyotlarida keng yoritib berilgan.

Modellashtirish – obyektiv tabiiy, ijtimoiy, ijtimoiy-tabiiy voqelikning real mavjud predmetli modellashtirish va belgili, informatsion modellashtirish tadqiq etishning eng muhim metodi hisoblanadi. Real mavjud obyektlarni belgili (informatsion) modellashtirish u to‘g‘risidagi obrazli-ko‘rgazmali tasavvurlar yordamida aniqlashtirilishi mumkin. “Modellashtirish mavhumlashtirish va ideallashtirishni o‘z ichiga oladi. Modellashtirishning bu jihati uning predmeti tabiat-

[146] Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг фанлараро боғлиқлик методологияси. – Т.: Фан, 2011. – 165 б.

[147] Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – T.: IQTISOD DUNYOSI, 2018. – B.30.

[148] Конаржевский Ю.А. Менеджмент и внутришкольное управление. М.: Центр «Педагогический поиск», 2000. – 224 с.

[149] Краевский В.В. Методология педагогики: новый этап: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.В. Краевский, Е.В. Бережнова. – М.: Академия, 2008. – 400 с.

ning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘plab omillariga bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimlar bo‘lganida ayniqsa ahamiyatlidir”[150].

Modellashtirish boshqa tadqiqot metodlari bilan uzviy aloqadorlikda qo‘llaniladi. Modelning ahamiyati, uning haqqoniyligi tajribasinov ishlari jarayonida tasdiqlanadi. Modelning obyektga nisbatan mosligi uni tavsiflaydigan ma’lum bir to‘plamda nisbiydir. Qo‘lga kiritilgan yangi bilimlarning kognitiv funksiyasi nafaqat sinalmagan tarzda kuzatilayotgan jarayon, hodisani tasvirlash va tushuntirish, balki obyektning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashoratlashdan iboratdir.

Modellashtirish jarayoni natijasi – bu modeldir. Ilmiy metodologiyada model (lot. modulus – o‘lchov, namuna me’yor) – bu tabiiy yoki ijtimoiy voqelikning muayyan qismining muqobili yoki o‘xshash shakli, konseptual-nazariy asosi. Xususan, model xayoliy tasavvur qilinadigan yoki moddiy jihatdan amalga oshiriladigan tizim bo‘lib, bu esa tadqiqot obyektini aks ettirib yoki xuddi asliday takrorlash orqali bizga ushbu obyekt haqida yangi ma’lumot beradi[151].

Model keyinchalik uni maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirish, boshqarish maqsadida obyekt haqida ilmiy tasavvurlarni saqlash va kengaytirish uchun xizmat qiladi. Model – bu tahlil qilinayotgan jarayonning tahliliy yoki chizma tasviridir.

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqishda quyidagi talablarga asoslanildi:

1) model elementlari o‘rtasida sabab-oqibat aloqalari mavjud bo‘lib, ular tadqiqot orqali belgilanishi kerak va biror-bir elementda ro‘y beradigan o‘zgarishlarga javob qaytaradi, bu jarayon esa, qayta aloqa mavjud bo‘lganda amalga oshirilishi mumkin. Bunday aloqaning yo‘qligida, jarayonning samaradorligi minimal darajaga tushadi;

[150] Моделирование социальных процессов: метод. указания / сост.: К.Б. Герасимов, Д.В. Прохоров. – Самара: Изд-во Самар. гос. аэрокосм. ун-та, 2011. – 32 с.

[151] Моделирование социальных процессов: метод. указания / сост.: К.Б. Герасимов, Д.В. Прохоров. – Самара: Изд-во Самар. гос. аэрокосм. ун-та, 2011. – 32 с.

2) model o'zgaruvchan tavsifga ega hisoblanadi, ya'ni sifat holatini o'zgartirish qobiliyatiga ega;
3) modellashtirish faqat unga ta'sir qilish orqali jarayon yo'nalishini o'zgartirish mumkin bo'lgan model parametrlari mavjud bo'lgan holatlarda amalga oshiriladi.

Ma'lumki, pedagogik oliy ta'lim mazmuni bitiruvchilarga qo'yiladigan malakaviy talablar bilan belgilanadi. Shunga muvofiq, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish bir qator aniq talablarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi va yaxlit tizimga birlashib, ular ma'lum malakaga ega mutaxassisni tayyorlash uchun ijtimoiy buyurtmaning mohiyatini belgilaydi:

1. Universallikka ega bo'lish talabi raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmunini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu esa, bo'lajak pedagoglarga raqamli ta'lim muhitida pedagogik tolerantlikka doir funksional vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi.
2. Iyerarxiyaga ega bo'lish talabi raqamli ta'lim muhitida professor-o'qituvchi va talabalarga ham asosiy fundamental bilimlarni, ham kasbiy tayyorgarlikka ixtisoslashish imkoniyatini beradigan kompetensiyalar majmuyini o'z ichiga oladigan shaxsiy-pedagogik tolerantlikka doir faoliyat yo'nalishini mo'ljalga olishga imkon beradi.
3. Muammoli tavsifga ega bo'lish talabi tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmunini tanlab olishning maqsadga muvofiqliliga asoslanadi, bu pedagogik toleranlikka asoslangan faoliyatning o'ziga xosligini maksimal darajada aks ettirish bilan tavsiflanadi.
4. Dinamiklik talabi tolerantlik pedagogikasi mazmunini muntazam yangi yo'nalishlar va trendlar bilan boyitib borish majburiyatini qo'yadi, bu kelajakda bo'lajak pedagoglarning kasbiy o'sishi va takomillashishiga yordam beradi.

5. Prognostik talab pedagogik tolerantlikka xos sifatlar, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish uchun tanlab olinayotgan tolerantlikka doir o‘quv materiali mazmunini hisobga olish zarurligini taqozo etib, bunda bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishdan kutilma, kelgusidagi o‘z kasbiy-pedagogik burch va majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq vazifalarni takomillashtirib borish imkon darajada hisobga olinadi.
6. Diagnostik talablar bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning muayyan darajasini tavsiflovchi mezon va ko‘rsatkichlarga muvofiq tanlab olishga yo‘naltiradi.

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini loyihalashtirishda quyidagilar e’tiborga olindi: a) professor-o‘qituvchilarning pedagogik tolerantlik kompetentligiga egaligi; b) obyektiv asoslar: ijtimoiy buyurtma, pedagogika ta’lim sohasi Davlat ta’lim standarti; d) yaxlit o‘quv-tarbiya jarayoni; e) ekzistensial-insonparvarlik; diversifikatsion; shaxsiy; fasilitativ; dialogik yondashuvlar; f) bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasi.

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini loyihalash qo‘yidagi mantiqqa asoslandi:

1) model chegaralarini belgilash;
2) loyihalashning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularni loyihalashtirilayotgan jarayon vazifalari bilan taqqoslash;
3) ko‘rib chiqilayotgan jarayon subyektlarini aniqlash;
4) modelni loyihalashni amalga oshirish uchun zarur tamoyillarni tanlash va asoslash;
5) modellashtirilayotgan jarayonning asosiy funksiyalari, mazmuni, metod, shakl va vositalarini aniqlash;
6) loyihalashtirilayotgan model maqsadiga erishish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;


7) ushbu modelni amalga oshirishda erishilishi kerak bo'lgan asosiy natijani aniqlash, uni tashxis etish texnologiya va vositalarini asoslash.

Tadqiqot doirasida loyihalashtirilgan raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik modeli tuzilmaviy tavsifga ega bo'lib, ekzistensial-insonparvarlik; diversifikatsion; shaxsiy; fasilitativ; dialogik yondashuvlar mazmuni bilan belgilanadi hamda tuzilishi jihatdan besh komponentdan iboratdir: maqsadli; nazariy-metodologik; mazmunli; tashkiliy-didaktik; natijaviy-baholash.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelning (2.2.1-rasmga qarang) o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, komponentlardan birida o'zgarish bo'lishi muqarrar ravishda boshqa komponentlar, yakuniy natijada bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning yaxlit tizimida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Bo'lajak pedagog tolerantlik kompetensiyalarini o'zlashtirishi uchun maqsadli, nazariy-metodologik, mazmunli, tashkiliy-didaktik, natijaviy-baholash komponentlarning yopiq doirasi bo'ylab bir necha marta "harakatlanishi" va yakunida maqsadga erishishning yuqori darajasi ta'minlanishi mumkin. Quyida modelning komponentlari mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

Maqsadli komponent. Maqsad tushunchasini turli xil talqin qilish asosida uni tushunish belgilangan vaqtda erishishni talab qilingan muddatda mavjud imkoniyatlari bilan taqqoslab kutilgan natija obrazi sifatida shakllanadi. Bu esa, bo'lajak pedagoglarni maqsadga erishish tomon harakat qilishga undaydi, ya'ni shunday belgilanadiki, olingan natijani har doim kutilgan natija bilan taqqoslash imkoniyati mavjud bo'ladi.



2.2.1-rasm. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik modeli

Ilmiy adabiyotlarda maqsadlarni belgilashning turli xil manbalari ko'rsatib o'tilgan. Mazkur nuqtai nazardan, I.A.Kolesnikovaning quyidagi qarashlari juda samarali hisoblanadi:

- ham jamiyat rivojlanishidagi obyektiv ustuvor yo'nalishlar, ham ish beruvchilarning bo'lajak pedagoglarga qo'yadigan talab ko'rinishidagi ijtimoiy buyurtma;
- o'rganish subyekti nafaqat biror narsaga tayyorgarlik ko'rish, balki mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan maxsus ijtimoiy voqelik sifatida;
- bo'lajak pedagog "yangisini yaratish uchun muhim qobiliyat"ni samarali amalga oshiradigan maxsus ijtimoiy subyekt sifatida insonparvarlik mohiyatning asoschisi sifatida[152].

Modelning maqsadli komponenti maqsad va vazifalarni o'zida aks ettirgan. Maqsad sifatida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish belgilab olindi. Mazkur maqsadga erishish uchun 2 ta strategik (bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlikni rivojlantirish; tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir raqamli ta'limga asoslangan jarayonni loyihalash) va 5 ta taktik vazifa (tolerantlikka doir bilimlarni rivojlantirish; tolerantlik sifatlarini rivojlantirish; tolerant xulq-atvorni rivojlantirish; tolerantlik pozitsiyasini rivojlantirish; tolerantlik tafakkurini rivojlantirish) belgilab olindi.

Modelning nazariy-metodologik komponentida determinant yondashuv sifatida kompetensiyaviy, bevosita ta'sir kuchiga ega tayanch ustunlar sifatida ekzistensial-insonparvar, devirsifikatsion, shaxsiy, fasilitativ, dialogik yondashuvlarga asoslanildi. Mazkur komponentda biz konkret nazariyalarga ham tayanganmiz. Jumladan, tadqiqotda UNESCO tolerantlik talqini va global kompetensiyalar; Mayerning multimodal o'qitish; Papertning konstruktsionizmi; Benks va Bayramning madaniyatlararo ta'lim konsepsiyalari; raqamli ta'lim muhitida kollaborativ o'qitish nazariyalariga asoslanildi.

[152] Колесникова И. А. Педагогическое проектирование: Учеб. пособие для высш. учеб. заведений / И.А.Колесникова, М.П.Горчакова-Сибирская; Под ред. И.А. Колесниковой. – М: Издательский центр «Академия», 2005. – 288 с.

Maqbul shart-sharoitlarni ikki guruhga ajratganmiz: pedagogik va psixologik. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogik va psixologik shart-sharoitlar bir xil ahamiyat kasb etadi. Jumladan, taklif etilayotgan pedagogik shart-sharoitlar maqbul ta’limiy muhitni yaratishga imkon beradigan chora-tadbirlar majmuyini o‘zida ifoda etadi: transditsiplinar yondashuv asosida tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning sa’y-harakatlarini kuchaytirish; shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv, dialogik o‘zaro birgalikdagi faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘qitishning interfaol va raqamli texnologiyalarini samarali qo‘llash; bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonlarini fasilitatsiyalash. Psixologik shart-sharoitlar shaxsiy salohiyatni oshirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning intersubyektli jarayonini rivojlantirishga imkon beradi. Psixologik shart-sharoitlarni ikki guruhga ajratish mumkin: psixologik qo‘llab-quvvatlash, tashkiliy va muvaffaqiyatga erishish treninglari, guruh uchrashuvlari kabilar bilan aloqador tashqi hamda talabalarning umuminsoniy va pedagogik madaniyatini rivojlantirish, shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini realizatsiyalash singari ichki.

Mazmunli komponent ko‘rib chiqilayotgan modelda tizimli ahamiyatga ega, chunki uning takomillashtirilishi orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni va natijasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur komponentga xos uchta – madaniyatlararo, kognitiv, shaxslararo kommunikatsiya blokining o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Quyida har bir blokka alohida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Madaniyatlararo blok pedagogik tolerantlik bilan bog‘liq umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib, turli xalq va millatlarning urf-odati, an’analari, marosimlari, madaniy o‘ziga xosliklarini hisobga olishni taqozo etadi. Chunki bo‘lajak pedagog multimadaniy muhitda samarali faoliyat ko‘rsatishi ma’lum bir xalq yoki millatning madaniy an’analari, qadriyatlari va turmush tarzini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur.

Agar muloqot ta'lim jarayoni mexanizmi bo'lsa, unda madaniy dialog o'zaro tushunish mexanizmidir. Shunday qilib, madaniy dialog har qanday boshqa muloqot shakli singari jarayon bo'lib, uning natijasida o'zaro tushunish namoyon bo'ladi va mustahkamlanadi.

"Madaniy xilma-xillikka ega shaxs" (intercultural personality) tushunchasi xorijiy tadqiqotchilar (P.S.Adler[153], D.Lutzker[154], R.Norton[155], O.V.Nikolaєnko, T.O.Ushata[156] va boshqalar) tomonidan joriy etilgan bo'lib, bunda "xalqaro shaxs" (international personality) (D.Lutzker), "multimadaniyatli shaxs" (multicultural personality) (P.S.Adler, R.Norton va boshqalar) kabi atamalarning umumlashgan ko'rinishi hisoblanadi. Ularning fikricha, bunday shaxs barcha madaniyatlarga hurmat, boshqa madaniyat vakillarining fikrlari, his-tuyg'ulari va e'tiqodlarini tushunish kabi xususiyatlarga ega. Bunday shaxslar milliy madaniyatga ega bo'lgan holda, biror-bir madaniyatni ikkinchisidan ustun qo'yishmaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar madaniyatlararo blokning quyidagi vazifalarini aniqlash imkonini berdi:

- madaniy assimilyatsiya, madaniyatlararo ziddiyatlar (madaniy tajovuz, vandalizm, kamsitish va h.k.) haqida tasavvurga ega bo'lish;
- madaniyatlararo muhitni tushunish va unga moslashuv sharti sifatida bo'lajak pedagogning ijtimoiy-madaniy identifikatsiyasini rivojlantirish;
- bo'lajak pedagogning o'z-o'zini madaniy-tarixiy jarayon va madaniy dialog subyekti sifatida anglashiga erishish;
- turli mamlakatlar geosiyosatidan xabardorlik;

[153] Adler P.S. Beyond Cultural Identity: Reflections on Cultural and Multicultural Man // Intercultural Communication: A Reader. Belmont. CA: Wadsworth, 1997. – P. 12–23.

[154] Lutzker D. Internationalism as a Predictor of Cooperative Behavior // Journal of Conflict Resolution, 2000. – № 4. – P. 426–430.

[155] Norton R. Foundations of a Communicator Style Contrast // Human Communication Research. – 1998. – № 4. – P. 99-112.

[156] Ніколаєнко О.В., Ушата Т.О. Феномен міжкультурної комунікативної компетентності викладача вищої школи як ознака професійно-педагогічної якості // Наукові записки Національного університету «Острозька академія». Серія «Філологічна». Випуск 61. – С.195-197.

- turli mamlakatlar madaniyati (qadriyatlari, urf-odat va an'analari, dini va h.k.) haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish;
- chet el madaniyatini tushunish va uning mezonlarini idrok etish;
- milliy madaniyatga nisbatan qadriyatli munosabatni tarkib toptirish.

Kognitiv blok tolerantlik pedagogikasiga qo'yiladigan talablarni ilmiy asoslash, ularning o'zaro aloqadorligini aniqlash imkonini beradi. Mazkur bosqich har bir mashg'ulotga qo'yiladigan talablarni ham aniqlab beradi, qo'yilgan muammoni nafaqat nazariy-metodologik darajada hal etish, balki tolerantlik pedagogikasi maqsadlariga erishishga yordam beradigan vositalarni ham yaratishga imkon beradi.

Kognitiv blokning vazifalari quyidagilardan iborat:

– bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga raqamli ta'lim muhiti ta'sirining mexanizm va aloqadorligini ochib berish;
– tolerant pozitsiyani egallash, uning tuzilishi, individual-tolerant ongni rivojlantirish mexanizmi va uning aloqadorligini aniqlash hamda turli xil vaziyatlarda qo'llash;
– tolerantlik pedagogikasining ta'sir mexanizmlari, aloqadorligi, shartlari, bilimlarni o'zlashtirish mezonlarini aniqlash, talabalar tomonidan tolerantlik bilan bog'liq vazifa va topshiriqlarni bajarish jarayonida faoliyatning tashkiliy asosini kuchaytirish;
– bo'lajak pedagoglarning intellektual hamda shaxsiy rivojlanish darajasi hamda tolerantlik ta'limining shakl va metodlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;
– bo'lajak pedagoglarning tolerantlikka doir bilimlarni o'zlashtirish darajasi va sifatini tashxis etishning psixologik-pedagogik asoslari va ularning ta'lim standartlari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash;
– bo'lajak pedagoglarning tolerantlik ta'limiga doir o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish xususiyatlari hamda mazkur jarayonlarning intellektual, shaxsiy rivojlanish hamda o'quv-bilish faoliyatiga ta'sirini aniqlash;

– ta'lim tizimining barcha darajalarida tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik va metodik asoslarni ishlab chiqish.

Nazariy-amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kognitiv komponent quyidagi bilimlarni o'z ichiga qamrab olishi kerak:

1) tolerantlik pedagogikasining ijtimoiy-falsafiy muammolari;
2) dialektik va tizimli fikrlash;
3) tolerantlik bilan aloqador fanlarning ichki va tashqi munosabatlari hamda "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" moduli, "Tolerantlik pedagogikasi" elektiv kursini o'qitish metodikasi orqali didaktikaning umumilmiy va maxsus fanlar uchun asos sifatida xizmat qilishi;
4) tolerantlik pedagogikasining metodologiyasi (tuzilishi, tolerantlik bilimlari funksiyalari, metodologik ma'noga ega fundamental tolerantlikka doir nazariya va yondashuvlar, tolerantlikni tadqiq etish usullari);
5) tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qo'yiladigan standart talablar, uning tarkibiy asoslari: Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv yuklamasi;
6) tolerantlik g'oyasining paydo bo'lishi va istiqbolli rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy shartlari va nazariy-pedagogik jihatlari;
7) tolerantlik ta'limining mohiyati (tashkiliy va natijaviy jihatlari);
8) "tolerantlik", "pedagogik tolerantlik", "tolerantlik ta'limi", "tolerantlik kompetensiyalari" tushunchalarining mohiyati; tolerantlik ta'limini amalga oshirishning maqsadi, vazifalari; shakllari va metodlari; uni tashkil etish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari;
9) zamonaviy tolerantlik konsepsiyalarni bilish;
10) tolerantlik ta'limini amalga oshirishning raqamli vositalaridan xabardorlik;
11) turli tolerantlik vaziyatlarida keng qo'llaniladigan hamda nisbatan sodda leksik-grammatik vositalardan foydalangan holda dialogik va monologik nutqni egallash;

12) turli tolerantlik bilan bog‘liq vaziyatlarda so‘zlashuv odobiga rioya qilish;
13) senzitivlikka ega bo‘lish; tolerantlik bilan bog‘liq vaziyatga mos ravishda til vositalarini tanlash orqali munozarada ishtirok etish;
14) polilog (munozara) da qatnashish, polilogik muloqotning o‘ziga xos ko‘nikmalariga ega bo‘lish (asosiy g‘oya taqdimoti, biror-bir tashabbus bilan chiqish, ma’lumot so‘rash va h.k.);
15) turli vaziyatlarning tolerantlikni taqozo etuvchi jihatlari va maqsadini aniqlash.

Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelining shaxslararo kommunikatsiya blokining alohida ajratib ko‘rsatilishi zamonaviy raqamlashgan jamiyatda muloqotning rolini tobora oshib borayotganligi va ahamiyati katta ekanligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Muloqot – bu kishilar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish, birgalikdagi faoliyatga bo‘lgan ehtiyojlar orqali hosil bo‘ladigan, shuningdek, o‘zaro ma’lumot almashish, hamkorlikning yagona strategiyasini ishlab chiqish, boshqalarni idrok etish va tushunishni o‘z ichiga olgan murakkab ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Shaxslararo kommunikatsiya deganda, ma’lumotni biror-bir manbaning boshqa aniq maqsadli obyekt yoki identifikatsiya qilinadigan guruh a’zolariga uzatish jarayoni tushuniladi. Ushbu kommunikatsiyalar odatda, o‘zaro shaxsiy aloqalar davomida amalga oshiriladi, ammo ular pochta, telefon yoki boshqa elektron va raqamli vositalar yordamida ham amalga oshirilishi mumkin.

G.D.Lassuell insoniy kommunikatsiyalar mavzusining aksariyat qismini bitta jumlada ifodalay olgan: “Kim – nimani xabar qiladi – qaysi kanal orqali – kimga – qanday samaraga erishiladi?” (who) – (what) – (what source) – (whom) – (what effect)[157]. Manba og‘zaki nutq, imo-ishoralar yoki xat kabi ma’lumotni yetkazish vositasiga ega bo‘li-

[157] Harold D. Lasswell. The structure and function of communication in society // İletişim kuram ve araştırma dergisi Sayı 24 Kış-Bahar 2007, P.215-228.

shi kerak. Xabar kodlanib, qabul qilib oluvchiga signal tariqasida yuboriladi va u ushbu xabarni qayta kodlashi kerak bo'ladi. Ushbu axborot modeli shaxslararo kommunikatsiyaga tegishli ba'zi juda muhim masalalarni tahlil qilishda foydali bo'ladi. Bir qator nazariyotchilarning fikriga ko'ra, nafaqat axborot almashish, balki birgalikda talqin qilish kommunikatsiya jarayonining asosida yotadi.

Shaxslararo kommunikatsiya o'qitish jarayonida ham qo'llanilib, uning davomida har bir talaba boshqalarga ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish yoki yangi ma'lumotlar tizimini shakllantirishda yordam beradi. Shaxslararo kommunikatsiyada o'zaro bog'liq uchta jihatni ajratib ko'rsatish mumkin: kommunikativ, perseptiv va interfaol.

Shaxslararo kommunikatsiyaning kommunikativ jihati A.I.Solovev ta'kidlanganidek, "muloqot bo'yicha sheriklar o'rtasida axborot almashish, fikr va hissiyotlarni uzatish va qabul qilish"[158]dan iborat.

Shaxslararo kommunikatsiyaning interfaol jihati o'zaro hamkor tomonlar o'rtasidagi harakatlar (masalan, savol-javob, so'rov-rad etish yoki rozilik) bilan almashish, o'zaro aloqa taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish, kishilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishdan iborat. Interaksiyaning asosiy turlari bu kooperatsiya va raqobatdir. Kooperatsiya individual-jamoaviy (ya'ni, bitta maqsadga intilishadi, lekin bir-biridan mustaqil ravishda, ba'zan hatto hamkasbiga xalaqit beradi), doimiy-jamoaviy (har bir kishi doimiy ravishda umumiy ishning bir qismini bajaradi) va o'zaro aloqa kooperatsiyasi (jamoaning barcha a'zolari birgalikda, bir-biriga yordam berib, maqsadga ishonch bilan borishadi) bo'lishi mumkin.

Shaxslararo kommunikatsiyaning perseptiv tomoni odamlarning bir-birlarini idrok etishi va tushunishi, muayyan shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Perseptiv muloqot – bu boshqa insonni to'g'ri idrok etish, ichki dunyosiga kirib borish qobiliyatidir. Persepsiya odamlarning psixofiziologik xususiyatlari; jinsi va yosh xususiyatlarini yaxshi bilishni ta'minlaydi.

[158] Соловьев А.И. Основы информационно-коммуникационной деятельности: пособие для студентов Института журналистики БГУ. – Минск: БГУ, 2009. – 191 с.

Kommunikatsiyaning ikki – rolli va shaxsiy turlari ajratib ko‘rsatiladi. Rolli muloqotlarda odamlar bitta ijtimoiy jamoaning vakillari sifatida birgalikda harakat qilishadi. Rolli muloqot jamiyatda qabul qilingan qoidalar va muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tartibga solinadi.

Shaxsiy muloqot yanada erkin, ijtimoiy ko‘rsatma va cheklovlarga bog‘liq bo‘lmagan, aloqaga kirishuvchi shaxslarning individual xususiyatlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga bog‘liq.

Muloqotning ikkala turi ham ochiq va yopiq, ham aralash ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Yopiq muloqot “bir tomonlama so‘rov” va “boshqa odamlarning holatini hisobga olishni istamaslik”dir. Biroq samarali muloqot faqatgina har ikkala tomon ham ochiq bo‘lganda muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Ochiq muloqotda ikkala tomon ham o‘z nuqtai nazarini yashirishmaydi va raqibning pozitsiyasini hisobga olishga tayyor. Bunday holda ular orasida psixologik muvofiqlik yuzaga keladi. Muvofiqlik – bu birxillik emas. U turli jins, yosh, fe’l-atvorli odamlar, turli xil ijtimoiy mavqega ega shaxslar o‘rtasida paydo bo‘lishi mumkin. Ammo muvofiqlik o‘zaro qiziqish va bir-biriga doimiy yon bosishni talab qiladi.

Verbal muloqot – bu ma’lumotni bir kishidan boshqasiga yoki bir guruh shaxsga yetkazish. Bunda ma’lumotlar bir tomonlama harakatlanmasdan, balki uning faol ravishda almashinuvi ro‘y beradi va bu kommunikativ jarayon ishtirokchilarining holatini o‘zgartiradi.

Noverbal kommunikatsiya kinesika (imo-ishora, yuz ifodalari, pantomimika), proksemika (muloqot joyi va vaqti), para va ekstralingvistika (tonallik, ovoz tembri, nutq balandligi va tezligi, pauzalar), vizual muloqot (ko‘z bilan aloqa) va takesika (tanaga teginish)ni o‘z ichiga oladi.

Quyidagilar shaxslararo kommunikatsiya blokining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- asosiyni ikkinchi darajali narsadan ajrata olish qobiliyati;
- nutq xatti-harakatlarining tashqi tafsilotlariga e’tibor berish qobiliyati;

- mustahkam o‘rnashib qolgan tasavvur va noto‘g‘ri qarashlardan xalos bo‘lish;
- hamsuhbatning hissiy holatini bilish;
- asosan ijobiy ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratish;
- hamsuhbat bilan shaxsiy munosabatlarni to‘g‘ri baholay olish qobiliyati;
- hazil-mutoyiba tuyg‘usini rivojlantirish;
- arzimas deb hisoblanadigan narsa-hodisalarni ham kuzatish, payqash qobiliyati;
- hamsuhbatni tinglay olish qobiliyati;
- tushunishning eng yaxshi ko‘rsatkichi nima ekanligini aniqlash qobiliyati – qarash, imo-ishora, yuz ifodasi, kiyim, urg‘u, ohang yoki so‘zlar, nutq formulalari;
- idrok etishda o‘zining xatolarini aniqlash qobiliyati;
- suhbatdoshga bo‘lgan diqqatni rivojlantirish – shaxs sifatida sherikka nisbatan hamdardlik va qiziqish paydo bo‘lishi;
- shaxsni ma’lumot manbayi sifatida baholashda ma’lumotning o‘zini haqqoniyligi, ishonchliligiga e’tibor qaratish;
- nutqda takrorlash, taqqoslash va o‘xshashliklardan foydalanish qobiliyati, chunki bu tinglovchida istiqbolda fikrlash uchun imkon yaratadi;
- ma’lumotni aniq uzatish qobiliyati, ma’nosini buzmaslik;
- verbal va noverbal kommunikatsiya vositalarining bir-biriga zid kelmasligi uchun ularning ma’nosini moslay olish qobiliyati.

Modelning tashkiliy-didaktik komponenti o‘zida ta’limning formal, noformal va informal shakllari, hamkorlikka asoslangan, multimodal o‘qitish metodlari hamda raqamli va metodik vositalarni aks ettirgan.

Formal ta’lim aniq qoidalarga asoslangan, maqsadli va maxsus rejalantirilgan o‘quv jarayoni hisoblanadi. Mazkur o‘qitish shakli ta’lim dasturlariga muvofiq, ta’lim tashkilotining o‘zida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar bo‘yicha tashkil etiladi. Tadqiqotimiz doirasida “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” moduli va “Tolerantlik pedagogikasi” elektiv kursi formal ta’lim asosida amalga oshirildi.

"Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" moduli majburiy fan sifatida 2-kursda o'qitilib, umumiy 150 soat ajratilgan. Shundan 60 – 30 soat ma'ruza, 30 soat seminar uchun auditoriya mashg'ulotlari, 90 soat mustaqil ta'lim rejalashtirilgan.

Mazkur modulni o'qitish bilan bog'liq masalalar ayrim tadqiqotlar[159]da u yoki bu darajada yoritilganligini hisobga olib, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda talabalarda mediasavodxonlik va raqamli tolerantlikni rivojlantirishga doir amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ma'ruza va seminar mashg'ulotlari bo'yicha ishchi daftar ishlab chiqildi. Quyida tadqiqotimiz predmeti bilan bog'liqlikda mashg'ulot ishlanmalaridan namunalar keltirib o'tamiz.

13-ma'ruza: Ta'limda sun'iy intellekt: muammo va istiqbollar.

Mavzu rejasi:

1. Sun'iy intellekt (AI): muammo va istiqbollar.
2. Ta'limda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini qo'llash.
3. Sun'iy intellekt va elektron tijorat platformasi. Sun'iy intellekt dinamikasi.
4. Sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy va huquqiy standartlar.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, sun'iy intellekt, mediasavodxonlik, axborot madaniyati, ta'limda sun'iy intellekt, raqamli ta'lim muhiti, o'qituvchi va SI hamkorligi, axloqiy qarashlar, huquqiy standartlar, mentalitet.

Annotatsiya: mazkur ma'ruza ta'lim sohasida sun'iy intellekt (AI) ning roli, imkoniyatlari hamda unga bog'liq muammolarni keng qamrovli tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda sun'iy intellektning kelib chiqishi, SI texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi, o'quv ja-

[159] Некбоев Х.Х. Медиатаълим асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-танқидий ёндашувини такомиллаштириш: пед.фан.бўй. фал.док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 158 б.; Мадрахимова Ф.Р. Олий таълим ташкилотлари талабаларида медиасаводхонликни ривожлантириш: педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Чирчиқ, 2022. – 252 б.

rayonini individuallashtirish, pedagogik resurslarni optimallashtirish va ta'lim sifatini oshirishdagi istiqbollari yoritiladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektning keng joriy etilishi bilan bog'liq axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolar ham ko'rib chiqiladi. Xususan, qaror qabul qilish jarayonlarida inson nazoratining yetishmasligi, shaxsiy ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va algoritmik tarafkashlik kabi masalalar tahlil qilinadi.

Ma'ruzada ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, talaba va o'qituvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, axborot oqimining xavfsizligini ta'minlash hamda SI tizimlarida ma'lumotlar shaffofligini oshirishning ahamiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy va huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish va joriy etish, pedagoglar hamda ta'lim muassasalari uchun mas'uliyatli foydalanish qoidalarini belgilash zarurligi muhokama qilinadi.

Ma'ruza ta'lim jarayoniga sun'iy intellektni samarali va xavfsiz integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar va strategiyalarni o'z ichiga oladi. Unda pedagogik jarayonning inson markazida qolishi, axloqiy me'yorlar va qonuniy talablarning bajarilishi muhimligi yoritiladi. SI asosidagi ta'limning imkoniyatlari – masofaviy ta'lim, interfaol o'quv platformalari, individuallashtirilgan mashg'ulotlar – hamda cheklovlari – texnologik muammolar, o'qituvchilar kompetensiyasining yetishmasligi va etik masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, kelajak istiqbollari sifatida ta'limda sun'iy intellekt yordamida bilim sifatini oshirish, o'quv jarayonini optimallashtirish va ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Ma'ruza ta'limda SI qo'llanilishini mediasavodxonlik va axborot madaniyati nuqtai nazaridan ham tahlil qilib, axborotning ishonchliligini baholash, etik yondashuv va texnologiyadan ongli foydalanish zarurligini asoslab beradi.

Refleksiya.

1. Sun'iy intellekt (AI) deganda nimani tushunasiz va u ta'lim jarayonida qanday vazifalarni bajaradi?

2. Sizningcha, SI texnologiyalari ta’lim sifatini oshirishga qay darajada xizmat qilmoqda? Misollar bilan izohlang.
3. SI asosidagi ta’lim vositalarining an’anaviy o‘qitish usullaridan asosiy farqlari nimalardan iborat?
4. Siz o‘quv jarayonida sun’iy intellektdan foydalanganmisiz? Agar foydalangan bo‘lsangiz, bu tajriba sizga qanday ta’sir ko‘rsatdi? Misollar bilan izohlang.
5. SI sizning mustaqil fikrlashingiz va ijodiy yondashuvingizga qanday ta’sir qilmoqda, deb o‘ylaysiz? SI tomonidan taqdim etilgan axborotning ishonchliligini qanday aniqlaysiz?
6. Sizningcha, mediasavodxonlik SI texnologiyalaridan samarali foydalanishda qanday rol o‘ynaydi?

Uyga topshiriq (refleksiya kundaligi).

Fan: _____

Mavzu: Ta’limda sun’iy intellekt: muammo va istiqbollar.

Talaba F.I.Sh: _____

Guruh: _____ Sana: _____

N°	Savol va yo‘naltiruvchi iboralar	Talabaning javobi
1.	**Bugungi mashg‘ulotda nimani o‘rgandim?** (Sun’iy intellekt ta’limda nimaga xizmat qiladi?)	
2.	**Qaysi ma’lumotlar men uchun yangi bo‘ldi?**	
3.	**SI bilan bog‘liq qanday muammolarni ko‘rdim?** (masalan: axloq, xavfsizlik, ishonchlilik)	
4.	**Mening shaxsiy fikrim** (SI ta’limni yaxshilaydimi yoki muammo keltirib chiqaradimi?)	
5.	**SIdan talaba sifatida qanday foydalanishim mumkin?**	
6.	**Menda qanday savollar yoki qiyinchiliklar qoldi?**	

Izoh: talaba uchun qisqa ko'rsatma:

– har bir savolga 3-4 jumla bilan javob yozing;
– o'z fikringizni oddiy va aniq ifodalang;
– tayyor javoblarni ko'chirmang, mustaqil fikr bildiring!

13-seminar mashg'uloti: Ta'limda sun'iy intellekt va raqamli tolerantlik.

Mavzu rejasi:

1. Sun'iy (SI) intellekt: muammo va istiqbollar.
2. Ta'limda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llash.
3. Sun'iy intellekt va elektron tijorat platformasi. Sun'iy intellekt dinamikasi.
4. Sun'iy intellektdan foydalanishning axloqiy va huquqiy standartlari.

Seminar mashg'ulotining maqsadi: talabalarni sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari, muammolari va istiqbollarini tizimli tahlil qilishga o'rgatish; SI texnologiyalaridan mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalari va raqamli tolerantlikni rivojlantirish.

Seminar mashg'ulotining vazifalari: sun'iy intellekt tushunchasi, turlari va rivojlanish dinamikasini bilish; ta'lim jarayonida SI texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari va afzalliklarini o'rganish; SI va elektron tijorat platformalarining o'zaro bog'liqligi hamda texnologik istiqbollarini tahlil qilish; sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy va huquqiy me'yorlarni aniqlash va tatbiq etish; talabalarni SI texnologiyalari bilan bog'liq muammolar va xavflardan xabardor qilish.

Mashg'ulotdan kutilayotgan natijalar: talaba Sun'iy intellekt tushunchasi, turlari va rivojlanish yo'nalishlarini tushuntira oladi; ta'lim jarayonida SI texnologiyalarini samarali qo'llash usullarini biladi va amalda qo'llay oladi; SI texnologiyalaridan foydalanishda axloqiy va huquqiy me'yorlarni biladi va ularga rioya qiladi.

Talabalar 2-4 guruhga bo'linadilar.

1-topshiriq. Keys: Adaptiv ta'lim tizimi.

Universitetda SI asosida adaptiv ta’lim tizimi joriy qilindi. Ba’zi talabalar tizimdan samarali foydalanmoqda, ba’zilari esa texnologiyani to‘liq tushunmayapti.

Topshiriqlar:

1. Muammolarni aniqlang.
2. Texnologiyaning afzalligi va murakkab jihatlarini muhokama qiling.
3. Yechimlar va takliflar ishlab chiqing.

2-topshiriq: Keys: SI orqali baholash.

Onlayn platformada SI yordamida talabalar baholandi, lekin natijalar ba’zi hollarda noto‘g‘ri hisoblanmoqda.

Topshiriqlar:

1. Bu holatda qanday munosabatda bo‘lish lozim?
2. Talabalarga raqamli tolerant bo‘lish uchun qanday tavsiyalar berish mumkin?
3. Raqamli tolerant xulq-atvorni namoyon qilish bo‘yicha guruh takliflarini ishlab chiqing.

2-topshiriq: Test savollari va mustaqil refleksiya.

Test savollari.

1. Sun’iy intellekt (AI) nima?

A) Faqat robotlarni boshqarish tizimi

B) Ma’lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish imkonini beruvchi tizim

C) Internetga ulanmagan kompyuter dasturi

2. Ta’limda SI dan foydalanish afzalliklariga nimalar kiradi?

A) Individualizatsiya, samarali monitoring, vaqtni tejash

B) Qimmat xarajat va murakkab interfeys

C) Axborot xavfsizligini kamaytiradi

3. SI dan foydalanishda axloqiy va huquqiy me’yorlar nimani ta’minlaydi?

A) Talabalarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qiladi

B) Texnologik yangilanishni cheklaydi

C) Faqat o‘qituvchilar uchun qo‘llaniladi

4. Elektron tijorat va SI o'rtasidagi bog'liqlik nimada?

A) SI yordamida mahsulotni shaxsiylashtirish va tavsiyalar berish

B) SI faqat reklama berish uchun ishlatiladi

C) Tijorat bilan bog'liq emas

3-topshiriq. Mustaqil refleksiya: "Menda raqamli tolerantlikka doir sifatlar mavjudmi?"

4-topshiriq. Ta'limda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini qo'llash bo'yicha SWOT-tahlilni amalga oshirish.

SWOT matritsasi	Yo'naltiruvchisi savol	Sharh
Kuchli jihatlar	SI ta'limda qanday foyda beradi? Qaysi jihatlari qulay?	
Zaif tomonlar	SI dan foydalanishda qanday qiyinchiliklar bor?	
Imkoniyatlar	SI kelajak ta'limida qanday inqilobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin?	
Tahdidlar (xavf)	SI qanday xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?	

5-topshiriq. Quyidagi savollar asosida ikki qismli kindalik tuzing:

1. Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish mediasavodxonlik va axborot madaniyati nuqtai nazaridan qanday asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi?

2. Ta'lim jarayonida SI tizimlarining ishlatilishi natijasida yuzaga keladigan muammo va istiqbollarni mediasavodxonlik va axborot madaniyati kontekstida ko'rsatadigan misollarni keltiring.

3. Sizningcha, ta'limda SI dan foydalanish mediasavodxonlikni rivojlantirish va axborot madaniyatini oshirishda qanday rol o'ynashi mumkin? Qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin?

4. Ta'limda SI tizimlaridan foydalanishda mediasavodxonlik va axborot madaniyati nuqtai nazaridan axloqiy va huquqiy standartlar qanday bo'lishi kerak?

14-ma’ruza: Media makonda psixologik, diniy va madaniy tahdidlar.

Mavzu rejasi:

1. Media makon va axborot xavfsizligi tushunchalarining mazmuni.
2. Axborot globallashuvi sharoitida media tahdidlar dolzarbligi.
3. Media tahdidlarning turlari va tasnifi.
4. Media makon axborot tizimida “falsifikasiya metodi” (feyk).

Tayanch tushunchalar: tahdid, media makon, axborot globallashuvi, axborot xavfsizligi, psixologik tahdidlar, diniy tahdidlar, madaniy tahdidlar, shaxsga yo‘naltirilgan tahdidlar, milliy nizo, ijtimoiy barqarorlik, falsifikatsiya metodi (feyk axborot).

Annotatsiya: ushbu mavzuda media makonida yuzaga keladigan psixologik, diniy va madaniy tahdidlar tahlil qilinadi. Media resurslarining inson ongiga ta’siri, shuningdek, diniy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Psixologik tahdidlar doirasida media kontentning stress, axborotga qaramlik, noto‘g‘ri ma’lumotlar va dezinformatsiya orqali ruhiy salomatlikka ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ma’ruzada media xabarlarini tanqidiy qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish va xavfsiz axborot muhitini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Tahdid fenomenining nazariy asoslari hamda unga nisbatan mavjud yondashuv va talqinlar tahlil qilinadi. Tahdidlarning psixologik, ijtimoiy, siyosiy, diniy va madaniy turlari ularning kelib chiqish omillari hamda jamiyat barqarorligiga ta’siri nuqtai nazaridan yoritiladi. Milliy nizo va etnik ziddiyatlarning tahdid sifatida namoyon bo‘lish mexanizmlari hamda ularning ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta’siri ilmiy asosda ochib beriladi. Milliy totuvlikni ta’minlash va tahdidlarning oldini olishda samarali axborot siyosati hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning ahamiyati asoslab beriladi.

Media makon tushunchasi, uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamda axborot globallashuvi sharoitida media tahdidlarning dolzarbligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Media makon va axborot xavfsizligi tushun-

chalarining mazmuni ochib berilib, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Mavzu doirasida media tahdidlarning asosiy turlari va ularning tasnifi psixologik, ijtimoiy, diniy va madaniy jihatlar kesimida yoritiladi.

Media makonda keng tarqalgan falsifikatsiya metodi (soxta axborot, feyk)ning ijtimoiy barqarorlik va axborot xavfsizligiga salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Natijada, media savodxonligini oshirish va axborot xavfsizligini mustahkamlash media tahdidlarni kamaytirishning muhim omili sifatida asoslab beriladi.

Refleksiya. Axborot globallashuvi sharoitida media tahdidlardan o'z-o'zini himoya qilish va raqamli tolerantlik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Buning uchun Reflektiv ta'lim + Problem-Based Learning (PBL – (muammoga yo'naltirilgan ta'lim) + tanqidiy fikrlash (Critical Thinking) texnologiyalaridan foydalaniladi. Bu texnologiyalar orqali talabalarda axborot globallashuvi sharoitida media tahdidlar dolzarbligining mazmuni va ahamiyatini chuqur anglashi, uni tahlil qilish hamda media va axborot savodxonligi bo'yicha shaxsiy pozitsiyani shakllantirish nazarda tutiladi.

Uyga topshiriq.

1-topshiriq: raqamli axborot muhitida soxta xabarlar, manipulyativ kontent va axborot bosimi kuchayib bormoqda. Shu sharoitda media tahdidlarning psixologik-ijtimoiy, diniy va madaniy jihatlarini o'rganish va tahlil qilish qanchalik dolzarb ekanligini asoslang. Ushbu masala yuzasidan mini refleksiv yozuv tayyorlang.

2-topshiriq. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi nazorat savollari asosida infografika tayyorlang.

1. Media tahdidlarning asosiy turlarini sanab bering?
2. Psixologik media tahdidlar nimasi bilan xavfli?
3. Diniy media tahdidlar qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?
4. Madaniy media tahdidlar milliy ongga qanday ta'sir qiladi?
5. Falsifikatsiya (feyk) tushunchasini izohlang.
6. Feyk axborotlar qanday maqsadlarda tarqatiladi. Feyk xabarlardan himoyalanish uchun shaxs qanday choralar ko'rishi kerak?

14-seminar mashg‘uloti. Media makondagi rikslar va tolerant-riskologik kompetentlik.

Seminar rejasi:

1. Media makon tushunchasi va raqamli ijtimoiylashuv.
2. Media makonda axborot xavfsizligi.
3. Media tahdidlar va preventiv pedagogika.
4. Media tahdidlarning namoyon bo‘lish ko‘rinishlari va shakllari.
5. Media makon va pedagogning tolerantlik-riskologik kompetentligi.

Seminar mashg‘ulotining maqsadi: talabalarda media makon va axborot xavfsizligining aloqadorligiga doir information-analitik kompetensiyalarni rivojlantirish; media tahdidlarni bartaraf etishda preventiv va tolerantlik pedagogikasidan foydalanish malakalarini shakllantirish; raqamli savodxonlik, tanqidiy va tolerantlik tafakkurini tarkib toptirish.

Seminar mashg‘ulotining vazifalari: media makon va media tahdidlar tushunchalarini mustahkamlash; psixologik, diniy va madaniy media tahdidlarni aniqlash; feyk axborotlarni tahlil qilish va aniqlash usullarini o‘rganish; media tahdidlarga qarshi to‘g‘ri munosabatni shakllantirish.

Seminar mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalar: media tahdidlarni real misollar asosida tahlil qila oladi; psixologik, diniy va madaniy tahdidlarni farqlaydi; feyk axborot belgilarini aniqlaydi; media makonda axborot xavfsizligi bo‘yicha xulosalar chiqaradi.

1-topshiriq. “Media makonda psixologik, diniy va madaniy tahdidlar” mavzusida PISA formatiga mos (hayotiy vaziyatga asoslangan) test asosida bajariladi.

Matn bilan tanishing. So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar orasida tez tarqalayotgan ayrim videolar va postlar qo‘rquv uyg‘otmoqda, ularda ijtimoiy-maishiy masalalar biryoqlama talqin qilinmoqda hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga zid bo‘lgan turmush tarzi targ‘ib qilinmoqda. Mutaxassislar bunday axborotlar yoshlarning ruhiy holati, dunyoqarashi va madaniy

o'zligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishini aniq dalillar yordamida isbotlab berishmoqda.

1-savol: matnda tilga olingan asosiy muammo nimadan iborat?

A) Internet tezligining pastligi

B) Yoshlarning bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamasligi

C) Media orqali salbiy g'oyalarning tarqalishi

D) Ijtimoiy tarmoqlarning foydali jihatlari

2-savol: matnga ko'ra, bunday kontentlar yoshlarning qaysi jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin? (2 ta to'g'ri javobni tanlang).

A) Ruhiy holatiga

B) Texnik bilimiga

C) Dunyoqarashiga

D) Jismoniy tayyorgarligiga

3-savol: quyidagi holatlardan qaysi biri diniy tahdid sifatida baholanadi?

A) Diniy bag'rikenglikni targ'ib qiluvchi maqola

B) Zo'ravonlikni diniy g'oya bilan oqlovchi post

C) Tarixiy hujjatli film

D) Ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuv

4-savol: Media savodxonlik yoshlarni media tahdidlardan himoyalashda qanday rol o'ynaydi? O'z fikringizni hayotiy misollar bilan tushuntiring.

5-savol: Media makonda axborot erkinligi va axborot xavfsizligi o'rtasidagi muvozanatni qanday ta'minlash mumkin, deb hisoblaysiz? Takliflaringizni yozma ravishda bayon eting.

2-topshiriq. "Aqliy hujum" texnikasi asosida "Media makonda qanday tahdidlar mavjud? mavzusida guruhiy munozarani tashkil qiling.

3-topshiriq. "Media tahdidlar tahlili" mavzusida raqamli klaster tuzish.

1-guruh uchun: "Psixologik tahdidlar".

2-guruh uchun: "Diniy tahdidlar".

3-guruh uchun: "Madaniy tahdidlar".

4-guruh uchun: "Tolerantlikka doir tahdidlar".

Har bir guruh tahdidlarni raqamli klaster shaklida tasvirlaydi va himoya qiladi.

4-topshiriq. Keys: “Raqamli tolerantlik”.

Muammoli vaziyat: ijtimoiy tarmoqlarda diniy tolerantlikka zid tarzda xabarlar va diniy kontent asosida shakllantirilgan reklamalar tez tarqalmoqda. Psixolingvistik tahlil asosida mazkur xabarlar va reklamalarni tahlil qilish (guruhlar vaziyatlarni tahlil qilishadi va yechimlar ishlab chiqadi).

Noformal ta’lim rasmiydan faqrli ravishda maxsus tashkil etilgan treninglar, kurslar va seminarlar shaklida o‘tkaziladi. Mazkur ta’lim shakli uchun yagona o‘quv dasturlari talab etilmaydi, tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun aniq natijalarga yo‘naltirilgan ish shakllaridan foydalaniladi. U bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va shaxsiy o‘sishga katta imkoniyat yaratadi. Uning afzalligi bo‘lajak pedagoglarning ehtiyojlariga mos ravsihda o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatini berishidadir. Bo‘lajak pedagoglar qisqa vaqt davomida treringlar yordamida tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirib borishlari mumkin.

Noformal ta’lim shaklida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish trening dasturi orqali amalga oshirildi. Trening mashg‘ulotlari dasturida quyidagi mashqlar o‘z aksini topgan:

1-mashq. “Ismlar ma’nosi”.

Guruhning har bir ishtirokchisi o‘zi uchun ismi yozilgan tashrif kartochkalarini yaratishi lozim. Har bir ishtirokchi unga guruhda murojaat qilishlari uchun istalgan ismni tanlab olishi mumkin: o‘zini haqiqiy ismi, badiiy asar qahramoni ismi, to‘qima obraz bo‘lishi mumkin.

Tashrif kartochkalarini bezatish bilan birga ishtirokchilar o‘z ismiga sifat topishlari kerak (Masalan: Behruz – g‘amxo‘r; Aziz – oliyjanob; Zafar – g‘ayratli va boshqalar).

Bu mashqning asosiy maqsadi ishtirokchilarga o‘zining individualligini namoyon etishga imkoniyat beradi.

2-mashq. Qarsaklar.

Hamma doira shaklida o'tiradi. Boshlovchining tashabbusi bilan qarsak chalinadi. O'ngdan chapga tomon o'tirganlar ketma-ket qarsaklarni davom ettirishadi. Qarsak uzilmasdan bir-biridan keyin o'tirganlar davom ettirib ketishi lozim. Boshlovchi boshlagan temp davom etishi kerak. Guruhda diqqatni jamlash, e'tiborni kuchaytirish, ziyraklikni rivojlantirish maqsadida tempni yoki ritmni o'zgartirib turish zarur.

3-mashq. "Mening ijobiy tomonlarim".

Ishtirokchilrga o'z ijobiy sifatlarini yozish topshirig'i beriladi.

Topshiriq bajarib bo'linganidan keyin quyidagi savollar va murojaatlar bilan ishtirokchilarga yuzlaniladi: "Mazkur sifatlarni yozish qiyinchilik tug'dirdimi? Nima uchin qiyin bo'ldi?"; "Sifatlarni yana bir bor o'qing. Mazkur sifatlarning sizda mavjudligini boshqalar ham ko'radimi?" (Ishtirokchilarning vazifasi o'z xatti-harakatlari orqali ijobiy sifatlarining mavjudligini tasdiqlashdan iborat bo'ladi); "Mazkur mashqni bajarishda nimani his qildingiz?"

4-mashq. "Suvdagi aks-ifoda".

Mazkur mashq juftliklarda ishlash orqali o'tkaziladi. Bir ishtirokchi qirg'oqda turgan, ikkinchisi ko'lda yashovchi inson bo'ladi. Bir-birin-gizga qarab turing va quyidagi topshiriqlarni bajaring:

- inson yuzini burishtirganini ifodalang;
- inson qo'lida tayoq ko'tarib turganini ifodalang;
- inson ko'lda yashovchi ishtirokchiga tabassum qilganini ifodalang.

Mashq bajarib bo'linganidan keyin quyidagi savollar beriladi:

1. Sherigingiz sizga yuzini burishtirganda (tayoqni ko'targanda yoki tabassum qilganida) nimani his qildingiz?
2. Qaysi holatni (yuzni burishtirish, tayoqni ko'tarish, tabassum qilish) bajarish siz uchun yoqimliroq bo'ldi?
3. Sizningcha, hamma ham aytilgan topshiriqlarni to'g`ri bajardimi, chunki ko'lda barcha narsa oynadagi kabi aks etadi.

Sharh: boshqalarga yuzimizni burishtirsak nafaqat uni, balki

o‘zimizni ham qo‘rqitib yuboramiz; boshqa birovga tayoq ko‘tarsak o‘zimizga ko‘taramiz, boshqalarga tabassum qilsak, o‘zimizga ham kayfiyat ulashgan bo‘lamiz.

5-mashq. “Sehrli dengiz”.

Mashq uchun avvaldan tayyorlangan kichik oyna zarur bo‘ladi, u maxsus qutichaga solingan bo‘ladi. Barcha ishtirokchilar aylana bo‘lib o‘tiradilar va ko‘zlarini yumadilar.

Yo‘riqnoma: hozir bir-biringizga qutini uzatasizlar. Bu qutichani olgan ishtirokchi ko‘zini ochishi va qutini ichiga qarashi lozim. U yerda kichik “sehrli” dengizda siz dunyodagi eng noyob insonni ko‘rasiz. Unga tabassum hadya qiling.

Mashq bajarilgandan so‘ng quyidagi savollar beriladi:

1. Dunyodagi eng noyob inson haqidagi fikringiz o‘zgardimi?
2. Mashqni bajarish mobaynida sizning tabassum hadya qilishingizga u qanday javob qaytardi?
3. Noyob inson sifatida o‘zingizga nisbatan qanday munosabatni kutasiz?

6-mashq. “Tolerantlikni anglash”.

Biz har birimiz noyob inson ekanligimizga amin bo‘ldik. Shuning uchun o‘z-o‘zini va o‘zgalarni qadrlash lozim, o‘z-o‘ziga va o‘zgalarga nisbatan mehrli bo‘lish, har bir inson hayotini qadrlamoq, hurmat qilmoq, ularning o‘ziga xosliklariga sabrli bo‘lish kerak. Chidamlilik, toqatlilik sifatlari tolerantlik tushunchasining asosini tashkil etadi. Siz uchun tolerantlik tushunchasi nimani anglatadi?

7-mashq. “Men seni yaxshi ko‘raman”.

Boshqalarga nisbatan tolerantlik faqatgina o‘ziga nisbatan xuddi shunday pozitsiya mavjud bo‘lganidagina aniq namoyon bo‘lishi mumkin. Hozir har birimiz o‘z-o‘zimizga yaxshi ko‘rishimizni aytamiz.

Siz o‘zingizga “Men seni sevaman” deb aytishingiz va nima uchun o‘zingizni yaxshi ko‘rishirngizni tushuntirib berishingiz lozim (masalan, Bahora hammaga mehribonliging uchun men seni yaxshi ko‘raman). Bu so‘zlarni shunday ishonch bilan aytish kerakki unga hamma

ishonsin. Bu topshiriq o'ziga va boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish hissini paydo qiladi.

Mashq bajarilgandan so'ng beriladigan savollar:

1. O'zingizga nisbatan muhabbat izhor qilishingiz qiyin kechdimi?
2. Siz topshiriqni bajarish mobaynida nimani his qildingiz?

8-mashq. "O'zingni va o'zgalarni maqtab qo'y".

Ishtirokchilar juftliklarga bo'linishadi.

Kouch-trener: "Agar biz o'zimizdagi ijobiy sifatlarimizni topib atrofdagilarga u haqida gapirmasak o'zgalardagi xuddi shunday xususiyatlarni ko'ra olmaymiz. Shuning uchun hozir hamma sherigiga uning yoqadigan sifati aytishi lozim. Sherik esa eshitib bo'lgach "bundan tashqari men ...", deb o'z shaxsiga nisbatan ijobiy xislatni aytib davom ettirmog`i kerak. Masalan, Bunyod sen juda mehribon insonsan, doimo o'zgalarga qiyin vaziyatlarda yordam qo'lini cho'zasan. Bunyod o'z shaxsiga nisbatan berilgan ta'rifni davom ettirgan holda "shuningdek, men qat'iyatliman" deb aytadi.

Savollar:

1) boshqalarga xushomad qilganingizda nimalarni his qildingiz?
2) o'zingizni maqtash oson bo'ldimi?

9-mashq. "Men ... loyiqman".

Kouch-trener: mashg'ulotimiz so'ngida sizlarga "Men ... loyiqman" o'yinini taklif qilmoqchiman.

"Baxt kichik-kichik qismlardan iborat. Shuning uchun kun davomida hayotingizda ro'y bergan har bir kichik quvonchli lahzalarga xursand bo'lib shukronalik bildirish lozim. Hozir kun davomidagi barcha yaxshi holatlarni eslab ichingizda qaytaring. Masalan: "men o'qituvchining e'torifiga loyiqman"; "Men tyutorning minnatdorchilik bildirganiga loyiqman" va boshqalar.

Har kuni uyda yotishdan avval kun davomida bo'lgan kamida 20 ta voqeani eslang va "men ... loyiqman" iborasini qaytaring. Bu esa, o'z-o'zingizga va atrofdagilarga nisbatan munosabatingizni o'zgartiradi.

Informal ta'lim an'anaviy ta'lim shakllari va ijtimoiy-madaniy faoliyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi. Subyekt o'z-o'zini

tarbiyalaydi. Ana shunday ta’lim-tarbiya tizimi orqali tolerantlik kompetensiyalariga ega bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi shakllanadi. Tarix shuni ko‘rsatadiki, qurol yordamida imperiya yaratish mumkin, ammo qo‘rquv va zo‘ravonlik odamlar o‘rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarga yordam bermaydi, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlar butunlay xilma-xil xalqlarni xayrixoh hamkorlikda birlashtiradi. Shunday ekan, mamlakatimiz uchun, uning kelgusida yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun ta’lim-tarbiyaning samarali tizimi zarur bo‘lib, u faqatgina bo‘lajak o‘qituvchilargina uchun emas, balki boshqa mutaxassislarga ham o‘z shaxsini namoyish etishi, uning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini taqdim etishi kerak. Bu esa, o‘z shaxsiyatini shakllanishi ustidan nazorat qilishga imkon beradi hamda shaxs rivojini maqsadli nazorat qilish fikrini beradigan tafakkurning yangi darajasini o‘zlashtirishga imkon berishi kerak.

Shuning uchun faqat informal ta’limni chinakam erkin ta’lim deb atash mumkin. Butun umri davomida insonga hamroh bo‘lib, u qadriyatlar tizimini, munosabatlar doirasini shakllantiradi.

Informal ta’lim – bu ta’lim tizimidan tashqarida sodir bo‘ladigan, bo‘lajak pedagoglarning kundalik hayoti va kasbiy faoliyatidagi muloqot jarayonida amalga oshiriladigan yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, u qadriyatlar tizimini shakllantiradigan, pedagogik ish atributlariga ega bo‘lmagan (o‘quv rejalari, ta’lim dasturlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ssenariylari) mustaqil va faol o‘qib-o‘rganish jarayoni.

Informal ta’lim subyektning mustaqil bilim olishi orqali amalga oshiriladi va butun hayot davomidagi ta’lim (lifelong learning); cheksiz hayotiy ta’lim (life wide learning); o‘z-o‘zini ta’limga rag‘batlantirish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish fuqarolik ta’limi bilan bevosita bog‘liqdir. Fuqarolik ta’limi bu uzluksiz ta’lim sharoitida ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish va siyosiy ijtimoiylashuv uchun shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlaydigan, shaxsni tarbiyalash va o‘qitish tizimidir. Bu nafaqat

bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish, balki ularning xulq-atvori strategiyasini ishlab chiqishga ham e’tibor qaratadigan integrativ va umumlashtiruvchi xarakterdagi bilimlar tizimidir. Shu munosabat bilan fuqarolik ta’limi bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish faoliyatining fanlararo va o‘qitish jarayonining barcha ishtirokchilarining demokratik xatti-harakatlariga yordam beradigan hayotni tashkil etish shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-madaniy kodning yetakchi shakli sifatida axborot texnologiyalari, elektron axborot tashuvchilari raqamli ta’lim muhitini yaratishni talab qiladi. Bu esa, kibermakonni o‘zlashtirish nafaqat ta’limning maqsadi, balki o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmiga aylanadi. Bunday holatda ta’limni modernizatsiya qilish postindustrial madaniyat belgilariga mos tarzda amalga oshirilishi kerak. Xususan, zamonaviy madaniyatning integrativligi va universalligi ta’lim makonini tashkil etishning maqbullik tamoyilini izlash va tolerantlikka yo‘naltirilgan faoliyatdagi umumiy bilimlarni o‘rganishni talab qiladi.

Ijtimoiy tarmoq bugungi kunda Internet-resursning eng katta turi hisoblanadi. U ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilarning foydalanuvchi sayt bilan, foydalanuvchi foydalanuvchi bilan, sayt foydalanuvchi kabi turlari bilan o‘zaro aloqalari bilan tavsiflanadi. Qoida tariqasida, ijtimoiy tarmoqlar xilma-xil funksional sahifalarni o‘z ichiga oladi. Ulkan Internetning asosiy funksiyalaridan biri bu muloqotdir. Rolli o‘yinlar, tematik, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar portallari birinchi navbatda aynan muloqotga qaratilgan.

Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda global informal ta’lim alohida o‘rin tutadi. Global informal ta’lim muhiti – bu o‘quv-bilish jarayonlari amalga oshiriladigan, tashqi dunyo bilan aloqalar amalga oshiriladigan o‘z xatti-harakatlarini anglab yetadigan makon bo‘lib, buning natijasida ehtiyojlar, ichki me’yorlar, qobiliyatlarni anglashda o‘zgarishlar yuz beradi. U foydalanuvchi subyektlarda atrof-muhitga ta’sir qilishning o‘ziga

xos ehtiyojini rivojlanishi bilan shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, tarmoq foydalanuvchisi real vaqt rejimida ijtimoiy jarayonlarga ta’sir qilish, boshqalarning ijtimoiy xatti-harakatlarini baholash va o‘z ta’sirining natijalarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Global informal ta’lim muhitini axborotning ulkan ombori sifatida tasavvur qilish mumkin. Bundan tashqari u ommaviy va hatto global kommunikatsiya vositasi bo‘lib, butun dunyo axborot resurslarini yagona tizimga birlashtiradi.

Pedagogikada global informal ta’lim muhiti demokratik hurfikrlash tarzini o‘zida ifoda etadi. Shaxsni informal ta’lim omillaridan biri sifatida rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan ushbu axboriy-ma’rifiy muhit pedagogika, umuminsoniy va ma’naviy madaniyat elementlariga asoslanishi kerak. Mazkur jarayonda raqamli texnologiyalarining o‘zi emas, balki uning qo‘llanilishining real ta’lim maqsadlariga erishish uchun qay darajada xizmat qilishi muhim ahamiyatga ega. Global informal ta’lim muhiti kishilarni yagona maqsad yo‘lida birlashtira oladi, ularni faol mehnatga, hatto jamoaviy o‘z-o‘zini boshqarishga jalb qiladi. Gap individual ongdagi ijtimoiy-madaniy, axloqiy, estetik va shu kabi komponentlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘rganish natijasida vujudga keladigan, natijada insonda uning hayot sifatini yaxshilashga bevosita ta’sir qiladigan ma’lum shaxsiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ya’ni ijtimoiy nuqtai nazardan, bu o‘zgarishlar yangi bilim olishdan ko‘ra ancha muhimroq bo‘lishi mumkin hamda ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagogga o‘zining qadriyatli-mazmunli mo‘ljallari, hayotga bo‘lgan asosiy pozitsiyalari va qarashlarini chuqur qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, uning harakatlari motivlarida sezilarli o‘zgarishlar va hatto individual xatti-harakatlarning stereotiplarini to‘liq qayta o‘zgartirishga olib kelishi mumkin.

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamkorlikda (kollaborativ) o‘qitish, multimodal empatik ifoda, raqamli refleksiv metodlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Raqamli kollaborativ kelishuv metodi maxsus platformalar (Padlet, Miro, Google Docs) orqali talabalarni jamoaviy hamfikrlilik jarayoniga kiritish orqali tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilganlik bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalarga guruhlarda birgalikda bajarishga doir topshiriqlar beriladi: bitta loyiha, yagona natija, lekin turli-tuman nuqtai nazarlar; yakuniy qaror faqat umumiy kelishuv orqali qabul qilinadi; platformada barcha ishtirokchilar fikr qoldiradi, tahrir qiladi, bahs yuritadi.

Mazkur metod talabalarni boshqalar fikrini tinglash va qabul qilish, murosasozlik, o'z fikrini moslashtirishga o'rgatadi. Tolerantlik bu holatda nazariya emas, faoliyat shartiga aylanadi.

Raqamli kollaborativ kelishuv metodi (RKKM) tolerantlikning faoliyatli komponentini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu metod orqali talabalar kompromissga kelishi uchun zarur bo'lgan vaziyatlarga tushirildi. Bu jarayonda tolerantlik shaxsiy fazilat sifatida emas, balki faoliyatni davom ettirish sharti tarzida namoyon bo'ldi. Ya'ni talaba kompromissga erishmasa, jarayon to'xtaydi. Shu sababli murosaga kelish, tinglash va kelishuvga erishish tabiiy ehtiyojga aylanadi.

Empirik tadqiqot natijalari RKKMni qo'llash orqali bo'lajak pedagoglarda murosali muloqotning rivojlantirishga erishish mumkinligini ko'rsatdi. Dastlabki bosqichda talabalarda guruhiy faoliyatda o'z fikrini ustun qo'yish, boshqalar fikrini rad etish yoki e'tiborsiz qoldirish holatlari kuzatildi. RKKM asosida tashkil etilgan kollaborativ topshiriqlardan so'ng quyidagi o'zgarishlar qayd etildi: guruh ichidagi bahslar keskinligining kamayishi, qarorlarni umumiy kelishuv asosida qabul qilish, "Mening fikrim" o'rniga "Bizning qarorimiz" iborasining paydo bo'lishi, konfliktli vaziyatlarda murosa yo'lini izlash va boshqalar.

Multimodal empatik ifoda metodi (MEIM) Canva, video, podkast, vizual hikoya platformalari orqali talabalarni bir vaziyatni turli nuqtai nazardan talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalarga ijtimoiy yoki madaniy vaziyat beriladi. Ular shu vaziyatni video, rasm, ovozli

izoh, vizual hikoya koʻrinishida ifodalaydi. Bu yerda muhim jihat talaba vaziyatni oʻzi emas, boshqa shaxs pozitsiyasidan yoritadi. Bu metod empatiyani kuchaytiradi. Talaba “oʻzga”cha fikrlovchi inson pozitsiyasini “his qilib” koʻradi.

Multimodal topshiriqlar jarayonida talabalar vaziyatlarni boshqa shaxs pozitsiyasidan ifodalashdi. Video, vizual hikoya va podkastlarda talaba boshqa dunyoqarashni tasvirlashga majbur boʻldi. Natijada, boshqalar hissiyotini tushunishga intilish kuchaydi, ijtimoiy vaziyatlarga biryoqlama baho berish kamaydi, talabalar refleksiv yozuvlarida “boshqa nuqtai nazar” tushunchasi koʻpaydi, empatiya koʻrsatkichlari soʻrovnoma natijalarida keskin oʻsdi.

MEIM tolerantlikning emotsional-psixologik asoslarini kuchaytirdi. Talaba vaziyatni boshqa shaxs nuqtayi nazaridan tasvirlash jarayonida “oʻzga”cha fikrni tushunishni oʻzida “his qildi”. Bu jarayon empatiyaning sun’iy emas, balki ichki anglangan (interiorizatsiya) tarzda rivojlanishiga olib keldi. Multimodal ifoda konvergent tafakkur yuritishdan divergent fikrlashga tomon “odimlash” imkonini berdi.

Raqamli refleksiv qayta baholash metodi (RRQBM) blog, e-portfolio yoki Padlet devorida talabani oʻz fikrlarini vaqt oʻtishi bilan qayta koʻrib chiqishga undaydi. 1-haftada talaba bir mavzu boʻyicha oʻz fikrini yozadi. 4-haftada yana yozadi. 8-haftada yana yozadi. Soʻng u avvalgi fikrlarini oʻqib, oʻzgarishlarni tahlil qiladi. Talaba oʻz fikrining oʻzgarishini koʻradi, boshqalar ta’sirini anglaydi, ochiq fikrlilik shakllanadi. Bu tolerantlikning anglangan bosqichini yuzaga chiqaradi.

Refleksiv qayta baholash jarayonida talabalar oʻzlarining fikrlarini takror oʻqib, ularni tahlil qildi. Bu jarayon ularda fikrning oʻzgarishi tabiiy ekanligini anglash imkonini berdi. Natijada, qat’iy va oʻzgarmas fikrlar kamaydi, oʻz pozitsiyasini qayta koʻrib chiqish odatga aylandi, boshqalar ta’sirini tan olish holatlari koʻpaydi. Blog yozuvlari tahlilida fikrlarning evolyutsiyasi aniq kuzatildi.

Umumiy natijalar dinamikasi 2.2.1-jadvalda oʻz ifodasini topgan.

2.2.1-jadval

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir metodlarni qo'llash samaradorligi

Komponentlar	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
Empatiya	48%	84%
Samarali muloqot	44%	81%
Ochiq fikrlilik	50%	90%
Madaniyatlararo hurmat	52%	88%

Miqdoriy ko'rsatkichlar refleksiv yozuvlar, onlayn muloqotlar va kuzatuv natijalari bilan tasdiqlandi. Talabalar nutqida quyidagi o'zgarishlar paydo bo'ldi: "O'zgacha fikr ham to'g'ri bo'lishi mumkin", "Avvalgi qarashim o'zgardi", "Kelishuvga erishish muhimligini tushundim".

Ushbu metodlar talabalarga "tolerant muhitda yashash" tanlovini taqdim etdi. Raqamli platformalar esa, mazkur jarayonni tabiiy, erkin va interfaol shaklda tashkil etish imkonini berdi. Natijada, tolerantlik kompetensiyasi talabalarning tasavvuridagi tushunchaga emas, balki amaliy muloqot madaniyatiga aylandi.

Bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelining tashkiliy-didaktik komponenti mazkur jarayonni tashkil etish metodikasini belgilab berdi va yo'naltiruvchi, informatsion, amaliy va tuzatuvchi bosqichlarini o'z ichiga qamrab oldi. Mazkur komponent bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun talabalar va professor-o'qituvchi tomonidan talab qilinadigan xatti-harakatlar hamda jarayonlarni o'zida aks ettirdi.

Faoliyatning tuzilmaviy komponentlari (motivatsion, intellektual, hissiy-ruhiy) to'g'risidagi falsafa, pedagogika va psixologiyada qabul qilingan qoidalar bizga bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining shartli ravishda to'rt bosqichini

ajratib ko‘rsatish imkonini berdi: yo‘naltiruvchi, informatsion, amaliy va tuzatuvchi.

Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga yo‘naltiruvchi bosqichni kiritish zaruriyati quyidagi sabablar bilan bog‘liqdir: abiturientlarning pedagogik tolerantlik to‘g‘risidagi tasavvurlarining pedagogika ta’lim sohasining Davlat ta’lim standarti va zamonaviy jamiyat talablariga mos kelmasligi; oliy ta’limga qabul qilingan talabalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarining rivojlanish darajasi diagnostikasi; talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish darajasiga muvofiq o‘qitish metodlari va o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini oqilona tanlash.

Informatsion bosqich tolerantlikka nisbatan ijobiy motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, kommunikativ faoliyat motivlarini yaratish uchun zarurdir. Ushbu bosqichda talabalar asosiy tushunchalar, jarayonlar, harakatlar bilan tanishishadi hamda bo‘lajak pedagoglar kommunikativ-tolerant xatti-harakatlari tabiati, tuzilishi, strategiyasi va taktikasini o‘zlashtirishadi. O‘qituvchi rahbarligida ma’lum bir vaziyatlarda ritorik kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha treninglar o‘tkaziladi.

Amaliy bosqich muammo, pedagogik tolerantlikning turli vaziyatlarida ularni faollashtirish bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Tuzatuvchi bosqichda bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish natijalari tahlil qilinadi, uning rivojlanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha o‘qituvchining monitoringi faoliyati tashkil etiladi, o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘z-o‘zini nazorat qilish shaklida tuzatib boriladi, mazkur kompetensiyalarni yanada rivojlantirish yo‘llari belgilab olinadi.

Modelning nazorat-baholsh komponenti strukturaviy va funksional mezonlar yordamida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasining minimum, maqbul, produktiv, ijodiy ekanligini taqqoslash imkonini beradi.

2.3-§. Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini amaliyotga joriy etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari

Falsafiy tushuncha sifatida shart-sharoit – bu narsa-buyumlar, holatlar majmuasi, ularning o‘zaro ta’sirining tabiati, ushbu obyektning mavjudligi, ishlashi va rivojlanish imkoniyati bilan bog‘liq hodisadir. Bunday holatda biz u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun muhit, faoliyat subyekt va obyektlarining mavjudlik holati haqida gapirishimiz mumkin. Atrof-muhitning ta’siri belgilangan maqsadlarga erishish va faoliyat vazifalarini hal qilishni ta’minlaydi. Shart-sharoitlar – bu ma’lum sabablarni aniqlashtruvchi holatlar bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi bitta jarayon yoki hodisaga xalaqit beradigan va boshqalariga qulaylik tug‘diradigan holatlardir. U yoki bu predmet, voqea, hodisa va holatning mavjudligi, ishlashi va rivojlanishi bilan bog‘liq sharoitlarni hisobga olish muhimdir. Shunday qilib, shart-sharoitlarni belgilash faqat obyekt, hodisa, jarayon, tizim va hokazolarga nisbatan mantiqiy ahamiyatga ega. Shunday ekan, har qanday muammoni tahlil qilishning falsafiy darajasida shart-sharoitlarni aniqlash zarurati obyektlar, hodisalar, jarayonlar va tizimlarni har qanday o‘rganish uchun muhim metodik talabdir.

Pedagogik jarayonga kelsak, tadqiqot mavzusini hisobga olgan holda gap ta’lim jarayoni ishtirokchilarning har qanday tadqiqot vazifasini hal etishga qaratilgan faoliyatini amalga oshirish shart-sharoitlari haqida ketishi kerak.

Pedagogikada har qanday faoliyat shaxs xususiyatlarini shakllantirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilganligi sababli, ularning umumiyligi uning samarali rivojlanishini ta’minlaydi, shuning uchun biz ushbu faoliyat turlarini amalga oshirish jarayoni samaradorligining pedagogik shartlari to‘g‘risida gapirishimiz shart va zarur. Ularning falsafiy ta’rifiga asoslanib, shaxsning samarali rivojlanishi uchun biz uni sodir bo‘lgan va ushbu jarayonning muvaffaqi-

yatiga hissa qo‘shadigan holatlar majmuyi sifatida talqin qilishimiz mumkin.

Shu bilan birga, shart-sharoitlar quyidagilarni ham o‘z ichiga olishi mumkin: a) atrofdagi voqelik obyektlari; b) xilma-xil faoliyatni amalga oshirish jarayonining subyektlari; d) faol shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari; d) ushbu jarayonni tashkil etish va amalga oshirishning vositalari, usullari va shakllari.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili “pedagogik shart-sharoitlar” tushunchasining quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi:

- tadqiqot obyekti hisoblangan muayyan munosabatlarda ta’lim muhitining tashqi obyektlari majmuyi;
- tadqiqot predmetining yechimi bog‘liq bo‘lgan ichki xususiyatlari (holatlar, fazilatlar) majmuyi;
- tashqi obyektlar va ichki xususiyatlarning ushbu majmuyi tadqiqot mavzusining mohiyati, ishlashi va rivojlanishini belgilaydi (qo‘yilgan vazifani samarali hal qilish).

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, “pedagogik shart-sharoitlar” tushunchasining quyidagi ta’rifini shakllantirish mumkin: ta’lim jarayonida maxsus yaratilgan pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan tarkibiy asoslar, shakl, metod va vosita va moddiy-muhitning obyektiv imkoniyatlari majmuyi bo‘lib, ularni amalga oshirish avvaldan rejalashtirilgan faoliyatning samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan pedagog olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda, pedagogik shart-sharoitlarni faqat tashqi holatlar, vaziyat, jarayonga ta’sir etuvchi obyektlar majmuyi sifatida talqin qilish mumkin emas, chunki shaxsni shakllantirish subyektiv va obyektiv, ichki va tashqi, mohiyat va hodisaning o‘zaro birligidir. Ana shu sababli tadqiqot doirasida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalari rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirishni muhim vazifa sifatida belgilandi.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi:

1. Ta’lim jarayonini madaniyatlararo muloqot asosida tashkil etish.

Bugungi voqelik shuni ko‘rsatadiki, madaniyatlararo muhitda maqbul o‘zaro ta’sir o‘tkazish qobiliyatini rivojlantirish zaruriyatining umumiy belgilari ko‘p holatdada oliy pedagogik ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan rasmiy talablar tavsifiga ega bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot doirasida muloqotning pedagogik imkoniyatlari mohiyatini tahlil qilish uning quyidagi insonparvar-tolerantlik tavsifini ochib berishga imkon berdi:

1) dialog – muloqot – suhbat – munozara – bahs – muzokara – polemika – mubohasa dialogik munosabatlar madaniyatini yuzaga keltirishi mumkin;
2) munozara turli darajalarda dialogik shaklda ifoda etilishi mumkin, u hissiyotlar va psixofiziologik holatga ta’sir qiladi; muloqot bizning maqsadlarimizni yo‘q qilishga emas, balki ochiq aytish, madaniy an’analar, zamon va madaniyatlar muloqotini avloddan-avlodga o‘tkazish, saqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Dialog informatsion va shaxsiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida, informatsion komponent quyidagilarni o‘zida aks ettiradi: dialog mavzusi; tanlangan mavzu bo‘yicha dastlabki nazariy bilimlar; dialog va uni o‘tkazish qoidalari to‘g‘risidagi ma’lumot; munozara kodeksi tamoyillari va samarali muloqot o‘tkazish. Shaxsiy komponent xulq-atvor uslubi, bo‘lajak mutaxassisning malakasi (xabardorlik, tadqiqot, konstruktiv, prognoz qiluvchi funksiyalar), ta’lim jarayonida haqiqiy o‘zaro ta’sirning (dialogik-monologik) tabiati; muloqot qobiliyatlari, fikrlash turi, ehtiyotkorlik, faollik, qiziqish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim jarayonida subyektlar o‘rtasidagi muloqotning dialogik xususiyatiga javob beradigan mexanizmlarni izlash uni boshqa shakllardan ajratib turadigan tamoyillarni aniqlashtirishni taqo-

zo etadi. Ular orasida obyektiv (o‘zaro ta’sir doirasi; tilning birligi; subyektlar uchun umumiy o‘zaro ta’sir muammosining mavjudligi) va subyektiv (turli nuqtai nazarlar va mohiyatning mavjudligi; hamkorlarning tengligi; o‘qituvchi va talabaning hissiy ishtiroki; o‘zaro bir-birini tushunish; yangi bilimlarning paydo bo‘lishi); munozara mavzusiga nisbatan yangi bilimlarning yuzaga kelishi; integratsiya; maqsadning birligi) tamoyillar muhim o‘rin egallaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, muloqot shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatni yaratish vositasi sifatida savol-javob metodidan farq qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan vaziyat talabalarning shaxsiy vazifalarini yangilash, ularning qadriyatli tanlovini amalga oshirishda tajriba to‘plash, tanqidiy idrok qilishga yo‘naltirilgan muloqot orqali yaratiladi.

Dialog nafaqat insonning o‘zligini ochib beradi, bunda inson shaxs sifatida shakllanadi. Muloqotda talaba madaniyatning tayyor namunalari, uning natijalarini o‘zlashtirmaydi, balki shaxsiy ma’nosini ochib, o‘zi uchun yangi narsalarni kashf etish orqali ularni ijodiy ravishda qayta ishlaydi. Bu shaxs madaniyatini rivojlantirishning mohiyati, uning o‘z-o‘zini namoyon qilish mexanizmidir.

Muloqot jarayonini tashkil etish va o‘tkazish usullari sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin: o‘quv dialogi (S.Y.Kurganov[160]), muammoli vaziyatni yaratish (I.Y.Lerner[161], A.M.Matyushkin[162], N.N.Azizxo‘jaeva[163] va boshqalar), dialog-dars, o‘qitishning jamoaviy usullari (V.K.Dyachenko[164], ijtimoiy o‘zaro ta’sir, “aqliy hujum” (A.N.Lutoshkin[165], ta’lim

[160] Курганов С.Ю. Ребенок и взрослый в учебном диалоге: книга для учителя. – М.: ЛитРес, 2019. – 250 с.

[161] Лернер И. Я. Проблемное обучение. – М.: Знание, 1993. – 409 с.

[162] Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Директ-Медиа, 2008. – 392 с.

[163] Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. –Т.: Низомий номли ТДПУ, 2000. – 52 б.

[164] Дьяченко В.К. Новая педагогическая технология и ее звенья. Демократическая система обучения по способностям. Монография. – Изд. Красноярс. Ун - та, 1994. – 182 с.

[165] Кирпичник А.Г. О психологии и педагогике социального воспитания А.Н.Лутошкина // Вестник КГУ им. Н.А.Некрасова. – 2010. – Т.16. – С.5-10.

oluvchilarni savol berishga o‘rgatish (A.B.Sorokin[166], Y.Y.Nikitina[167] va boshqalar), ramziy vositalar, harakatlar chizma va modellari yordamidagi o‘zaro ta’sir, vaziyatlar (V.V.Rubsov[168] va boshqalar).

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarni madaniyatlararo muloqot asosida o‘qitishning eng muhim usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) turli madaniyat vakillari o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatli madaniyatlararo vaziyatlarni muhokama qilish. Ushbu munozara nutqiy xatti-harakatlarni boshqa madaniyat tashuvchilari nuqtai nazaridan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb hisoblash, ularni talqin qilish, milliy va o‘zga millat madaniyatning qadriyatlarini ko‘zda tutib, ziddiyatni oldini olishga yordam beradigan ijobiy xulq-atvorning maqbul variantlarini ko‘rib chiqish asosida olib boriladi. Ushbu usullarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, empatiya mexanizmlari, xulq-atvor motivlari “kodlanmaydi”;
2) madaniy stereotiplarni aniqlash maqsadida badiiy qadriyatlar, estetik vaziyatlarni tahlil qilish. Stereotiplarni sharhlash madaniy qadriyatlar va me’yorlardagi tafovutlarni, ularga nisbatan xolis va stereotipsiz munosabatda bo‘lish, samarali madaniyatlararo aloqalarni o‘rnatishga e’tibor berishga imkon beradi;
3) milliy va o‘zga millat madaniyati bilan aloqador hodisalarni qiyosiy tahlil qilish. O‘zining madaniy tajribasi, milliy va madaniy an’analarini tahlil qilib, talaba madaniyatlararo muloqot obyekti sifatida bir vaqtning o‘zida ularning yotligini anglab yetadi va nafaqat boshqa til kodlarini, balki boshqa urf-odatlar, boshqa xulq-atvor me’yorlarini ham hisobga olishga intila-

[166] Сорокин А.Б. Проблемно-диалоговая форма «вопрос ответ» / А.Б. Сорокин, Н.Г. Алексеев // Педагогика. – 2001. – №2. – С.37-43.

[167] Никитина Е.Ю. Педагогическое управление коммуникативным образованием студентов вузов: перспективные подходы: моногр. / Е.Ю. Никитина, О.Ю. Афанасьева. – М.: МАНПО, 2006 – 154 с.

[168] **Рубцов** В.В. **Социальное взаимодействие** и обучение // Психологическая наука и образование. – 1996. – №2. – С.9-20.

di, bu bo‘lajak o‘qituvchida empatiyaning rivojlanishiga hissa qo‘shadi;

4) milliy va chet el madaniyatining qadriyatga yo‘nalganligini hisobga olish asosida badiiy qadriyatlarni sharhlash. Madaniyatlararo muloqot shundan dalolat beradiki, milliy madaniyat doirasida inson o‘zining hayot tarzini tushunishi mumkin bo‘lgani singari tasavvur paydo bo‘ladi. Aslida milliy madaniyat doirasidan tashqariga chiqqandan keyin, o‘zga dunyoqarash, munosabatga duch kelgan talaba o‘z ongining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qila boshlaydi va shu bilan birga madaniyat bilan ochiq muloqotga kirishishni o‘rganishni boshlaydi, boshqa madaniyat vakilini obyektiv baholay boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqot fikrlar rang-barangligi, ularga hurmatni tarbiyalash, ijobiy aloqa va munosabalarni o‘rnatishga xizmat qiluvchi tolerantlik vaziyatlarni yaratish orqali bo‘lajak pedagoglarning tolerantlikka doir tajribasini kengaytirishga yo‘naltirilgan.

2. Bo‘lajak pedagoglarni tolerant muloqotga yo‘naltirish. Tolerantlik bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, axloqiy me’yorlarga rioya qilish va bag‘rikenglik, hamdardlik, xushmuomalalik, ishonch, g‘amxo‘rlik, hamdardlik kabi sifatlar orqali namoyon bo‘ladi. Tolerantlik etikasi turli madaniyatlarga mansub bo‘lgan kommunikatsiya hamkorlari o‘rtasida o‘zaro tushunishga erishish istagi, bosim va kuch ishlatmasdan, turli xil manfaatlar va nuqtai nazarlar, asosan, muloqot, ishontirish, tushuntirish kabi usullarni qo‘llash orqali o‘zaro tushunishga erishishni ko‘zda tutadi. Negaki, tolerant muloqotning axloqiy me’yorlari bo‘lajak o‘qituvchining sabr-toqatli, bag‘rikeng bo‘lishi uchun psixologik manba hisoblanadi. Ushbu shaxsiy manba talabaning fe’l-atvori, uning ruhiy-jismoniy xususiyatlari, ta’limda yaratilgan shart-sharoitlar, shaxsning intellektual rivojlanish darajasi va boshqalar bilan belgilanadi.

AQShlik olimlarning tadqiqotlarida (M.Bennet[169], G.Gudikunst[170], Y.Kim[171] va boshqalar) tolerant xulq-atvorning quyidagi asosiy belgilari ajratib ko‘rsatilgan:

- moslashuvchanlik – xulq-atvorda shafqatsizlikning yo‘qligi, nizoni yuzaga keltirmaslik;
- empatiya (boshqa odamga qiziqish) – o‘zga millat madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo‘lish, ular haqida qayg‘urish;
- mulohazalarda bosiqlik – boshqalar haqida qat’iy xulosa chiqarmaslik.

Tolerantlik o‘zga madaniyatlarning xilma-xiligi, nutqiy me’yorlar, o‘z-o‘zini namoyon etish, fikrlash va xatti-harakatlarga hurmatni anglatadi. I.L.Plujnik[172] va M.M.Yakubbayev[173]lar tolerant xulq-atvorni til vositalari bilan taqqoslash orqali quyidagilarni aniqlashtirgan:

1) moslashuvchanlik variativ kommunikativ strategiya va taktikalar hamda ularga muvofiq turli ko‘rinishdagi vaziyat bilan bog‘liq omillarni hisobga olish asosida o‘zining xulq-atvoriga tuzatishlar kiritishga doir nutqiy vositalardan foydalanish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi;
2) empatik xulq-atvor maqbul iboralarni tanlash, takroriy savollar bilan murojaat qilish, ijobiy ma’noga ega nutqiy vositalardan foydalanish asosida hamsuhbatning his-tuyg‘ularini uyg‘otishda namoyon bo‘ladigan “qo‘llab-quvvatlovchi kommunikatsiya”da mujassamlashadi;

[169] Bennett M.J. 1998. «Intercultural communication: a current perspective». Basic Concepts of Communication. Selected Readings. Ed. M.J.Bennett. Yarmouth, Maine, USA: Press, Inc. 1-34.

[170] Gudykunst W.B. Individualistic and Collectivistic Perspectives on Communication. // International Journal of Intercultural Relations. 1994.

[171] Kim Y.Y. Intercultural Communication Competence: A Systems-Theoretic View // Cross-Cultural Interpersonal Communication, vol. 15. C A: Sage, 1991.

[172] Плужник И.Л. Формирование межкультурной коммуникативной компетенции студентов в профессиональные подготовки: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Тюмень, 2003. – 46 с.

[173] Якуббаев М.М. Талабаларда миллатлараро толерантликни ривожлантиришнинг этнопедагогик асосларини такомиллаштириш (нофилолог таълим йўналишлари мисолида): педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори. ...дис. Автореф. – Наманган, 2021. – 50 б.

3) fikrlarni ifoda etish jarayonidagi bosiqlik dalil, hodisa, kishilarni og‘zaki baholash emas, ularning xulq-atvoriga tavsif berish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Mazkur xususiyat fikrlarni ifoda etishning bilvosita usullaridan foydalanish, shuningdek, bayonning ijobiy modalligi orqali amalga oshadi.

Oliy ma’lumot olish davrida bo‘lajak o‘qituvchi xulq-atvorining bag‘rikenglik xususiyatlari tarqoq ko‘rinishga ega bo‘lib, bir-biri bilan bog‘liq emas, barqaror bag‘rikenglik uchun esa ularning integrativ birligida barcha tolerantlik sifatlarini shakllantirilishiga erishish kerak. Bunday holatda talaba o‘z xulq-atvoridagi madaniy tafovutlarni qabul qilishni namoyish qilishi va nizolarsiz muloqotni amalga oshirishi mumkin.

Tolerantlik tamoyiliga asoslangan muloqotga yo‘naltirilganlik talabalarning dunyoqarashini o‘zgartirish va mavjud bir qator odatlarni inkor qilishni talab qiladi. Hamkorlar o‘rtasidagi muloqot o‘zaro munosabatlarning asosiga aylanadi, dialogizm esa, fikrlash jarayonining madaniy asosga ega me’yori sifatida qabul qilinadi. Shuni ta’kidlash kerakki, barcha holatlarda o‘ylash uchun ochiqlik, erkin va mas’uliyatli tanlov imkoniyati ta’minlanishi kerak. Bo‘lajak pedagoglarni tolerant xulq-atvorga yo‘naltirish zarurati muloqotda ikkala tomon ham o‘zaro bir-birini tushunishga erishishga intilishi, ya’ni xohish-istak, nizolarning oldini olish orqali har qanday nuqtai nazarni qabul qilishga tayyorligi bilan bog‘liq. Bunday holda lingvistik va ijtimoiy-madaniy xatolar osongina kechiriladi yoki sezilmaydi. Aksincha, bir yoki ikkala tomonining intolerant xatti-harakati o‘zaro tushunishda to‘siqlarning paydo bo‘lishiga olib keladi va shuning uchun muloqot samaradorligini pasaytiradi yoki munosabatlarning to‘liq buzilishiga olib keladi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchining muloqoti uchun asos o‘zaro bir-birini tushunishga yo‘naltirilgan tolerantlik bo‘lishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi: a) tolerantlik boshqa madaniyatga taalluqli va tashqi ko‘rinishi, tili, e’tiqodi, an’ana va urf-odatlari bilan ajralib turuvchi hamkorlikni tushunish, hurmat qilishga tayyorlikni o‘zida ifoda etadi; b) bo‘la-

jak pedagoglarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida tolerant muloqotga yo'naltirishning zaruriyati zamonaviy jamiyatning ijtimoiy me'yorlari, jamiyat a'zolariga qo'yilayotgan siyosiy va huquqiy talablar, istalgan soha mutaxassisning kasbiy muhim ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Bo'lajak pedagoglarning tolerant xulq-atvorini shakllantirish uchun ularga kommunikativ-rag'batlantiruvchi nutqiy faoliyat namunalari taqdim etildi: nutq empatiyasi, so'zlarni erkin tanlash va hissiy munosabatlarni tahlil qilish. Empatik xatti-harakatlar "qo'llab-quvvatlovchi aloqa" tarzida – rag'batlantiruvchi iboralarni tanlash, takroriy savollar, hissiyotlarga murojaat qilish, hamkorning his-tuyg'ulari, ijobiy ma'noga ega so'zlarini tanlash, ijobiy ohang, salbiy munosabatlarni bartaraf etish, xulq-atvorning verbal va noverbal jihatlariga nisbatan sezgirlikda aks etdi.

3. Bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish strategik va taktik ta'lim texnologiyalarini qo'llash.

Nazariy-eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida talabalarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida professor-o'qituvchi faoliyatini qay tarzda texnologiyalash zarurligi haqidagi masalaga e'tibor qaratildi. Izlanish natijalari quyidagilarni ta'kidlashga imkonini berdi: bo'lajak o'qituvchilarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi shaxsiyatni shakllantiruvchi pedagogik va boshqaruv holatining ba'zi bir o'zgarmas komponentlari, shaxsning o'ziga xos tabiiy xususiyatlarini shakllantirish bilan bog'liqdir.

V.Bespalko, V.Zagvyazinskiy, V.Serikov, N.Azizxodjayeva, N.Avliyakulov, O'.Tolipov, B.Xodjayev va boshqalarning tadqiqotlarini hisobga olgan holda bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik texnologiyalarni loyihalash va amalga oshirishga doir quyidagi eng umumiy talablar aniqlashtirildi:

1. Tolerantlik ta'limi mazmunini faoliyatning yaxlit loyihasiga, shu jumladan, uning yo'naltiruvchi asoslarini (konsepsiyalari, tamoyillari) o'zgartirish, motivatsion, psixologik va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash.
2. Talabalarning yuqori tolerantlik kompetensiyalarini ta'minlashga doir o'qituvchining faoliyatini tashkil etish.

3. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat usullari, ularning vazifalari, o‘rni, o‘qitishning texnologik qismini amalga oshirish davomida yuzaga keladigan aloqalarni aniqlash.
4. O‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish, ishtirok etish, tenglik, bag‘rikenglik, norasmiy shaxslararo muloqot asosida texnologiyalarning motivatsionligini ta’minlash.
5. Moddiy-texnik va axborot vositalari, dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish.

Tadqiqotda shartli ravishda “bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning strategik ta’lim texnologiyalari” tushunchasi qo‘llanildi. Strategik ta’lim texnologiyalari deganda, o‘quv jarayonining bitta yo‘nalishiga qaratilgan va ta’lim maqsadlariga erishish uchun qo‘llaniladigan texnologiyalar ko‘zda tutildi. Strategik ta’lim texnologiyalari tarkibini tahlil qilish ularning quyidagi maqsadli yo‘nalishini aniqlash imkonini berdi: bo‘lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Strategik ta’lim texnologiyalarining maqsadi ulardan talabalarni kasbiy tayyorgarligining barcha bosqichlarida foydalanish imkoniyatini belgilab beradi. Ularga quyidagilar kiritildi: o‘yin, tadqiqotchilik, trening, interfaol ma’ruza, o‘quv va malakaviy amaliyot, laboratoriya ishi va boshqalar.

Ta’limning strategik texnologiyalarini taktik ta’lim texnologiyalari orqali amalga oshirish ko‘zda tutildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili taktik ta’lim texnologiyalarini tanlash mezonlari sifatida quyidagilarni qabul qilish imkonini berdi: a) taktik o‘quv texnologiyalarining strategik maqsadlarga mosligi; b) taktik o‘quv texnologiyalarining o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiqligi; v) yetakchi aloqa turi; g) taktik ta’lim texnologiyalarini texnologik amalga oshirish imkoniyatlari; d) taktik ta’lim texnologiyalarining uzluksizligi (mavzuli, mantiqiy, tashkiliy).

O.Y.Afanaseva, Y.Y.Nikitina, L.R.Tiska, L.Klikovalarning tadqiqotlariga tayangan holda, tadqiqot doirasida bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda foydalanish lozim bo‘lgan taktik ta’lim texnologiyalari tizimi ishlab chiqildi (2.3.1-jadvalga qarang).

2.3.1-jadval

Bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari

Strategik va taktik ta'lim texnologiyalari	Kutiladigan natija	Qo'llaniladigan metodlar	Talabaning o'quv-bilish faoliyati turi
Ma'ruza ta'lim texnologiyalari			
Interfaol ma'ruza	Talabalarning faolligi oshadi, tanqidiy, mustaqil va analitik fikrlashi rivojlanadi	Interfaol o'qitish metodlari, chizma-tasviriy modellar (intellekt kart, freymlar)	Faol, talabalarni o'quv materiallarini mustaqil izlash, ularni tahlil etish va asoslashga yo'naltiriladi
Muammoli ma'ruza	Talabalarda ijodiy fikrlash, badiiy-estetik qadrityalarga qiziqish rivojlantiriladi	O'quv muammosi, dialogik	Talabalar badiiy-estetik mazmundagi topshiriqlarni yechishga jalb etiladi
Avvaldan xatolari mavjud tarzda rejalashtirilgan ma'ruza	Talabalarda badiiy-estetik vazifalarni tezkor tahlil qilish va echim topish malakasi rivojlantiriladi	Intellektual o'yinlar	Izlanishli faoliyat, topilgan xatolarni muhokama etishga talabalarni jalb etish (partisipatsiya)
Tadqiqotchilikka doir ta'lim texnologiyalari			
Seminar-munozara	Har bir talabada badiiy-estetik kompetentlikka partisipatsiya uchun sharoit yaratiladi	Muammoli	Izlanishli-tadqiqotchilikka doir faoliyat
Seminar-tadqiqotchilik	Ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida mavjud badiiy-estetik bilimlar jamg'armasiga o'zgartirishlar kiritiladi	Yangi bilim yo'nalishlarini izlab topadish, farazlarni ilgari suradi, badiiy-estetik kompetentlik darajasidan qoniqmaslikni anglab etadi	Mustaqil o'quv materiallarini o'zlashtirishni amalga oshirish, yangi g'oya va farazlarni ilgari surish, olingan ma'lumotlarni tahlil etish
O'yinli loyihalash	Talabalarda dolzarb badiiy-estetik masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish tajribasi shakllantiriladi	Muammoli, hayotiy badiiy-estetik vaziyatlarni o'yinli tarzda modellashtirish	Izlanishli-tadqiqotchilikka doir faoliyat, refleksiya

Seminar-praktikum	Ilmiy-tadqiqotchilik, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash malakasi rivojlanadi	Muammoli	Turli darajadagi kommunikativ vazifalarni hal etish, ta’lim oluvchilar faoliyatini refleksiv tahlil qilish
Kurs ishi	O‘quv-materiallarini mustaqil umumlashtirish malakasi rivojlanadi	Xorijiy tildagi o‘quv-bilish topshiriqlari	Xorijiy tildagi o‘quv-bilish topshiriqlarini mustaqil bajarish
Bitiruv malakaviy ish	Tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlanadi	Badiiy-estetik tavsifdagi topshiriqlar	Mavzu tanlash, muammoni aniqlashtirish, ilmiy izlanishlar olib borish, uning natijalarini umumlashtirish

2.3.1-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan ta’lim texnologiyalari bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida samarali qo‘llanilishi mumkin. Ularni yanada aniq tanlash har bir fan bo‘yicha o‘quv materiallari bilan taktik ta’lim texnologiyalarining o‘zaro uyg‘unligi ta’minlanishi maqsadga muvofiq.

III BOB. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

3.1-§. Bo'lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini elektiv kurs vositasida rivojlantirish texnologiyasi

Modulli o'qitish ta'limga moslashuvchan yondashuv bo'lib, oliy ta'limning turli fanlarida qo'llanilishi mumkin. Ta'lim mazmunini alohida bloklarga ajratish va ularni ma'lum vaqt oralig'ida ketma-ket o'rgatish orqali bu tizim talabalarda mavzuni chuqur o'zlashtirish, bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Modulli o'qitish oliy ta'limda mustaqil va faol o'rganish uchun bir qator afzalliklarga ega bo'lsa-da, muayyan kamchiliklarni hisobga olish kerak. Kontentning cheklangan qamrovi modulli o'qitish kurs mazmunini diskret bloklarga bo'lganligi sababli, ba'zi mavzular yoki tushunchalar yetarli darajada chuqur yoritilmasligi xavfi mavjud. Bu, ayniqsa, talabalar mavzu bo'yicha keng tushunchani rivojlantirishi kerak bo'lgan yoki hal qilinishi kerak bo'lgan aniq ta'lim natijalari mavjud bo'lgan kurslarda muammoli bo'lishi mumkin.

Modulli o'qitish boshqa ta'limiy yondashuvlariga qaraganda kamroq moslashuvchan bo'lishi mumkin, chunki u kurs mazmunini yanada tizimli va ketma-ket yetkazib berishni talab qiladi. Bu alohida ta-

labalarning ehtiyojlariga moslashishni yoki o‘quv dasturidagi o‘zgarishlarga yoki tashqi omillarga javob berishni qiyinlashtirishi mumkin.

Modulli o‘qitish o‘qituvchilardan ko‘proq vaqt va kuch talab qilishi mumkin, chunki ular har bir blok uchun o‘quv materiallarini loyihalash, ishlab chiqish va yetkazib berishlari kerak. Bu, ayniqsa, samarali materiallarni ishlab chiqish uchun ko‘nikma yoki resurslarga ega bo‘lmagan yangi yoki tajribasi kam o‘qituvchilar uchun qiyin bo‘lishi mumkin.

Modulli o‘qitish talabalar uchun yirik bloklarda o‘rganish tajribasini yaratishi mumkin, chunki ular mavzu bo‘yicha yanada kengroq tushunchani rivojlantirishdan ko‘ra, diskret kontent bloklariga e’tibor qaratadi. Bu talabalarga o‘z ta’limini birlashtirish va turli mavzular yoki tushunchalar o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rishni qiyinlashtirishi mumkin.

Modulli o‘qitishda baholashga haddan tashqari ishonish talabalarning o‘rganish jarayoni va taraqqiyotini to‘g‘ri prognozlashni qiyinlashtirishi mumkin. Har bir blok alohida baholanganligi sababli, talabalarda mavzuni chuqur o‘zlashtirish o‘rniga faqat blok talablariga javob berishga qaratilgan yondashuv xavfi mavjud. Bu holat bilimlarning sifati va mazmunan chuqurligini pasaytirishi mumkin.

Modulli ta’lim o‘qitish va o‘rganishga tizimli yondashuv bo‘lib, u talabalarning faolligi va motivatsiyasini yaxshilash, bilimlarni egallash va saqlashni osonlashtirish kabi ko‘plab afzalliklarni berishi mumkin. Biroq avval aytib o‘tilganidek, modulli ta’lim boshqa o‘qitish yondashuvlariga qaraganda kamroq moslashuvchan bo‘lishi mumkin, ya’ni ta’lim muayyan kontekstlarda kamchilik bo‘lishi mumkin. Modulli o‘qitishni yanada moslashuvchan qilishning ba’zi usullari:

1. Modullar ichida va modullar bo‘ylab talabalar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu tengdoshlarni o‘rganish, guruh loyihalari va jamoaviy tadbirlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday yondashuv talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirish bilan birga ularning hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Ta'limda texnologiyadan foydalanish moslashuvchanlikni va resurslarga kirishni yaxshilaydi. Onlayn platformalar yoki multimedia vositalari talabalarga o'z tezligida, qulay vaqt va joyda bilim olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, bu o'z-o'zini o'qitish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

3. Talabalarga ularning o'quv maqsadlari va afzalliklariga mos keladigan baholash variantlarini taqdim etish. Bu imtihonlar, insholar, loyihalar yoki taqdimotlar kabi turli baholash turlarini o'z ichiga olishi mumkin hamda talabalarga o'zlarining kuchli tomonlari va qiziqishlariga mos keladigan tarzda o'rganishlarini namoyish qilishlariga imkon beradi. Ushbu strategiyalarni qo'llash orqali modulli o'qitishni yanada moslashuvchan qilish hamda talabalarning ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirish mumkin. Bu yondashuv talabalarning faolligi, motivatsiyasi va akademik yutuqlarini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga shaxsiylashtirilgan va samarali o'rganish tajribasini taqdim etadi.

Modulli o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'plab onlayn o'quv platformalari mavjud. Modulli o'qitish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan onlayn ta'lim platformalariga ayrim misollar:

Moodle: Moodle ochiq manbali ta'limni boshqarish tizimi bo'lib, u o'qituvchilarga onlayn kurs mazmunini yaratish va yetkazib berish, baholash va baholarni boshqarish hamda talabalar o'rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtirish imkonini beradi. Moodle shuningdek, onlayn o'qitish uchun multimedia resurslari, interfaol topshiriqlar va onlayn muhokama forumlari kabi turli xil vositalar va resurslarni taqdim etadi.

Canvas: Canvas bulutga asoslangan ta'limni boshqarish tizimi bo'lib, u o'qituvchilarga onlayn kurs mazmunini yaratish va yetkazib berish, baholash va jarayonini boshqarish hamda talabalar o'rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtirish imkonini beradi. Canvas shuningdek, multimedia resurslari, interfaol topshiriqlar va onlayn muhokama forumlari kabi onlayn o'qitish uchun turli xil vositalar va resurslarni taqdim etadi.

Google Classroom: Google Classroom bepul onlayn platforma bo‘lib, u o‘qituvchilarga kurs mazmunini yaratish va yetkazib berish, baholash va baholarni boshqarish hamda talabalar o‘rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtirish imkonini beradi. Google Classroom Google Drive va Google Docs kabi boshqa Google vositalari bilan integratsiyalangan bo‘lib, bu ta’lim oluvchilarga resurslarga kirish va ularni almashish hamda topshiriqlar bo‘yicha hamkorlik qilishni osonlashtiradi.

Edmodo: Edmodo ijtimoiy o‘quv platformasi bo‘lib, u o‘qituvchilarga onlayn kurs mazmunini yaratish va yetkazib berish, baholash va baholarni boshqarish hamda talabalar o‘rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtirish imkonini beradi. Edmodo shuningdek, multimedia resurslari, interfaol topshiriqlar va onlayn muhokama forumlari kabi onlayn o‘qitish uchun turli xil vositalar va resurslarni taqdim etadi.

Schoology: Schoology o‘qituvchilarga onlayn kurs mazmunini yaratish va yetkazib berish, baholash va baholarni boshqarish hamda talabalar o‘rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtirish imkonini beruvchi ta’limni boshqarish tizimidir. Schoology shuningdek, onlayn o‘qitish uchun multimedia resurslari, interfaol topshiriqlar va onlayn muhokama forumlari kabi turli xil vositalar va resurslarni taqdim etadi.

Khan Academy – matematika, tabiiy va gumanitar fanlarni qamrab olgan keng doiradagi bepul onlayn ta’lim platformasi. U talabalarga o‘z tezligida o‘rganish va taraqqiyotini kuzatish imkoniyatini beruvchi modulli tizimni taklif etadi. Platforma interfaol mashqlar va baholashlar orqali bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu modulli o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash uchun mavjud bo‘lgan ko‘plab onlayn o‘quv platformalarining bir nechta misollari. Onlayn ta’lim platformasini tanlashda yosh o‘qituvchilaringizning o‘ziga xos ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga olish va ularning o‘rganishini eng yaxshi qo‘llab-quvvatlaydigan xususiyatlar va resurslarni ta’minlaydigan platformani tanlash muhimdir.

Modulli o'qitish didaktik tizimlarning har bir komponentini majburiy ishlab chiqilishi hamda ularni modulli dastur va modullarda ko'rgazmali taqdim etishni ta'minlaydi.

Modulli o'qitish ta'lim mazmunini aniq strukturalash, nazariy materialni ketma-ketlikda bayon etish, o'quv jarayonini metodik materiallar va uni korrektsiyalashga imkon beradigan bilimlarning o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash tizimini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Modulli o'qitish ta'limning variativligi, o'quv jarayonini ta'lim oluvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashtirishni ko'zda tutadi.

Yuqorida sanab o'tilgan modulli o'qitishning o'ziga xosliklari ta'lim mazmunini tizimlashtirish; didaktik tizimning barcha elementlarini (maqsad, mazmun, o'quv jarayonini boshqarish usullari) aniq ketma-ketlikda taqdim etish; strukturali tashkiliy-metodik birliklarning variativligi bilan bog'liq yuqori texnologiklik bilan belgilanadi.

Garchi turli-tuman talqin qilinishiga qaramasdan, modulli o'qitishning asosiy maqsadi ham mazmuni, ham o'qitishni tashkil etish bo'yicha moslashuvchan ta'limiy strukturani yaratishdan iborat.

Modulli yondashuv o'qitish mazmuni, maqsadi va o'quv-bilish faoliyatini boshqarish usullarini o'zgartirishni taqozo etadi. Bu jarayon o'qitish maqsadlari taksonomiyasiga asoslanishni talab qiladi. Pedagogik-psixologik fanlarda eng keng tarqalgan taksonomiya sifatida B.Blum va J.Gilfordlar tomonidan taklif etilgan o'quv maqsadlari tizimini keltirib o'tish mumkin. Biroq shunga qaramasdan hozirgi vaqtgacha ta'limiy maqsadlarning umumqabul qilingan taksonomiyasi mavjud emas. Odatda, didaktik maqsadlarni ikkita yo'nalish bo'yicha tasniflash keng tarqalgan: darajasiga ko'ra – umumpedagogik, fanga doir va tezkor; didaktik vazifasiga ko'ra – o'quv-biluvga doir va jarayonli.

Modulli o'qitishda ta'limiy maqsadlar piramidasini loyihalash uchun iyerarxik (pastdan yuqoriga qarab borish) yondashuv maqsad-

ga muvofiq: bo‘lajak mutaxassisning malaka talablari darajasini ifoda etadigan umupedagogik (3-bosqich); alohida o‘quv fani doirasidagi ta’limiy maqsadlarni o‘zida ifoda etadigan va modulli o‘quv dasturlarida aks etadigan majmuaviy xarakterdagi maqsadlar (2-daraja): alohida o‘quv mashg‘ulotlarida tezkorlik talab etadigan maqsadlar (1-daraja).

Modulli o‘qitish ta’lim mazmunini yanada aniqroq aytganda, o‘quv, materiallarini strukturalashda aniq tamoyillarga rioya qilishni taqozo etadi. Tadqiqot doirasida modulli ta’lim mazmunini loyihalashning quyidagi tamoyillari aniqlashtirildi: tayanch tushunchalar va metodlar doirasida ta’lim mazmunini tanlash; o‘quv materiallarini tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish; mazmunning yaxlitligi va amaliy yo‘nalganligi; o‘quv materiallarini chizma-tasviriy ko‘rinishda taqdim etish (mazkur tamoyil bo‘yicha bilimlarni tizimlashtirishda mantiqiy, produkstion, freym, mantiqiy tarmoq modellaridan foydalanish maqsadga muvofiq).

Shunday qilib, modulli o‘qitishning didaktik tizimi boshqa tizimlar singari umumdidaktik tamoyil va mezonlarga muvofiq o‘qitish maqsadlari bilan bog‘liqlikda ta’lim mazmunini loyihalashni talab qiladi. Modulli dasturlarni loyihalashga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Submodullar mazmuni o‘quv materiallarini tizimlashtirish tamoyillariga amal qilish asosida loyihalanib, qulay va ko‘rgazmali ko‘rinishda tasvirlangan, didaktik materiallar, muammoli va amaliy vazifalar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Modulli o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha turli darajalarda ta’lim jarayonlarini loyihalash aniq metodologik asoslarga tayanishni taqozo etadi (2.3.1-jadvalga qarang).


3.1.1-jadval

Modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha ta'limiy jarayonlarni loyihalashning metodologik asoslari

Ta'lim xizmatlari	Mentalitet va madaniyat	Shaxsiy va qadriyatli yo'nalganlik	Modullilik	Faol o'qitish va kasbiy yo'naltirilganlik
Davlat va jamiyat buyurtmasini shakllashtirish vositasi sifatida talab va ehtiyojlarni hisobga olish	Jamiyatda qaror topgan milliy mentalitet va madaniy kontekstni aks ettiruvchi omil	Davlat, jamiyat, ta'limning insonparvar yo'nalganligi, tayanch qadriyatlar tizimi	Ta'lim mazmuni va o'quv materiallarini tizimlashtirish tamoyili	Tashkiliy invariant shakl sifatida faol o'qitish va kasbiy rivojlanishga doir maqsadlarni belgilash usuli

Modulli o'qitishning didaktik tizimi ta'lim mazmunini tizimlashtirishning algoritmga asoslangan konstruktini o'zida ifoda etadi (3.1.2-rasmga qarang).

Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini loyihalashning modulli-didaktik tizimi o'quv portfelini ishlab chiqishni taqozo etadi. O'quv portfeli to'liq ta'limiy siklni o'zida ifoda etadi. O'quv portfelini ishlab chiqish uchun amerikalik olim P.Gronlund tomonidan ishlab chiqilgan nazorat varag'iga asoslanish maqsadga muvofiq, O'quv portfelini ishlab chiqish bo'yicha nazorat varag'ida quyidagi bo'limlardan iborat savollar majmuyi aks etadi: bo'limning maqsadi; o'quv maqsadi; dastlabki va yakuniy test; o'quv materiali va ta'lim oluvchilar faoliyatini rejalashtirish; o'z-o'zini nazorat qilish testlari; qo'shimcha o'quv ishi (talabalar tanlovi bo'yicha).



3.1.2-rasm. Ta'lim mazmunini tizimlashtirishning algoritmga asoslangan konstrukti

Bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda tolerantlik pedagogikasi muhim o'rin tutadi.

Tolerantlik pedagogikasining maqsadi o‘sib kelayotgan avlodni madaniy, irqiy, milliy, diniy bag‘rikenglik asosida, tinchliksevarlik, olamning turfa xilligini qabul qilish, inson huquqlarini hurmatlash va e’zozlash, o‘zgalarga nisbatan zo‘ravonlik psixologiyasidan va tazyiq o‘tkazishdan ozod bo‘lish asosida tarbiya qilishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaning shakl, metod va vositalarini qo‘llash asosida shaxsni kamol toptirish jarayonidir. Shu jumladan, davlatlar, madaniyatlar, shaxslar, dinlar, turli guruhlar, oila a’zolari va boshqa turdagi nizo va ziddiyatlarni tinchlik va hamkorlik yo‘lida yechimini topish metodikalari ham tolerantlik pedagogikasining vazifalaridan biridir.

“Tolerantlik pedagogikasi” tushunchasiga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvda tolerantlik pedagogikasi alohida pedagogik yo‘nalish va soha sifatida qabul qilinmaydi. Mazkur yondashuv tarafdorlarining fikriga ko‘ra, tolerantlik bilan bog‘liq barcha ko‘tarilayotgan masalalar va muammolar shaxs formatsiyasi tarkibida mavjud bo‘lib, har tomonlama kamol topgan shaxs tolerantlikdan ayri holda mavjud bo‘la olmaydi. Masalan, konfliktologiya yo‘nalishida tolerantlikning ko‘pchilik masalalari ko‘tariladi va ko‘rib chiqiladi. Biroq bizning fikrimizga ko‘ra, konfliktologiya tolerantlik pedagogikasi bo‘la olmaydi. Chunki tolerantlik nafaqat ziddiyatlarsiz yashash falsafasidir, balki jamiyatda yashash tarzi va muloqotga kirishish tamoyillarini ham o‘zida aks ettiradi.

Ikkinchi yo‘nalish vakillari tolerantlik pedagogikasini alohida soha sifatida baholaydilar va tushuntiradilar. Ularning fikriga ko‘ra, buning o‘ziga xos tamoyillari mavjud: sabr va qanoatli, bag‘rikeng bo‘lishning tarixiy va diniy ildizlari mavjud bo‘lib, ular doimiy ravishda oilaviy va diniy tarbiya jarayonida qo‘llanilib kelingan, ya’ni tolerantlikka o‘rgatish birdaniga vujudga kelgan soha bo‘lmay, balki o‘z tarixiy ildizlari va g‘oyalariga ega bo‘lgan tushunchadir. Shu nuqtayi nazardan, bag‘rikenglikning metodikasi, metodologiyasi umumgumanitar g‘oyalar tarkibida doimiy mavjud bo‘lgan. Ikkinchidan,

bag‘rikenglikning o‘zining psixologik, ijtimoiy, falsafiy, tarixiy, axloqiy aspektlari mavjud bo‘lib, ularni aynan tolerantlik pedagogikasi o‘zida mujassam eta oladi.

Bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida “Tolerantlik pedagogikasi” nomli elektiv kurs ishlab chiqilgan va ana shu kurs doirasida ta’lim yo‘nalishlarida “Kelajak soatlari” tashkil etib borilmoqda.

Elektiv kursning maqsadi talabalarni madaniyatlararo farqlarning o‘ziga xosliklaridan xabardor qilish; madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini tarkib toptirish; etnik va diniy bag‘rikenglikni qaror toptirish; tanqidiy va global fikrlashni rivojlantirishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan: 1) bo‘lajak o‘qituvchilar uchun shaxsiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etayotgan muammolarni ta’lim amaliyotiga kiritish; dialogga asoslangan o‘quv muhitini yaratish, talabalarga o‘z nuqtai nazarlarini erkin ifoda etishlari uchun sharoit yaratish; 3) artpedagogika vositasida o‘zga millat va madaniyat vakillariga nisbatan empatiya va tolerant munosabatni rivojlantirish.

“Tolerantlik pedagogikasi” elektiv kursi quyidagi submodullarni o‘zida aks ettirgan: tolerantlikka doir asosiy konsepsiyalar va nazariyalar; tolerant munosabat determinantlari: til, din, qadriyatlar, an’analar, xulq-atvor, tafakkur; noverbal muloqot; madaniy stereotiplar va bir yoqlamalilik; diniy va etnik tolerantlik; samarali muloqot texnikasi va texnologiyalari; tolerantlik amaliyoti; loyihaviy faoliyat.

Elektiv kurs bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishda asosiy e’tibor talabalarning emotsional sohasiga pedagogik ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, u real muammoli vaziyatlarni hal etishga doir keys-stadi texnologiyasidan foydalanishga asoslangan. Mazkur maqsadga turli vaziyatlar tahlili va talqini orqali erishiladi, uning yordamida insonning madaniyat kontekstida o‘zini his etish qobiliyati, turli xalqlar va davrlar madaniyatlarini anglash va

qadrlash hamda so‘z orqali tushunish, hamkorlik qilish va o‘zaro ta’sir ko‘rsatish qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi.

Shuningdek, elektiv kurs bo‘yicha tashkil etiladigan “Kelajak soatlari”da talabalarga autentik materiallar (OAV, ijtimoiy tarmoqlar) taqdim etilib, ularni ijtimoiy tengsizlik, irqiy kamsitish, autsayderlar va migrantlar bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilishga jalb qilinadi. Talabalar ularni tanqidiy tahlil qiladilar va muammolarni hal etishning ehtimoliy yo‘llarini muhokama qiladilar.

“Tolerantlik pedagogikasi” elektiv kursi bo‘yicha tashkil etilayotgan “Kelajak soatlari”da talabalar hissiy-emotsional sohasiga ta’sir ko‘rsatishning improviziatsiyaga asoslangan syujetli-rolli modellashtirish va empatiyaga asoslangan vaziyatlarni yaratishga doir pedagogik usullardan foydalaniladi. Mazkur mashg‘ulotlar jarayonida talabalar xilma-xil faoliyatga maqsadli jalb etib boriladi: talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, turli stereotiplar (millat, til, jins, yosh bilan bog‘liq)ni muhokama qilishadi; xilma-xil ijtimoiy maqomga ega kishilarning rollarini ijro etishadi; inkyuziv mazmundagi yoki madaniy turfa xillikka ega video kontentlarni tomosha qilishadi va tahlil etishadi.

“Tolerantlik pedagogikasi” elektiv kursi bo‘yicha tashkil etilayotgan “Kelajak soatlari”da germenevtik texnologiyani qo‘llashga muhim ustuvorlik qaratiladi. Buning uchun talabalar bilan quyidagi algoritmik bosqichlarga asoslangan o‘quv-bilish faoliyati tashkil etiladi: 1) ma’lumotlarni to‘plash va qayd etish; 2) qiyosiy tahlil; 3) interpretatsiya.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish quyidagi texnologik tavsifga ega pedagogik shart-sharoitlar hisobga olinganda o‘z samarasini beradi:

• elektiv kursning maqsad va vazifalarini ta’lim yo‘nalishi xususiyati, talabalarning tayyorgarlik darajasi, ehtiyojlari, xohish-istaklari va dolzarb ijtimoiy vazifalarni hisobga olgan holda belgilash;

• elektiv kursning maqsad va vazifalariga mos ta’limiy resurslarni loyihalash, tanlash va konstruksiyalash;

• ma’ruzalar, seminarlar, munozaralar, rolli o‘yinlar, loyihaviy faoliyati kabi o‘qitishning turli-tuman shakl va metodlaridan samarali foydalanish.

“Tolerantlik pedagogikasi” elektiv kursi bo‘yicha tashkil etilayotgan “Kelajak soatlari”ni o‘tkazishga yo‘naltirilgan aniq pedagogik texnologiya ta’lim amaliyotida mavjud emasligi aniqlandi. Ana shu sababli, tadqiqot doirasida tashkil etilgan “Tolerantlik” media markazida amalga oshirilgan izlanishlar doirasida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga kompleks ta’sir ko‘rsatishni ko‘zda tutadigan pedagogik texnologiya ishlab chiqildi (3.1.3-rasmga qarang). Mazkur pedagogik texnologiya nafaqat “Kelajak soatlari”ni o‘tkazish, balki ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida ham samarali qo‘llanildi.

Xulosa qilib aytganda, “Tolerantlik pedagogikasi” elektiv kursini “Kelajak soatlari” bilan vertikal va gorizontal yo‘nalishlar bo‘yicha integratsiyalash asosida o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishni baholashga doir maxsus tadqiqotlarni o‘tkazish uchun yangidan yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

3.2-§. Onlayn ta’lim va innovatsion texnologiyalar asosida bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi

So‘nggi yillarda onlayn ta’lim faqat masofaviy o‘qitish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish muhiti sifatida ham e’tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, virtual ta’lim muhiti talabalarni turli madaniy, ijtimoiy va dunyoqarash jihatidan farqli bo‘lgan ishtirokchilar bilan muloqot qilishga jalb etadi.

Onlayn ta’lim orqali tolerantlikni rivojlantirishga doir xalqaro tajriba tahlili 3.2.1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

3.2.1-jadval

Tolerantlik kompetensiyalarni rivojlantirishda onlayn ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishning benchmarkingga asoslangan arxitektonikasi

Mintaqa / davlat	Qo'llanilayotgan yondashuv	Foydalaniladigan platformalar	Tashkil etiladigan faoliyat turi	Tolerantlikka ta'siri
Yevropa Ittifoqi (Erasmus+, Virtual Exchange)	Virtual almashinuv, madaniyatlararo onlayn hamkorlik	Moodle, Zoom, Padlet	Xalqaro guruhiy loyiha ishlari, muhokamalar	Madaniyatlararo hurmat, ochiq fikrlilik
AQSH (Harvard, MIT tajribasi)	Collaborative Online Learning, loyiha asosida o'qitish	Google Classroom, Bloglar, Forumlar	Onlayn muhokama, refleksiv yozuv, guruhiy tadqiqot	Empatiya, boshqalar fikrini tushunish
Kanada	Multikultural onlayn ta'lim modeli	LMS tizimlari, Discussion boards	Turli ijtimoiy guruhlar bilan onlayn muloqot	Ijtimoiy tolerantlik, murosali muloqot
Janubiy Koreya	Xalqaro onlayn loyiha ishlari	Zoom, Miro, Google Docs	Xalqaro talabalar bilan hamkorlik	Kelishuv madaniyati, hurmat
Yaponiya	Madaniyatlararo onlayn seminarlar	LMS, Video platformalar	Onlayn seminar va rolli o'yinlar	Empatiya, madaniy sezgirlik
Singapur	Global classroom modeli	Padlet, Canva, Teams	Multimodal topshiriqlar, guruhiy loyiha	Ochiq fikrlilik, ijodiy ifoda
UNESCO tavsiyalari asosida	Raqamli muloqot va hamkorlik	Turli raqamli platformalar	Fikr almashish, kollaboratsiya	Faol tolerantlik, global fikrlash

Zamonaviy pedagogika ilm-fani va ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Tadqiqot doirasida "Media-savodxonlik va axborot madaniyati" moduli, "Tolerantlik pedagogikasi" elektiv kursini o'qitish jarayonida quyidagi texnologiyalar majmuyidan foydalanildi:

I. Samarali muloqot texnologiyalari. Muloqot tolerantlikni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. O'quv mulo-

qot texnologiyalari (S.Y.Kurganov, V.S.Bibler) ta'lim jarayonini turli madaniy pozitsiyalarning tutashuvi, nuqtai nazarlar to'qnashuvi va haqiqatni birgalikda izlash sifatida tashkil qilishni nazarda tutadi. Samarali shakllari: munozara, debatlar, falsafiy-sotsiologik mavzudagi suhbatlar, suqrotona muloqotlardan iborat. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, muloqot texnologiyalarini tizimli qo'llash tanqidiy fikrlash, empatiya va o'zgalar nuqtai nazarlarini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

II. O'yin va trening texnologiyalari. Ijtimoiy-psixologik tolerantlik treninglari madaniyatlararo muloqot vaziyatlarini modellashtirish va xavfsiz muhitda tolerant xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Maxsus shakllari rolli o'yinlar, simulyatsiyalar, keys-stadidan iborat. Detsentratsiya o'yinlari – vaziyatni boshqa inson ko'zlari bilan ko'rish qobiliyati – alohida ahamiyatga ega. 47 ta o'tkazilgan tadqiqotning metatahlili shuni ko'rsatdiki, o'yin metodlari ta'lim oluvchilarning etnik tolerantlik darajasini statistik sezilarli tarzda ($p<0,01$) oshiradi.

III. Loyihaviy faoliyat. Madaniyatlararo va ijtimoiy loyihalar tolerant xulq-atvorni amaliy o'zlashtirish uchun sharoit yaratadi. Samarali loyihalar: turli xalqlar tarixiy-madaniy merosini o'rganish, madaniy almashinuvlar tashkil etish, volontyorlik faoliyati, tolerantlik muzeylarini yaratish. Loyihaviy faoliyat nafaqat tolerantlikning kognitiv komponentini (madaniyatlar haqida bilimlar), balki xulq-atvor komponentini (aloqa qilish tajribasi) ham rivojlantiradi.

IV. San'at va adabiyot vositalaridan foydalanish. Badiiy adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'at empatiyani rivojlantirish va "o'zga"ni tushunishda katta salohiyatga ega. Turli madaniyat vakillari hayotini ochib beradigan asarlarni o'qish va muhokama qilish, tolerantlik muammolariga bag'ishlangan filmlarni tomosha qilish, san'at asarlarini tahlil etish "o'zga"ning tajribasini emotsional jihatdan his etishga yordam beradi. Tadqiqotlar tasdiqlaydiki, badiiy matnlar bilan ishlash etnik noto'g'ri tushunchalar darajasini sezilarli darajada pasaytiradi.

V. Interaktiv o'qitish texnikalari. Mazkur guruhga ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faol o'zaro hamkorligini nazarda tutadigan

metod va usullar kiradi: guruhiy ish, kooperativ o'qitish, loyiha usuli, o'zaro o'qitish. Ayniqsa, tarkibi jihatdan xilma-xil guruhlarda kooperativ o'qitish (Cooperative Learning in Heterogeneous Groups) samarali hisoblanadi, chunki u ijobiy o'zaro bog'liqlik, teng huquqli ishtirok va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

VI. Raqamli texnologiyalar. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida tolerantlikni rivojlantirishda onlayn-texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda: virtual tolerantlik muzeylari, ta'limiy veb-kvestlar, madaniyatlararo muloqot uchun ijtimoiy tarmoqlar, tolerantlik muammolariga bag'ishlangan ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC). Telekommunikatsiya loyihalari turli mamlakatlar va madaniyatlarga mansub ta'lim oluvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqotlar raqamli muhitda xavf-xatarlar — nafrat tili, kiberbulling tarqalishini qayd etadi, bu esa raqamli tolerantlikni rivojlantirish bo'yicha maxsus ish olib borishni talab qiladi.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasining asoschisi amerikalik pedagog, faylasuf va psixolog Djon Dyu (1859-1952) hisoblanib, amaliy natija beradigan va butun jamiyat manfaatiga qaratilgan narsagina haqiqat va qimmatlidir, deb ta'kidlagan[174].

Loyihalash – bu yangi narsalarni yaratishga intilayotgan subyektning ijodiy salohiyatining ajoyib qo'llanilishi. Loyihalashda fan o'zini insonga harakatga chaqiruv sifatida ochib beradi[175].

Pedagogik tamoyillarni tushunish va bo'lajak pedagoglarni tayyorlash uchun didaktik loyihalash tamoyillarini tanlash va taksonomiyasi uchun asos sifatida quyidagi mezonlarni belgilash mumkin:

Obyektivlik. Har bir tamoyil obyektiv ravishda mavjud bo'lgan pedagogik qonuniyat asosida shakllantirilishi kerak.

Kontekstga yo'naltirilganlik. Har bir tamoyil pedagogik qarama-qarshiliklarning ma'lum bir sinfini olib tashlash va hal qilish,

[174] Yusupova M., Shorahmetov Sh. Loyiha texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishining ijobiy tomonlari// Academic Research in educational sciences// volume 2 | issue 3 | 2021

[175] Махмудов М. Дидактический проектировании – гарантия эффективности в современном образовании//Образование и инновационные исследования №1, 2020// с.15

kasbiy kompetensiya parametrlari kontekstini hisobga olgan holda loyiha faoliyatining umumiy strategiyasini tashkil etuvchi pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Tizimlilik. Har bir tamoyil didaktik tizimning barcha loyiha komponentlari (aksiologik, boshqaruv, tashkiliy, mazmuniy, texnologik) va elementlariga ma’lum talablarni qo‘yishi va qo‘llanilishining aniq chegaralariga ega bo‘lishi kerak.

Innovatsion yo‘nalganlik. Har bir yangi shakllantirilgan tamoyil yangi yondashuvlarni, OTM kadrlarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishning yangi imkoniyatlarini ochib berishi kerak.

Bir-birini to‘ldiruvchilik. Har bir yangi tamoyil avvalgilarini almashtirmasdan yoki bir-biriga yopishtirmasdan to‘ldirishi kerak.

Samaradorlik. Har bir tamoyilning amalga oshirilishi umuman oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi kerak.

Nazariy va amaliy ahamiyati. Har bir yangi shakllangan loyiha tamoyili nazariyani rivojlantirish va oliy ta’limda didaktik loyihalash amaliyotini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lishi zarur.

O‘quv jarayonida ishlab chiqilgan bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning loyihalash tamoyillari quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi: pedagogik, metodik va loyihalash, didaktik, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar ta’limining o‘ziga xos tamoyillari. Ushbu tamoyillar OTMda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning didaktik loyihalash qonuniyatlarini ifodalaydi, ularni uzluksiz ta’lim tizimida shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog‘liqligini hisobga olmasdan ko‘rib chiqish mumkin emas.

Jamiyat va ta’limning insonparvarlik qadriyatlari OTM bosqichi insonning uzluksiz ta’limi va tolerantlik kompetensiyalarining muhim komponenti bo‘lgan shaxsiy kompetensiyani rivojlantirishning bir qismi ekanligini hisobga olgan holda, OTMda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashni loyihalashning asosiy modellarini belgilaydi. Didaktik loyiha loyihalash natijasi sifatida ham ta’lim va kasbiy muhit subyektlari

faoliyatining uni rivojlantirishga qaratilgan qadriyatga yo'naltirilgan mahsuloti, ham yangi pedagogik bilimlar sifatida ishlaydi. Oliy ta'limda tayyorgarlikning o'quv jarayonida biz buni talaba, o'qituvchi va bo'lajak pedagoglarning shaxsiyati va tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish omili sifatida qaraymiz. Amaliyotga yo'naltirilgan shaklda didaktik loyiha – bu bo'lajak pedagoglarni yuqori sifatli tayyorlashga erishishni ta'minlaydigan ta'lim tizimi, jarayoni, holati sifatida tushuniladi.

OTMda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida turli xil didaktik loyihalar amalga oshiriladi, ularni quyidagi mezonlarga ko'ra tizimlashtirish mumkin:

- prognoz qilinayotgan o'zgarishlarning tabiati bo'yicha: innovatsion, modifikatsiyali, kombinatsion;
- strukturaning murakkabligiga ko'ra: monoloyiha, multiloyiha, metaloyiha;
- ko'lamiga ko'ra: xalqaro, mintaqalararo, mintaqaviy, munitsipal, oliy ta'lim ichida;
- amalga oshirish muddati bo'yicha: qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (3 yildan 5 yilgacha), uzoq muddatli (10–15 yilgacha);
- qo'llanish darajasi bo'yicha: umumiy didaktik (butun kadrlar tayyorlash tizimini tavsiflash); predmetli (fan bo'yicha o'quv jarayoni texnologiyasi); lokal (alohida faoliyat turi texnologiyasi);
- shaxs tuzilishiga yo'naltirilganligi bo'yicha: axborot (maqsad – g'oyalar, tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish); operativ (intellektual harakat usullarini rivojlantirish); amaliyotga yo'naltirilgan (samarali amaliy sohani rivojlantirish); hissiy va axloqiy (axloqiy va estetik munosabatlar sohasini rivojlantirish); o'z-o'zini rivojlantirish (shaxsning o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirish); evristik (ijodkorlikni rivojlantirish);
- loyihalar mazmunining tabiati bo'yicha: ta'lim, tarbiya, qo'shimcha ta'lim, kasbiy yo'naltirilgan, ijtimoiy-madaniy, ilmiy-tadqiqot faoliyati, volontyorlik faoliyati, mustaqil ish va boshqalar;

– ta’sir qilish xususiyatiga ko‘ra: monoloyihalar (yetakchi g‘oya), kompleks (monoloyihalar elementlarining kombinatsiyasi), end-to-end (g‘oya mutaxassislar tayyorlashning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi);
– ta’lim loyihalarining tashkiliy shakllariga ko‘ra: klassik (ma’ruza mashg‘ulotlari), audiovizual vositalardan foydalangan holda, “maslahatchi” tizimi, kichik guruhlarda ishlash, kompyuter texnologiyalari, dasturiy ta’minot va boshqalar.

Oliy ta’lim sohasida ustuvor ahamiyatga ega kompleks loyihalar: axborot, telekommunikatsiya, intellektual va psixologik yo‘naltirilgan, innovatsion loyihalar hisoblanadi. O‘z navbatida oliy ta’limning real faoliyatida taqdim etilgan loyihalar bir-birini to‘ldiradi va bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘tkazilgan tadqiqotlar oliy ta’limda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning o‘quv jarayonidagi didaktik loyihalarning uchta guruhini aniqlashga imkon berdi: ta’limni tashkil etishning yaxlit tizimi bilan bog‘liq loyihalar (o‘quv, tadqiqot faoliyati, mustaqil ish, amaliyot, volontyorlik); tayyorgarlik jarayoni bilan bog‘liq loyihalar (qadriyatli-semantik faoliyatni tashkil etish, kommunikativ, metafaollik, reflektiv, diagnostik faoliyat); individual ta’lim vaziyatlari bilan bog‘liq loyihalar (loyihalar, guruh muhokamalari, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, dialogik ma’ruzalar, didaktik, rolli o‘yinlar, ishbilarmonlik o‘yinlari, shaxsiy o‘sish, ijodkorlik, o‘z-o‘zini tashxislash, qo‘llab-quvvatlash).

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida har bir o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirish ma’lum bir rejaga solish muhim sanalib, buni amalga oshirishda professor-o‘qituvchi o‘ziga xos qoidalarga amal qilishi zarur. Bular quyidagilar:

– o‘quv ta’lim jarayonini loyihalashtirish;
– talabalar bilan hamkorlikdagi ilmiy va o‘quv faoliyatini olib borish bosqichlarini rejalashtirish;
– ta’lim jarayonining tashkiliy-didaktik ta’minotini ishlab chiqish.

Bo‘lajak pedagoglarni tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish maqsadi natijasi samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi

ta'lim jarayoniga tayyorgarlik ko'rishi, ya'ni ta'lim shakllari, vositalari, metodlari, texnologiyalarini oldindan to'g'ri tanlash yuzasidan to'la tasavvurga ega bo'lishi zarur. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

butun ta'lim davri; o'quv yili; semestrlar; oylik; haftalik; kunlik va bir nazariy yoki amaliy o'quv mashg'uloti bo'yicha.

Loyihaviy ta'lim asosida o'quv jarayonini loyihalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- "ta'lim maqsadlarini aniqlash, ya'ni "Nima uchun o'qitiladi?" degan savol haqida oldindan to'liq tasavvurga ega bo'lishi;
- o'rganiladigan nazariy yoki amaliy material mazmuni, ya'ni "Nima o'rganiladi?" degan savolga oldindan javob bera olishi;
- rejalashtirilgan ta'lim mazmunini yetarli darajada egallash orqali ta'lim maqsadlariga erishish uchun ta'lim metodlarini tanlash, ya'ni "Qanday o'qitish kerak"ligi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi;
- ta'lim maqsadlariga erishishda kerak bo'ladigan ta'lim vositalari, ya'ni "Nima yordamida o'qitish zarur?" ekanligi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi;
- ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlashni tashkil etish, ya'ni "Qanday amalga oshirish maqsadga muvofiq"ligi haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi;
- ta'lim jarayonida erishilgan natijalar, ya'ni oldindan belgilangan maqsadlarga erishildimi yoki yo'qmi – uni aniqlash bo'yicha to'la tasavvurlarga ega bo'lishlari talab etiladi"[176].

Yuqoridagi fikrlar asosida loyiha tushunchasi, loyihalashning mohiyati, vazifalari, turlari va vositalari hamda loyihalash faoliyati mazmuni hamda tuzilishiga aniqlik kiritildi.

Loyihaviy ta'lim bo'lajak pedagogning o'quv faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanib, bunda:

[176] Махмудов М. Дидактический проектировании – гарантия эффективности в современном образовании//Образование и инновационные исследования №1, 2020// с.15

1) professor-o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan kichik loyihalarning talabalar tomonidan bajara olinadigan bo‘lishi;
2) loyihaviy ta’lim asosida faoliyat tashkil etilganda o‘quv-mavzularda rejalashtirilayotgan loyihani topshirish muddati aniq ko‘rsatilishi;
3) loyihaviy ta’lim asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi rahbarlik qilishi va u loyihaning boshqaruvchi, yo‘naltiruvchisi hisoblanishi;
4) loyihalar yakka shaxslarga va guruhlarga qaratilgan bo‘lishi;
5) loyiha topshiriqlari aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli, talabalar bilan uning bajarish yo‘llari kelishilgan bo‘lishi;
6) ba’zi hollarda yuqori kurs talabalarining xohish va istaklariga binoan loyihalarni shakllantirish loyiha rahbari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi;
7) o‘quv loyihalari oldindan ishlab chiqilgan mezon ko‘rsatkichlari asosida baholanishi, loyihada predmetlararo maqsadlar ko‘zda tutilsa, yakuniy baholar ham chiqarilgan bo‘lishi;
8) o‘quv yili davomida o‘rnatilgan tartibda tuzilgan loyihalar taqdimotini ilmiy konferensiyalarda, ilmiy seminarlarda himoya qilish yoki tanlovlar tariqasida o‘tkazilishi kerak bo‘ladi.

Loyihalash ta’limning quyidagi muhim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

- ta’limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta’minlaydi;
- ilmiy-nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, baholash va talabalarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi;
- tayanch va kasbiy layoqatlarni shakllantirish hamda rivojlantirishni ta’minlaydi.

Izlanuvchan faoliyat xarakteri va ustuvor metodlarga ko‘ra tadqiqiy, ijodiy hamda informatsion loyihalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

"Tadqiqiy loyihalar – o'z xarakteriga ko'ra ilmiy tadqiqot mohiyatini eslatadi, uning mantig'iga bo'ysunadi va u o'z ichiga muammoning dolzarbligi va ishlab chiqilganlik darajasi, muammoning obyekti va predmeti, tadqiqot maqsadi, farazi, vazifalari, muammoni o'rganish metodologiyasi va metodikasi, axborot yig'ish va tahlil qilish, tajriba o'tkazish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabilarni qamrab oladi. Tadqiqiy loyihalar ko'pincha kurs va diplom ishlarida, shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarda ishlatiladi.

Ijodiy loyihalar – yangi, original g'oyalarni, hamkorlikdagi faoliyat mahsullarini (ijodiy hisobot, ko'rgazma, videofilm, nashrlar – kitob, kompyuter dasturlari va hokazo) ijodiy shaklda ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ishni amalga oshirishda turli xil metodlardan foydalaniladi.

Informatsion loyihalar – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy hamda ta'lim-tarbiya jarayoni yoki boshqa buyurtmachilar uchun zarur bo'lgan axborotlarni yig'ishga yo'naltirilgan bo'ladi. Loyihani ishlab chiqishda turli xil asoslardan: hujjatlar tahlili, kuzatish, sotsial eksperiment, elektron ma'lumotlar bazasi, ijtimoiy so'rovlar kabi manbalardan axborot izlash va topish muhim sanaladi. Loyiha natijasi tanlab olingan, tahlil qilingan, umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan va birorta buklet, kollaj, nashr, internetdagi sahifa va hokazo ko'rinishida bo'lgan axborot shaklida taqdimot qilinadi"[177].

Loyihaviy ta'lim – bo'lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatini amalga oshiradigan asosiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun axborot tanaffuslari bilan murakkab tadqiqot loyihalarini amalga oshirishga asoslangan rivojlantiruvchi ta'lim turi hisoblanadi. Loyiha faoliyatining yakuniy mahsuloti sotsiologik tadqiqot loyihasidir – talabalar tomonidan mustaqil ravishda qabul qilinadi, har qanday jamiyatni isloh qilishda ta'limning kutilayotgan hissasi, ta'lim sohasini ustuvor yo'nalish sifatida belgilash, iqtisodiyot, siyosat, ijti-

[177] Толипов Ў., Усмонбекова М. Педагогик технологиянинг тадбиқий асослари. –Т.: Фан, 2006. – 264 б.

moiy-madaniy sohani rivojlantirishning yangi strategik yo‘nalishlari, jamiyatning ochiqligi, uning jadal axborotlashtirish va dinamikligini hisobga olgan holda kasbiy, moddiy, ijtimoiy, axloqiy, tadqiqot va hokazolarning batafsil yechimi, xarakteri tushuniladi. Loyiha ustida ishlash jarayonida bo‘lajak pedagoglar irodaviy fazilatlarni rivojlantiradilar, mavzuga oid, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar ustida ishlaydilar, polidialogda muloqot qobiliyatlari va ko‘nikmalarini, ijtimoiy sheriklik va faollikni rivojlantiradilar, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatda amaliyotga yo‘naltirilgan tajribaga ega bo‘ladilar, o‘zlarini rivojlantiradilar; ularning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan muammolarni hal qilishning nostandart usullarini o‘zlashtiradilar.

Loyihaviy ta’lim doirasida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimli va samarali davom etishi uchun ushbu turdagi ta’limning psixologik-pedagogik konsepsiyasi ma’lum didaktik talablarga javob berishi kerak: rivojlanayotgan muhitning mavjudligi, jamoaviy va individual ish shakllarining almashinishi, individual va tabaqalashtirilgan yondashuvni ta’minlash, ta’lim, ijtimoiy va kasbiy maqsadlarda kompleks loyiha vazifalaridan keng foydalanish. Bizning tadqiqotimizda bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik tizimini qurish ushbu talablarni hisobga olgan holda amalga oshirildi va o‘nta o‘zaro bog‘liq va bir-birini belgilovchi tamoyillarga asoslandi, xususan: muvofiqlik-tizimlilik, yaxlitlik, tuzilmali insonparvar yo‘nalganlik demokratiya, ijtimoiy qat’iylik, ijtimoiy muvofiqlik, raqobatbardoshlik, dialogizm (3.1.1-jadvalga qarang).

3.1.1-jadval

Loyihaviy ta'lim asosida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik tizimini qurishning asosiy tamoyillari va ularning xususiyatlari

Tamoyillar	Tavsifi
1.Muvofiqlik-tizimlilik	obyekt – tizim sifatida: yaxlit integratsiyalashgan pedagogik jarayonda rivojlanish: o'zini o'zi anglash va o'zini namoyon qilish shartlarini modellashtirish:
2. Yaxlitlik	komponentlar to'plamining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri: integrativ sifatlarning mavjudligi: boshqa ijtimoiy va tabiiy tizimlarning ta'siri:
3. Tuzilmali	pedagogik tizimning harakatchanligi va o'zgaruvchanligi; integratsion sifatning mavjudligi;
4.Gumanistik yo'nalish	insonparvarlik; vijdon erkinligi, diniy e'tiqod, dunyoqarash, jismoniy va ruhiy salomatlik haqida g'amxo'rlik qilish; har bir talabaning imkoniyatlariga ishonish;
5. Demokratiya	ta'lim tizimini demokratlashtirish; hamkorlik, o'qituvchilar va talabalarning birgalikdagi faolligi;
6.Ijtimoiy qat'iylik	jamiyatning salbiy ta'sirini bartaraf etishga qaratilgan kuchli irodali harakatlar, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish; ijtimoiy immunitet, stressga chidamlilik, refleksiv pozitsiya;
7. Ijtimoiy muvofiqlik	ijtimoiy vaziyatning mazmuni, ta'lim va tarbiya vositalarining muvofiqligi; ijtimoiy va kasbiy vazifalarni amalga oshirish uchun prognostik tayyorgarlikni shakllantirish;
8. Raqobatbardoshlik	gorizontal va vertikal harakatchanlik; dinamizm;
9. Dialogizm	munosabatlarning subyekt-subyekt xususiyati; subyektlarning erkin dialogik o'zini o'zi anglashi:

Ushbu tamoyillarga asoslangan metodik tizim talabalarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ta'limni shaxsning eng muhim funksiyasi deb hisoblaydigan faol yondashuvga asoslangan yaxlit, yetarlicha dinamik, uning mazmuni va protsessual jihatlarini hisobga olgan holda ochiq tizimdir.

Tolerantlik kompetensiyalariga yo'naltirilgan, sotsiologik tadqiqotni loyihalashda yettita vazifani hal qilish kerak: 1) o'zgaruvchilar lug'atini yaratish; 2) o'rganish birliklari va obyektni aniqlash; 3) xu-

susiyat maydonini qurish; 4) farazlarni shakllantirish; 5) konseptual ta'riflarni operativ ta'riflarga tarjima qilish; 6) namuna olish loyihasini ishlab chiqish; 7) jadval sxemalarini va ma'lumotlarni tahlil qilish dasturini yaratish kabilar.

Loyihaviy ta'lim asosida o'quv jarayonini tashkil etishda professor-o'qituvchi faollikda ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor pedagog rolini o'tashi talab etiladi. U talabalarni ruhlantirishi, ularni qiziqtirish orqali pirovard maqsadga erishishi talab etiladi va loyihani amalga oshiradigan vaqt tashkiliy masalalar, beriladigan topshiriq hamda savollar oldindan rejalashtirilishi kerak bo'ladi.

Mahalliy pedagogik amaliyotda ishbilarmonlik o'yinlari uzoq vaqtdan beri ommabop ta'lim usuliga aylangan. Ta'limda ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalanish deyilganda, bir tomondan, sharoitlar ko'proq yoki kamroq takrorlanadigan tanlov va qaror qabul qilish holatini yaratish deb ta'riflansa, boshqa tomondan esa, yangi funksiyalarni tushunish, tajriba va o'zlashtirish imkonini beruvchi ishtirokchilar shunday rollarni o'z zimmalariga oladilar, deb tushunish mumkin.

Ijtimoiy faoliyatga tayyorlaydigan sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida, talabalarda kasbiy motivatsiya darajasining pastligi muvaffaqiyatsizlikning asosiy sabablaridan sanaladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, talabalar tomonidan dasturlarni tuzish, sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish, intervyu savollarini tuzish har doim ma'lum ijtimoiy-madaniy bo'shliqda amalga oshirilib, unda aniq ehtiyoji, hissiyoti, ijtimoiy yoki qarindoshlik muloqotlari bo'lmagan insonlar qatnashadilar. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun o'quv jarayonini boshqarishda talabalar faoliyatini rolli tashkillash alohida o'rin tutadi.

Rolli o'yin elementlarini o'z ichiga olgan faol yondashuv talabalarning harakatlarini tashkil qilishning turli aspektlarini tadqiq qilishda birlamchi nuqta bo'lib xizmat qilishi mumkin. A.N.Shukinning fikricha, "rolli o'yin – darsda jamoaviy o'quv faoliyatini tashkil qilish shakli bo'lib, real muloqot sharoitlariga maksimal darajada yaqinlashtirib, nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivoj-

lantirishni maqsad qiladi"[178]. Shunday qilib, rolli o'yinlar tortinchoq, o'ziga ishonmaydigan shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan talabalarga, fikrni bayon etish va shu orqali kommunikativ va ijtimoiy ishonchsizlik to'sig'ini yengib o'tishga yordam beradi. Shuningdek, rolli o'yin talabalarning yosh xususiyatlarini ham e'tiborga olish imkonini beradi, kommunikativ muloqot zaruratini, ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri tahlil qilish imkoniyatini yaratishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, kasbga yo'naltirilgan o'qitishda faoliyatli yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi.

Yuqori malakali, kompetentli o'qituvchilar ma'ruzani shunchaki o'qimasdan, ta'lim oluvchilarni material ustida birgalikda ishlashga jalb etishlari lozim. Bu jarayonda ularda mustaqil fikrlash, tahlil o'tkazish va xulosa qilish ko'nikmasi singdirib boriladi. Bo'lajak pedagoglar siyosat, iqtisod va biznes olamida yuz berayotgan barcha hodisalarni kuzatib borishlari kerak. Bu ulardagi kasbiy kompetensiyalarning nazariy asoslarini hayotiy, real misollar bilan boyitadi. Bunda ishbilarmonlik o'yinlarining amaliy ahamiyati yuqori sanaladi.

Ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning faolligini oshirish didaktikaning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Bo'lajak pedagogning faolligi maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi professor-o'qituvchining ta'sirlari va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasida shakllanadi. Bo'lajak pedagoglarning faolligini ta'minlovchi, o'qitish texnologiyalaridan biri – pedagogik ishbilarmonlik o'yinlari hisoblanadi. Ishbilarmonlik o'yinlari jamoa va guruhlarda ishlash mahorati; muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati; o'zgalar fikrini hurmat qilish; xushmuomalalik; ishga ijodiy yondashuv; faollik; muammoga diqqatni jamlay olish mahorati kabi qator sifatlarni shakllantirish imkonini ham beradi. Ishbilarmonlik o'yinlari o'qitishning aniq qo'yilgan maqsadi asosida ma'lum bir natijaga erishish bilan belgilanadi. Bu natijalar esa, aniq o'quv jarayoniga tayyorgarlik faoliyatiga asoslanadi.

[178] Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь: более 2000 единиц. – М.: АСТ, 2008. – С. 290.

Oliy ta’lim tizimida foydalaniladigan barcha ishbilarmonlik o‘yinlari odatda ma’lum o‘quv fani doirasida ishlab chiqilgan mavjud rollar va syujetlar bo‘lgan, turli vaziyatlarni o‘z ichiga oladigan jarayon hisoblanadi. Ishbilarmonlik o‘yinlari o‘z mohiyatida bo‘lajak pedagogning kelajakdagi kasbiy faoliyatining predmeti va ijtimoiy mazmunini rivojlantirish shaklini mujassamlashtiradi, faoliyat yaxlitligini belgilovchi bunday munosabatlar tizimini modellashtiradi.

Simvolik vositalar (rolli syujetlar, til, nutq, grafiklar, jadvallar, hujjatlar) yordamida, ishbilarmonlik o‘yinlarida muhim belgilar asosida tabiiy vaziyatga o‘xshash eksperimental kasbiy vaziyat vujudga keltiriladi. Shuningdek, ishbilarmonlik o‘yinlarida fanlar xususiyatidan kelib chiqqan holda qisqa vaqt ichida kasbiy umumiy vaziyatlar tahlil qilinadi.

Ishbilarmonlik o‘yinlari bo‘lajak pedagogning kelajakdagi kasbiy faoliyatining eksperimentli jihatini (shartli amaliyot, tajriba) talabalarning ijtimoiy vaziyatlardagi rolli holatdagi vakillar bilan o‘zaro muloqotda, sotsial munosabatda bo‘luvchi ijtimoiy jihatini vujudga keltirish orqali rivojlantiradi. Demak, ishbilarmonlik o‘yinlarida jamoaviy o‘quv faoliyatining yaxlit shakli – ta’lim amaliyoti hamda kasbiy faoliyat modelida yaxlit obyektda amalga oshiriladi.

Ishbilarmonlik o‘yinlarida talaba (bo‘lajak pedagog) o‘zida o‘quv va kasbiy elementlarni mujassamlashtirgan o‘xshash kasbiy faoliyat bajaradi. Ma’lum kasbiy mehnat jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalar, ya’ni kasbiy kompetensiyalarni yuqori darajada qo‘llay olishga eksperimental o‘yin orqali imkoniyat yaratiladi. Ishbilarmonlik o‘yinlari orqali bo‘lajak pedagog kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda ma’lum ijtimoiy muammoga ega, maxsus xulq-atvorga ega kishilar bilan muloqotga kirishishi, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakasi, boshqarish, rahbarlik qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Ya’ni ishbilarmonlik o‘yinlari kasbiy mahoratni rivojlantiribgina qolmay, u shaxsiy sifatlarni ham shakllantirib, ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi. Bo‘lajak pedagogning ijodiy tashabbusini namoyon etish, aqliy va hissiy jihatdan erkinlashishi ishbilarmonlik o‘yinlari orqali kasbiy faoliyat shaklida namoyon bo‘ladi.

Ishbilarmonlik o'yinlari o'quv-kasbiy faoliyat dinamikasida bo'lajak pedagoglarning xatti-harakatlari va munosabatlarini modellashtirish asosida bilimlarni dolzablashtirishga, ularni qo'llash va mustahkamlashda amaliy fikrlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ishbilarmonlik o'yinlari o'yinli va pedagogik maqsadga erishish uchun munozarali muloqot mazmunida o'tkaziladi.

Ishbilarmonlik o'yini kasbiy faoliyat ko'nikmalari hamda ijtimoiy harakatlar me'yorlari, ya'ni pedagogik jamoadagi munosabatlar o'zlashtiriladi.

Bunda o'yinning har bir ishtirokchisi faol holatda bo'ladi, boshqa sheriklari bilan o'zaro munosabatda jamoaviy harakat, o'zaro ta'sirni tashkil qilish qobiliyati (keng ma'noda), shaxslararo muloqot, nizolarni zo'ravonliksiz hal qilish, ijtimoiy vaziyatlarda xulq-atvorning samarali strategiyasini va adekvat aloqa usullarini tanlash, ijtimoiy o'zaro ta'sirga intilish va turli xil jamoada ishlash qobiliyati, axloqiy qadriyatlarga rioya qilish orqali pedagogik mahorat shakllanadi.

Bizning fikrimizcha oliy ta'lim tizimidagi ishbilarmonlik o'yinlari yangi o'quv materialini o'zlashtirish va mustahkamlashga, (bo'lajak pedagog)ning ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi, umumilmiy ko'nikmalarini shakllantiruvchi masalalar majmualarini yechishga qaratiladi, talabalarga turli vaziyatlarda o'quv materialini tushunib yetish va o'rganish imkonini beradi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga, muloqotga tayyorlik darajasini ishbilarmonlik o'yinlari orqali rivojlantirish muhim sanaladi. Ushbu talab ularda pedagogik vazifalarni samarali bajarilishini ta'minlovchi tolerantlik kompetentsiyalari hamda kirishimlilik, refleksiya va empatiya kabi shaxs sifatlarini o'zida mujassamlashtirganini nazarda tutadi. Shu bois tadqiqotimizda Ishbilarmonlik o'yinlaridan bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun foydalanildi.

Bo'lajak pedagogning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda ishbilarmonlik o'yinlariga katta e'tibor qaratiladi. O'yin stereotip va shablonlardan xalos bo'lishga imkon berdi, bu ayniqsa, talabalarda

zamonaviy sharoitlarda ijodiy uslubning tarkibiy qismi sifatida raqamli texnologiyalarga munosabatni rivojlantirish nuqtai nazaridan muhimdir. Ishbilarmonlik o‘yinlari kognitiv faoliyatga asoslangan, kommunikativ tavsifdagi muammoli vaziyatlar zanjiri sifatida qurilganligi sababli, u ijodiy faoliyatning psixologik ekvivalenti bo‘lib xizmat qiladi va shu bilan birga, bunday faoliyat tajribasini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, o‘yin davomida biz jamoaviy – samarali hamkorlik qilish, bahslashish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, boshqalarni rad etish va bahslashish qobiliyatlarini rivojlantirdik. Pedagogik ishbilarmonlik o‘yinlari sun’iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarda haqiqiy jarayon, uning aloqalari yoki alohida elementlarini takrorlaydigan o‘qituvchi va talaba faoliyatining modelini o‘zida aks etadi. “Tolerantlik pedagogikasi” elektr kursida foydalanadigan ishbilarmonlik o‘yiniga “Inklyuziv tolerantlik” mavzusidagi o‘yinni misol qilib keltirish mumkin. O‘yinni qo‘llash talabalarning tolerantlik kompetensiyalarini komponentini takomillashtirishga yordam berdi. Bu mustaqillik, ijodkorlikning namoyon bo‘lishi, muammolarni hal qilishning nostandart variantlarini izlash, tanqidiylik, boshqalarda mavjud ijtimoiy muammolar mohiyatini anglash kabi sifatlarning namoyon bo‘lishida aks etdi.

Rolli o‘yin. “Inklyuziv tolerantlik”.

Davomiyligi: 10 daqiqa.

Guruh ishtirokchilari 4 guruhga bo‘linadi. O‘yin uchun yo‘naltiruvchi ma’lumotlar va savollar ekranda namoyish etiladi.

Yo‘riqnoma: 4 ta maqsadli guruh masalasi muhokama qilinishi lozim.

1-guruh: alohida yordamga muhtoj insonlar;

2-guruh: ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar;

3-guruh: migrantlar;

4-guruh: keksalar.

Trener ishtirokchilarga yuzlanib “Sizlarning vazifangiz har bir guruh o‘z ishida maqsadli guruhdan kelib chiqqan holda quyidagi savollar bo‘yicha fikr yuritib, ularni flipchartda aks ettirishingiz lozim” deb murojaat etadi:

- Jamiyat bu insonlarni qanday qabul qiladi?
- Ularga nisbatan qanday munosabatda bo‘ladilar?
- Jamiyatda bunday insonlarning xulq-atvoriga qanday munosabatda bo‘ladilar?
- Bunday insonlar jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladilarmi?
- Jamiyat bunday insonlarga qurbonlar yoki agressor sifatida munosabatda bo‘ladimi?
- Bunday insonlar o‘z oilalari, farzandlari bilan munosabatlarida qanday muammolarga duch keladilar?
- Jamoatchilik bunday insonlarga nisbatan jamiyatga salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan shaxs sifatida qaraydimi?

Guruh muhokamasidan so‘ng har bir guruh o‘z ishi natijalarining taqdimotini qiladi. Taqdimot davomida trener guruhning belgilangan savollariga atroflicha javob berganliklariga e’tibor qaratishi lozim. Agarda guruh javoblari to‘liq bo‘lmasa, trener ishtirokchilarning qo‘shimcha taklif va javoblarini so‘rab, flipchartga boshqa holatlarni ham qo‘shib ro‘yxatni to‘ldirishlarini so‘raydi. Bunda trener bildirilayotgan qo‘shimcha takliflarni shu guruh ishlagan flipchartga yozib boradi. Ishtirokchilarning o‘z taqdimotiga ijodiy yondashishlari ma’qullanadi.

So‘ngra guruh ishtirokchilariga “tasavvur qiling, sizga umringizni so‘nggi soati qolganligi to‘g‘risida xabar berildi”, deb endi yuqoridagi sotsial guruh vakillari roliga o‘zlari kirishi aytiladi. Mazkur rolga kirishgan holda, yuqoridagi savollarni muhokama qilishlari kerak bo‘ladi. Endi ishtirokchilar guruh muhokamasidan so‘ng muayyan bir rolda o‘z ishi natijalarining taqdimotini qiladi,. Taqdimot davomida trener guruhning belgilangan savollariga atroflicha javob berganliklariga e’tibor qaratishi lozim. Rolga kirishish natijasida talabalar yuqoridagi guruh vakillarini jamiyatga integratsiyasida qanday muammolarga duch kelishini o‘zlari shu rolda ekanliklarida his qiladilar. O‘yindan maqsad talabalarda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish orqali jamiyatning ma’lum qatlamlarining ijtimoiy hayotga integratsiya, inklyuziya va adaptatsiyasidagi muammolariga

jamiyatdagi sotsial munosabatlar hamda stereotiplar to‘sqinlik qilishini tushuntirishdan iborat.

O‘yin yakunida ishtirokchilarga bir daqiqa sukut saqlab, bo‘lib o‘tgan jarayonga o‘z shaxsiy munosabatlarini o‘ylab olishlariga imkon beriladi. So‘ngra ishtirokchilarning barchasiga o‘zlaridan rollarini olib tashlashlari taklif etiladi. Buning uchun har kim “Men kimgadir muhtoj emasman, men sog‘lom va hayotda ...larga erishgan Nodiraman” qabilida o‘z yutuqlari va ismini aytib, rollarni yechishlari lozim. So‘ngra ishtirokchilar muhokamaga jalb etiladi. Bunda quyidagi savollar bo‘yicha ishtirokchilarga murojaat etiladi:

- rol ijrosida o‘zingizni qanday his qildingiz?
- nima uchun bunday insonlar o‘zlarini har doim siz ta’riflaganingizdek his qiladilar?
- bunga kim yoki nima sababchi?
- kimdadir salbiy his-tuyg‘ular saqlanib qolmadimi? Nima uchun?
- sotsiologik, pedagogik, psixologik nuqtai nazaridan bunday holatga qanday munosabatda bo‘lishingiz lozim?
- hakam rolida kimlarni tasavvur qildingiz?
- hakamlarga taqdim etilgan ma’lumotlar haqqoniyligiga erishish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?

Trenerga eslatma: albatta, har bir ishtirokchiga mazkur o‘yinni o‘tkazayotganda quyidagilarga rioya qilish va e’tibor berish kerakligini unutmang:

- ishtirokchilarning o‘yin davomidagi va o‘yindan so‘nggi his-tuyg‘ularini boshqarishining muhimligini;
- o‘yin so‘ngida o‘zlaridan rollarni yechishni;
- faol tarzda fikrlarini bildirishga undashni;
- barcha holatni muhokama qilish juda muhimligini;
- trener o‘z vaqtida ishtirokchilar tomonidan trening qoidalarini buzayotgan holatlariga aralashib to‘xtatishi lozim.

Inklyuziv tolerantlik – antidiskriminatsion rolli o‘yin. Bu o‘yin bo‘lajak pedagoglarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni oshiradi, shuningdek, etik-professional qadriyatlarni shakllantiradi. Bu kompetentsiyalar

esa, bo‘lajak pedagog kasbiy faoliyatining, ajralmas qismi hisoblanadi. Bo‘lajak pedagog rolli pozitsiyada ijtimoiy muammoli insonlarning rolida o‘zlari ularning nimalarni his qilishlari hamda jamiyatning ularga nisbatan munosabatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri his qiladilar. Bu usul bo‘lajak pedagoglarda o‘z xulq-atvorini, his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarni tushuna olish hamda muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ma’lumki, kichik guruhlardan tortib butun jamiyatgacha bo‘lgan alohida shaxslar ham, ijtimoiy jamoalar ham o‘zlarining va atrofdagi voqelikning yaxlitligini qo‘lga kiritish va his qilish yo‘llariga ehtiyoj sezadilar. Ko‘pgina zamonaviy tadqiqotchilar ijtimoiy makon va vaqtda shaxs va guruh uchun mavjudlikning tashqi tomonidan emas, balki ichki qabul qilingan ma’nolarini topish, haqiqiy muloqot qiymatini qayta tiklash, samarasiz muloqotni konstruktivga aylantirish muhimligini ta’kidlaydilar. Aloqa buzilishi natijasida o‘zaro tushunmovchilik va rad etishning kuchayishi fonida umidsizlik, manipulyatsiya va qo‘rquv tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy nizolarni bartaraf etishning samarali usullarini izlash davom etmoqda. Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarining muhim komponenti hisoblangan kommunikativ ko‘nikmalar ham ishbilarmonlik o‘yinlarini tashkillash orqali muvaffaqiyatli shakllanadi.

Ishbilarmonlik o‘yinlarining yana bir turi sotsiodrama zamonaviy kommunikativ muammolarni hamda konfliktlarni bartaraf etishning samarali usuli hisoblanadi. Sotsiodramatik harakat jarayonida shaxs va guruh atrofdagi voqelikning yaxlit ko‘rinishini oladi, o‘z shaxsini topadi, muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun yetishmayotgan ijtimoiy rollarni aniqlaydi va rollar xilma-xilligini uyg‘unlashtiradi, o‘z rollarini va, demak, ularning faoliyati va mavjudligi shaxsiy ma’nosini beradi. Sotsiodramatik modellashtirish jarayoni ijtimoiy muloqotning mazmuni, sohasi va jarayoni kabi muhim jihatlarini ochib beradi. Bu esa, bo‘lajak pedagogga ijtimoiy muloqotni o‘zgartirish yo‘nalishi va usullarini aniqlash imkonini beradi.

Sotsiodrama chuqur insonparvarlik va haqiqatga asoslangan bo‘lib, u shaxs va guruh bilan sodir bo‘layotgan voqealarning asl

mohiyatini aks ettiradi, individual xususiyatlarning ulkan qiymatini, shaxsning eksklyuzivligi va yaxlitligini ko‘rsatadi va shu bilan birga, zarurat, ahamiyatlilikni ko‘rsatadi. Barkamol qo‘shma faoliyatni targ‘ib qilish, ijtimoiy hamjamiyatga kiradigan shaxslar bilan samarali muloqot qilish, ijtimoiy yaxlitlik va ijtimoiy mazmunni ta’kidlaydi. Ijtimoiy muloqotni o‘zgartirish mexanizmlari sotsiodramada sodir bo‘layotgan harakatning haqiqiyligini qayd etish, sodir bo‘layotgan narsalarni tashqaridan yuklanganidek emas, balki shaxsan mazmunli deb qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxsning zamonaviy ehtiyojlariga mos keladi va bu muhim. Sotsiodrama ishtirokchilarga ijtimoiy muloqotni o‘zgartirish zaruratining hozirgi voqeligini his qilish, ijtimoiy muloqotni o‘zgartirishning mos, eng maqbul yo‘nalishlari va usullarini tanlash hamda shu bilan o‘z faoliyati va qilgan tanlovi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish imkonini beradi.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar ta’siri ostida shaxslararo va guruhlararo munosabatlardagi ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida sotsiodrammaning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi psixodrammaning rivojlanishi jarayonida, shaxsning ichki va shaxslararo darajasida shaxsni shakllantirish bo‘yicha ishdan sotsiodrammaning aloqani o‘zgartirish usuli sifatida rivojlanishigacha bo‘lgan yo‘lda sodir bo‘ldi.

Sotsiodrammada ijtimoiy muloqotni o‘zgartirish mexanizmi J.Moreno tomonidan aniqlangan kategoriyalarga asoslanadi: «spontanlik» – iroda erkinligi, namoyon bo‘lish va o‘zgarish erkinligi, hayot energiyasi, «lahza» – erkinlik mavjud bo‘lgan vaqtning ma’lum bir nuqtasi, ijodkorlik va yaratuvchanlik, yangi narsa yaratilganda va noyob bo‘lganda, stixiyalilik adekvat shaklga ega bo‘lib, ijodkorlikni yuzaga keltirganda namoyon bo‘ladi.

Sotsiodrammaga xos xususiyatlar quyidagilar:

- “senariyning yetishmasligi, majburiy rollar;
- harakatga ta’sir ko‘rsatadigan rejissyor yo‘q, faqat vaziyatning to‘liq rivojlanishiga yordam beradigan sotsiodramasist;
- rollar rivojlanadi, o‘zaro ta’sir qiladi va ko‘proq nazorat qilinadi;

- rollar aniq ijrochilarga belgilanmagan. Aktyorlar qanday rol o'ynashlarini o'zlari belgilaydilar;
- har doim ikki yoki undan ortiq qahramonlar mavjud;
- haqiqiy aniqlikka intilmaydi. Har bir ishtirokchi, agar unga og'riq keltirsa, harakatni rivojlantirishni to'xtatishni talab qilishi mumkin;
- neytral, hech qanday tashkilot yoki guruhni qo'llab-quvvatlamaydi;
- moderator har bir guruh a'zosining rolini to'liqroq ochib berish uchun o'yinni qo'zg'atishga haqli kabilar".

Individual darajada sotsiodramma rollar repertuarini kengaytirish, yanada samaraliroq rollarni topish va ulardan foydalanishni mashq qilish bo'yicha ishlarni kuchaytiradi. Bizning zamonamizdagi ko'plab aloqa muammolarining sabablarini aniqlash mumkin bo'lgan toifalash darajasida, masalan, millatlararo nizolar muammosi yoki noto'g'ri qarashlar va kamsitishlarning mavjudligi, ijtimoiy vaziyat va teskari jarayonning yaxlit va tuzilgan ko'rinishi, ya'ni empirik darajadagi belgilar va ma'nolarning adekvat bog'lanishiga asoslangan chuqurroq o'zaro tushunishga erishish, ijtimoiy-dramatik ishning vazifasi ham toifalarga ajratish jarayonini optimallashtirish sanaladi. Aslida, ijtimoiy toifalash jarayonlarini moslashtirish zarurati asosan tushunmovchiliklar, rad etish, qo'rquv va nizolarni bartaraf etish uchun ma'lum bir ijtimoiy toifani adekvat idrok etish vazifalari bilan belgilanishi mumkin.

Sotsiodramma – bu talabalar ijtimoiy muammoni hal qilishda ishtirok etadigan rolli o'yin turi bo'lib, u ochiq-oydin hikoya shaklida bo'lib, bitta aniq, osongina aniqlash mumkin bo'lgan ziddiyatni o'z ichiga oladi. Mashg'ulotda sotsiodrammadan foydalanish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- fikrlarni jamlash (o'qituvchi sotsiodramatik mavzuni taqdim etadi va talabalarning qiziqishini uyg'otadi). Ushbu bosqich suhbat, aqliy hujum va boshqa usullar orqali amalga oshirilishi mumkin;

- vaziyatni takrorlash uchun zarur bo‘lgan yangi lug‘atning taqdimoti;
- dilemmaning taqdimoti (hikoya muammo va kulminatsiyani o‘z ichiga olishi va dilemmada to‘xtashi kerak);
- vaziyatni muhokama qilish va rollarni tanlash;
- auditoriyani (guruhlarni) tayyorlash. Talabalarga aniq topshiriqlar beriladi: ulardan nima uchun muammo hal qilingan (yoki hal qilinmagan) so‘ralishi mumkin;
- vaziyatga birinchi yechim orqali o‘ynash;
- vaziyatni muhokama qilish va voqealarning teskari rivojlanishi uchun yangi ishtirokchilarni tanlash;
- talabalar yangi strategiyalardan foydalanadigan vaziyatning ikkinchi yechimini o‘ynash;
- xulosa qilish (o‘qituvchi talabalarga taqdim etilgan ma’lumotlarni umumlashtirishga yordam beradi va muammolar va taklif qilingan yechimlar bo‘yicha yakuniy sharhlar bor-yo‘qligini so‘raydi).

Sotsiodramma asosiy e’tiborni guruh vazifalariga qaratadi va ishning aniq maqsadlari guruh diagnostikasi, kognitiv tushuncha orqali ijtimoiy xabardorlik, ijtimoiy-madaniy hamjamiyatga ega bo‘lgan guruh yoki shaxsni aniqlash, o‘z o‘rnini topish va boshqalar sifatida taqdim etilishi mumkin. Guruhdagi rol repertuaridan xabardorlik, guruhni yaxlit va tarkibiy idrok etish, guruh maqsad va me’yorlarini ishlab chiqish va anglash, guruhning tashqi muhitdagi o‘rni, shaxslararo, guruh ichidagi va guruhlararo munosabatlar, idrok etishning adekvatligi, guruh dinamikasi, shaxslararo va guruh rivojlanishi va o‘zgarishlari, guruhning rol tuzilishi, rasmiy-norasmiy yetakchilik, ijtimoiy rollar va tarmoqlar (rasmiy va norasmiy), aloqa tarmoqlari, ta’sir doiralari kabilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ishbilarmonlik o‘yinlari orqali ma’lum kasbiy faoliyat jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalar ya’ni kasbiy kompetensiyalarni yuqori darajada qo‘llay olishga imkoniyat yaratiladi. Ishbilarmonlik o‘yinlari orqali bo‘lajak muta-

xasis kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda ma'lum ijtimoiy muammoga ega, maxsus xulq-atvorga ega kishilar bilan muloqotga kirishishi, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakasi, boshqarish, rahbarlik qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ya'ni ishbilarmonlik o'yinlari kasbiy mahoratni rivojlantiribgina qolmay, u shaxsiy sifatlarni ham shakllantirib, ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi. Bo'lajak pedagog mutaxassisning ijodiy tashabbusini namoyon etish, aqliy va hissiy jihatdan erkinlashishi ishbilarmonlik o'yinlari orqali kasbiy faoliyati shaklida namoyon bo'ladi.

3.3-§. Raqamli platforma orqali bo'lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti

Bugungi kunda raqamli transformatsiya ko'plab sohalarda chuqur o'zgarishlarga sabab bo'layotgan eng dolzarb jarayonlardan biri sanaladi. Texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda har qanday sohada raqobatbardoshlikni ta'minlash zamonaviy raqamli yechimlar, innovatsion platformalar hamda ilg'or axborot texnologiyalarini samarali joriy etish bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, turli sohalar o'rtasida integratsiyani kuchaytirish hamda mavjud infratuzilmani samarali tarzda takomillashtirish zaruriyati ortib bormoqda. Albatta, bu jarayonlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, oliy pedagogik ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi global raqamlashtirish sharoitida har bir sohada ishlash uchun zaruriy mezonlardan biri – insonning raqamli-tolerantlik kompetensiyalarga ega bo'lishidir. Bu esa zamonaviy mehnat bozorining asosiy talabi va sharti sifatida namoyon bo'ladi.

O'quv kurslarining vizual, audial va interfaol multimedia materiallari bilan ta'minlanishi bilimlarni multimodal qabul qilish imkoniyatini yaratadi va bu orqali ta'limning jozibadorligi va qamrov ko'lamini oshirish mumkin.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli transformatsiyaning imkoniyatlaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, pedagogik fanlar mustahkam va chuqur o‘rganilmagan taqdirda, raqobatbardosh va samarali natijalarga erishish ancha mushkul bo‘ladi. Shu bois, pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayonini raqamli texnologiyalarga tayangan ta’lim vositalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda moslashtirilgan o‘quv dasturlari bilan ta’minlash dolzarb ehtiyojga aylanmoqda. Bunday jarayon professor-o‘qituvchilarning kasbiy-innovatsion salohiyatini oshirishni, shuningdek, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha milliy va xalqaro talablarni o‘zaro uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

Kelajak pedagoglarini tayyorlashda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish esa, hozirgi davr uchun ustuvor strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Pedagogik faoliyat imiji va ta’lim metodologiyalari jadal yangilanayotgan sharoitda raqamli kompetensiyalarni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish hamda doimiy takomillashtirib borish zarurati yanada ortib bormoqda. Mazkur innovatsion faoliyat poydevori raqamli muhitdagi tezkor o‘zgarishlarga javoban shakllanib, bitiruvchilarning zamonaviy mehnat bozori va raqamli avlod ehtiyojlarini qondirishni ta’minlash tashkil etadi.

Raqamli transformatsiya nafaqat ta’lim texnologiyalarini, balki o‘qitishga doir yondashuvlar va ta’lim metodikasini ham qayta belgilashni talab qilmoqda. Shu boisdan, zamonaviy dunyo talablariga moslashgan raqamli-tolerant kompetentlikka ega pedagoglarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quv metodikalarini yangicha mazmunda qayta tashkil etish, interfaol va innovatsion ta’lim usullarini keng tatbiq etishni hamda pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarini ilmiy-ijodiy izlanishlar va ilg‘or tajribalar markaziga aylantirishni talab etadi.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida qo‘llanilishi talabalarda raqamli-tolerantlik kompetensiyalarining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Ularning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashti-

rishda raqamli-tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, raqamli vositalar yordamida pedagog o'zining ba'zi funksiyalarini texnologiyaga topshirib, mashg'ulot jarayonining dinamizmi va interfaolligini ta'minlaydi. Bu esa, zamonaviy ta'limning tezkor, sifatli va moslashuvchan modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

2017-yilda G20 sammiti doirasida ishlab chiqilgan konsepsiyaga asoslanib, raqamli-tolerantlik kompetensiyalarni beshta asosiy yo'nalishga ajratish mumkin:

1. Raqamli axborot bilan ishlash – bu foydalanuvchining yangi ma'lumotlarni topish, yaratish, qayta ishlash, tahlil qilish va integratsiyalash qobiliyatini anglatadi.
2. Kompyuter texnikasidan foydalanish – texnik vositalarning asosiy tuzilmasini tushunish, dasturiy ta'minot bilan ishlash va texnik funksiyalarni bajarish bo'yicha zaruriy bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.
3. Media savodxonlik – turli formatdagi ommaviy axborot vositalarini (matn, audio, video, grafik va boshqalar) tahlil qilish, baholash va ularning asosida yangi kontent yaratish qobiliyatini qamrab oladi.
4. Raqamli kommunikatsiya – talabalarning ijtimoiy tarmoqlar hamda turli raqamli platformalar orqali muloqot olib borishi, axborot almashinuvida faol ishtirok etishi va jamoaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini qamrab oladi.
5. Texnologik yangiliklardan foydalanish esa, zamonaviy gadjetlar, mobil ilovalar va dasturiy vositalarni kundalik hamda o'quv faoliyatida maqsadga muvofiq va foydali tarzda qo'llay olishni anglatadi.

Shu bilan birga, talabalarning raqamli-tolerantlik kompetensiyalari quyidagi asosiy amaliy salohiyatlar majmuyi orqali namoyon bo'ladi: axborotga doir vazifalarni aniq belgilay olish va ularni maqsadli hal etish; raqamli texnologiyalar yordamida kerakli ma'lumot-


larni izlab topish va ulardan oqilona foydalanish; raqamli axborotni tahliliy va tanqidiy baholash; shuningdek, axborotga tayangan holda asosli qarorlar qabul qilishda texnologik vositalardan ongli foydalanish qobiliyatini shakllantirish.

Pedagogik ta'limda raqamli-tolerantlik kompetensiyalarni rivojlantirish o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi bir qator muhim tarkibiy qismlarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Raqamli vositalardan foydalanish. Talabalarning grafik dizayn, raqamli tasvir yaratish, 3D-modellashtirish kabi zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim olishi ularning estetik tafakkurini, vizual fikrlashini hamda texnologik dunyoqarashini izchil rivojlantiradi. Shu bilan birga, mazkur faoliyat yo'nalishi individual ijodkorlik salohiyatining ochilishiga, talabalarning mustaqil va innovatsion yechimlar ishlab chiqishiga zamin yaratadi. Raqamli vositalar bilan uzviy bog'langan bunday ta'lim jarayoni ularni amaliy va kreativ faoliyatga faol jalb etadi.
2. Ijodiy hamkorlik va interfaollik. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv muhiti talabalarni interfaol hamkorlikka yo'naltirib, onlayn platformalar orqali jamoaviy loyihalar ishlab chiqish, g'oyalar almashinuvi va birgalikdagi ijodiy faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday muhit talabalarda muloqot madaniyati, jamoada ishlash va mas'uliyatni bo'lishish kabi muhim kasbiy sifatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv nafaqat texnologik savodxonlikni, balki kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.
3. Masofaviy ta'lim va o'quv resurslariga kirish: Zoom, Google Classroom kabi virtual platformalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi masofaviy o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu vositalar nafaqat kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, balki talabalarni global ta'lim muhiti ishtirokchisiga aylantirib, ularning keng ijtimoiy va madaniy kontekstda muloqot qilishiga sharoit yaratadi.

4. Kontekstual va madaniy muvofiqlik: raqamli vositalar milliy va xalqaro madaniy merosni o‘rganishda ham qo‘llaniladi. Masalan, virtual muzey sayohatlari orqali tarixiy va madaniy asarlarni ko‘rish imkoniyati yaratiladi.
5. Barqaror tolerant yondashuv va raqamli savodxonlik. Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida raqamli-tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali talabalar zamonaviy texnologiyalardan ongli, mas’uliyatli hamda samarali foydalanishga tizimli ravishda yo‘naltiriladi. Bu jarayon nafaqat ularning ijodiy salohiyatini faollashtiradi, balki ularni axborot xavfsizligi, mualliflik huquqlari va raqamli etikaga rioya qiluvchi mas’uliyatli foydalanuvchilar sifatida rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatda bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot va fuqarolik ta’limini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda raqamli ta’lim platformalari tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish va ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishning muhim pedagogik vositasiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, **tolerance.uz** raqamli platformasi (https://tolerance.uz/) jamiyatda tolerantlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks axborot-ta’limiy muhit sifatida ishlab chiqilgan (3.3.1-rasmga qarang). Mazkur platforma o‘quvchilar, talabalar, pedagoglar, yoshlar yetakchilari hamda keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyatda millatlararo, madaniyatlararo va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash, tolerant tafakkurni rivojlantirish hamda ijtimoiy faollikni oshirishdan iboratdir.



3.3.1-rasm. Tolerance.uz raqamli platformasining umumiy ko'rinishi

Platformaning mazmuniy va funksional tuzilmasi o'zaro uzviy bog'langan besh asosiy menyu orqali amalga oshiriladi: "Tolerantlik nima?", "Madaniyatlararo muloqot", "Ta'limiy resurslar", "Yoshlar maydoni" va "Yangiliklar va tashabbuslar".

1. "Tolerantlik nima?" menyusi platformaning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. Unda tolerantlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy, madaniy, diniy va fuqarolik jihatlari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, inson huquqlari, fuqarolik totuvligi va bag'rikenglikni ta'minlashga doir normativ-huquqiy hujjatlar haqida ma'lumotlar berilgan.

2. "Madaniyatlararo muloqot" menyusi jamiyatda turli millat, elat va madaniyat vakillari o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, mamlakatimizdagi milliy-madaniy xilma-xillik, an'analar, urf-odatlar va dinlararo totuvlik masalalari yoritilgan. Natijada foydalanuvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi va tolerant xulq-atvor shakllanadi.

3. "Ta'limiy resurslar" menyusi ta'lim jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan didaktik va metodik materiallarni o'z ichiga oladi. Unda pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar, dars ishlanmalari, interfaol testlar, ilmiy maqolalar va ta'limiy resurslar joylashtirilgan. Mazkur bo'lim tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli ta'lim resurslari bazasi sifatida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

4. "Yoshlar maydoni" menyusi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni fuqarolik mas'uliyatiga undashga yo'naltirilgan. Unda yoshlar bloglari, forumlar, munozaralar, volontyorlik loyihalari va ijtimoiy tashabbuslar jamlangan. Ushbu bo'lim orqali yoshlar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, tolerantlik g'oyalarini targ'ib qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

5. "Yangiliklar va tashabbuslar" menyusida tolerantlik va madaniyatlararo muloqotga oid dolzarb voqealar, tadbirlar, ijtimoiy loyihalar va xalqaro hamkorlik yangiliklarini yoritishga xizmat qiladi. Bu bo'lim platformaning real ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini ta'min-

lab, foydalanuvchilarda bag‘rikenglik g‘oyalarining amaliy ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Tolerance.uz platformasi (https://tolerance.uz/) pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, raqamli ta’lim muhitida tolerantlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ vosita hisoblanadi. Platforma ta’lim va tarbiya jarayonlarini uyg‘unlashtirgan holda, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, madaniy sezgirlik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tolerance.uz platformasi asosida “Kelajak soatlari”da tashkil etilgan mashg‘ulotlarning namunalarini quyida keltirib o‘tamiz.

MAVZU:	**TOLERANTLIK – JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI**		
	Mashg‘ulotni tashkil etish texnologiyasi		
Maqsad	***Ta’limiy:*** *talabalarga tolerantlik fenomeni va uning jamiyatdagi ahamiyati haqida bilim berish.* ***Tarbiyaviy:*** *talabalarda bag‘rikenglik, hurmat va hamjihatlik tuyg‘ularini shakllantirish.* ***Rivojlantiruvchi:*** *talabalarning muloqot, muammoli vaziyatlarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.*		
Mashg‘ulot turi (shakli)	Nazariy va interfaol		
Mashg‘ulot rejasi	1. Tolerantlik tushunchasi. 2. Bag‘rikenglik va hurmat tushunchalari. 3. Tolerantlikning jamiyatdagi ahamiyati. 4. Tolerant insonning xususiyatlari.		
Egallanadigan bilim va ko‘nikmalar	• tolerantlik tushunchasining mazmunini tushunib oladi; • turli madaniyat va millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantiradi; • jamiyatda bag‘rikenglikning ahamiyatini anglaydi; • tolerant insonga xos sifatlar va ularga xos xususiyatlarni tahlil qiladi va baholaydi.		
Tayanch so‘zlar va iboralar	Tolerantlik, bag‘rikenglik, hurmat, madaniyatlararo muloqot, hamjihatlik		
O‘qitish shakllari	Aralash, guruh va individual ishlash		
O‘qitish metodi va texnologiyalari	Aqliy hujum, guruh bilan ishlash, rolli o‘yin, munozara		
O‘qitish vositalari	Multimedia taqdimot, videoroliklar, rasmlar, tarqatma materiallar, interfaol testlar		
AKT va interfaol vositalar	• kompyuter; • elektron doska; • smart doska.	○ proyektor; ○ televizor; ○ planshet; ○ mobil qurilma.	1. ww.tolerance.org 2. www.unesco.org 3. www.ziyonet.uz
Adabiyotlar va internet resurslari	1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2017. 2. B. Nazarov. Millatlararo munosabatlar madaniyati. – Toshkent, 2015. 3. www.ziyonet.uz 4. www.unesco.org		

MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK ARXITEKTONIKASI

1. Kirish qismi (Motivatsion bosqich).

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

- Insonlar nima uchun bir-biridan farq qiladi?
- Turli millat yoki madaniyat vakillariga qanday munosabatda bo'lish kerak?

So'ng o'qituvchi tushuntiradi:

Tolerantlik – bu boshqalarning fikri, dini, madaniyati va urf-odatlariga hurmat bilan qarashdir.

2. Asosiy qism.

1-topshiriq. Aqliy hujum.

Doskaga **"Tolerantlik"** so'zi yoziladi.

Talabalar quyidagi tushunchalarni aytadi:

- hurmat;
- bag'rikenglik;
- do'stlik;
- hamkorlik;
- tinchlik.

O'qituvchi bu fikrlarni klaster shaklida yozib boradi.

3. Tarqatma materiallar:

1-tarqatma (Tolerantlik haqida qisqa matn).

Tolerantlik jamiyatdagi turli madaniyat, din va millat vakillarining o'zaro hurmat asosida yashashini anglatadi. Tolerant jamiyatda insonlarning huquqlari hurmat qilinadi, turli fikrlar qabul qilinadi va nizolar muloqot orqali hal etiladi.

2-tarqatma (Guruh topshirig'i). Talabalar 3 guruhga bo'linadi.

1-guruh uchun savol. Tolerant jamiyat qanday bo'ladi?

2-guruh uchun savol. Tolerantlik bo'lmagan jamiyatda qanday muammolar paydo bo'ladi?

3-guruh uchun savol. Maktabda tolerantlikni rivojlantirish uchun nimalar qilish mumkin?

Har bir guruh poster tayyorlaydi.

4. Vaziyatli topshiriqlar.

1-vaziyat. Ikki talaba turli millat vakili bo‘lgani uchun bir-biri bilan kelisha olmayapti.

Savol: Bu vaziyatni qanday hal qilish mumkin?

2-vaziyat. Guruh ishida talabalar bir-birining fikrini tinglamayapti.

Savol: Bu muammoni qanday hal qilish mumkin?

3-vaziyat. Sinfga yangi talaba boshqa madaniyatdan kelgan.

Savol: Sinf talabalari unga qanday yordam berishi kerak?

5. Mustahkamlash uchun savollar:

- Tolerantlik nima?
- Tolerant inson qanday xususiyatlarga ega?
- Nima uchun jamiyatda tolerantlik muhim?

6. Baholash varaqasi

Talaba	Faollik	Guruh ishi	Fikr bildirishi	Umumiy
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				

7. Refleksiya.

Talabalardan quyidagi gapni davom ettirish so‘raladi:

- Bugungi mashg‘ulotdan men shuni tushundimki…
- Endi men boshqalarga … munosabatda bo‘laman.

8. Uyga vazifa.

1. “Tolerantlik – tinchlik asosi” mavzusida kichik esse yozish.
2. Tolerantlikka oid hayotiy misollar asosida keyslar tuzish.

MAVZU:	MILLATLARARO TOTUVLIK VA MADANIYATLARARO HURMAT		
Mashg'ulotni tashkil etish texnologiyasi			
Maqsad	Talabalarga tolerantlik tushunchasi, uning mazmuni va jamiyatdagi ahamiyati haqida bilim berish		
Mahg'ulot turi (shakli)	Nazariy va interfaol		
Mashg'ulot rejasi	1. Tolerantlik tushunchasi 2. Bag'rikenglik va hurmat tushunchalari 3. Tolerantlikning jamiyatdagi ahamiyati 4. Tolerant insonning xususiyatlari		
Egallanadigan bilim va ko'nikmalar	• Tolerantlikning mazmun-mohiyatini anglaydi; • Turli madaniyat va millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish istagi namoyon bo'ladi; • Jamiyat uchun bag'rikenglikning ahamiyatini anglaydi; • Tolerant insonga xos madaniy jihatlarni tahlil qiladi va baholaydi.		
Tayanch so'zlar va iboralar	Tolerantlik, bag'rikenglik, hurmat, madaniyatlararo muloqot, hamjihatlik		
O'qitish shakllari	Aralash, guruhiy va individual ishlash		
O'qitish metodi va texnologiyalari	"Aqliy hujum", "SWOT-tahlil", rolli o'yin metodi		
O'qitish vositalari	Multimedia taqdimot, videoroliklar, rasmlar, tarqatma materiallar, interfaol testlar		
AKT va interfaol vositalar	• kompyuter; • elektron doska; • smart doska.	○ proyektor; ○ televizor; ○ planshet; ○ mobil qurilma.	1. ww.tolerance.org 2. www.unesco.org 3. www.ziyonet.uz
Adabiyotlar va internet resurslari	1. B. X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Sano-Standart", 2017. 2. B. Nazarov. Millatlararo munosabatlar madaniyati. – Toshkent, 2015. 3. www.ziyonet.uz. 4. www.unesco.org		

MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK ARXITEKTONIKASI

I. Tashkiliy qism (motivatsion bosqich).

Mashg'ulot boshida sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish maqsadida quyidagi savol beriladi:

Savol: Sizningcha, insonlar bir-biriga qanday munosabatda bo'lishi kerak?

Talabalar o'z fikrlarini bildirishadi. Bu jarayon mashg'ulotga qiziqishni oshiradi.

II. Takrorlash.

O‘tgan mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkaziladi:

1. Tolerantlik tushunchasi nimani anglatadi?
2. Tolerant inson qanday fazilatlarga ega bo‘ladi?
3. Jamiyatda bag‘rikenglik nima uchun muhim?

Talabalarning javoblari tinglanadi va faol qatnashgan talabalar rag‘batlantiriladi.

III. Faollashtirish.

O‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi.

Mavzu: “Millatlararo totuvlik va madaniyatlararo hurmat”

Talabalarga turli millat va madaniyatlar aks etgan rasmlar namoyish qilinadi. So‘ng quyidagi savollar beriladi:

1. Nima uchun turli millatlar birgalikda yashaydi?
2. Turli madaniyat vakillariga qanday munosabatda bo‘lish kerak?
3. Agar odamlar bir-birini hurmat qilmasa, nima sodir bo‘lishi mumkin?

Talabalar o‘z fikrlarini bildirishadi.

IV. Mavzuni tushuntirish.

O‘qituvchi mavzu yuzasidan asosiy ma’lumotlarni tushuntiradi.

Millatlararo totuvlik – turli millat va madaniyat vakillarining o‘zaro hurmat va hamjihatlik asosida birgalikda yashashidir.

Madaniyatlararo hurmat – insonlarning boshqa xalqlarning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlarini tushunib, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishidir.

O‘qituvchi quyidagi misollarni keltiradi:

- O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi.
- Turli millatlar birgalikda ta’lim oladi va mehnat qiladi.
- Madaniyatlar xilma-xilligi jamiyatni boyitadi.

Talabalar muhim tushunchalarni daftarlariga yozib oladilar.

V. Mavzuni mustahkamlash.

Talabalar 3 ta guruhga bo‘linadi.

1-guruh topshirig‘i: Tolerant jamiyat qanday bo‘ladi?

2-guruh topshirig‘i: Millatlararo nizolar nima sababdan yuzaga keladi?

3-guruh topshirig'i: Maktabda tolerantlikni qanday rivojlantirish mumkin?

Guruhlar poster tayyorlaydi va o'z ishlarini taqdim etadi.

Vaziyatli topshiriq.

Sinfga boshqa millat vakili hisoblangan yangi o'quvchi keldi. Ayrim o'quvchilar uni tushunmaydi va u bilan muloqot qilishmaydi.



Savol:

Sinf o'quvchilarini bu vaziyatda qanday yo'l tutishga o'rgatish kerak? O'qituvchining potsiyasi qanday bo'lishi lozim?

Talabalar o'z fikrlarini bildirishadi.

VI. Baholash.

Talabalarning ishtiroki quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Mezoni	Tavsif
Faollik	Savollarga javob berish
Guruh ishi	Jamoaviy hamkorlik
Mustaqil fikr	O'z fikrini asoslab berish

VII. Mavzuni xulosalash.

Mashg'ulot yakunida o'qituvchi quyidagi xulosani aytadi: "Millatlararo hurmat va bag'rikenglik jamiyat tinchligi va barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi". Talabalar esa, o'z fikrlarini bildirishadi.

VIII. Uy vazifasi.

1. "Millatlar do'stligi" mavzusida raqamli platformalarga mo'ljallangan post yozish.
2. Turli millatlar madaniyati haqida videorolik tayyorlash.

IX. Refleksiya.

Talabalarga refleksiya kartochkalari tarqatiladi.

Talabalar quyidagi gaplarni davom ettiradilar:

1. Bugungi mashg'ulotda men ... ni o'rgandim.
2. Men uchun eng qiziqarli qism ... bo'ldi.
3. Kelajakda men ... ga hurmat bilan qarayman.

MAVZU:	KONFLIKTLARNI MUROSA ORQALI HAL QILISH
Mashg'ulotni olib borish texnologiyasi	
Maqsad	Talabalarning konflikt tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari hamda muammolarni tinch va madaniy yo'l bilan hal qilish usullari haqidagi bilimlarini mustahkamlash va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish
Mashg'ulot turi (shakli)	Nazariy va interfaol
Mashg'ulot rejasi	1. Konflikt tushunchasi. 2. Konfliktlarning kelib chiqish sabablari. 3. Konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish usullari. 4. Tolerant muloqot madaniyati.
Egallanadigan bilim va ko'nikmalar	• Konflikt tushunchasi haqida bilimga ega bo'ladi; • Konfliktlarning sabablarini tushunadi; • Muammolarni muloqot va hurmat orqali hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi; • Jamoada hamkorlikda ishlash malakasini shakllantiradi.
Tayanch so'zlar va iboralar	Konflikt, muloqot, kelishuv, hurmat, bag'rikenglik
O'qitish shakllari	Sinfda ishlash, guruh va individual ishlash
O'qitish metodi va texnologiyalari	"Aqliy hujum", "SWOT-tahlil", rolli o'yin metodi
O'qitish vositalari	Multimedia taqdimot, videoroliklar, rasmlar, tarqatma materiallar, interfaol testlar

AKT va interfaol vositalar	• kompyuter; • elektron doska; • smart doska.	○ proyektor; ○ televizor; ○ planshet.	1. ww.tolerance.org 2. www.unesco.org 3. www.ziyonet.uz
Adabiyotlar va internet resurslari	1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Sano-Standart", 2017. 2. B. Nazarov. Millatlararo munosabatlar madaniyati. – Toshkent, 2015. 3. www.ziyonet.uz 4. www.unesco.org		

MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK ARXITEKTONIKASI

I. Tashkiliy qism (motivatsion bosqich).

O'qituvchi auditoriyada ijobiy muhit yaratish maqsadida quyidagi savolni beradi:

Savol: agar ikki kishi o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelsa, uni qanday hal qilish mumkin?

Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.

II. Takrorlash.

O'tilgan mashg'ulot mavzusi bo'yicha blits-so'rov o'tkaziladi:

1. Millatlararo totuvlik nima?
2. Madaniyatlararo hurmat nimani anglatadi?
3. Jamiyatda tolerantlik nima uchun muhim?

Faol qatnashgan talabalar rag'batlantiriladi.

III. Faollashtirish.

O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi.

Mavzu: **"Konfliktlarni murosa orqali hal qilish".**

Talabalarga ikki inson o'rtasidagi bahsni aks ettirgan rasm yoki qisqa video namoyish etiladi.

Savollar:

1. Bu vaziyatda qanday muammo mavjud?
2. Bu muammoni qanday hal qilish mumkin?
3. Agar odamlar bir-birini tinglamasa nima sodir bo'ladi?

Talabalar o'z fikrlarini bildirishadi.

IV. Mavzuni tushuntirish.

O'qituvchi mavzu yuzasidan asosiy ma'lumotlarni tushuntiradi.

Konflikt – insonlar o‘rtasidagi kelishmovchilik yoki qarama-qarshi fikrlar natijasida yuzaga keladigan vaziyatdir.

Konfliktlarning sabablari:

- bir-birini tushunmaslik;
- hurmatsizlik;
- noto‘g‘ri muloqot;
- manfaatlar to‘qnashuvi.

Konfliktni hal qilish yo‘llari:

- muloqot qilish;
- bir-birini tinglash;
- murosaga kelish;
- hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

Talabalar muhim tushunchalarni daftarlariga yozib oladilar.

V. Mavzuni mustahkamlash.

Talabalar 3 ta guruhga bo‘linadi.

1-guruh topshirig‘i: Konfliktlar nima sababdan yuzaga keladi?

2-guruh topshirig‘i: Konfliktni tinch yo‘l bilan qanday hal qilish mumkin?

3-guruh topshirig‘i: Maktabda kelishmovchiliklarni qanday bartaraf etish mumkin?

Guruhlar poster tayyorlaydi va o‘z ishlarini taqdim etadi.

Vaziyatli topshiriq: ikki talaba guruh ishida bir-biri bilan kelisha olmayapti va bahs kelib chiqdi.



Savol: Ular bu vaziyatni qanday hal qilishlari mumkin?

Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.

VI. Baholash.

Talabalarning ishtiroki quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Mezoni	Tavsif
Faollik	Savollarga javob berish
Guruh ishi	Jamoaviy hamkorlik
Mustaqil fikr	O'z fikrini asoslab berish

VII. Mavzuni xulosalash.

O'qituvchi mashg'ulot yakunida quyidagi xulosani aytadi: "Konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish jamiyatda do'stlik, hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlaydi".

Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.

VIII. Uy vazifasi.

1. "Konfliktlarni qanday hal qilish mumkin?" mavzusida esse yozish.
2. Konfliktni murosa yo'li bilan hal qilishga mediativ-videorolik tayyorlash.

IX. Refleksiya.

Talabalarga refleksiya kartochkalari tarqatiladi.

Ular quyidagi gaplarni davom ettiradilar:

1. Bugungi mashg'ulotda men ... ni o'rgandim.
2. Men uchun eng qiziqarli qism ... bo'ldi.
3. Kelajakda men muammolarni ... orqali hal qilaman.

MAVZU:	RAQAMLI TOLERANTLIK
Mashg'ulotni olib borish texnologiyasi	
Maqsad	Talabalarning raqamli muhitda muloqot madaniyati, internetda o'zaro hurmat va bag'rikenglik tamoyillari hamda raqamli tolerantlikning ahamiyati haqidagi bilimlarini mustahkamlash va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish
Mashg'ulot turi (shakli)	Nazariy va interfaol

Mashg'ulot rejasi	1. Raqamli tolerantlik tushunchasi. 2. Internetda muloqot madaniyati. 3. Raqamli muhitda hurmat va bag'rikenglik. 4. Kiberbulling va uning oldini olish.		
Egallanadigan bilim va ko'nikmalar	• Raqamli tolerantlik tushunchasining mohiyatini anglaydi; • Internetda madaniyatli muloqot qilish ko'nikmalari rivojlanadi; • Raqamli muhitdagi salbiy holatlarni tushunadi va ulardan muhofazalanishni o'rganadi; • Kiberbullingning oldini olish usullarini bilib oladi.		
Tayanch so'zlar va iboralar	raqamli tolerantlik, internet madaniyati, kiberbulling, onlayn muloqot, hurmat		
O'qitish shakllari	Aralash, guruhiy va individual ishlash		
O'qitish metodi va texnologiyalari	"Aqliy hujum", "SWOT-tahlil", rolli o'yin metodi		
O'qitish vositalari	Multimediali taqdimot, videoroliklar, rasmlar, tarqatma materiallar, interfaol testlar		
AKT va interfaol vositalar	• kompyuter; • elektron doska; • smart doska	○ proektor; ○ televizor; ○ planshet; ○ mobil qurilma	1. ww.tolerance.org 2. www.unesco.org 3. www.ziyonet.uz
Adabiyotlar va internet resurslari	1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Sano-Standart", 2017. 2. B. Nazarov. Millatlararo munosabatlar madaniyati. – Toshkent, 2015. 3. www.ziyonet.uz 4. www.unesco.org		

MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK ARXITEKTONIKASI

I. Tashkiliy qism (motivatsion bosqich).

O'qituvchi mashg'ulot boshida auditoriyada ijobiy psixologik muhit yaratish maqsadida quyidagi savol beriladi:

Savol: Internetda odamlar bir-biriga qanday munosabatda bo'lishi kerak?

Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar. Ayrim talabalar internetda uchraydigan turli holatlar haqida misollar keltirishi mumkin. Bu jarayon talabalarning mavzuga qiziqishini oshiradi.

Shundan so'ng o'qituvchi bugungi mashg'ulot raqamli muhitda hurmat va bag'rikenglik haqida bo'lishini aytadi.

II. Takrorlash.

O'tilgan mashg'ulot mavzusi bo'yicha blits-so'rov o'tkaziladi.

O‘qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Konflikt nima?
2. Konflikt qanday sabablar tufayli yuzaga keladi?
3. Konfliktlarni tinch yo‘l bilan qanday hal qilish mumkin?

Talabalar savollarga javob beradilar. O‘qituvchi ularning javoblarini to‘ldirib boradi va faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi.

III. Faollashtirish.

O‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi.

Mavzu: “Raqamli tolerantlik”.

Talabalarga Internetdagi muloqotni aks ettiruvchi rasm yoki qisqa video ko‘rsatiladi.

Masalan:

- ijtimoiy tarmoqlarda bahs;
- Internetdagi salbiy izohlar;
- onlayn muloqotdagi hurmat.

Shundan so‘ng o‘qituvchi quyidagi savollarni beradi:

- Internetda odamlar nima sababdan bir-birini xafa qilishi mumkin?
- Internetda hurmat bilan muloqot qilish nega muhim?
- Siz internetda qanday qoidalarga amal qilasiz?

Talabalar o‘z fikrlarini bildiradilar.

IV. Mavzuni tushuntirish.



Raqamli tolerantlik – Internet va raqamli muhitda boshqa insonlarning fikri, qarashi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishdir.

Raqamli muloqot madaniyati.

Internetda muloqot qilishda quyidagi qoidalarga amal qilish muhim:

- hurmat bilan yozish;
- boshqalarning fikrini tinglash;
- haqorat va kamsitishdan saqlanish;
- yolg‘on axborot tarqatmaslik.

Raqamli muhitdagi muammolar.

O‘qituvchi quyidagi muammolar haqida tushuntiradi:

- kiberbulling;
- haqoratli izohlar;
- noto‘g‘ri axborot.

O‘qituvchi talabalarga raqamli muhitda mas’uliyatli bo‘lish muhimligini tushuntiradi.

Talabalar muhim tushunchalarni daftarlariga yozib oladilar.

V. Mavzuni mustahkamlash.

Talabalar 3 ta guruhga bo‘linadi.

1-guruh topshirig‘i: Internetda hurmatli muloqot qanday bo‘lishi kerak?

*2-guruh topshirig‘i: I*nternetdagi salbiy xatti-harakatlar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

3-guruh topshirig‘i: Raqamli muhitda bag‘rikenglikni qanday rivojlantirish mumkin?

Guruhlar berilgan savollar bo‘yicha fikr almashadilar va o‘z xulosalarini taqdim etadilar.

Vaziyatli topshiriq.

O‘qituvchi talabalarga quyidagi vaziyatni taqdim etadi: “Bir talaba ijtimoiy tarmoqda boshqa talabani masxara qiluvchi izoh yozdi”.



Savol: Bu vaziyatda qanday yo'l tutish kerak?

Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar va muammoning yechimini taklif qiladilar.

VI. Baholash.

Talabalarning faolligi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Mezoni	Tavsif
Faollik	Savollarga javob berish
Guruh ishi	Jamoaviy hamkorlik
Mustaqil fikr	O'z fikrini asoslab berish

VII. Mavzuni xulosalash.

Mashg'ulot yakunida o'qituvchi quyidagi xulosani aytadi: "Raqamli muhitda ham insonlar bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Raqamli tolerantlik internetdagi madaniyatli va xavfsiz muloqotning muhim shartidir". Talabalar o'z fikrlarini bildiradilar.

VIII. Uy vazifasi.

1. "Internetda muloqot madaniyati" mavzusida 8–10 ta gap yozish.
2. Raqamli muhitda hurmatli muloqot qoidalari haqida ma'lumot topish.

IX. Refleksiya.

Mashg‘ulot yakunida talabalarga refleksiya kartochkalari tarqatiladi.

Talabalar quyidagi gaplarni davom ettiradilar:

1. Bugungi mashg‘ulotda men … ni o‘rgandim.
2. Men uchun eng qiziqarli qism … bo‘ldi.
3. Internetda endi men … ga amal qilaman.

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatda bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot va fuqarolik ta’limini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda raqamli ta’lim platformalari tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish va ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishning muhim pedagogik vositasiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, tolerance.uz raqamli platformasi jamiyatda tolerantlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks axborot-ta’limiy muhit sifatida ishlab chiqilgan.

XULOSA

1. Multimadaniyatli ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion jarayonlarga yangicha yondashuvni aks ettiruvchi pedagogik hodisa sifatida shaxslararo munosabatlar yorqin namoyon bo'ladigan, o'zaro birgalikdagi harakatlar uyg'unlashadigan makon vazifasini bajaradi. Bunday ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini izchil funksional bosqichlar orqali rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lib xizmat qiladi.

2. Tolerantlik psixologik-pedagogik muammo sifatida bahsli va munozarali hisoblanadi. Bu esa, bir tomondan, tobora globallashuv chuqurlashib borayotgan davr chaqiriqlari bilan ahamiyatli bo'lsa, ikkinchidan, mazkur tushunchani tadqiq etishga yagona yondashuvning mavjud emasligi va konseptual asoslarning xilma-xilligi bilan bog'liqdir. Bizning fikrimizcha, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy-qadriyatlar tizimiga tolerantlikni interiorizatsiyalash va uning kasbiy faoliyatini tashkil etishning ustuvor tamoyiliga aylantirish juda muhimdir.

3. Tolerantlik kompetensiyalari ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish, o'zga kishilarni tushunish, qabul qilish va konstruktiv hamkorlik qilish, barqarorlik va ongli xatti-harakatlarni amalga oshirish, kelishuvga erishish kabi integrativ sifat va qobiliyatlar tizimidir. Tolerantlik kompetensiyalari turli-tuman fazilatlarni o'z ichiga olib, bo'lajak o'qituvchi faoliyatining xilma-xil sohalariga nisbatan namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida tolerantlikning turlari bilan ham bog'liqdir. Shuningdek, tolerantlik insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini shaxslararo, guruhlararo, madaniyatlararo va sivilizatsiyalararo darajada aks ettirish bilan ham tavsiflanadi.

4. Tolerantlik muammosiga doir ilmiy-pedagogik manbalar tahlili bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda aniq konstruktga asoslanish lozimligini ko‘rsatadi. Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish konstrukti o‘zida nazariy va amaliy ish yo‘nalishlari, shaxsiy-insonparvarlik, kompetensiyaviy, faoliyatli, muhitli, fasilitatsion, multimodal yondashuvlarni hamda struktur nuqtai nazardan kognitiv, xulq-atvorga doir hissiy-irodaviy, refleksiv kabi komponentlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

5. Raqamli ta’lim platformalari zamonaviy o‘qitish jarayonining nafaqat texnik, balki didaktik produktogenligini ta’minlashning ham samarali vositasidir. Ushbu platformalar o‘quv jarayonini tashkil etish, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, fikr almashish va refleksiya yuritish imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, tolerantlik kompetensiyasi kabi tayanch ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda raqamli platformalar katta pedagogik imkoniyatga egadir.

6. Raqamli ta’lim muhiti vositalar majmuyi bo‘lib qolmasdan, balki tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni pedagogik vazifasiga ko‘ra tasniflash tolerantlik kompetensiyalarini maqsadli rivojlantirish imkonini beradi va raqamli ta’limning ijtimoiy-madaniy salohiyatini ochib beradi.

7. Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon professor-o‘qituvchi va talabalarning hayotiy muhim sifatlarini tarkib toptirishga qaratilgan tizimli faoliyatini o‘z ichiga oladi. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda ana shu metodologik asosga tayanish lozim.

8. Bo‘lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari maqbul ta’limiy muhitni yaratishga imkon beradigan quyidagi chora-tadbirlar majmuyini o‘zida ifoda etadi: transditsiplinar yondashuv asosida tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning sa’y-harakatlarini kuchaytirish; shaxsga yo‘naltirilgan, ref-

leksiv, dialogik o'zaro birgalikdagi faoliyatni qo'llab-quvvatlaydigan o'qitishning interfaol va raqamli texnologiyalarini samarali qo'llash; bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonlarini fasilitatsiyalash va boshqalar.

9. Bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda elektiv kurslar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Elektiv kurs bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda talabalarning emotsional sohasiga pedagogik ta'sir ko'rsatish yo'llarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa, real muammoli vaziyatlarni hal etishga doir keys-stadi texnologiyasi va autentik materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

10. "Kelajak soatlari"ni o'tkazishga yo'naltirilgan aniq pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida mavjud emasligini hisobga olib, ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga kompleks ta'sir ko'rsatishni ko'zda tutadi. Mazkur pedagogik texnologiyadan nafaqat "Kelajak soatlari"ni o'tkazish, balki ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida ham samarali foydalanish mumkin.

11. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatda bag'rikenglik, madaniyatlararo muloqot va fuqarolik ta'limini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda tolerantlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks axborot-ta'limiy muhit sifatida ishlab chiqilgan tolerance.uz raqamli platformasi millatlararo, madaniyatlararo va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, tolerant tafakkurni rivojlantirish hamda ijtimoiy faollikni oshirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **ilmiy-metodik tavsiya**lar ishlab chiqildi:

1) pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlariga global mas'uliyat va barqaror rivojlanish bilan bog'liq mavzularni integratsiyalash orqali fuqarolik ta'limi mazmunini takomillashtirish;

2) o‘quv modullari mazmuniga etnik, diniy, gender va madaniy turfaxillik bilan bog‘liq materiallarni kiritish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda multimadaniy kompetentlikni rivojlantirish;
3) pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida hurfikrlilik va o‘zaro hurmatga asoslangan barqaror psixologik-pedagogik va xavfsiz raqamli ta’lim muhitini takomillashtirish;
4) ijtimoiy-gumanitar va psixologik-pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning empatik qobiliyatini rivojlantirishga doir treninglar, rolli o‘yinlarga asoslangan va refleksiya mashqlari, raqamli kollaborativ kelishuv, multimodal empatik ifoda, raqamli refleksiv qayta baholash metodlaridan muntazam foydalanib borish;
5) auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyat, formal va noformal ta’limni qamrab olgan tolerantlikni rivojlantirishning integratsiyalashgan modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
6) tolerantlikni tarbiyalash dasturlari samaradorligini baholaydigan, faqat deklarativ ustanovkalarni emas, balki real xulq-atvorni ham o‘lchaydigan amaliy instrumentlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.
3. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 99-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonl "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi. – T., 2017-yil. 23-may. 101-(6795)-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli

islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018-y., 07/18/3775/1313-son; 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019-y., 07/19/4307/3079-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020-y., 07/20/4623/0220-son.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/5032290 (murojaat qilingan sana: 22.03.2022).
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 27-mart, N° 62 (7842).

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-y.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022-2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/1342/0407-son.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/6797437 (murojaat qilingan sana: 22.03.2023).
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-aprelda-gi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2025 y., 06/25/73/0389-son.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2017-yil 20-sentabrdagi 189 (6883)-son.
19. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
20. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 213 b.
21. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 592 b.
22. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajagimizning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 64 b.

23. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: O‘zbekiston, 1998. – 36 b.
24. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. – 176 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

25. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
26. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik / N.Jo‘rayev; tarjimon A.Mahkam. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 732 b.
27. Aguado-Odina, T., Mata-benito, P., and Gil-Jaurena, I. (2017) Mobilizing intercultural education for equity and social justice. Time to react against the intolerable: A proposal from Spain. Intercultural Education. Vol 28, page 408- 423.
28. Al Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil. Hadis: Al-jome’ as-Saxih (Ishonarli to‘plam). 4 jildlik. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991, 1992, 1994, 1996.
29. Андреева Г.М. Социальная психология сегодня: поиски и размышления. – М ... – М.: Аспект Пресс, 1999. – 429 с.
30. Апресян Р.Г. Что такое «толерантность»: уточнение понятия // URL: http:// www.memo.ru/about/bull/b23/24.htm.
31. Асмолов А.Г. Толерантность в общественном сознании России. М.: ИЭАРАЮ, 1998. – 156 с.
32. Awang, M. M., Kutty, F. M., and Ahmad, A. R. (2014) Perceived social support and wellbeing: First-year student experience in university. International Education Studies. Vol 7, page 261-270.
33. Ashford N. Toleration // Ashford N. Principles for a Free Society. Second edition. Bromma: Blomberg and Janson, 2001.
34. Banks, J. A. (2013) The construction and historical development of multicultural education, 1962–2012. Theory into Practice. Vol 52, page 73-82.

35. Bennett M.J. 1998. «Intercultural communication: a current perspective». Basic Concepts of Communication. Selected Readings. Ed. M.J.Bennett. Yarmouth, Maine, USA: Press, Inc. 1-34.
36. Berggren, N., and Nilsson, T. (2016). Tolerance in the United States: Does economic freedom transform racial, religious, political and sexual attitudes? European Journal of Political Economy. Vol 45, page 53-70.
37. Братченко С.Л. Межличностный диалог и его основные атрибуты // Психология с человеческим лицом. – М., 1997. – С. 201-222.
38. Братченко С.Л. Экзистенциальная психология глубинного общения / С.Л. Братченко. – М.: Смысл, 2001. – 213 с.
39. Валеев А.С., Гришин А.В. Профессиональное развитие личности будущего учителя технологии в процессе профессиональной подготовки в вузе // Ж. Вестник ЧГПУ. Педагогика и психология. – 2009. – N°6. – С.33.
40. Валитова Р.Р. Толерантность как этическая проблема: дис. кандидат философских наук. – Москва, 1997. – 159 с.
41. Вачков И.В. Такие разные учителя или новая типология педагогов // Школьный психолог, 2000. N° 3. – С. 8-9.
42. Verkuyten, M., and Slooter, L. (2007). Tolerance of Muslim beliefs and practices: Age related differences and context effects. International Journal of Behavioral Development, 31(5), 467–477. https:// journals.sagepub.com/doi/10.1177/0165025407081480.
43. Vogt, W. P. (1997). Tolerance and education: Learning to live with diversity and difference. Published: Thousand Oaks: Sage Publications, 1997.
44. Вульфов В.З. Воспитание толерантности: сущность и средства // Внешкольник. – 2002. – N°6. – С. 12-16.
45. Harold D. Lasswell. The structure and function of communication in society // İletişim kuram ve araştırma dergisi Sayı 24 Kış-Bahar 2007, P.215-228.

46. Горшенина С.Н. Этнокультурные ценности как основа смыслообразования личности // Гуманитарные науки и образование. 2013. № 2 (14). – С.13-17.
47. Gudykunst W.B. Individualistic and Collectivistic Perspectives on Communication. // International Journal of Intercultural Relations. 1994.
48. Гукаленко О.В. Поликультурное образование и профилактика ксенофобии в образовательной среде: Монография. – М.: ФГБНУ «ИИДСВ РАО», 2019. – 257 с.
49. Gulen F.M. 2004. Toward a Global Civilization of Love & Tolerance. Somerset, N.J.: Light, Inc. – 269 p.
50. Декларация принципов толерантности // Век толерантности: Научно-публицистический вестник. – 2001. – Вып. 1. – С. 131-137.
51. Дьяченко В.К. Новая педагогическая технология и ее звенья. Демократическая система обучения по способностям. Монография. – Изд. Красноярс. Ун - та, 1994. – 182 с.
52. Дубасенюк А.А. Особенности профессионального становления учителя в контексте компетентностного подхода // Ж. Вектор науки ТГУ. Серия Педагогика, психология, 2010. – № 2. – С.40.
53. Jewitt C., Kress G. Multimodal literacy. In: Lankshear C., Knobel M., editors. Digital Literacies: Concepts, Policies and Practices. Peter Lang; New York, NY: 2008. p. 241–257.
54. Joseph C.L. 2017. Radical Humanism and Generous Tolerance. Lanham, MD: Hamilton Books. 112 p.
55. Зайцева М.И. Проект «Подросток и толерантность» / М. И. Зайцева // Справочник классного руководителя. – ЗАО «МЦФЭР», 2007. – № 1. – С.79-85.
56. Zinn B. Didaktik im digitalen Wandel // Beiträge zur Lehrerbildung. – 2016. – p.204.
57. Thyssen C. Digitale Didaktik: Grundlagen, Praxisbeispiele und Perspektiven. – Weinheim: Beltz Verlag, 2020. – 240 p.

58. Кабылбекова З. К изучению современных педагогических условий для развития толерантных качеств личности учащегося. // Ж. Фалсафа ва ҳуқуқ. – Т., 2010. - №1. – С. 107-108.
59. Carson D. A. 2012. The Intolerance of Tolerance. Cambridge: William B. Eerdmans Publishing Company. – 196 p.
60. Catarci, M. (2015). Interculturalism in Education across Europe. In M. Catarci, & M. Fiorucci (Eds.), Intercultural Education in the European Context: Theories, Experiences, Challenges (pp. 1-34). Farnham, Surrey & Burlington, VT: Ashgate.
61. Kim, J., and So, K. (2018). Understanding the "Other": Rethinking Multiculturalism in South Korea through Gadamer's Philosophical Hermeneutics. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 102-117.
62. Kim Y.Y. Intercultural Communication Competence: A Systems-Theoretic View // Cross-Cultural Interpersonal Communication, vol. 15. C A: Sage, 1991.
63. Кирпичник А.Г. О психологии и педагогике социального воспитания А.Н.Лутошкина // Вестник КГУ им. Н.А.Некрасова. – 2010. – Т.16. – С.5-10.
64. Korbet M. Political Tolerance in America: Freedom and Equality in Public Attitudes. – 2014. – vol.58. – No.4. – pp.129-156.
65. Koehler M. J., Mishra, P. What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. – 2009. – Vol. 9(1). – P. 60–70.
66. Lawyer, G. (2018). The Dangers of Separating Social Justice from Multicultural Education: Applications in Higher Education. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 86-101.
67. Левитан К. М. Компетентностный подход в контексте модернизации высшего профессионального образования // Актуальные проблемы профессионального развития педагогов в системе современного образования: теория и практика. Материалы Всероссийской научно-практической

конференции. 1 марта 2005 года. Ч. 1. Тюмень: ТОГИРРО, 2005. – С. 31–33.
68. Lutzker D. Internationalism as a Predictor of Cooperative Behavior // Journal of Conflict Resolution, 2000. – № 4. – P. 426–430.
69. Лекторский В.А. О толерантности, плюрализме и критицизме // Вопросы философии. – 1997. – № 11. – С.46-54.
70. Lomonaco F. 2013. Tolerance: Stages in Modernity from Holland to Italy. N.Y.: Peter Lang. 250 p.
71. Mayer R. E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 154 p.
72. Mayrberger K. Digitalisierung in der Hochschullehre // Handbuch Hochschullehre Digital. – Springer VS, 2018. – P.164.
73. Maneli M. 2024. Freedom and Tolerance. – N.Y.: Octagon Books. – 571 p.
74. Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 308 с.
75. Махмудов М. Дидактический проектировании – гарантия эффективности в современном образовании//Образование и инновационные исследования №1, 2020// с.15.
76. Медушевский Н.А., Гордеева М.А. Социальная толерантность в экстрасоциальном контексте // Вестник РГГУ. – №1. – 2014. – С.129-140.
77. Медушевский, Н. А. Основы толерантности и правовой культуры / Н. А. Медушевский. – 3-е изд. – Москва: ЛЕНАНД, 2018. – 408 с.
78. Мириманова М. С. Толерантность как проблема воспитания // Развитие личности. – 2002. – №2. – С.104-115.
79. Митина Л.М. Профессиональное здоровье учителя: стратегия и технология // Школа здоровья. – 1996. – №4. – С.55-57.
80. Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Фан, 2005. – 233 б.
81. Nakaya, A. (2018). Overcoming Ethnic Conflict through Multicultural Education: The Case of West Kalimantan, Indonesia. Inter-

national Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue 1, page 118-137.

82. Ніколаєнко О.В., Ушата Т.О. Феномен міжкультурної комунікативної компетентності викладача вищої школи як ознака професійно-педагогічної якості // Наукові записки Національного університету «Острозька академія». Серія «Філологічна». Випуск 61. – С.195-197.
83. Никитина Е.Ю. Педагогическое управление коммуникативным образованием студентов вузов: перспективные подходы: моногр. / Е.Ю. Никитина, О.Ю. Афанасьева. – М.: МАНПО, 2006 – 154 с.
84. Norton R. Foundations of a Communicator Style Contrast // Human Communication Research. – 1998. – № 4. – P. 99-112.
85. Олпорт Г. Становление личности: избранные труды / Г. Олпорт; [пер. с англ. Л.В. Трубицыной, Д.А. Леонтьева]; под общ. ред. Д.А. Леонтьева. – М.: Смысл, 2002. – 159 с.
86. Павленко В.Н. Развитие толерантности: теоретический и эмпирический аспекты // Этнопсихологические и социокультурные процессы в современном обществе: материалы междун. научн. конф. – Балашов: «Николаев», 2013. – с. 404.
87. Papert S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 2019. – 230 p.
88. Paul-Binyamin, I., and Reingold, R. (2014). Multiculturalism in teacher education institutes–The relationship between formulated official policies and grassroots initiatives. Teaching and Teacher Education. Vol 42, page 47-57.
89. Почебут Л.Г., Безносов Д.С. Ассертивность и толерантность в межкультурном взаимодействии // Социальная психология и общество. – 2017. – Т. 8. – № 3. – С.8 -19.
90. Rapp, C., and Freitag, M. (2015). Teaching tolerance? Associational diversity and tolerance formation. Political Studies, 63(5), 1031–1051. https:// doi.org/10.1111/1467-9248.12142.

91. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – М., 2002. – 280 с.
92. Репринцев А.В. Профессиональное развитие личности будущего учителя в воспитательной системе современного вуза: тревоги и надежды // Ж. Вестник Мордовского университета, 2009. – N°2. – С.225.
93. Roger-François Gauthier. 2014. Ce que l'école devrait enseigner: Pour une révolution de la politique scolaire en France.
94. Рубцов В.В. Социальное взаимодействие и обучение // Психологическая наука и образование. – 1996. – N°2. – С.9-20.
95. Рўзиев А. Референт гуруҳ ва илк ўспиринлардаги толерантлик масаласига ижтимоий-психологик ёндашув. // Ж. Халқ таълими. – 2010, N°6. – Б. 97-98.
96. Saripudin, D., and Komalasari, D. (2015). Living values education in school's habituation program and its effect on student's character development. The New Educational Review. Vol.39, issue 1, page 51-62.
97. Sedmak C. 2015. Toleranz: vom Wert der Vielfalt. Darmstadt: WBG, Wissenschaftliche Buchgesellschaft. – 268 p.
98. Ситарам К., Когделл Р. Основы межкультурной коммуникации // Человек. – 1992. – N° 5. – С.106.
99. Smith, C. (2014). Culturally relevant pedagogy in multicultural teacher education: A paradoxical objective (Unpublished doctoral dissertation). Minneapolis: University of Minnesota.
100. Солдатова Г.У., Асмолов А.Г., Шайгерова Л.А. О смыслах понятия «толерантность» // Век толерантности. – 2001. – N° 1. – С.8-19.
101. Сорокин П. А. Моя философия – интегрализм // Социологические исследования. – 1992. – N° 10. – С.134-139.
102. Сорокин А.Б. Проблемно-диалоговая форма «вопрос ответ» / А.Б. Сорокин, Н.Г. Алексеев // Педагогика. – 2001. – N°2. – С.37-43.
103. Толерантность и согласие / Под ред. В.А.Тишкова. – М., 1997. – 301 с.

104. Толипов Ў., Усмонбекова М. Педагогик технологиянинг тадбиқий асослари. –Т.: Фан, 2006. – 264 б.
105. Treviño, E., Béjares, C., Wyman, I., and Villalobos, C. (2018). Influence of teacher, student and school characteristics on students' attitudes toward diversity. In A. Sandoval-Hernandez, M. M. Isac, and D. Miranda (eds.). Teaching Tolerance in a Globalised World (pp. 33–66). Springer.
106. Фадеева Т.Ю. Формирование толерантности у будущих педагогов-психологов в образовательном процессе вуза // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия «Педагогика и психология». – 2011. – N° 2 (5). – С.194-198.
107. Fiala A. 2017. Secular Cosmopolitanism, Hospitality, and Religious Pluralism. N.Y.: Routledge. 210 p., (2013) Creating Community Cohesion: Religion, Media and Multiculturalism. (2012) Hampshire; NY: Palgrave Macmillan. Political Extremism in Democracies: Combating Intolerance. N. Y.: Palgrave Macmillian.
108. Fish (2014). Tolerance, Acceptance, Understanding …, and how they differ in everyday life and in research. Psychology Today. https:// www.psychologytoday.com/us/blog/looking-in-the-cultural-mirror.
109. Харитонова Ф. П. Проект содержания процесса формирования этнопедагогической компетентности педагога в поликультурном образовательном пространстве // Вестник ЧГПУ. – 2013. – N° 3. – С. 191–201.
110. Цораев З.У., Бязрова Дж.Б. Толерантность как системообразующая ценность бытия современного поликультурного общества // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. – 2014. – N° 2. – С.176-181.
111. Чистилина И.А. Толерантность: проблемы концептуализации. // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории

и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. – № 3 (29): в 2-х ч. – Ч. I. – С. 192-195.
112. Ellis A. 2004. Road to Tolerance: the Philosophy of Rational Emotive Behavior Therapy. Amherst, N.Y.: Prometheus Books. 271 p.
113. Yusupova M., Shorahmetov Sh. Loyiha texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishining ijobiy tomonlari// Academic Research in educational sciences// volume 2 | issue 3 | 2021.
114. Yanagizawa-Drott, D. (2014). Propaganda and conflict: Evidence from the Rwandangenocide. Quarterly Journal of Economics. Vol 129, issue 4, page 1947–1994.
115. Shannon-Baker, P. A (2018). Multicultural Education Praxis: Integrating Past and Present, Living Theories, and Practice. International Journal of Multicultural Education. Vol 20, issue, page 48-66.
116. Ўзбекистонда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш борасида раҳбар кадрлар олдида турган вазифалар: мавжуд ҳолат, муаммолар ва ечимлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари // Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси. Тошкент, 2019. – 234 б.
117. Ҳасанов С. Хоразм маънавияти дарғалари. – Т.: Адолат, 2001. – 233 б.
118. Hjerm, M., Eger, M. A., Bohman, A., and Connolly, F. F. (2020). A new approach to the study of tolerance: Conceptualizing and measuring acceptance, respect, and appreciation of difference. Social Indicators Research, 147, 897–919.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

119. Adler P.S. Beyond Cultural Identity: Reflections on Cultural and Multicultural Man // Intercultural Communication: A Reader. Belmont. CA: Wadsworth, 1997. – P. 12–23.
120. Азизхўжаева Н. Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. –Т.: Низомий номли ТДПУ, 2000. – 52 б.

121. Акрамова Г.Р. Бошланғич синф ўқувчиларида толерантлик тушунчаларини шакллантиришнинг дидактик асослари: пед. фан. ном. ...дисс. Автореф. – Тошкент, 2007. – 21 б.
122. Арипова Г.Ш. Оилада ўсмир ёшдаги болаларда толерантлик тафаккурини шакллантириш. пед.ф.н. ... дисс.автор. – Тошкент, 2011. – 26 б.
123. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: методическое пособие. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. – 72 с.
124. Блинова В.И. Артпедагогика как инновационная область педагогической науки: дисс. …док.пед.наук. – Москва, 2016. – 310 с.
125. Ваҳобов М.М. Умумий ўрта таълим тизимида ўқитиш сифати мониторинги моделини такомиллаштириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 278 б.
126. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учеб. пособие. Ростов н/Д: Феникс, 1997. – 480 с.
127. Клепцова Е. Ю. Психологические условия формирования терпимого отношения педагогов к детям: дисс. ... канд. психол. наук. – Курск, 2001. – 177 с.
128. Колесникова И. А. Педагогическое проектирование: Учеб. пособие для высш. учеб. заведений / И.А.Колесникова, М.П.Горчакова-Сибирская; Под ред. И.А. Колесниковой. – М: Издательский центр «Академия», 2005. – 288 с.
129. Конаржевский Ю.А. Менеджмент и внутришкольное управление. М.: Центр «Педагогический поиск», 2000. – 224 с.
130. Коновалова Л. Н. Бизнес, толерантность и культура мира путь к диалогу в обществе и становлению репутации отечественного предпринимательства [Электронный ресурс]. URL: http://peace.unesco.ru/tolerance/pub/konovalova.htm

131. Краевский В.В. Общие основы педагогики. – М.: Академия, 2003. – 256 с.
132. Краевский В.В. Методология педагогики: новый этап: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.В. Краевский, Е.В. Бережнова. – М.: Академия, 2008. – 400 с.
133. Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация. Монография. – Волгоград. Перемена, 2000. – 97 с.
134. Курганов С.Ю. Ребенок и взрослый в учебном диалоге: книга для учителя. – М.: ЛитРес, 2019. – 250 с.
135. Кушакова Г.Э. Ёшларда толерантлик тафаккурини шакллантириш технологияси (олий таълим муассасалари мисолида): фалсафа доктори (PhD) дисс. ... Автореф. – Самарқанд, 2020. – 50 б.
136. Лернер И. Я. Проблемное обучение. – М.: Знание, 1993. – 409 с.
137. Лихачев Д.С. Письма о добром. – СПб.: «LOGOS», 2007. – 256 с.
138. Мадрахимова Ф.Р. Олий таълим ташкилотлари талабаларида медиасаводхонликни ривожлантириш: педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Чирчиқ, 2022. – 252 б.
139. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Директ-Медиа, 2008. – 392 с.
140. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – 760 б.
141. Медетова Р.М. Формирование толерантности у школьников на основе использования национальных традиций: дисс. ... д-ра пед. наук (DSc). – Т., 2020. – 265 с.
142. Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлилигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2019. – 225 б.

143. Миротворская И.В. Формирование толерантности у учащихся старших классов общеобразовательных школ в процессе правового образования: Дисс. … канд.пед.наук. – Чебоксары, 2004. – 204 с.
144. Моделирование социальных процессов: метод. указания / сост.: К.Б. Герасимов, Д.В. Прохоров. – Самара: Изд-во Самар. гос. аэрокосм. ун-та, 2011. – 32 с.
145. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. … дисс. – Тошкент: 2007. – 357 б.
146. Мусурмонова О. "Таълим менежерининг касбий компетентлиги ва креативлиги" модулининг ўқув-услубий мажмуаси. – Т.: БИММ, 2015. – 288 б.
147. Муҳиддинов М.К. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси ("Хамса"ларнинг биринчи достонлари асосида): Филология фанлари доктори. … дисс. Автореф. – Т., 1995. – 60 б.
148. Некбоев Х.Х. Медиатаълим асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-танқидий ёндашувини такомиллаштириш: пед. фан.бўй. фал.док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 158 б.
149. Николсон П. Толерантность как моральный идеал [Электронный ресурс]. URL: http://rudocs.exdat.com/docs/index-563614.html
150. Плужник И.Л. Формирование межкультурной коммуникативной компетенции студентов в профессиональные подготовки: автореф. дис. … д-ра пед. наук. – Тюмень, 2003. – 46 с.
151. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т.: Университет, 2003. – 503 б.
152. Самохвалова В. И. О содержании понятия «толерантность» в современном культурном контексте [Электронный ресурс]. URL: http://www.intelros.ru/readroom/fg/fg_1/5392-o-soderzhanii-ponyatiya-tolerantnost-v-sovremennom-kulturnom-kontekste.html

153. Сериков В.В. Личностный подход в образовании: Концепция и технологии. Монография. – Волгоград: Школа, 1994. – 152 с.
154. Словарь-справочник по социальной работе. / Под.ред. проф. Е.И.Холостовой. – М.: Юристъ, 1997. – 424 с.
155. Словарь иностранных слов [около 6000 слов] / под ред. И. К. Сазоновой. – М.: АСТ-Пресс Книга, 2001. – 631 с.
156. Солдатова Г.У. Практическая психология толерантности [Электронный ресурс]. URL: http://www.tolz.ru (дата обращения: 18.03.2023).
157. Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А., Шарова О.Д. – Жить в мире с собой и другими; Тренинг толерантности для подростков. 2-е изд., стер. – М.: Генезис, 2001. – 112 с.
158. Соловьев А.И. Основы информационно-коммуникационной деятельности: пособие для студентов Института журналистики БГУ. – Минск: БГУ, 2009. – 191 с.
159. Социальная экология. Метод. рекомендации по проведению семинарских и практических занятий. – Т.: ТГПУ, 2005. – 24 с.
160. Тишков В.А. О природе толерантности и нетерпимости [Электронный ресурс]. URL: http://www.valerytishkov.ru/
161. Толерантность (введение в проблему). // С.Бондырева., Д. Колесов. – М.: МПСИ; Воронеж: МОДЕК, 2011. – 240 с.
162. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Т.: 2004. – 314 б.
163. Третьякова Е.Н. Толерантность как духовно-нравственное качество личности: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Санкт-Петербург, 2011. – 18 с.
164. Фалсафа: энциклопедик луғат. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. – 344 б.

165. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 314 б.
166. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – T.: IQTISOD DUNYOSI, 2018. – 190 б.
167. Хомяков М. Б. Парадигмы религиозной толерантности: время для новых теорий? // Деятельность органов государственной власти и религиозных организаций по формированию толерантного сознания в межконфессиональных отношениях: материалы окруж. науч.-практ. конф. (г. Екатеринбург, 31 марта — 1 апреля 2004 г.). – Екатеринбург, 2004. – С. 22-26.
168. Чешев В. В. Проблема общечеловеческой солидарности в русской культуре [Электронный ресурс]. URL: http://www.situation.ru.
169. Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг фанлараро боғлиқлик методологияси. – Т.: Фан, 2011. – 165 б.
170. Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь: более 2000 единиц. – М.: АСТ, 2008. – 746 с.
171. Эгамбердиева Н. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.
172. Юсупова Г.И. Таълим жараёнида АКТдан фойдаланиш асосида талабаларнинг рақамли компетенцияларини ривожлантириш: пед.фан.фал.док. (PhD) дисс. Автореф. – Тошкент, 2020. – 165 б.
173. Якуббаев М.М. Талабаларда миллатлараро толерантликни ривожлантиришнинг этнопедагогик асосларини такомиллаштириш (нофилолог таълим йўналишлари мисолида): педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори. ...дис. Автореф. – Наманган, 2021. – 50 б.

174. Qodirov A. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021. – 174 b.
175. Ҳошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: “O‘qituvchi”, 2010. – 238 б.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI 3

I БОБ. BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 11

1.1-§. Multimadaniyatli ta'lim muhiti va bo'lajak o'qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning o'zaro aloqadorligi 11

1.2-§. Pedagogik tolerantlikning mohiyati, tuzilmasi va tavsifi ... 29

1.3-§. Tolerantlik muammosi kontent tahlili va pedagogik jihatlari 49

II BOB. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI 71

2.1-§. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 71

2.2-§. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli 96

2.3-§. Bo'lajak pedagoglarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini amaliyotga joriy etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari 132

III BOB. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI 144

3.1-§. Bo'lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini elektiv kurs vositasida rivojlantirish texnologiyasi 144

3.2-§. Onlayn ta’lim va innovatsion texnologiyalar asosida bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi 155
3.3-§. Raqamli platforma orqali bo‘lajak pedagoglarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti 178

XULOSA 200
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 204

KARIMOVA E’ZOZXON GAPIRJANOVNA

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

(Monografiya)

Muharrir *Dono To‘ychiyeva*
Badiiy muharrir va sahifalovchi *Dilmurod Jalilov*
Musahhihlar: *Dono To‘ychiyeva, Iroda Umarova*

Nashriyot litsenziyasi AI N° 290.04.11.2016
Bosishga 2026-yil 8-mayda ruxsat etildi. Bichimi 70x100 $^{1}/_{16}$.
«Geologica» garniturasi. Ofset bosma. 14 shartli bosma taboq.
12,95 nashr tabog‘i. Adadi 100 nusxa. 80-raqamli buyurtma.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69